

2025-yil, yanvar 2-son



Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

ULUG' MA'RIFATPARVAR ALLOMA MAHMUDXO'JA BEHBUDIY TAVALLUDIGA 150 YIL





Dildora KENJAYEVA,
 Maktabgacha ta'lim kafedrası
 mudiri, professor v/b
 dildora.kenjayeva.2020@gmail.com

BUYUK MUTAFAKKIRLARNING PEDAGOGIK G'OYALARINI TA'LIM-TARBIYA JARAYONIGA TATBIQ ETISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya: maqolada buyuk mutafakkirlarning pedagogik g'oyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish, ularni bugungi davr talablariga moslik imkoniyatlari o'rganib tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: buyuk mutafakkirlar, pedagogik, g'oya, ta'lim, tarbiya, jarayon, texnologiya.

Аннотация: в статье изучается и анализируется применение педагогических идей Великих Мыслителей к процессу воспитания и обучения, а также возможность их адаптации к требованиям современной эпохи.

Ключевые слова: великие мыслители, педагогика, идея, образование, обучение, процесс, технология.

Annotation: in the article, the application of the pedagogical ideas of the Great Thinkers to the process of education and training, and the possibility of adapting them to the requirements of today's era are studied and analyzed.

Key words: Great thinkers, pedagogic, idea, education, upbringing, process, technology

Buyuk mutafakkirlarning ilmiy va ma'naviy qarashlari ta'lim va tarbiya sohalarining shakllanishida va rivojlantirishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Ularning merosi nafaqat o'tmishda, balki bugungi kunning zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida eng birinchi dolzarb vazifa bu yosh avlod ta'lim-tarbiyasini rivojlantirish bo'lmog'i lozim deya ta'kidlab o'tdilar.

Mutafakkirlarning ilmiy va ma'naviy merosi ta'lim va tarbiya sohalarida barkamol avlodni tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi. Ular tomonidan ilgari surilgan g'oyalar insoniyat ma'naviyati, axloqiy qadriyatlarini va ilmiy yutuqlariga asos bo'lgan. Masalan:

Abu Nasr Forobiy – ta'lim jarayonini insonning ma'naviy va intellektual kamoloti uchun asosiy vosita deb hisoblagan. U mantiqiy fikrlash va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratgan.

Ibn Sino – tibbiyot va falsafa sohasidagi ishlari orqali tajriba va kuzatish metodlarining ahamiyatini ta'kidlagan. U ta'lim jarayonida ilmiy tadqiqotlarga asoslanishni targ'ib qilgan.

Alisher Navoiy – axloqiy tarbiyaning kuchli vositasi sifatida adabiyot va san'atni ko'rsatgan. Uning asarlari ma'naviyat va insoniylik fazilatlarini shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Badiiy adabiyotning buyuk namoyondalaridan biri Alisher Navoiy asarlarida komil inson mavzusiga alohida to'xtalib o'tilgan. Navoiyning butun ijodi komil inson targ'ibiga qaratilgan. Uning deyarli barcha asarlarida darvesh, orif insonlar axloqi haqida fikrlari bor. Uning

hatto mafkuraviy asarlari hisoblangan "Nasoyim ul-muhabbat" va "Lison ut-tayr"da ham darveshlar siyrati, hamda xulq-atvor va javonmardlik xususiyatlari ta'rif-tavsif etiladi.

Shuni unutmash kerakki har qanday taraqqiyot, insonlardagi bilim, intellektual imkoniyatlar va ya yaratuvchanlik faoliyatlari mahsulidir. Shuning uchun ham hozirgi kunda insonlardagi intellektual imkoniyatlarni maksimal ishga solish sohasidagi izlanishlar muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim o'z oldiga qator vazifalarni qo'yimoqdaki, bular o'z navbatida ta'lim jarayonini tubdan yangilashga nisbatan bir qancha vazifalarni yuklaydi. Jumladan:

– yoshlar o'zlarining ijod qobiliyatini qonuniy me'yor orqali boshqara olishi va bu jarayondagi faoliyatini yuqori cho'qqigacha ko'tarish;

– shaxs estetikasi va intellektining yuqori bosqichga yetishdagi obyektiv va subyektiv birliklardagi ziddiyatli ta'sir omillari;

– o'z-o'zini o'qitish, o'z-o'zini takomillashtirish va boshqarish.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda Alisher Navoiy asarlaridan foydalanish katta imkoniyatlarga ega.

Alloma mavjud fanlarning barchasini o'rganish inson uchun g'oyatda foydali ekanligini uqtiradi va bu borada amaliy harakatlarni tashkil etadi. Chunonchi, o'zi tashkil etgan "Ixlosiya" madrasasi yonida maktab ochadi, uni o'z vaqfidan mablag' bilan ta'minlaydi. Ta'lim oluvchilardan ilm o'rganishda qattiq intizom talab etadi. Shuningdek, qobiliyatli shaxsni tarbiyalamaslik, uning qobiliyatini rivojlantirmaslik zulm bilan tenglashtiriladi: "Qobiliyatli tarbiya qilmaslik zulmdir, qobiliyatsizga tarbiya hayf. Uni tarbiya qilmaslik bilan nobud qilma, bunga tarbiyangni nobud qilma" [4, 134].

Alloma tarbiyada namuna metodini ma'qullagan. Bu borada o'qituvchi va ota-ona namunasi birinchi o'ringa qo'yilgan bo'lsa-da, tarbiyada jismoniy jazoni qoralagan. Bolaga xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lish, lekin qattiqqo'llikda ham, xushmuomalalikda ham me'yori bo'lishini alohida ta'kidlagan.

Ulug' mutafakkir Alisher Navoiy o'qituvchilarni talabchan va o'z kasbining bilimdoni bo'lishga undagan, tarbiya masalasiga jiddiy e'tibor bergan. Mutafakkirning fikricha, bilim olishda uzluksizlikni ma'qullab, bilim beruvchi ustoz – murabbiylarning o'zlari ham ma'lumotli, o'qitish usullarini chuqur egallagan bo'lishlarini talab etadi. Johil, mutaassib, nodon domlarni qoralab, o'qituvchi mehnatining og'irligini alohida ta'kidlaydi. Madrasa mudarrislarining fozil, dono, kamtar, ma'naviy pok insonlar bo'lishini istaydi va shunday bo'lishi uchun kurashadi.

Mashhur mutafakkir inson aqliy qobiliyatini, ilmiy quvvatini, iste'dodini takomillashtirish uchun o'zida zukolik, fahm tezligi, zehn o'tkirligi, bilimlarni tez egallash, qo'yilgan muammoni tez anglash, ilgari his etgan va tasavvur qilgan barcha narsalarni esda saqlash, xotira kabilarni rivojlantirishi lozimligiga alohida urg'u berib o'tganlar.

Ta'lim-tarbiya samaradorligiga erishish maqsadida maktab va madrasalarda ana shu talablarga rioya etilgan, talabalarda yuqorida ta'kidlab o'tilgan jihatlarni tarbiyalash uchun "Tarbiyai fikriya", "Tarbiyai tafakkuriya", "Tarbiyai ixlosiya" kabi metodlar qo'llanilgan, ular talabalarni fikrlashga o'rgatib, tafakkurlarini rivojlantirib, bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqishlarini oshirgan. Shuningdek, tafakkurni rivojlantirishda samarali bo'lgan ilmiy munozara, sharhli o'rganish, muammolarni hal etish, kuzatish, savol-javob, bilimlarni sinash, ko'rgazmali tajriba kabi uslublar qo'llanilgan.

Har bir o'qituvchi talabalarga umumiy bilimlarni berish bilan bir qatorda, ularni san'at va muammoli masalalarni yechish sirlari bilan ham tanishtirib borganlar.

Demak, Alisher Navoiyning pedagogik qarashlarida shaxs tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan quyidagi sifatlar: aqliy kamolot (bilim, zakovat va uquvga ega bo'lish); axloqiy kamolot; jismoniy yetuklik; go'zallikni his etish va o'z-o'zini tarbiyalash, o'z ustida ishlash

kabilar ko'zda tutilgan.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda quyidagi tavsiyalarni berishni lozim topdik:

Mutafakkirlarning asarlari va g'oyalari zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida quyidagi yo'nalishlarda tatbiq etilishi mumkin.

1. Ta'lim dasturlarini boyitish:

► Forobiy ta'lim falsafasi asosida axloq va mantiq fanlarini o'qitish dasturlarini ishlab chiqish;

► Ibn Sinoning ilmiy metodologiyasini tabiiy fanlar, xususan, biologiya va kimyo fanlarining laboratoriya mashg'ulotlariga joriy etish;

2. Tarbiya jarayonida badiiy asarlardan foydalanish:

► Alisher Navoiyning ijodini tahlil qilish orqali talaba va o'quvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish;

► Mutafakkirlar asarlaridan foydalangan holda axloqiy dilemmalarni muhokama qilish va rol o'yinlar tashkil etish;

3. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash:

► Mutafakkirlarning hayoti va asarlarini virtual ekskursiyalar orqali o'rganish imkonini beruvchi raqamli platformalar yaratish;

► Audio va video darslar yordamida ularning asarlarini o'quvchilarga yaqindan taqdim etish;

4. Seminar va treninglar tashkil qilish:

► Pedagoglar uchun mutafakkirlar g'oyalari bo'yicha maxsus seminar va treninglar o'tkazish.

► Ota-onalar uchun mutafakkirlarning tarbiya haqida gi qarashlarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha maslahatlar berish.

Xulosa qilib aytganda, buyuk mutafakkirlar merosi zamonaviy ta'lim va tarbiya tizimini boyituvchi beqiyos manbadir. Ularning g'oyalari yosh avlodning intellektual salohiyati va ma'naviy barkamolligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, mutafakkirlarning ilmiy va ma'naviy merosini o'rganish, uni amaliyotga joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ulardan ta'lim jarayonida eng zamonaviy metod va usullar bilan uyg'un holda maqsadga muvofiq foydalanish ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat ta'lim sifatini oshirishga, balki jamiyatning ma'naviy yuksalishiga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakat strategiyasi. 7-yanvar 2017-yil.

2. Деркач А.А. Акмеология: личности и профессиональные развитие человека: Методолого – прикладные основы акмеологического исследования. М; 2000.

3. Kenjayeva.D. Barkamol shaxs tarbiyasi asoslari. – T: Fan, 2010. 67-bet.

4. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – T.: Istiqlol, 2003. 224-bet.

5. Kenjayeva D. "Pedagogik akmeologiya". – Toshkent: "Lesson press", Darslik. 2022.

6. Kenjayeva D. "Akmeshaxsni tarbiyalash texnologiyasi". – Qarshi: Monografiya, 2024.

7. www.edu.uz

8. www.ziyonet.uz

Saodat KAMBAROVA,
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
 va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyoti ta'limi
 kafedrasi dotsenti, ped. fan. dok. (DSc)*

ADABIYOT DARSLARIDA VIZUAL TA'LIMNING GNOSEOLOGIK VA EMPIRIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ta'limda multimediali o'rgatuvchi tizimlar, audio va video mahsulotlar, virtual laboratoriyalar, elektron kutubxonalar hamda virtual reallik muhitidagi o'qitish vositalari o'quvchilarning o'quv predmetlari mazmunini o'zlashtirish, tasavvurlarini kengaytirish, o'rganilayotgan materialni fanlararo integratsiya asosida tadqiq qilishga yordam beradi. Adabiy ta'limda foydalanish uchun bugun dolzarb sanalayotgan virtual borliq imkoniyatlari axborot texnologiyalari sohasidagi eng so'nggi yutuqlarni o'z ichiga qamrab olishi, unda rivojlangan davlatlarning virtual laboratoriya mashg'ulotlariga doir tajribalaridan unumli foydalanish, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini nazarda tutgan holda ish ko'rish maqsadga muvofiq. Mazkur maqolada adabiyot darslarida vizual ta'limning gnoseologik va empirik xususiyatlaridan foydalanish masalasi yoritiladi.

Kalit so'zlar: *virtual ta'lim texnologiyalari, virtual borliq, virtual muhit, simulyator, interfeys, immersivlik, interfaollik, hissiy-obrazli anglash metodi.*

Аннотация: в образовании мультимедийные обучающие системы, аудио и видеопродукция, виртуальные лаборатории, электронные библиотеки и средства обучения в средах виртуальной реальности способствуют усвоению учащимися содержания учебных предметов, расширению их воображения, исследованию изучаемого материала на основе междисциплинарной интеграции. Возможности виртуального бытия, актуальные сегодня для использования в литературном образовании, должны включать в себя новейшие достижения в области информационных технологий, в которых желательно использовать опыт развитых стран в области виртуальных лабораторных занятий, проводить работу с учетом возрастных и психологических особенностей учащихся. В данной статье рассматривается вопрос об использовании гносеологических и эмпирических характеристик наглядного обучения на уроках литературы.

Ключевые слова: *технологии виртуального обучения, виртуальное существо, виртуальная среда, симулятор, интерфейс, immersивность, интерактивность, метод эмоционально-образного восприятия.*

Annotation: in education, multimedia educational systems, audio and video products, virtual laboratories, electronic libraries, and teaching tools in the virtual reality environment help students master the content of educational subjects, expand their imagination, and research the studied material on the basis of interdisciplinary integration, helps to do. The possibilities of virtual existence, which are considered relevant today for use in literary education, include the latest achievements in the field of information technologies, in which the experiences of developed countries on virtual laboratory training are effectively used, taking into account the age and psychological characteristics of students. It is desirable to work.

Key words: *virtual educational technologies, virtual existence, virtual environment, simulator, interface, immersiveness, interactivity, method of emotional-image comprehension.*

Jamiyat hayotining axborotlashuvi adabiyot o'qitish kechimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi, albatta. Bu jihat "Milliy o'quv dasturi"ning mazmunan boyib, janr va mavzu jihatidan rang-barang bo'lishiga, ayniqsa, sarguzasht, detektiv, ilmiy-fantastik asarlarning tanlanishi yoki darsliklarda adabiy-nazariy tushunchalarni o'quvchi qo'llay oladigan yo'sinda taqdim etilishi, didaktik materiallarning hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishi maqsadi bilan berilishida yaqqol namoyon bo'ldi [3]. Shu nuqtayi nazardan olinganda adabiy bitiklarni o'rganish masalasiga ularning tabiatidan kelib chiqib yondashish maqsadga muvofiq. Masalan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfda o'rganilishi rejalashtirilgan "Fantastika va sarguzashtlar olami" faslidagi H.Shayxovning "Birinchi sinov", R.Bredberining "Bir kunlik yoz", J.Vernning "O'n besh

yoshli kapitan", A.K.Doylning "Mallalar uyushmasi" kabi asarlar [2: 96–168] sujeti virtual texnologiyalar asosida o'rganishga qo'l keladi. Buni globallashuv jarayonlari, zamon bilan hamnafas yoshlarning qiziqish va intilishlari ham taqozo etmoqda.

Adabiy ta'lim jarayonida virtual muhit yaratish uchun loyiha amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Loyiha doirasida virtual muhit: maxsus xona, virtual muhitga kirishga mo'ljallangan vositalar zarur bo'ladi. Asarning pedagogik dasturiy vositalar yordamida tayyorlangan virtual varianti ichiga "kirish" orqali sujetdagi ketma-ketlikni, qahramonlar o'zaro munosabatlarini kuzatish, ular bilan birga harakatlanish yoki ta'sir ko'rsatish mumkin bo'ladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari 6-sinfida H.Shayxovning ilmiy-fantastikaga mansub "Birinchi sinov" asari

[2: 98–105] yuzasidan virtual tajribalar boshqa fanlar, xususan, sujeti koinotda sodir bo'lishi nuqtayi nazaridan fizika va astronomiya fanlari bilan aloqadorlikda tashkil etishni taqozo etadi. O'quvchilarning samoviy jismlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish uchun You Tube kanalidagi virtual planetariylarga sayohatlar uyushtirish mumkin. Bunda quyidagilar nazarda tutiladi:

1) asarni virtual muhitda gavdalanitirish uchun sujetni ixchamlashtirib ssenariy tuzish, vaqtini va hajmini e'tiborga olish;

2) hikoyachi va qahramonlar nutqini ifodalashning optimal yo'llarini belgilash, ovozning o'quvchi sezgilariga ta'sirini ko'zda tutish;

3) voqea joyi, detallar va zamoni ifodalash texnikasini aniqlashtirish;

4) virtual muhitning o'quvchilar psixologiyasiga ta'sirini bashoratlash va unga doir chora-tadbirlarni rejalashtirish;

5) virtual mahsulotning adabiy ta'lim maqsadiga qay darajada muvofiq kelishini bashoratlash;

6) o'quvchilar tomonidan bajariladigan harakatlarni loyihalashtirish;

7) o'quvchilarning asar sujetiga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini belgilash va buning uchun maxsus kadrlarni kiritish;

8) o'quvchilarni virtual texnologiyalar bilan ishlashga jalb etish, g'oyalarini taklif etishga yo'naltirish va h.k.

Yuqorida qayd etilganlar, albatta, jiddiy, ancha vaqt, mehnat va mablag' talab etganligi bois yaratuvchi g'oya muallifi (o'qituvchi) oldindan jarayonni loyihalashtirishi maqsadga muvofiq. Bunda dasturchi, zarur hollarda loyihani moliyalashtiradigan tomonlar bilan hamkorlik qilishi muhim sanaladi. Albatta, loyihaning samarali yakuni maxsus yo'riqnoma ishlab chiqilishi, g'oyaning ishonchligi, aniq maqsadga qaratilgani, mualliflarning kreativligi hamda pedagogik dasturiy vositalar imkoniyatlaridan oqilona foydalanishiga chambarchas bog'liq. Interaktivlikni ta'minlashda virtual borliq tizimiga xos bo'lgan: ko'z bilan ko'riladigan, tovush orqali eshitiladigan amallarni bajarish taqozo etiladi. Buning uchun katta hajmli tovush va videotizimlar, kibernetik nimchalar, inson bosh qismiga mo'ljallangan shlem, ko'zoynak displeylar, hid sezadigan "sichqonchalar", boshqaruvchi qo'lqoplar, simsiz interfeys uyg'unligi taqozo etiladi. Asar sujetining virtual muhitda aks etishi – voqelik, qahramonlar xatti-harakatlarini animatsiyalar shaklida muayyan izchillikda ifodalash orqali amalga oshiriladi. Virtual muhit o'quvchilarning obyektini idrok qilishlari va tushunishlarini yengillashtiradi.

Asar sujeti virtual borliq muhitida quyidagi kadrlar orqali gavdalanitiriladi:

1. Koinotda "Qora kit" burji tomon harakatlanayotgan kosmik kema, ekipaj a'zolari, Quyosh sistemasidagi samoviy jismlar, yuqoridan ko'rinayotgan zangori Yer sayyorasi.

2. Fazoviy kema ichidagi hayot: gumbazsimon Bosh

Pult, ro'zg'or ishlari bilan band ona, akvariumdagi rangli baliqlar, gullarni parvarishlayotgan qizaloq.

3. Ota va qizcha suhbat. Shahnozaning e'tirozi.

4. "Kamalak" ekipaji somon yo'lida duch kelgan ta'sodifiy hodisa.

5. Robotning ishdan chiqishi va qizchaga tahdidi.

6. Shahnozaning sinovdan muvaffaqiyatli o'tishi.

Agar asar voqealari pedagogik ta'lim dasturlari asosida simulyatsiya qilinsa, unda maxsus vositalar (ko'zoynak, shlem, qo'lqop, kostyum) orqali o'quvchi voqealar rivojida harakatlanishi mumkin bo'ladi. Lekin avval asar mazmuni bilan chuqurroq tanishish, qo'llanilgan so'zlar ma'nosini aniqlash, tasvirlarning fizika va astronomiya fanlari qonuniyatlariga qay darajada mosligini o'rganish zarur bo'ladi. Agar o'quvchilarning hikoyadagi kabi lavhalarga kino yoki multfilmlarda ko'plab marotaba duch kelishganiga e'tibor qilinsa, o'zlashtirishga qiyin va zerikarli tuyulmaydi. Buning uchun darslikda qo'yilgan savol-topshiriqlar ustida ishlanadi, bu muhim bosqich sanaladi. 6-sinf o'quvchisi uchun tanish bo'lma-gan fizika faniga oid *dozimetr*, *gravitomer*, *barometr*, *radiatsiya schyotchigi*, *kibernetik asboblar*, *pozitron miyali robot*, *infratovush to'lqinlar* yoki *Somon yo'li* kabi atamalar ma'nosini ochiqlash zarur bo'ladi. Muallif tomonidan o'ylab topilgan "Qora kit" burji, yerliklar qaysidir sayyorada uchratgan mingoyoqqa o'xshagan oliy aql egalari, ularning muloqot tarzi (ko'zlarining pastrog'ini turli rangga kiritish orqali so'zlashishi), okean suviga o'xshash shakldagi yaratilqlar ham tasavvurga asoslanishni taqozo etadi.

O'qituvchi o'quvchilar diqqatini quyidagilarga qaratish orqali nutqini, tasavvurini, ijodiy va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga erishishi mumkin:

– "Qora kit" burji, u yerdagi hayot, o'zga sayyoraliklarni qanday tasavvur qilganliklarini so'zlab berish (uyga vazifa sifatida rasmini chizish yoki tasavvuridagi kosmik kema maketini yasash);

– qahramonlarning Yerga qaytgan vaqtidagi tashqi ko'rinishi, Shahnozaning tengdoshlari bilan fikrlashidagi farq nimalarda aks etishini ifodalash;

– sayyoralararo vaqt nisbati haqidagi farazlarini bayon etish;

– agar hayotda Shahnozadek muammoga duch kelib qolishsa, qanday yo'l tutishiga doir fikrlari bilan tanishish;

– o'zbek oilasining samoviy sayohatidan jamiyatga qanday naf yetishi mumkinligi xususidagi fikrlari bilan o'rtoqlashish;

– asarning o'zlari tomosha qilgan qaysi film (badiiy, hujjatli, multiplikatsion) epizodiga o'xshashligini qiyoslab yoritish, o'xshashliklarini aniqlash;

– yozuvchining asarni yaratishdan qanday maqsadni ko'zlaganini taxmin qilish va shu asosda mulohazalarini bildirish;

– hikoya o'quvchilarda qanday g'oyalar uyg'otganini, ularni amalga qanday tatbiq etish mumkinligi haqidagi fikrlari bilan o'rtoqlashish va h.k.

Dasturlashtirilgan manzaralar oldindan ma'lum vaqtga mo'ljallangan bo'lib, virtual muhitda sujetga ta'sir qilishni nazarda tutgan holda loyihalashtiriladi va o'quvchilarning idrok etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Darslikdagi kreativlikni rivojlantirish maqsadiga qaratilgan loyiha ishida belgilangan vazifalar tasviriy san'at, musiqa va texnologiya fanlari o'rtasidagi aloqadorlikka tayanishni taqozo etadi. Bu esa, asarda tasvirlangan makon va davr ruhini, muallif nuqtayi nazarini ochib berishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Yuqoridagi fikrlardan ma'lum bo'ladiki, bugungi kunda

badiiy matn mohiyatini virtual ta'lim vositalari orqali gavdalandirish nafaqat obrazli tasavvur va tafakkurni, balki ta'lim oluvchilarning o'rganilayotgan muayyan obyektning turli shakl, belgilar orqali fikran tasavvur qilish, obyekt timsolini xayolan yaratish, voqea-hodisalar, narsa-predmetlar o'rtasidagi sabab-oqibatlar mohiyatini idrok qilish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, asarda aks etgan g'oyani muayyan ketma-ketlikda ajratib gavdalandirish orqali yaxlit tasavvur qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Файзиева М., Сайфуров Д. Барча таълим йўналишлари учун “Виртуал таълим технологияси” модули бўйича ўқув-услубий мажмуа. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2016. – 155 б.
2. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. 224-bet.
3. Uzluksiz ta'limning Adabiyot fanidan “Milliy o'quv dasturi”. – Toshkent, 2021. 212-bet.

Tadjixon SABITOVA,
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti tadqiqotchisi

OLIV TA'LIM TIZIMIDA GO'RO'G'LI TURKUMIDAGI DOSTONLARNI O'QITISHNING POETIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada bugungi kunda folklor asarlarini o'qitish va uning ahamiyati. Go'ro'g'li turkumidagi dostonlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati, roli va samaradorlikka ta'siri borasida fikr va mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: *asar, folklor, texnologiya, innovatsiya, shakl, metod, uslub, ta'lim, tarbiya.*

Аннотация: в этой статье рассказывается о преподавании фольклорных произведений и его значении сегодня. Были высказаны мнения и соображения о важности, роли и влиянии использования инновационных технологий на эффективность обучения эпосам из серии горюгли.

Ключевые слова: *произведение, фольклор, технология, инновация, форма, метод, стиль, образование, воспитание.*

Annotation: in this article, the teaching of folklore works and its significance today. Opinions and reflections on the importance, role and impact on efficiency of the use of innovative technologies in the teaching of the gurgular series of epics.

Keywords: *work, folklore, technology, innovation, form, method, style, education, upbringing.*

Kirish. Bugungi kunda respublikamizda ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, raqamlashtirish, zamonaviylashtirish, axborotlashtirish va innovatsion o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. XXI asrni innovatsion o'zgarishlarga boy asr deyish mumkin. Bu, albatta, ta'lim sohasiga ham o'zining ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Uning zamirida esa ta'lim sohasiga zamonaviy innovatsion texnologiyalarning olib kirish zaruriyatini tug'diradi. Ana shularni hisobga olgan holda bugungi kunda ta'lim tizimida o'qitish sifatini oshiradigan, uning dolzarb ehtiyojlarini qondiradigan, yangi imkoniyatlar eshigini ochib beradigan innovatsion texnologiyalarga ya'ni innovatsion ta'lim texnologiyalariga bo'lgan talab ortib bormoqda.

Ta'lim tizimining isloh qilinishi, ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqilishi ushbu sohaga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shartini qo'yadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ham quyidagi fikr va mulohazalari o'rinli deb hisoblaymiz. "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz"¹. Ma'lumki hamma zamonlarda o'qitish tizimi zamon bilan hamnafas tarzda kelgan. Mamlakat taraqqiyoti va uning kelajagi ta'lim tizimi va ta'lim sifati bilan chambarchas bog'liq ekanligini unutmasligimiz lozimdir. Ta'lim tizimiga yangilik, o'zgarish va sifat, samaradorlikning olib kirilishi innovatsiya bo'lib, taraqqiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan ajralib turadi. Bu borada ta'lim tizimiga

olib kirilgan innovatsion yangiliklar va texnologiyalarning joriy etilishi folklor asarlarini o'qitish sohasini ham chetlab o'tmadi. Folklor asarlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalarning joriy qilinishi uning o'ziga xos tarzda rivojlanishi va samaradorlikka erishishiga ta'sir ko'rsatadi. Go'ro'g'li turkumidagi dostonlarni o'qitishda ham ta'lim texnologiyalaridan foydalanish folklorshunos olimlarning ta'lim tizimida yangicha, zamonaviy sharoitlarda ishlay olish ko'nikmasini shakllantirish, sifat va samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirishga erishish maqsadida o'zgacha yondashuvni talab etadi.

Adabiyotlar tahlili. Ta'lim innovatsiyalari deganda pedagogik tizimning maqsadi, mazmun-mohiyati, belgilari, imkoniyatlari, vazifalarini, rivojlanish bosqichlari va ta'limdagi integratsiya tamoyillarining innovatsion usullarini tanlash, qo'llash va ulardan foydalanish, uslubiy tavsiyalar hamda bu borada bo'lajak mutaxassislarda shakllanadigan xislatlarni hosil qilish jarayonini ifodalovchi ta'lim va tarbiya jarayonining sifat jihatlarini takomillashtirib bu sohada yuqori samaradorlikka erishishni tushunish mumkin².

Innovatsiya tushunchasi O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida ko'rsatilishicha innovatsiya quyidagi mazmun va tushunchalarga ega. Innovatsiya inglizcha "innovationas" – kiritilgan yangilik, ixtiro texnika va texnologiya avlodlarini almashtirish uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar, ilmiy-texnik yutuqlar va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalarda yangiliklar, shuningdek,

1 Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: Ўзбекистон, 2017. 24-б.

2 Янгибоев К.Н. Инновацион технологиялардан фойдаланишга асосланган янги ёндашувлар таълим жараёнини ривожлантириш омилдир. Педагогика 2022, 1-сон 117-б.

ularning turli sohalar va faoliyat doirasida qo'llanilishi³.

Ta'lim innovatsiyalari – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgisidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyadir. Ta'lim innovatsiyalarini folklor asarlari, jumladan, Go'ro'g'li turkumidagi dostonlarni o'qitishda ham qo'llanilishi dostonning mazmunini tushunish va tahlil qilishda talabalarda kreativ qobiliyatlarni shakllantirishga turtki bo'ladi.

Muhokama. So'z san'atining dastlabki namunalari insoniyat nutqi paydo bo'lishi bilan yuzaga kela boshladi. "Go'ro'g'li" dostonlari xalq dostonchiligida har biri mustaqil yashagan va ayrim-ayrim nomga ega bo'lgan asarlar silsilasi, muayyan omillar bilan bir-biriga birlashgan kattakon turkum bo'lib, Yaqin va O'rta Sharqda juda keng tarqalgan. Bu turkum o'zbek, tojik, qozoq, qoraqalpoq, tatarlarda Go'ro'g'li; turkmanlarda Go'ro'g'li, Ko'ro'g'li, Karo'g'li; Ozarbayjon, Gruzin, Turk va boshqalarda Ko'ro'g'li nomi bilan shuhrat qozongan.

"Go'ro'g'li" turkumi dostonlari kattakon ikki tarmoqqa bo'linadi. Fanda biri Zakavkaze va Yaqin Sharq versiyalari (ozarbayjon, arman, gruzin, turk va boshqalar) deb yuritilsa, ikkinchisi O'rta Osiyo versiyalari (o'zbek, qozoq, qoraqalpoq, turkman, tojik va boshqalar) deb ataladi. Bu ikki tarmoq o'zaro muayyan umumiylikka ega bo'lsa-da, dostonlarda qamrab olingan voqelik, epik an'ana va bosh qahramonga berilgan baho, ularning hajmi, sostavi, kuylanish va tarqalish xususiyatlari jihatidan bir-biridan pirinsipial ravishda farq qiladi.

Demak, ozarbayjon versiyasida konkret shaxs va davr bilan bog'liq voqealar tengsiz kuch-qudrat va shijoat, oliyjanob insoniy fazilatlar ideali nuqtayi nazaridan kuylanadi. Ammo bunda umumlashtirish va ideallashtirish muayyan davr va tarixiy voqealarni inkor etish darajasida emas, balki u (xalq ideali) konkret biografik detallar va hayotiy lavhalar bilan chambarchas bog'lanib ketgan.

O'rta Osiyo versiyalari, xususan, o'zbek variantlarida esa umumlashtirish va ideallashtirishning juda yuqori darajasini ko'ramiz. Bunda qahramonona o'tmish konkret tarixiy voqealar aspektida emas, balki mislsiz romanik lavhalarda, xalqning beqiyos ideallari ko'lamida tasvirlanadi. Hamma narsa – hayot ham, xalq turmushi ham, tarixiy voqelik ham, mavjud zamon yetishtirgan qahramonlar ham ko'tarinki romanik bo'yoqlarda, bepoyon badiiy ideal tasavvurlarda, cheksiz obrazlar girdobida gavdalanadi. Ana shu bepoyon ideallik va cheksiz romanika bu dostonlarni yanada real, hayotiy, xalqqa yaqin va davrimizga hamohang qilgan.

"Go'ro'g'li" turkumi dostonlari xalq hayoti, turmushi va maishatini, orzu-umidlari va g'oyalarini, axloqiy-estetik va ijtimoiy qarashlarini keng hajmda tasvirlovchi eposdir. "Go'ro'g'li" turkumidagi anchagina dostonlar

qahramonning asrandi farzandlari Hasan, Avaz, nevaralari Nurali, Ravshan va evarasi Jahongirlarning qahramonona sarguzashtlariga bag'ishlangan bo'lib, bular ham o'zaro muayyan turkumlarni tashkil qiladi.

Bu ichki turkumlar asrandi farzandlarining olib kelinishini tasvirlovchi dostonlar (Hasanxon, Avazxon) bilan boshlanadi. Hasan va Avazning o'z taqdiri bor. Ularning har biri turkumda muayyan o'rin tutadi. Hasanxon turkumda faqat bir doston "Dalli"ning bosh qahramoni sifatida ishtirok etadi. Avazxon esa butun bir dostonlar "Balogardon", "Intizor", "Bo'tako'z", "Qunduz bilan Yulduz", "Malikayi ayyor" va boshqa turkumning bosh qahramonidir.

Bir so'z bilan aytganda, "Go'ro'g'li" siklidagi dostonlar o'zbek xalqi orasida keng tarqalgan bo'lib, o'z muxlilariga egadir. O'zbek xalqi Go'ro'g'li va uning yigitlari haqida qator termalar yaratgan.

Natijalar. Raqamli dunyoda hozirgi davlat, jamiyatning har bir a'zosidan umuminsoniy qadriyatlarga amal qilish, ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanish, samarali muloqot qilish, o'z shaxsini takomillashtirish uzluksiz o'rganish kabi kompetentliklarga ega bo'lish talab qilinadi. Bugungi kundagi ta'lim va rivojlanish uzluksiz o'rganishni, umr bo'yi ta'lim olishni taqozo qilmoqda, kundan kunga yangi texnologiyalar va metodikalar rivojlanib bormoqda. Bu esa ta'limning sifati oshishiga hamda o'qituvchining o'z ustida muntazam ishlab, malakasini oshirib borishga majbur etadi. Doimiy o'zini rivojlantira oladigan o'qituvchi zamonaviy ta'lim oldidagi vazifalarni bajara oladi.

Singapur milliy ta'lim instituti xodimi Devid Xun o'qituvchilar qarashlarining o'zgarishi ta'limdagi o'zgarishlar uchun muhim qadam ekanini aniqladi. U muammoni dars berish jarayonida bilim berishdan pedagog va o'quvchilarning birgalikda yaratadigan asariga, darslikdagi yuzaki nazariyabozlikka asoslangan bilimdan ilmiy tajriba o'tkazish orqali o'qitishga, summativ baholashdan yaratuvchilikka asoslangan kuzatuvga o'tish sifatida ta'riflaydi.

O'tmishda ko'rgazmali ta'limga amal qilinardi, kelgusidagi ta'lim ko'proq loyihalash va faoliyatga asoslanishi kerak. Buning negizida o'quvchilarga fanlar chegarasidan tashqarida fikrlashga ko'mak beradigan tajribani shakllantirish yotadi.

O'tmishda ta'limning asosiy vazifasi standartlashtirish va mutanosiblik edi. Kelajakda ta'lim o'quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlariga, o'quv jarayonini ixtisoslashtirishga asoslangan bo'lishi kerak, baholash esa o'quvchi shaxsiyati va iqtidorini rivojlantirishga ko'maklashadigan usullarda olib borilishi lozim. Kelgusidagi ta'lim o'quvchilarni kashfiyotchilik va topqirlikka undashi lozim.

Shu sababli folklor asarlarini o'qitishda ham muammoli ta'lim texnologiyalari shu bilan birgalikda zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanishning

³ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Бош таҳрир ҳайъати аъзолари М.Аминова ва бошқалар. 4-т. – Т.:

"Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат нашриёти, 2002. 169-б.

ahamiyati katta ekanini ta'kidlash kerak bo'ladi. Zamonning rivojlanishi va taraqqiyotning o'sishi natijasida bugungi kunda o'quv materillarini raqamlashtirish ishlari olib borilmoqda. Folklor asarlarini o'qitishda interaktiv raqamli multimedia shakli juda kam uchraydi. Shuning uchun folklor asarlarini o'qitishda interaktiv raqamli texnologiyalardan foydalanish zamon talablariga javob bera oladigan ta'lim berishni ta'minlab beradi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va internet tarmog'i imkoniyatlarining kuchayishi natijasida folklor asarlarini saqlab qolish va uni keyingi avlodga yetkazib berish muammosi paydo bo'lmoqda. Buning uchun ko'plab mamlakatlarda folklor asarlarini o'qitishda komik matn bilan birlashtirilgan tasvirlar va vizualizatsiya orqali g'oyalarni yetkazishda grafik vositalardan foydalanish mumkin. Folklorning rivoji va uning yo'qolib ketmasligi uchun harakat qilish kerak, chunki folklor tarix va milliy odatlar, qishloq va ovullarning nomlari, uning tarixi haqida bizga ma'lumot berib turuvchi soha hisoblanadi. Yuqorida aytib o'tilganidek Go'ro'g'li turkumidagi dos-tonlarni o'qitishda komik grafikli interaktiv metodlardan foydalanish o'rganuvchiga hikoyani o'zi bilan o'zaro aloqada bo'lishga imkoniyat beradi.

Go'ro'g'li turkumidagi asarlarni o'qitishda komiklardan foydalanish haqida gapirishdan oldin komik o'zi nima degan savolga to'xtalib o'tsak. Komik rasm va grafikadan iborat, jummalarni talab qilmaydigan hikoyalar to'plamidir. Bo'sh joylar orada berilib ketiladi, bola uni o'zining fikri bilan to'ldiradi. Bu texnologiya talaba yoshlarda o'qish bilan birgalikda fikrlashni ham o'rgatadi. Belgilar va grafika orqali qiziqarli hayvon va inson tanlovini berish orqali turli xil hissiyotlarga ega bo'lgan belgilar – baxtli, qayg'uli, g'azabli, tashvishli bo'lishi mumkin. Shu orqali hikoya va g'oyalar ochib beriladi. Bo'sh qoldirilgan joylarga o'rganuvchining o'z fikrini bildirib ketishi, o'z g'oyalarini yaratish ularning ijodini ochib berishga imkoniyat beradi.

Folklor asarlarini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish talabalarga mustaqil, malakali tadqiqotchi bo'lishga imkoniyat beradi. Ta'lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarining mazvu mazmunini tushunishni oshirish bilan birgalikda analitik fikrlash, muammolarni hal qilish, axborotni baholash va ijodiy fikrlash kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Amerikalik tadqiqotchi folklorshunos olim Difonzo va Bordia o'zining "Folklor va internet" kitobida "Raqamli folklorning eng qiziqarli elementlaridan biri bu internet shahar afsonalarining yaratilishidir"⁴– deya ta'kidlaydi.

Folklor asarlarini o'qitishda, asosan, vizual o'quv materiallaridan foydalanish va uni yaratish zamonaviy innovatsion texnologiya sifatida o'qitish tizimiga kirishini ta'kidlash mumkin. Qiziqarli materiallardan foydalanish o'quvchilarning diqqatini tezroq jalb qiladi. Folklor orqali o'quvchilarda savodxonlikni oshirish imkoniyatiga

ega bo'ladilar. Folklor asarlarini o'qitishda imkon qadar yaxshi ishlab chiqilgan texnologiyadan foydalanish o'qitishning jozibadorligini yanada oshirish imkoniyatini beradi. Zamonaviy o'qitish texnologiyasidan foydalangan holda o'qitish samaradorligiga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Folklor asarlarini o'qitishda rol o'ynash orqali o'rganish – bu hikoyani qayta tiklash imkoniyatini beradi. Folklor qahramonlarining rollarini ijro etish orqali yangi ssenariylar yaratish hamda motivatsiya va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan tushunchalarni chuqurlashtirish imkoniyatini beradi.

Hamkorlikdagi raqamli hikoyalar texnologiyasi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida talabalar google docs platformasi orqali o'zlarining folklor hikoyalarini yozish va moslashtirish ular orasiga multimedia elementlarini, ya'ni video, audio, rasmlardan foydalanish orqali folklor asarlarining kelib chiqishi va interaktiv xaritalarini yaratishlari mumkin.

STEAM texnologiyasidan foydalangan holda fanlararo loyihalar yaratish texnologiyasida san'at va folklor sintezi yuz beradi. Folklor tasviriy san'at bilan birlashtirilib, talabalar hikoyalardan muhim daqiqalarni tasvirlashlari yoki mavzulardan ilhomlangan san'at asarlarini yaratishlari mumkin. Talabalarga folklor asarlarini o'qitishda rasm, tovush va videoni birlashtirgan interaktiv taqdimotlar yaratishi ham o'ziga xos metod hisoblanadi.

Hikoya animatsiyasi texnologiyasi ham talabalarga folklor ertaklarini takrorlaydigan qisqa animatsion filmlar yaratish, animatsiyalardan foydalanish, an'anaviy hikoyalarni hayotga tatbiq etish uchun raqamli ijodkorlikdan foydalanish imkonini beradi.

Etnografik tadqiqotlar texnologiyasi – talabalarni mahalliy festivallar, marosimlar va hikoyalar to'garaklarida qatnashishga undash. Ushbu etnografik tadqiqotlar texnologiyasi doirasida talabalarga o'qish ta'limi berilishi arafasida hududiy kesimda, ya'ni o'zlarining yashash manzili doirasida folklor marosimlarida ishtirok etish va ularning hissiy ko'nikmalarini qog'ozga qayd qilish topshirig'ining berilishi folklor tarixiy asarlar kabi tirik madaniyat doirasida his qilish imkonini beradi.

Global folklor almashinuvi texnologiyasi. Bu boshqa mintaqalar yoki mamlakatlardagi maktablar bilan hamkorlik qilib, madaniy almashinuv dasturlari orqali o'ziga xalqlarning folklor asarlarini almashish, qiyosiy o'rganish bilan birgalikda o'z madaniyatlari o'zga millat, xalq madaniyatlari bilan baham ko'rish, shu bilan birgalikda, madaniyatlararo o'rganish va tahlil qilishni rag'batlantiradigan joylarda tashkil etilishi mumkin.

Ijodiy yozish va folklorni qayta tasavvur qilish – o'rgangan folklor asarlarini o'quvchilar qayta tasavvur qilish maqsadida o'zlarining ijodiy fikr va mulohazalarini bildirishi. Talabalarga an'anaviy folklor zamonaviy muhitga moslashtirish uchun mashqlar berilishi mumkin.

⁴ Bordia, P. and DiFonzo, N. (2004) 'Problem Solving in Social Interactions on the Internet: Rumor as Social Cognition', Social Psychology Quarterly 67: 33-49

Ushbu pedagogik texnologiya orqali talabalar folklorini zamonaviylashtirishi, ushbu asarning dolzarbligi, evolyutsiyasi haqida tanqidiy va kreativ fikrlarini bildirishiga imkoniyat beradi.

Loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasi (PBL) orqali talabalar o'zlarining podkastlarini yaratishlari kerak bo'ladi. Ya'ni talabalar hikoyalar aytib beradigan, tahlil qilishga munosib va muhokama qiladigan podkast tayyorlashi kerak bo'ladi. Bu loyiha tadqiqotlarning senariylarini yozish, tengdoshlari va kengroq auditoriya bilan bo'ladigan epizodlar yozishni o'z ichiga oladi.

Interaktiv vositalar va ilovalar texnologiyasida talabalar turli dasturlardan foydalangan holda folklor viktorinalarini tashkillashtirishlari kerak bo'ladi. Bu esa o'rganishni yanada qiziqarli qiladi. Talabalar folklor asosida tasvirlangan raqamli kitoblari yoki qisqa hikoyalar yaratib, an'anaviy ertaklarni zamonaviylashtirishlari mumkin.

Aralash ta'lim yondashuvlari texnologiyasi ham mavjud. Bu texnologiya orqali talabalarda folklor asarlarini o'ziga xos tarzda o'rganishlariga yana bir imkon beruvchi metod hisoblanadi. Bunda talabalar o'zlari mustaqil tarzda folklor asarlarini o'rganadilar. So'ngra sinfda interaktiv munozaralar yoki guruh mashg'ulotlarini tashkillashtirishlari mumkin. Bunda o'qituvchi folklor asarlarini elektron tarzda talabalarga yetkazishlari kerak va o'qituvchi tomonidan interaktiv mashqlar ishlab chiqilishi zarur sharti hisoblanadi.

Tematik munozaralar texnologiyasi ham folklor asarlarini o'rganishda talabalarga tanqidiy fikrlash imkoniyatini yaratib beradi. Folklordagi personajlar axloqi yoki dolzarb zamonaviy hikoyalar asosida munozaralar

tashkil qilish tanqidiy fikrlashni rag'batlantiradi.

Folklor to'garaklarini tashkil etish ham talabalarining folklor asarlarini qiziqarli o'rganishiga olib keladi. Og'zaki hikoya qilish an'analarida talabalar har bir kishi folklor hikoyasini baham ko'rishi yoki shu to'garaklarga rahbarlik qilishlari bu folklor muhitini saqlab qolishiga imkoniyat yaratib beradi.

Folklor kechalarini tashkil qilish – bunda talabalarda folklor asarlarini dramatik o'qishla, spektakllar, og'zaki she'r aytishlar orqali folklorga hurmat va qiziqishni uyg'otish shakllanadi.

Virtual sayohatlar texnologiyasi – bunda folklor asarlari saqlanadigan muzeylarga virtual sayohat qilish, folklor asarlari hududlarini internet tarmoqlari orqali geografik va madaniy kontekstda o'rganish, bugungi kundagi mavjud hududlarning ko'rinishlari, bu kabi innovatsion metodlar folklor ta'limini yanada qiziqarli bo'lishiga, dinamik, raqamli va ko'p madaniyatli dunyoda talabalar uchun dolzarbligini va qiziqarligini oshirishi mumkin.

Xulosa. Go'ro'g'li turkumidagi dostonlarni o'qitishda asardagi bosh qahramon va uning hayot yo'lini yoritib berishda mana shunday innovatsion metodlardan foydalangan holda o'rgatish darslarning samaradorligini oshirishi bilan birgalikda talabalarda qiziqishlar uyg'otishi ham mumkin. Go'ro'g'li turkumiga kiruvchi dostonlarning ikki tarmoqqa bo'linishi Kavkazorti mamlakatlar versiyasi hamda O'rta Osiyo mamlakatlari versiyalarini qiyosiy tarzda o'rganish mavzuning yanada qiziqarli bo'lishiga olib keladi. Bu ikki tarmoq o'zaro umumiy o'xshashlikka ega bo'lsada qamrab olgan voqelik, epik an'ana va bosh qahramonlarga berilgan baho tubdan farq qilishi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. –Т.: Ўзбекистон 2017. 24-б.
2. Янгибоев К.Н. Инновацион технологиялардан фойдаланишга асосланган янгича ёндашувлар таълим жараёнини ривожлантириш омилдир. Педагогика 2022, 1-сон 117-б.
3. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Бош таҳрир ҳайъати аъзолари М.Аминова ва бошқалар. 4-т. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат нашриёти, 2002. 169-б.
4. Bordia, P. and DiFonzo, N. (2004) 'Problem Solving in Social Interactions on the Internet: Rumor as Social Cognition', Social Psychology Quarterly 67: 33-49.

Sulaymon XAYDAROV,
UMFT “Pedagogika va psixologiya”
kafedrasi PhD, dotsent
haydarov_sulaymon82@mail.ru

YOSHLARDA VATANPARVARLIK HISSINI TARBIYALASHDA “BOBURNOMA” ASARIGA ISHLANGAN MINIATYURALARNING AHAMIYATI

Annotatsiya: ta’lim muassasalaridagi eng asosiy fanlaridan biri O‘zbekiston tarixi darslaridir. O‘quvchining milliy tarixga munosabati - bu uning o‘z xalqi, milliy davlatchiligi tarixini bilish ehtiyojini ifodalaydigan ko‘nikma va malakalari majmuidir.

Kalit so‘zlar: *darslik, o‘quvchi, o‘qituvchi, ko‘nikma, malaka, bilim, tajriba, metod, uslub, tarbiya, “Boburnoma”, miniatyura.*

Аннотация: одним из основных предметов в общеобразовательных учреждениях является история Узбекистана. Отношение школьника к отечественной истории представляет собой совокупность навыков и умений, выражающих его потребность в познании истории своего народа, национальной государственности.

Ключевые слова: *учебник, ученик, учитель, умение, знание, опыт, метод, стиль, обучение, “Бобурнома”, миниатюра.*

Annotation: one of the main subjects in educational institutions is the history of Uzbekistan. The student’s attitude to national history is a set of skills and abilities that express his need for knowledge of the history of his people, national statehood.

Key words: *textbook, student, teacher, skill, skill, knowledge, experience, method, style, training, “Boburnoma”, miniature.*

Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma’rifat va ta’limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo‘lmaydi, insoniyat fan o‘qi atrofida aylanayotgandek go‘yo. Jahonning yetakchi davlatlarida ta’limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo‘lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog‘liqdir.[1]

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 29-apreldagi farmoni bilan Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va uni joriy yilda amalga oshirish uchun yo‘l xaritasi tasdiqlandi. Mazkur konsepsiya ta’lim tizimini rivojlantirishning o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish yo‘nalishi nafaqat zamonaviy ta’lim metodlari va pedagogik texnologiyalar yordamida ta’lim sifatini oshirishga, balki tarixiy qadriyatlar, an’analarining didaktik imkoniyatlaridan oqilona foydalanishni nazarda tutadi.

Jumladan, Temuriylar va Boburiylar davri madaniyati, kitobat va rangtasvir san’ati, xususan, “Boburnoma” miniatyuralaridan O‘zbekiston tarixini o‘qitishda nazariy asos sifatida foydalanish darsning didaktik imkoniyatlarini oshiradi. Mashhur angliyalik olim, tadqiqotchi va “Boburnoma” asarini ingliz tiliga tarjima qilgan Annet Susanna Beveridj bu asarni Gibbon va Nyuton esdaliklari bilan bir qatarga qo‘yadi.

Masalan, o‘qituvchi Bobur Mirzo hayotini tushuntirar ekan, Boburning “Boburnoma” asaridan foydalansa va mavzuga oid rasmlarni tanlab, ko‘rsatib tushuntirsa,

o‘quvchining shu davrni his qilishi osonlashadi. Chunki, ayrim hollarda o‘qituvchining ma’ruzasi ta’sirli, obrazli bo‘lsa-da, ayrim tarixiy hodisalar, faktlar o‘quvchi tasavvurida ma’lum darajada mavhumligicha qoladi. Aynan shuning uchun ham tarixiy miniatyura san’ati asarlarining ta’limiy ahamiyati katta. 8-sinfidagi birinchi – “XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Xuroson va Movarounnahr-dagi siyosiy vaziyat” va to‘rtinchi – “Zahiriddin Muhammad Bobur – buyuk davlat arbobi” mavzularida Bobur tasvirlangan miniatyura asari bilan ishlash jarayonida analiz va sintezning qanday borishini kuzatib chiqaylik. Biz surat – miniatyura san’ati asari bilan ishlashda mavzuni o‘tayotganda foydalanadigan miniatyuraning nomini o‘quvchilarga aytmasdan, suratni tahlil etishdan boshlasak, suratda tasvirlangan Bobur Mirzo timsoliga qarab, o‘quvchilar tasavvurida XVI asr ko‘z oldiga keladi. O‘quvchilar suratda tasvirlangan shaxs Bobur ekanligini bilishdi. Surat tabiat manzarasi, taxtda o‘tirgan holda Boburning vatanidan uzoqdaligi uni yurt sog‘inchini his qilayotganligini aks ettiradi.

“Boburnoma”ning 2008-yilgi nashriga so‘zboshi yozgan taniqli boburshunos olim Vahob Rahmonov “Boburnoma”ning kotibi Boburning ulug‘ podshohlarga xos sakkiz shaxsiy fazilatini qayd etganligini yozadi. U qudratli podshohning (ya’ni Boburning S.H) yaxshiliklarini aytgan bilan va yozgan bilan tugatish maholdir. Lekin qisqasi buni, sakkiz asl sifat uning zotiga xos edi: biri bu kim – iqboli baland edi; ikkinchisi – himmatli inson edi; uchinchisi – viloyat olmoq edi; to‘rtinchisi – viloyat

saqlamoq edi; beshinchisi – ma'murlik; oltinchisi – Alloh bandalariga farovonlik niyatli; yettinchisi – lashkar ko'nglini qo'lga olmoq; sakkizinchisi – adolat qilmoq.

“Boburnoma” asariga oid maxsus asar yozgan Ansoriddin Ibrohimovning ““Boburnoma” – buyuk asar” risolasi “Boburnoma” to'g'risidagi asarlar orasida o'z ilmiyligi bilan ajralib turadi. [3; 80] Ushbu risolada muallif “Boburnoma”ni Fransiya, Germaniya, Angliya, Amerika, Rossiya, Turkiya, Hindiston, Pokiston, Yaponiya va O'zbekistonda o'rganilishi va uning qo'lyozma nashrlari, tarjimalari va tanqidiy matnlari haqida ilmiy fikrlarni bayon etgan. Saidbek Hasanovning “Boburnoma”ning 2002-yilgi nashriga yozgan so'zboshisida “Boburnoma”-da [4; 3-16] 1605 nafar kishi, 1151 joy, 277 qavmi-qabila, nasab, 414 hayvon va o'simliklar, 40 ta kitob risola, 18 ta maqol va hikmat, 94 ta she'riy hikmat berilganligini qayd etib o'tgan.

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, “Boburnoma” nafaqat tarixiy voqealiklar, balki shu voqealiklarni yuksak mahorat bilan tasvirlagan musavvirlar haqida ham muhim ma'lumotlar beradi. Shularga asosan e'tirof etish o'rinishi, miniatyura san'ati asarlari zamonaviy sharoitdagi tarix ta'limi uchun mukammal o'quv-illustrativ material vazifasini o'taydi. Demak, “Boburnoma” asariga ishlangan miniatyuralar ham alohida ahamiyatga ega. Agar 1960-yilgi “Boburnoma” asariga 4 ta miniatyura, 2000-yilgi nashrida 8 ta miniatyura ilova qilingan bo'lsa, 2008-yilgi “Boburnoma” asari nashriga ishlangan miniatyuralar rangli kitobi alohida jild shaklida chop etildi. Unda 100 dan ortiq miniatyuralar berilgan. Natijada O'zbekiston tarixi darslarida tarixiy mavzudagi miniatyura san'ati asarlaridan foydalanish imkoniyati sezilarli darajada ortadi.

Bunday metodik usullarni ushbu ilmiy muammoga nisbatan qo'llash maqsadga muvofiq:

- ko'rsatish (misollar, dalillar keltirish va h.k vositasida namoyish etish);
- topshiriq va misollar (mantiqiy, muammoli va h.k.) berish;
- taqqoslash, tarixiy ekskursiya, moziyga nazar

tashlash;

- o'tmishga sayohat;
- turli jadvallar tuzish;
- jahon tarixi bilan mavzularni bog'lash orqali tahlil qilib umumlashtirish;
- yangi pedagogik texnologiya asosida qo'shimcha manbalardan foydalanib, dars o'tish, umumlashtiruvchi va takrorlash darslarida ushbu aloqalarni qo'llash.

Bunday shakl va usullar orqali dars o'tishdan asosiy maqsad ikkala tarix kursini bog'lash mumkin bo'lgan mavzu materiallari mazmunini uzviy aloqadorlikda o'rganishda yordam berish bilan birga o'quvchilarning yaxlit ilmiy dunyoqarashi, tarixiy bilimlar tizimini shakllantirib, ta'lim samaradorligiga erishishdir. “O'zbekiston tarixi”ni o'rganishda tarixiy miniatyura san'ati asarlaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari quyidagilarda o'z aksini topadi.

1. O'quvchilarning vatanimiz tarixiy taraqqiyotidagi o'zgarishlarini har tomonlama va chuqur tushunib anglab olishlariga yordam beradi.

2. Vatanimiz tarixini o'qitishda tarixiy mavzudagi miniatyura san'ati asarlaridan foydalanish ta'limni real tarixiy voqealiklar, tarbiya ishlarini hayot bilan aloqadorlikda olib borish imkonini beradi.

3. O'quvchilarga tanish va tushunarli bo'lgan miniatyura san'ati asarlari ularning ko'z o'ngida sodir bo'lgan yoki bo'layotgan o'zgarishlarni, tarixiy taraqqiyotning umumiy qonuniyatlari, obyektiv va subyektiv sabablarini tushunib olishlarini osonlashtiradi.

4. O'quvchilarning tarix faniga qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlashga o'rgatadi, tarixga oid materiallarni o'zlashtirishga ijodiy yondashgan holda ishlash jarayonini faollashtiradi, mavjud bilim va malakalarini qo'llay olishga o'rgatadi, ularga emotsional ta'sir ko'rsatishi natijasida o'quv materiallarining ta'sirchanligini oshiradi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, “Boburnoma”da tarixiy ilmiy manba sifatida e'tirof etiladigan miniatyura asarlarining tarix darslaridagi tatbiqi o'quvchilarga kompleks ta'sir etish imkoniyatlarini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimidagi nutqi, 30.09.2020 y.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

3. Ibrohimov A. Boburnoma – buyuk asar. – T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. 80-b.

4. Boburnoma. – T.: Yulduzcha, 1990. 154-b.



Durdona RASULMUHAMEDOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

HUQUQIY TA'LIMDA BADIY ADABIYOTNING O'RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada badiiy adabiyotning madaniy hodisa sifatida shaxs, tafakkur va qadriyatlar tizimining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatishiga e'tibor qaratilgan. Maqolada huquqshunoslik fakulteti talabalarining huquqiy tafakkurini rivojlantirishda adabiyotning roli tahlil qilinadi. Badiiy asar matni bilan ishlash orqali talabalarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish masalalari muhokama qilinadi. Asosiy e'tibor badiiy adabiyot orqali talabalarning voqelikni tushunish va sharhlash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradigan usul va yondashuvlarga qaratilgan.

Kalit so'zlar: badiiy adabiyot, huquqiy ta'lim, tanqidiy fikrlash, og'zaki va yozma nutq, huquqiy tafakkur, tahliliy o'qish, badiiy asarni o'qitish.

Аннотация: в данной статье основное внимание уделяется огромному влиянию художественной литературы как явления культуры на формирование личности, мышления и системы ценностей. В статье анализируется роль литературы в развитии правового мышления студентов-юристов. Будут обсуждаться вопросы развития устной и письменной речи учащихся путем работы с текстом художественного произведения. Основное внимание уделяется методам и подходам, которые помогают формировать у учащихся способность понимать и интерпретировать действительность через художественный вымысел.

Ключевые слова: художественная литература, юридическое образование, критическое мышление, устная и письменная речь, юридическое мышление, аналитическое чтение, обучение художественному произведению.

Annotation: this article focuses on the enormous influence of fiction as a cultural phenomenon on the formation of personality, thinking and value systems. The article analyzes the role of literature in the development of legal thinking of law students. Issues of developing students' oral and written speech by working with the text of a work of art will be discussed. The focus is on methods and approaches that help develop students' ability to understand and interpret reality through fiction.

Key words: fiction, legal education, critical thinking, oral and written language, legal thinking, analytical reading, teaching fiction.

Huquqiy ta'limda nafaqat huquq haqidagi bilimlarni yetkazish, balki talabalarda huquqiy normalarni tanqidiy tushunish va ularning ijtimoiy mazmunini anglab yetish qobiliyatini ham rivojlantirish kerak. Huquq sohasida professional nutqdan foydalana oladigan huquqshunoslar uchun nafaqat kasbiy bilimlar, balki tillarni ham mukammal biladigan yuqori malakali yuridik mutaxassislarini tayyorlash dolzarb vazifadir.

Tanqidiy fikrlash huquqshunoslarga axborotni tahlil qilish, uni turli nuqtayi nazardan baholash imkonini beradi. Bu esa tez o'zgarib borayotgan qonunchilik va murakkab huquqiy vaziyatlar sharoitida nihoyatda muhim hisoblanadi. Aynan mana shu maqsadni amalga oshirishda badiiy adabiyot kuchli vosita bo'lishi mumkin. Shuningdek, huquq, odob-axloq, ijtimoiy adolat masalalariga bag'ishlangan badiiy asarlarni o'qish va tahlil qilish huquqshunos talabalarning huquqiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Huquqiy ta'limda badiiy adabiyotni o'qitishdan asosiy maqsad bu talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdir. Badiiy asarlarni o'qish va muhokama

qilish orqali talabalar turli nuqtayi nazarlarni tahlil qilishni, huquqiy vaziyatlarni turli tomondan ko'rib chiqishni o'rganadilar. Bu, ayniqsa, bo'lajak huquqshunoslar uchun zarur. Badiiy adabiyot voqelikka turli tomondan qarashga, savollar berishga, aniq narsaga shubha qilishga va yashirin ma'nolarni izlashga o'rgatadi. Ushbu ko'nikmalar murakkab huquqiy vaziyatlarni tahlil qilishi, ishning tafsilotlarini tushunishi, qarama-qarshiliklarni ko'rishi kerak bo'lgan yuristlar uchun juda muhimdir.

Huquqiy madaniyat va tanqidiy fikrlashni shakllantirishda adabiyotlardan samarali foydalanish uchun dars jarayonida tahliliy o'qish, muhokama va bahs-munozaralar, rolli o'yinlar kabi usullardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Masalan, tahliliy o'qish jarayonida asosiy manzara va obrazlar tahlil qilinadi, matn kontekstida huquqiy ziddiyatlar aniqlanadi. Rolli o'yinlar esa sud jarayonlarini yoki adabiyotda keltirilgan boshqa huquqiy vaziyatlarni qayta yaratishga yordam beradi, bu holat talabalarga qaror qabul qilish jarayonining murakkabligini ko'rish imkonini beradi.

Nofilologik oliy o'quv yurtlarida badiiy adabiyotni

o'rganishning asosiy afzalliklari, bizningcha, dunyoqarashni boyitishdan iboratdir. Adabiyot talabalarga huquqning turli madaniy, tarixiy va ijtimoiy jihatlar bilan tanishish imkonini beradi. Shuningdek, badiiy asarlarni o'qish va tahlil qilish orqali talabalar dalillarni to'g'ri tahlil qilish, voqealarni tahlil qilish va mantiqiy bog'lanishlarni izlashni ham o'rganadilar.

Adabiy asarlarni huquqiy nuqtayi nazardan talqin qilish har doim ham oson emas. Bu jarayonda o'qituvchi talabalarning fikrlashlarini to'g'ri yo'naltirishga yordam berishlari kerak. Badiiy asarlarni tahlil qilish orqali ularda analitik va tanqidiy fikrlash, empatiya, ijtimoiy jarayonlarni chuqur anglash qobiliyati rivojlanadi. Adabiyot talabalarga huquqni axloqiy jihatdan yuklangan soha sifatida ko'rishga yordam beradi. Bu esa natijada bo'lajak yuristlarning yuqori axloqiy me'yorlari va huquqiy madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Talabalarning og'zaki va yozma nutqini shakllantirish uchun badiiy asarlarni o'qitish ham katta ahamiyat kasb etadi. Avvalo, talabani badiiy asarni o'qishga qiziqtirish kerak. Masalan, Toshkent davlat yuridik universitetining 1-kurs talabari (o'zbek va rus guruhlarining barchasi) modul doirasida O'lmas Umarbekovning "Yoz yomg'iri" detektiv qissasini o'qib, topshiradilar. Buning uchun dars soatlarini har qanday badiiy asarni o'qitishda qo'l keladigan quyidagi reja asosida olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Asarni o'qishdan oldingi topshiriqlar.

"Yoz yomg'iri" detektiv qissasi misolida quyidagi savollarni auditoriyaga berish mumkin:

- detektiv tushunchasiga izoh bering;
- sizga detektiv film ko'rish yoqadimi yoki detektiv

asarni o'qish?

– detektiv asar yozgan yozuvchilardan kimlarni bilasiz?

– detektiv elementlari afsona, masal va ertaklarda bor – misol keltira olasizmi?

– nima deb o'ylaysiz, asar nega "Yoz yomg'iri" deb nomlangan?

– jinoyat ishini ochishda qanday buyum va ashyoviy dalillar bor?

– asardagi jinoyat turi uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining qaysi moddasini qo'llash mumkin?

Bundan tashqari, talabani yanada qiziqtirish uchun "Yoz yomg'iri" qissasi boshlanadigan jumlaning talabalar e'tiboriga havola qilish kerak:

"Bu kun... 197... yilning 22 avgusti, tramvay haydovchi qiz Munira Shayxuddinova xotirasidan umr bo'yi o'chmaydi..."

Qissa boshidagi ushbu jumladan quyidagicha savollar tuzish mumkin:

– sizningcha haftaning qaysi kuni edi?

– aynan qaysi yil?

– nega tramvayni qiz bola haydayapti?

– esdan chiqmaydigan qanday kun edi?

Shu va shu kabi savollarni o'rtaga tashlash orqali talabalarni asarni o'qishga qiziqtirish mumkin. Savollarga og'zaki yoki yozma javob berish orqali talaba o'z ustida ishlashni boshlaydi, asarni o'qishga kirishadi.

2. Asarni o'qish davomidagi topshiriqlar.

Rejaning bu qismida aynan matn va rasmlar bilan ishlash qo'l keladi. Masalan, matn bilan ishlaganda asardan bir qancha parchalarni kesib olib, tarqatma shaklida talabalarga berish mumkin. Masalan, asardan

Asar voqealari qaysi makon va zamonda bo'lishini aniqlash uchun tramvay rasmini berish mumkin



bashorat qilish:

► Sizningcha qotil kim bo`lishi mumkin?



olingan ushbu parcha kimga tegishli:

U ertadan mehnat o'tpuskasiga chiqishi kerak edi. Ariza berib qo'yganiga bir haftadan oshdi. Ikki yildan beri xotiniga birga dam olib kelamiz derdi, lekin hech imkoni bo'lmasdi. Bu yil nihoyat orzusi amalga oshadigan bo'lib, Truskovetsga ikkita putyovka olib qo'ygandi, tasodifan qo'lga yangi ish tushib qoldi. Agar kuni kecha o'tpuskaga chiqqanda, bu ishni boshqa odam olardi. Endi kech. U ichida yordamchisi leytenant Sultonovdan xafa edi.

Yoki parchani o'qing va tabiat manzarasini chizing. Parchada qaysi joyga ta'rif berilgan?

Bu baland-past, xavfli olataroq tog' yo'li uni o'ziga maftun qilib qo'ygan edi. Bir tomon togtuya o'rkachidek kattakichik, ba'zilar ustida qor erimagan qoyalar, bir tomon esa qaraganda yurakni muzlatadigan jarlik, sharqiragan tiniq suv, ko'm-ko'k may-sa ko'rpalar. Har aylanishda manzara xuddi kinodagidek o'zgaradi. Tog'lar goh chap, goh o'ng tomoningda paydo bo'lib qoladi. Yo'l shunday tikka.

Asar voqealari ro'y berayotgan joy haqida tasavvurga ega bo'lishlari uchun talabalarga quyidagi suratlarini ko'rsatish mumkin:

3. Asarni o'qishdan keyingi topshiriqlar.

Ushbu yakunlovchi qism orqali talabaning asarni o'qib bo'lgach olgan barcha bilimlarini baholash mumkin. Masalan,

- “Yoz yomg'iri” asarini tarkibiy qismlarga ajrating.
- Asardagi qahramonlarning xatti-harakatiga baho bering.
- Asarda voqealar kechgan joy nomlarini eslang va

xaritasini chizib bering.

– “Yoz yomg'iri” asaridagi qahramonlarni klaster metodidan foydalanib tasniflang.

Ko'rinadiki, badiiy asar bilan ishlash jarayonida bir necha vazifalarni bajarish mumkin. Aynan shu vazifalar talabalarning og'zaki va yozma nutqlarini o'stirishga yordam beradi. Shunday qilib, bu turdagi mashg'ulotlarning o'tkazilishi talabalarning nafaqat kasbiy nutqini o'stirish, balki ularning ijodkorlik, izlanuvchanlik hamda nutqiy faolligini oshirishda ham katta samara beradi.

Dars jarayonida badiiy asarni o'qitish va tahlil qilishdan asosiy maqsad kafolatlangan natijaga erishish ekan, har bir o'qituvchi quyidagi mezonlarga amal qilishi zarur:

1. U yoki bu texnologiyani o'quv jarayonida qo'llashdan avval uni to'liq o'rganib chiqish kerak. Uning barcha xususiyatlarini va imkoniyatlarini hisobga olgan holda dars jarayonida qo'llash lozim.

2. O'quv jarayonini oldindan to'liq loyihalashtirish zarur.

3. Darsda talabani jarayonning markaziga olib chiqish kerak.

Demak, dars jarayonida badiiy asarlarni o'qitish talabalarning mushohada qilish doirasini, dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi. Talaba voqea-hodisalar ketma-ketligiga e'tibor beradi, ular o'rtasidagi uzviylikni qidiradi. Ijodiy ishni tashkil qilish orqali talabaga ijodiy erkinlik beriladi, mustaqil fikrlash ko'nikmalari rivojlantiriladi. Xulosa qilib aytganda, talabalarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishda yuqoridagi usullardan foydalanish rejalashtirilgan mavzularni puxta egallash va amalda qo'llashda katta samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жамиятда ҳуқуқий тафаккурни юксалтириш концепсияси. <https://www.lex.uz/docs/4149765>
2. А.Саидов. Адабиёт ва ҳуқуқ. “Ўзбекистон” нашриёти, 2018.

Maftuna BAXTIYOROVA,
 Qarshi iqtisodiyot va pedagogika universiteti
 “Xorijiy tillar” kafedrası v.b. dotsenti., PhD
 E-mail: maftunabakhtiyorovna.phd@gmail.com

BADIIY ASARLARDA ANTROPONIM VA TOPONIMLARNING KONNOTATIVLIK AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqola onomastikonlarni kategoriyalashtirishda konnotativlikning ahamiyatini tahlil qiladi. Onomastikonlarning lugʻatlarda qayd etilmagan ikkilamchi maʼnolari, xususan, badiiy asarlardagi antroponimlar va toponimlar misolida koʻrib chiqiladi. Asosiy urgʻu onimlarning emotsional va baholovchi mazmuni, ularning tarixiy-madaniy kontekstdagi oʻzgaruvchanligi va estetik mazmuni shakllantirishdagi roli kabi jihatlarga qaratilgan.

Kalit soʻzlar: *onomastikonlar, konnotativlik, antroponimlar, toponimlar, badiiy obraz, konnotatsion maʼno, emotsional baho, etnokonnotatsiya.*

Annotation: this article analyzes the significance of connotativity in categorizing onomasticons. It examines the secondary meanings of onomasticons that are not recorded in dictionaries, specifically focusing on anthroponyms and toponyms in literary works. The primary emphasis is on aspects such as the emotional and evaluative content of onyms, their variability within historical-cultural contexts, and their role in shaping aesthetic meaning.

Key words: *onomasticons, connotativity, anthroponyms, toponyms, literary image, connotational meaning, emotional evaluation, ethnoconnotation.*

Аннотация: в данной статье анализируется значение коннотативности при классификации ономастиконов. Рассматриваются вторичные значения ономастиконов, которые не зафиксированы в словарях, в частности, на примере антропонимов и топонимов в художественных произведениях. Основное внимание уделяется таким аспектам, как эмоционально-оценочное содержание онимов, их изменчивость в историко-культурном контексте и роль в формировании эстетического значения.

Ключевые слова: *ономастиконы, коннотативность, антропонимы, топонимы, художественный образ, коннотативное значение, эмоциональная оценка, этноконнотация.*

Kirish. Onomastikonlarni kategoriyalashtirish jara-yonida inobatga olinadigan xususiyatlardan biri konnotativlik kategoriyasidir. Maʼlumki, har bir til belgisi axborot uzatish bilan bir qatorda, tinglovchi yoki oʻquvchiga taʼsir oʻtkazish vazifasini ham bajaradi. Shu jumladan, onomastikonlar ham biror bir emotsional baho mazmunini ifoda etish qiymatiga egadir.

Asosiy qism. Ingliz tilida ismlarni tahlil qilish jara-yonida ham onomastikonlarning lugʻatlarda qayd etilmagan konnotativ maʼnolari aniqlandi. “*Ancient Mariner*” badiiy onimi, oʻzining birlamchi maʼnosida, ingliz shoiri S.T.Kolrij qalamiga mansub “*The Rime of the Ancient Mariner*” (Qadim dengizchining qoʻshigʻi) poemasi-ning personaji nomi boʻlib, bu dengizchi, tasodifiy hamsuhbatiga oʻzining boshidan kechirgan uzundan-uzoq sarguzashtlarini hikoya qilib beruvchi qariyadir. Ushbu taʼriflar natijasida asar qahramoni haqidagi “*sergap*”, “*vaysaqi*”, “*uzun hikoyasi bilan zeriktiruvchi*” maʼnolari tugʻiladi. Ikkilamchi nominatsiya quyidagi konnotativ semalar yordamida uzatiladi:

– *a compulsive speaker irresistible to his audience* (ODA. 2010: 14-15) – xira pashshadek yopishib oladigan notiq;

– *someone boring a reluctant listener* (ODA. 2010: 14-15) – koʻp gapirib hamsuhbatini zeriktirib qoʻyuvchi;

– *someone who refuses to give up a course of action* (ODA. 2001: 297) – qilib turgan ishini toʻxtatishni rad

etadigan qaysar odam;

– *a traveler, a wanderer* (ODA. 2001: 388) – sayohatchi, darbadar dunyo kezuvochi, jahongashta;

– *someone who seems to have invited a curse upon their head* (ODA. 2001: 78; ODA. 2010: 14-15) – oʻziga laʼnat chaqiruvchi kishi.

Berilgan maʼnolar jamlanmasidan *Ancient Mariner* haqida “*biror-bir faoliyat turi bilan shugʻullanishi uchun yoshi oʻtib qolgan kishi*” konnotatsiyasiga ega boʻlamiz. Yaratilgan bu yangi konseptual struktura *Ancient Mariner* (Qadimgi dengizchi) hozirgi kunda ham faol qoʻllanishda:

– *Two-time Olympic bronze medalists Shen Xue and Zhao Hongbo are the first team on the ice in the short program. The Chinese, ancient mariners (he is 36, she is 31), have not competed in a major international event since winning the 2007 world title* (The Los Angeles Times. – URL:http://latimesblogs.latimes.com/olympics_blog/2010/02/big-start-for-pairs-event-chinese-stars-first-on-ice.html)

Onomastikonlarning konnotatsion foni muallif niyatini tushunish, badiiy obrazni toʻgʻri qabul qilish, asarning gʻoyaviy-estetik mazmuni, onimning konnotativ maʼnosini idrok etish muhimligini tasvirlaydi[1]. Onomastikonlarning barcha turlari konnotativ maʼnoga ega boʻlishi mumkin, ammo bu nisbiy – vaqt oʻtishi bilan toʻplanadigan va oʻzgaradigan hodisa. Antroponimlar alohida konnotativ toʻliqlikka egaligi bilan farqlanadi:

ular adabiy obraz yaratishda ishtirok etadi, nafaqat muallifning bahosini, balki personajlar o'rtasidagi munosabatlarni ham ifodalaydi[2].

Toponimlar ham konnotativ ma'noga ega bo'ladi, ular ko'pincha shoir yoki yozuvchining tarjimai holi, uning bu joylarga shaxsiy munosabati bilan bog'langan bo'ladi:

– *There was Manderley, our Manderley, secretive and silent as it had always been, the grey stone shining in the moonlight of my dream, the mullioned windows reflecting the green lawns and the terrace;*

– *Ivy held prior place in this lost garden, the long strands crept across the lawns, and soon would encroach upon the house itself* (D. Du.Maurier: 2).

Boshqa onomastikonlar ham konnotativ bo'lishi mumkin, ayniqsa ular muhim voqealar, sanalar, tasvirlangan davrning realiyalarini o'zida aks ettirsa:

– *With no greater events than these in the Long-bourn family, and otherwise diversified by little beyond the walks to Meryton, sometimes dirty and sometimes cold, did January and February pass away. March was to take Elizabeth to Hunsford* (Jane Austen. 190).

Ba'zi matnlardagi ikki dunyo – yangi yaratilgani va allaqachon mavjud bo'lgani o'rtasidagi o'xshashliklarga asoslangan onomastik metaforalar alohida qiziqish uyg'otadi. G.Grinning "Maxfiy agent" (G.Green "The Confidential Agent") romani "Roland qo'shig'i" dostonning syujetiga asoslangan. Roman dostonning juda kutilmagan talqinini taklif qiladi, unga ko'ra, Roland ko'r o'jar shaxs sifatida gavdalanitirilgan, bunday talqinga qaramay, G.Grin asarining bosh qahramoni ma'lum xatti-harakat namunasini qabul qiladi va o'zini muvaffaqiyatsizlikka mahkum qiladi:

– *Blind Roland wouldn't blow - swore that no enemy could ever make him blow. Big brave fool. In war one always chooses the wrong hero. ↔ He had had his chance to blow his horn and save all those lives, but for his own glory he wouldn't blow. Now because he is defeated and dying he would blow and bring disgrace on his race and name. ↔ Didn't I tell you Oliver was the real hero?* (G.Green "The Confidential Agent": 69).

– *He wanted to scream, but the weight of human dignity lay like a gag over his tongue - one didn't scream, even when the truncheon struck* (G. Greene "The Confidential Agent": 84).

Olib borilgan tahlillar natijasida adabiy matnda qo'llanilgan onomastikonlar, ahamiyatli darajada yaratilayotgan badiiy asarning xarakterini belgilaydi degan xulosaga kelindi. Badiiy asar yaratishda onomastikonlarning rolini aniqlash voqelikka ularning fonetik, grammatik, uslubiy xususiyatlari, shuningdek, etimologiyasiga murojaat qilishni talab etadi [3]. Lisoniy ramzga ega bo'lgan onimlar asosan, matnning obrazlilikini oshiradigan, stilistik effekt yaratishga hissa qo'shadigan belgilar deb tushuniladi.

Onomastikonlar morfologik xususiyatlarining ahamiyatini ko'rsatadigan misol Sharlotta Roganning

"Qutqaruvchi qayiq" (Sh. Rogan. "The Lifeboat") romani-dagi cho'kib ketgan dengizchiga tegishli bo'lgan ism – *Hardie* (Hardi). Hikoyaning birinchi qismi davomida qattiqqo'l va qattiq xarakterli odam obrazi yaratilgan, lekin keyinchalik uning odamlar hayoti uchun javobgarlik yukini oxirigacha ko'tarish darajasida qat'iyatli emasligi ma'lum bo'ladi. Onimning tegishli shaklida aks ettirish, ya'ni bu yerda ingliz tilidagi "*kuchli, qattiq*" ma'nolariga ega bo'lgan *hard* so'zining – kichraytirish ma'nosini ifodalovchi *-ie* qo'shimchasi bilan to'ldirilishi orqali bu haqiqat yuzaga chiqariladi.

Birinchi qismda *hard* so'zining ma'nosi faollashgan (1-misol), kichraytiruvchi qo'shimchadan foydalanish motivi esa kitobning ikkinchi qismidagina (2-misol) tushunarli bo'ladi. Shunday qilib, onimning grammatik shakli ham, talaffuzi ham semantik element yaratuvchi rolini o'ynaydi. Misol:

1: *Mr. Hardie gave them orders, Mr. Hardie stood with his feet planted and his eyes alert, guiding us deftly around anything that blocked our way ↔ Mr. Hardie had a rough seaman's voice ↔ Then Hardie raised his heavy hoot and shoved it into the man's face ↔ Mr. Hardie, for his part, was staunchly determined to save us* (Sh. Rogan. "The Lifeboat": 7,10, 11).

2: *Hardie watched her the way an injured dog watches a wild and hungry cat ↔ When I looked at Mr. Hardie that morning, I was hard-pressed to recognize the superhuman figure of those first days in the boat. If Mr. Hardie was still godlike, he had become god in his human form, and we all know what happens to gods like that* (Sh. Rogan. "The Lifeboat": 12, 187).

G.B.Stouning "Tom tog'aning kulbasi" (Uncle Tom's Cabin) asari qahramoni Tom tog'a (Uncle Tom) badiiy onimining motivatsion asos sifatida tagzaminida mavjud bo'lgan "xiyonat qilish", "sodiq xizmatkorlik" belgilarini tushuntirish o'sha madaniyat vakillari tafakkurida mavjud bo'lgan bilimlarning fenomenologik tuzilmalari – asar syujetini bilish asosida amalga oshiriladi, garchi Tom tog'a yaxshi xulqli kekxa afro-amerikalik bo'lsa-da, asar syujetiga ko'ra u xo'jayiniga sodiq qoladi. Amerika jamiyatida irqiy kamsitishlarga qarshi davom etayotgan kurash kontekstida Tom tog'a afro-amerikaliklarning manfaatlariga xiyonat qilib, oq tanli xo'jayinga xayrixoh qolgan odam sifatida qabul qilinadi. Ikkilamchi nominatsiyada metaforik transformatsiya natijasida Tom tog'a (Uncle Tom) quyidagi konnotativ semalarni verballashtiradi: K1 – oq tanlilarga haddan tashqari bo'ysunuvchi afro-amerikalik; K2 – o'z madaniyatiga yoki jamiyatiga xiyonat qilgan shaxs, har ikki holatda ham mavjud bo'lgan o'ziga xos belgi "xo'rllovchi", "haqoratli" xususiyatlari:

– *"They call me Uncle Tom," he said, but added that he did not care about the hostility. "I feel nothing. I know that I am on the right side of this argument"* (The Guardian).

Yaratilgan etnokonnotatsiyalar aksiologik baholash

belgisi bilan xarakterlanadi. Baholovchi ma'nolar so'zning ta'rifida ham o'z ifodasini topishi mumkin, ham yashirin xarakterga ega bo'lishi mumkin. Yashirin xarakterdagi etnokonnotatsiyaning ijobiy yoki salbiy belgisini aniqlash uchun asos etno-konnotatsiyali birliklar mavjud bo'lgan kontekstlarni tahlil qilishdir[4]. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ikkilamchi badiiy onimlarning salbiy belgili xususiyatlarni faollashtirish an'anasi mavjud. N.F.Alefirenkoning fikri buni tasdiqlaydi, uning ta'kidlashicha, ikkilamchi belgilar salbiy taassurotlarni ifodalaydigan eng yorqin va esda qolarli belgilar orqali hosil bo'ladi. Salbiy yoki ijobiy baho til va madaniyat sohiblari tomonidan dunyoni idrok etish va baholashning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanganligi sababli, ular u yoki bu lingvomadaniyat vakillari tafakkuridagi olamning milliy qadriyatlar manzarasining o'ziga xos xususiyatlaridan dalolat beradi[4].

Xulosa. Onomastikonlarni kategoriyalashtirish jarayonida inobatga olinadigan xususiyatlardan biri konnotativlik

kategoriyasidir. Ma'lumki, har bir til belgisi axborot uzatish bilan bir qatorda, tinglovchi yoki o'quvchiga ta'sir o'tkazish vazifasini ham bajaradi. Shu jumladan, onomastikonlar ham biror bir emotsional baho mazmunini ifoda etish qiymatiga egadir. Onomastikonlarning konnotatsion foni muallif niyatini tushunish, badiiy obrazni to'g'ri qabul qilish, asarning g'oyaviy-estetik mazmuni, onimning konnotativ ma'nosini idrok etish muhimligini tasvirlaydi[5].

Onomastikonlarning barcha turlari konnotativ ma'no-ga ega bo'lishi mumkin, ammo bu nisbiy – vaqt o'tishi bilan to'planadigan va o'zgaradigan hodisa. Antroponimlar alohida konnotativ to'liqlikka egaligi bilan farqlanadi: ular adabiy obraz yaratishda ishtirok etadi, nafaqat muallifning bahosini, balki personajlar o'rtasidagi munosabatlarni ham ifodalaydi. Ma'lumki, har bir til belgisi axborot uzatish bilan bir qatorda, tinglovchi yoki o'quvchiga ta'sir o'tkazish vazifasini ham bajaradi. Shu jumladan, onomastikonlar ham biror bir emotsional baho mazmunini ifoda etish qiymatiga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sweetser E. From etymology to pragmatics. Metaphorical and cultural aspects of semantic structure (Cambridge studies in linguistics. 54). Cambridge, 1990 (digital print. 2001).
2. Суперанская А В. Общая теория имени собственного. – Москва: Логос, 2004. - С. 141.
3. Руденко Д. И. Собственные имена в контексте современных теорий референции // Вопросы языкознания. – Москва, 1988. - No3. - С. 55–68.
4. В.М.Бакhtiyorovna. Discursive-pragmatic nature of anthroponyms-Asian Journal Of Multidimensional Research, 2022, India, 110-114
5. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. Reflection of Onomastic Principles in Naming. Psychology and Education, 2021, AQSh, 2874-2878.

Zaxro XALILOVA,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, o'qituvchi
zakhro2698@gmail.com

INGLIZ, HINDIY VA O'ZBEK TILLARIDAGI HISOB SO'ZLARINING TILSHUNOSLIKDA O'RGANILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz, hindiy va o'zbek tillaridagi hisob so'zlar misollar yordamida tahlil qilindi. Morfologik tasnifga ko'ra, ingliz, hindiy va o'zbek tillari affiksli (sintetik) tillar guruhiga kiradi, bu guruh esa ikki kichik guruhga bo'linadi: Agglutinativ tillar (masalan, turkiy, fin-ugor, dravid, yunon va manjur tillari). Ushbu tillar qo'shimchalar o'zak yoki asosga qo'shilishi bilan ajralib turadi. Flektiv tillar (masalan, hind-yevropa va afro-osiyo tillari). Bu tillarda so'z yasash va shakllantirish so'z tarkibidagi undosh tovushlarning o'zgarishi orqali amalga oshiriladi. Genetik jihatdan, ingliz, hindiy va o'zbek tillari turli tillar oilasiga mansub bo'lib, mos ravishda hind-yevropa va oltoy tillar oilasiga kiradi. Bu ularning genetik farqlarini ko'rsatadi. Har bir tilning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ushbu tillarda "hisob so'z" terminining ekvivalentlarini aniqlashga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: *numerativ, o'lchov so'zlari, hisob so'zlari, ot, klassifikatorlar.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются счётные слова в английском, хинди и узбекском языках с использованием примеров для анализа. С морфологической точки зрения, английский, хинди и узбекский языки относятся к группе аффиксальных (синтетических) языков, которые, в свою очередь, делятся на две подгруппы: Агглютинативные языки (например, тюркские, финно-угорские, дравидийские, греческий и маньчжурский языки). Эти языки характеризуются использованием аффиксов, присоединяемых к корням или основам. Флективные языки (например, индоевропейские и афразийские). В этих языках словообразование и словоизменение происходят за счёт изменений согласных внутри структуры слова. С генетической точки зрения, английский, хинди и узбекский языки принадлежат к разным языковым семьям — индоевропейской и алтайской соответственно, что подчёркивает их генетические различия. Учитывая особенности каждого языка, предпринята попытка найти эквиваленты "hisob so'z" в этих языках.

Ключевые слова: *нумератив, счётные слова, классификаторы, существительные, классификаторы.*

Annotation: this article explores measure words in English, Hindi, and Uzbek, using examples for analysis. Morphologically, English, Hindi, and Uzbek are classified as affixal (synthetic) languages, which are further divided into two subgroups: Agglutinative languages (e.g., Turkic, Finno-Ugric, Dravidian, Greek, and Manchu). These languages are distinguished by the use of affixes attached to roots or stems. Fusional languages (e.g., Indo-European and Afro-Asiatic). In these languages, word formation and inflection involve changes to consonants within the word. From a genetic perspective, English, Hindi, and Uzbek belong to different language families—Indo-European and Altaic, respectively—highlighting their genetic distinctions. Considering the unique features of each language, we have sought to identify equivalents of "hisob so'z" across them.

Key words: *numerative, measure word, count word, noun, classifiers*

Kirish. "Har bir til hodisasi ta'riflanishda ikki tomondan ko'rilishi lozim: sifat va miqdor" deb yozadi V.I. Koduxov "Umumiy tilshunoslik"¹ kitobida. Buni boshqa yirik tilshunoslar ham ta'kidlagan, shulardan V.G. Admoning "Grammatik hodisalarning sifat va miqdoriy tahlili"² maqolasida tilni o'rganishda sifat va miqdor tahlilini birgalikda qo'llash zarurligini ta'kidlaydi, chunki bu yondashuv til tizimining murakkabligini va grammatik elementlarning bir-biriga qanday bog'langanligini yaxshiroq tushunishga imkon beradi, degan xulosani olg'a suradi, L.R. Zinder hamda T.V. Stroyevalarning hammualliflikda ishlangan "Tilshunoslikda statistik metodni qo'llash masalasi"³ nomli maqolasida tilshunoslikda

statistik metodni qo'llashning nazariy va amaliy jihatlarini muhokama qilingan va aynan miqdoriy tahlillar amalga oshirilganda ushbu metod samarali ekanligi ilk bor ta'kidlangan. Ilmiy ishimizning mazmuni aynan miqdoriy tahlilga asoslangan ekanligini inobatga olgan holda, yuqoridagi fikrlarni ta'kidlab o'tishni o'rinli topdik.

Adabiyotlar tahlili. Ko'plab olimlar ingliz tilida mavjud hisob so'zlari va klassifikatorlarning rolini tadqiq qilgan. Jumladan, Rodney Huddleston va Geoffrey K. Pullumlarning⁴ kitobida, xususan, "Nouns and noun phrases" deb nomlanuvchi bo'limida ingliz tilida hisob so'zlarining roli batafsil tushuntirilgan. Yule, George⁴ ilmiy asarida hisob so'zlari kontekstiga yangi "counting

1 Кодухова В.И. Общее языкознание. — М.: Либроком, 2012. С. 264.

2 Адмони В.Г. Качественный и количественный анализ грамматических явлений//Вопросы языкознания, № 4. — М.: Наука, 1963. — С. 57–63.

3 Зиндер Л.Р., Строева Т.В. К вопросу о применении статистики в языкознании//Вопросы языкознания, № 6. — М.: Наука, 1968. — С. 120–123.

4 Huddleston R., Pullum K. G. The Cambridge Grammar of the English Language. — 2002. — P. 323-424.

systems” tushunchasi kiritilgan. Ushbu kitobning morfologiya bo‘limida, garchi ingliz tili ba’zi Sharq tillari kabi klassifikatorlarga boy bo‘lmasa-da, ingliz tilida mavjud hisob so‘zlari (masalan, *slice, piece, bottle*) klassifikatorlarga o‘xshash funksiyani bajarishi ko‘rsatilgan.

Hindiy tilidagi hisob so‘zlari asosan, rus, nemis tilshunoslari tomonidan tadqiq etilgan. Hind tilshunoslaridan Omkar N. Koulning⁵ ishlarida hisob so‘zlari asosan, sifat turkumiga mansub deb tasnif etilgan va morfologik xususiyatlari ko‘proq yoritilgan. O‘zbek tilshunosligida ham sharqshunoslik maktabi shakllanib ulgurgan bo‘lsa-da, mazkur mavzu yuzasidan sanoqli ishlar amalga oshirilgan, xususan, f.f.f.d. (PhD), dots. S.Nurmatovning “Hindiy tilida sanoq tizimining shakllanishi va taraqqiyoti” nomli doktorlik dissertatsiyasining to‘rtinchi bobi hindiy tilidagi hisob so‘zlarning tadqiqiga bag‘ishlangan. N.Jiyanovanning “Boburnomadagi numerativlarning ma’no xususiyatlari”⁶ mavzusida filologiya fanlari nomzodlik ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasida, asosan, hindiy tilidagi o‘rta asrlarga oid o‘lchov birliklari tahlil qilingan. Bundan tashqari ham sanoqli ishlar maqola, tezis ko‘rinishida o‘rganilgan.

O‘zbek tiliga mansub hisob so‘zlar foiz jihatidan yuqoridagi ikki tildan kam bo‘lmasa-da, mazkur masala bo‘yicha tadqiqotlar salmog‘i ko‘p emas. Alexandra Aikhenvaldning “Classifiers: A Typology of Noun Categorization Devices”⁷ nomli kitobining “Numerals, Classifiers, and Indefinite Articles in Uzbek”⁸ deb nomlanuvchi bo‘limida o‘zbek tili grammatikasida boshqa Sharqiy Osiyo tillaridagi kabi klassifikatorlar mavjud emasligi, “*bir*” sanoq so‘zi, ingliz tilidagi noaniq artikllar “*a/an*” singari, hisob so‘zlari bilan birga kelib shu vazifani bajarishi tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar. Predmetning soniga ko‘ra belgisi ifodalovchi sanoq sonlar ba’zi vaqtda predmetlarning hisobini ko‘rsatuvchi so‘zlar — hisob so‘zlari bilan birga qo‘llanadi. Hisob so‘zlari (numerativ⁹lar, o‘lchov birliklari¹⁰ yoki klassifikator¹¹ kabi yondosh tushunchalar bilan ham ataladi) asosan sanalayotgan konkret predmetni ko‘rsatmay, o‘sha predmetni hisoblashda, uning qaysi kategoriyaga, guruhga mansub ekanligini aniqlashda ishlatiladi. Bu so‘zlar sanoq son bilan sanalayotgan predmetni ifodalovchi so‘z orasida kelib, ularning og‘irligiga, uzunligiga, hajmiga, joylashish o‘rniga va boshqa shunga o‘xshash xususiyatlariga ko‘ra o‘lchovini, miqdorini bildiradi. Hisob so‘zlari ko‘pincha

ot/noun/संज्ञा turkumidagi so‘zlar orqali ifodalanadi. Hisob so‘z haqida gap ketganda, ushbu so‘zlar guruhiga miqdor, o‘lchov ma’nosini anglatuvchi barcha so‘zlarni kiritgan ma’qul. Ushbu so‘zlar guruhini *numerativ* hamda *klassifikator* deb nomlanuvchi shartli turlarga ajratish o‘zbek tili grammatikasiga xos emas. Demak, asosiy tushuncha sifatida hisob so‘zlar atamasini olish joiz.

O‘lchov birliklarining Xalqaro birliklar tizimi (“SI” – fan va texnikaning barcha sohalari uchun fizik kattaliklarning universal tizimi) mavjud bo‘lib, unda yettita asosiy o‘lchovlar va ularni ifodalovchi birliklar ajratib ko‘rsatilgan¹²:

1. Og‘irlik birligi – kilogramm (kg)
2. Uzunlik birligi – metr (m)
3. Vaqt birligi – sekund (s)
4. Elektr toki kuchi birligi – amper (A)
5. Modda tarkibi – mol (mol)
6. Yorug‘lik kuchi birligi – candela (cd)
7. Harorat o‘lchovi birligi – kelvin (K), shuningdek, kelvin bilan birga selsiy (C) ham keng qo‘llaniladi.

Yuqorida keltirilgan 7 turdagi o‘lchov birliklari *Xalqaro o‘lchov va tarozilar byurosi* (BIPM) tomonidan tasdiqlangan va ularning qo‘llanish doirasi asosan ilm-fan sohasiga oid ekanligini hisobga olish hamda og‘zaki va yozma nutqda nafaqat o‘lchov birliklari, balki ular bilan bir qatorda hisob so‘zlari ham keng ommalashgan ekanligini ta’kidlash lozim. Shu nuqtayi nazardan hisob so‘zlari tilshunoslikda bir qator izlanishlar mavzusiga aylangan hamda lug‘atlarda va olimlarning yondashuvlariga qarab turli yondosh tushunchalar bilan atalgan.

Dunyo tilshunosligi manbalarida hisob va o‘lchovni anglatuvchi so‘zlarga ta’rif berish usuli turlicha. Aynan *numerativ* hamda *klassifikator* tushunchalarini aniq farqlari bilan ajratib ko‘rsatuvchi manbalar soni cheklangan:

Numerativlar (klassifikator, hisob so‘z) – ot, sifat va ravish shaklidagi, songa yaqin va miqdorni anglatuvchi so‘zlar.¹³

Numerativlar – (lot. numeratio) ot, sifat, ravish shaklidagi songa yaqin hisob so‘zlar.¹⁴

Klassifikatorlar (numerativlar, hisob so‘zlar) – miqdoriy konstruksiyalar tarkibida qo‘llanadigan maxsus sintaktik leksema yoki morfemalar. Rus tilidagi штука (dona), папа (juft), голова (bosh) leksemalari ularga misol bo‘la oladi: yetti dona olma, ikki juft shim. Klassifikatorlarning xususiyatlari quyidagilar:

- 1) numerativli konstruksiyada qatnashishi shart:

5 Yule G. The Study of Language. 7th edition. – 2020. – P. 196.

6 Omkar N. K. Modern hindi grammar. – London: Dunwoody Press, 2008. – P. 376.

7 Jiyanova N. Boburnomadagi numerativlarning ma’no xususiyatlari. – T., 2000.

8 Aikhenvald A. Y. Classifiers: A Typology of Noun Categorization Devices. – UK.: Oxford University Press, 2000. – P. 535

9 Aikhenvald A. Y. Classifiers: A Typology of Noun Categorization Devices. – UK.: Oxford University Press, 2000. – P. 186-193.

10 Karimov A. Xitoy tilida hisob so‘zlar. Monografiya. – Toshkent, 2003, B. 4.

11 The International Bureau of Weights and Measures (BIPM). The International System of Units (SI brochure English version) 8th edition. – 2006. – P.95.

12 Яценко Н.Е. Толковый словарь обществоведческих терминов. – М.: Инфра-М, 1999. – С. 524

13 The International Bureau of Weights and Measures (BIPM). The International System of Units (SI brochure English version) 8th edition. – 2006. – P.111-115.

14 Яценко Н.Е. Толковый словарь обществоведческих терминов. – М.: Инфра-М, 1999. – С. 352.

bash juft qaychi (bash (ta) qaychi – noodatiy holat);

2) mustaqil leksik ma'no anglatmaydi va grammatik vazifa bajaradi: miqdor ma'nosini beradi;

3) klassifikatorlar sistemani tashkil qiladi: turli otlar har xil klassifikatorlar bilan qo'llanadi. Klassifikatorlar leksikaga oid, grammatikaga emas.¹⁵ A. Hojiyevning "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"¹⁶ kitobida numerativlar termini "o'lchov so'zlar" ga tenglashtirilgan hamda ta'rifi quyidagicha – *sanoq son bilan birga ishlatilib, predmetning miqdoriy o'lchovini muayyanlashtiradigan so'zlar. Mas., kilo, litr., uch nafar yigit, bir hovuch suv kabi.*¹⁷ "Collins dictionary"¹⁸ ma'lumotiga ko'ra ingliz tilidagi "numerative" so'zi tub ingliz so'zi emas, balki lotin tilidagi "numeratiō" ("hisoblamoch") so'zidan kelib chiqqan hamda tushuncha sifatida matematik aspektda XVIII asr boshidan ingliz tilida qo'llanila boshlangan va ko'p hollarda sonlarni o'qish, yozish va nomlash masalasi ustida olib borilgan mavzularga oid. Aynan o'lchov tizimi yoki hisob so'zlarga aloqador emas. XX asrning 60-yillaridan esa grammatik aspektda ilmiy manbalarda uchraydi.

Shu o'rinda hisob so'zlari (numeratives) va klassifikatorlarning (classifiers) farqi nimada ekanligiga oydinlik kiritsak: yuqoridagi berilgan ta'riflardan anglash mumkinki, **numerativlar** predmetlarning miqdori yoki o'lchamini ifodalash uchun ishlatiladi (asosan Hind-Yevropa tillariga xos – ingliz, hindiy, o'zbek tillari misol bo'la oladi). Numerativlar kontekstga bog'liq holda ishlatiladi degan xulosaga kelish mumkin. **Klassifikatorlar** esa otlarni tasniflash va turini belgilashda qo'llaniladi (bu hodisa asosan Sharqiy Osiyo mamlakatlari tillari – xitoy, malay, tay va yapon kabi tillarga xos). Ularni qo'llamaslik esa, grammatik xato sanaladi. Xulosa qilib aytganda, klassifikatorlar ma'lum tizimdagi tillarda tilning asosiy tuzilma qismi sifatida namoyon bo'ladi. Har uch tilda ham klassifikatorlar (classifiers) vazifasi to'liqligicha namoyon bo'lmaydi. Ba'zi hollarda klassifikatorlar shaklida kelgan *ot/noun/संज्ञा* so'z turkumidagi so'zlar numerativ (hisob so'zlari) vazifasini bajaradi. Maqolamizda hisob so'zlarni (numeratives) tipologik yondashuv asosida o'rganib, ingliz, hindiy va o'zbek tillarida o'zaro ekvivalent sifatida, mos ravishda, **numerative**, माप की इकाइयां hamda **hisob so'zlari** atamaları tanlandi.

Hisob so'zlari – boshqa tillar singari ingliz, hindiy va o'zbek tillarida ham miqdorni aniqlash va ba'zan kategoriyalarni belgilash uchun (klassifikator kabi) ishlatiladigan so'zlardir. Masalan,

a piece of cake - एक टुकड़ा केक – *bir bo'lak tort*

two slices of bread - ब्रेड के दो टुकड़े – *ikki bo'lak non*

kabi iboralarda *piece/टुकड़ा/bo'lak* va *slice/टुकड़ा/bo'lak* hisob so'zlari sifatida ishlatiladi. Bu so'zlar predmetning

qismini yoki miqdorini aniqlashga yordam beradi.

three bottles of water – तीन बोतल पानी/ *uch shisha suv*
a sheet of paper – कागज का टुकड़ा/*bir varaq qog'oz*

Bu so'zlar *shishadan* (*bottles*) va *qog'ozdan* (*sheet*) tayyorlangan predmetlarning o'lchovini va birligini belgilash uchun ishlatiladi.

Hind olimlaridan Omkar N. Koul o'zining "Modern Hindi grammar" asarida so'z turkumlarini ajratish moybaynida sonlarni butunlay sifat so'z turkumi tarkibiga kiritib yuborgan. Miqdorni (hisobni) anglatuvchi so'zlarni **miqdor sifatleri** deb ataydi. Uning fikricha, gapda miqdor son yoki miqdor sifatleri yordamida ifodalanadi. Miqdor sifatlariga esa बहुत (*very/juda, a lot/ko'p*), अधिक (*more/ko'proq, extra/oshiqcha, additional/qo'shimcha...*), काफी (*enough/yetarli, quite/ancha...*), कम (*few/oz, kam, little/oz, kam,*), थोड़ा (*some/bir qancha, a small amount of/oz miqdorda*)¹⁹ kabi कृिया विशेषण/*adverb/ravish* hamda विशेषण/*adjective/sifat* so'z turkumiga kiruvchi so'zlarni misol qilib bergan:

बहुत लोग – *a lot of people/ko'p odam*

थोड़ा दूध – *some mik/ozgina sut*

Omkar Koulning fikriga ko'ra, **son + o'lchov birligi (og'irlik, uzunlik...)** + बाला *ort qo'shimchasi + of* formulasi yordamida hisob so'zlari ma'nosi kuchaytiriladi²⁰.

1. दो सो गज लाम्बीवली रस्सी –

two-hundred-yard-long rope

ikki gaz uzunlikdagi arqon

2. दो किलो वजनवाला पत्थर –

two kilo weight stone

*Ikki kilo og'irlikdagi tosh*²¹

Misollardagi *long* – "uzunlikdagi" hamda *weight* – "og'irlikdagi" so'zlarida

"-dagi" qo'shimchasi aynan बाला *ort qo'shimchasi*ga to'g'ri keladi.

Xulosa. Ingliz tilida hisob so'zlari (numeratives) odatda, klassifikatorlarsiz ifodalanadi. Bu holat ingliz tilida *articles + nouns* formulasi yordamida namoyon bo'ladi. Ingliz tilida maxsus klassifikatorlarga ehtiyoj yo'q, chunki bu tilda otlar (nouns) hisob so'zlari vazifasini bajarib keladi.

O'zbek tilida hisob so'zlari, odatda ingliz tilidagi kabi, *sanoq son + of* orqali otlarni tasniflashda ishlatiladi. *Bir soni*, odatda, "a/an" noaniq artikllari vazifasini bajaradi. Numerativlar (hisob so'zlari) jonli yoki jonsiz obyektlarni sanashda qo'llanilishi mumkin. Masalan, *bir bosh qo'y* (bir dona qo'y) kabi ifodalar o'zbek tilida klassifikator vazifasida keluvchi hisob so'zlari orqali ifodalanadi.

Hindiy tilida numerativlar sonlar bilan birga, ayniqsa sanaladigan obyektlar uchun ishlatiladi. Raqamlar bilan klassifikator vazifasida keluvchi hisob so'zlari qo'llanilishi ba'zi kontekstda majburiy bo'lib, ular jonli obyektlarga

15 Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. – М.: Пилигрим, 2010. – С. 316.

16 Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. – М.: Пилигрим, 2010. – С. 108.

17 Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – T.: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi NMIU, 2002. B. 71

18 Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – T.: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi NMIU, 2002. B. 138

19 www.collinsdictionary.com

20 www.collinsdictionary.com

21 Omkar N. K. Modern hindi grammar. – London: Dunwoody Press, 2008. – P. 83.

ko'proq taalluqlidir. Masalan, एक (a/an,bir) soni bilan birga लोग (odamlar uchun) yoki पहरे (transport vositalari uchun) kabi ko'plikni anglatuvchi otlar hisob so'zlarisiz yakka holda kela olmaydi hamda jins va sonda moslashadi:

एक समूह लोग – a group of people – bir guruh odam

एक समूह पहरे – a set of wheels – bir to'p transport vositalari

Hisob so'zlari tillarning ko'zga ko'rinmas, ammo muhim unsurlari hisoblanadi. Ushbu tushunchalarni chuqur o'rganish nafaqat tilni chuqurroq tushunishga,

balki uni boshqa tillar bilan muvaffaqiyatli qiyoslashga yordam beradi. Hisob so'zlari ingliz, hindiy va o'zbek tillarida aniqlikni ko'rsatishga va ba'zan semantik izoh berishga yordam beradi. Hisob so'zlari tilshunoslik tadqiqotlari uchun muhim mavzu bo'lib, ayniqsa, boshqa tillar bilan qiyosiy tahlilda alohida ahamiyatga ega degan xulosaga kelish mumkin. Bundan tashqari, bu elementlar tillarni o'rganayotganlar uchun tilning nozik jihatlarini o'rganishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Яценко Н.Е. Толковый словарь обществоведческих терминов. – М.: Инфра – М, 1999. – С. 524.
2. Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. – М.: Пилигрим, 2010. С. 486.
3. Yule G. The Study of Language. 7th edition. 2020. P. 398
4. The International Bureau of Weights and Measures (BIPM). The International System of Units (SI brochure English version) 8th edition. – 2006. – P.180.
5. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: O'qituvchi, 2003. B. 432.
6. Omkar N. K. Modern hindi grammar. – London: Dunwoody Press, 2008. – P. 376.
7. Karimov A. Xitoy tilida hisob so'zlar. Monografiya. – Toshkent, 2003, B. 180.
8. Jiyanova N. Boburnomadagi numerativlarning ma'no xususiyatlari. – T., 2000.
9. Huddleston R., Pullum K. G. The Cambridge Grammar of the English Language. – 2002. – P. 1,861
10. Aikhenvald A. Y. Classifiers: A Typology of Noun Categorization Devices. – UK.: Oxford University Press, 2000. – P. 535.
11. Internet saytlari.
12. www.collinsdictionary.com
13. www.britishview.co.uk

Nigora RAHIMOVA,
O'zMU Xorijiy filologiya fakulteti
katta o'qituvchisi

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TIBBIY TERMINLAR TADQIQINING ASOSIY YO'NALISHLARI

Annotatsiya: dunyo tilshunosligida turli sohaga doir terminshunoslikda ham jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari o'z aksini topmoqda va tilshunoslarga maxsus sohada qo'llaniladigan terminlarni tadqiq etish vazifasi yuklanmoqda.

Kalit so'zlar: *tibbiyot nomlari, kelib chiqishi, semantika, lingvostatistika, lotin tili, ingliz tili, o'zbek tili.*

Annotation: in world linguistics, the laws of societal development are also reflected in terminology in various fields, and linguists need to study terms used in a special field.

Key words: *names of medicinal plants, origin, semantics, linguistic statistics, Latin language, English language, Uzbek language.*

Аннотация: в мировом языкознании в терминологии, относящейся к различным областям, также отражаются закономерности развития общества, и языковеды должны изучать термины, используемые в специальной области.

Ключевые слова: *названия растений, происхождение, семантика, лингвистическая статистика, латинский язык, английский язык, узбекский язык.*

Kirish. Jahon tilshunosligida zamonaviy ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va axborot kommunikatsiya texnologiyalari taraqqiyoti natijasida fundamental fanlarning tez sur'atlarda rivojlanishi bilan uzviy bog'liq holda innovatsion yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda va turli xil yangi fan tarmoqlari yuzaga kelmoqda. Fan sohasining ortib borishi, texnikada yangi tarmoqlarning vujudga kelganligi sababli tilda ham katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Biologiya terminologiyasiga oid masalalar bo'yicha bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo'lib, ilmiy manbalar tahlili natijasiga ko'ra, biologik terminlar maxsus terminologik tizim sifatida chuqur o'rganilmaganligi kuzatildi. Bu yo'nalishda tahlil qilingan manbalarning aksariyati inson tanasi nomlariga doir xususiyatlarni o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlardan iborat ekanligi aniqlandi.

Dunyo tilshunosligida turli sohaga doir terminshunoslikda ham jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari o'z aksini topmoqda va tilshunoslarga maxsus sohada qo'llaniladigan terminlarni tadqiq etish vazifalarini yuklamoda. Shu sababli, zamonaviy tilshunoslikning barcha jabhalarida bo'lganligi kabi soha terminshunosligida ham nazariy va amaliy masalalarni tobora chuqurroq tadqiq etish zamon talabiga aylanmoqda. Ayniqsa, qardosh bo'lmagan tillar misolida sohada qo'llaniladigan terminlarni davrlar mobaynida to'xtovsiz o'zgarishlarga uchrashi, rivojlanishi hamda shakllanishini o'rganish hozirgi kunda dolzarb hisoblanadi.

Mamlakatimizda ham soha terminologiyasi (biologiya, botanika, zoologiya, anatomiya, ekologiya, sitologiya, bioximiya, genetika, tibbiyot, farmatsevtika) xususan, biologik terminlarni lingvistik aspektda tadqiq etish va ularni tizimlashtirish kabi masalalar tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ushbu soha terminlarini tarjima qilish va ularni tartibga solish masalalari mazkur soha rivo-

jiga faol ta'sir ko'rsatadi. Biologik terminlarni turli tizimli tillar misolidagi chog'ishtirma tahlili o'rganilayotgan ingliz yoki o'zbek tillari terminshunosligidagi izomorfik va allomorfik jihatlarni aniqlashda ayniqsa ahamiyatli hisoblanadi. Zotan, chog'ishtirma tilshunoslik chet tili o'qitish metodikasining lingvodidaktik asosi hisoblanib, bir-biriga qardosh bo'lmagan tillardagi farq va o'xshashliklarning metodik jihatdan ahamiyati nuqtayi nazaridan o'rganilishi xorijiy tilni o'zlashtirayotganlar nutqida ro'y beradigan tillararo interferensiya va fatsilitatsiyalarni aniqlash, tadqiq etilayotgan tillarning qulay va samarali jihatlarni aniq ko'rsatish imkonini beradi. Shu bois, ta'lim tizimida qator fanlar bilan bir qatorda farmatsevtika faniga oid sohaviy terminlarning ingliz va o'zbek tillari misolida leksik-semantik, grammatik, etimologik, struktur-funksional xususiyatlarini qiyoslab o'rgatish ham talabalarning soha terminlarini o'zlashtirishlari va ta'lim sifatini oshirishda alohida ahamiyatga ega. Yuqoridagilarga asoslanib shuni aytish lozimki, biologik terminlar uzoq tarixiy davrni qamrab olishiga qaramay, ushbu sohada hali o'z yechimini topmagan masalalar bisyor, bu esa, terminologik tadqiqotlarni yanada kuchaytirish, terminologiyaning nazariy muammolariga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq ekanligidan dalolat beradi. Qolaversa, bugungi globallashuv va integratsiya davrida anatomik terminologiya muammolarini o'rganish, ushbu sohadagi ilmiy nazariy masalalarni tahlil etish, bu sohada o'z yechimini kutayotgan muammolarni belgilash, ayniqsa, muammoni qiyosiy tipologik aspektda o'rganish har qachongidan ham muhimroq ahamiyat kasb etmoqda. Shunday ekan, ingliz va o'zbek tillarida biologik terminlar va uning shakllanish tarixi, yasalish usullari, sohaga oid birliklarning terminologik xossalari, semantik va leksik xususiyatlarini o'rganish kabi masalalar chog'ishtirma aspektida maxsus tadqiq etishni

taqozo etadi.

Tilshunos olimlar bilan bir qatorda biolog va zoologlar, tabobat ilmi sohiblari, yetuk olimlar ham turli risola, darsliklar yozishgan va lug'atlar yaratishgan. A.Usmonxo'jayev, E.Basitxanova, O'.Pratov, A.Djabbarovning "O'zbekistonda o'sadigan shifobaxsh o'simliklarning etimologik zamonaviy ensiklopediyasi"[1], N.O'ljaboyevaning "Xalq tabobati xazinasidan javohirlar", S.Muhamadjonov, F.Jonguzarovlarning "O'simlikshunoslikka oid ruscha-o'zbekcha izohli lug'at"[2], S.Sahobiddinovning "Qisqacha ruscha-o'zbekcha botanika terminlari lug'ati" kabi asarlar shular jumlasidandir[3].

Z.Mirahmedovaning "Hozirgi o'zbek tilining anatomik terminologiyasi" dissertatsiyasida anatomiyaga oid terminlar leksik-paradigmatik jihatdan tadqiq qilingan.

D.N.Sapayevaning [4] "Ingliz va o'zbek tillarida tibbiyot terminologiyasining tarkibiy-semantik xususiyatlari" tadqiqotida, Tibbiyot leksikoni, ilmiy tibbiyotda boshqa fan terminlarini (farmasevtika biologiya, kimyo, fizika, mikrobiologiya, radiologiya, genetika, antropologiya, psixologiya, kibernetika va boshqalar) ishlatilishini o'z ichiga olib, bir qancha yuz minglab so'z va so'z birkimasini tashkil qiladi.

M.S.Usmonova dissertatsiyalarida Alisher Navoiy asarlarida qo'llanilgan fitonimlar va ularga aloqador so'zlarning gul, sabzavot, poliz, rezavor, donli ekin, mevali va manzarali daraxtlarni ifodalashiga ko'ra leksik-semantik, sodda, yasama va qo'shma fitonimlarning derivatsion xususiyatlari, o'simlik olamiga mansub umumturkiy va o'zbekcha, arabcha, forscha hamda aralash tarkibli so'zlarning geneologik jihatlari ochib berilgan.

O'zbek tili terminologiyasi masalalari dastlab

U.Tursunov tomonidan o'rganilgan[5]. Olim o'z ilmiy izlanishlarida terminologiya sohasining amaliy va nazariy masalalarini yoritib, lug'at tarkibining boyishi va takomillashuvida tashqi manbaning muhim o'zni haqida to'xtalib o'tgan.

Tibbiy terminologiya masalalari nazariy jihatdan ham bir nechta ilmiy ishlarda maxsus tadqiqot obyekti sifatida tanlanib olingan holda o'rganilgan. Jumladan, D.Bozorova, A.Xusanov dissertatsiyalarida tibbiyotning ma'lum bir kichik terminologik tizimining ichki strukturasi, tashqi boyish manbalari, nuqsonlari haqidagi fikr-mulohazalar o'z ifodasini topgan. O'zbek tilshunosligida tibbiy terminlar lingvomadaniy jihatdan endigina o'rganishga kirishildi.

F.Qosimovning dissertatsiyasida yig'ilgan 5000 ga yaqin tibbiy terminlar o'rtasidagi sinonimik, antonimik, giper-giponimik, partonimik, graduonimik munosabatlar qiyosiy-tipologik asosda yoritib berilgan. Shu jumladan, o'zbek va ingliz tillaridagi tibbiyotga oid shaxs, narsa, jarayon, holat ifodalovchi bemor (patient), dori (medicine), davolash (treatment), isitma (fever) kabi lisoniy birliklarning leksik-semantik xususiyatlari yoritilgan, ularning shakllanish asoslari etimologik jihatdan ochib berilgan. O'zbek va ingliz xalq tabobatiga oid "kasallik", "davolovchi shaxs", "homiladorlik" semali birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari milliy-madaniy farqlar nuqtayi nazaridan yoritib berilgan.[6]

Xulosa qilib aytganda, tilshunoslikda tillararo munosabatlar, usslarning bir-biriga ta'sirini kompleks holda tadqiq etish ishlari bir necha asrlardan buyon olimlar oldida kun tartibida turgan eng dolzarb tadqiqotlar sirasiga kiradi. Ayniqsa, terminlarning tillararo chog'ishtirib o'rganilishi, ularning kompozitsion jihatlari kabi masalalar yuzasidan tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Усмонхўжаев А., Баситханова Э., Пратов Ў., Джаббаров А. Ўзбекистонда ўсадиган шифобахш ўсимликларнинг этимологик замонавий энциклопедияси. – Т., 2018.
2. Муҳаммаджонов С., Жонгуразов Ф. Ўсимликшуносликка оид русча-ўзбекча изоҳли луғат. – Т., 198.
3. Саҳобиддинов С.С. Қисқача русча-ўзбекча ботаника терминлари луғати. – Т., 1954.
4. Мираҳмедова З. Ўзбек тилининг анатомик терминологияси. Филол.фан.номз.дисс. – Т., 1994. Турсун У. Ўзбек терминологияси масалалари – Т., 1933
6. Қосимова Ф. Ўзбек-инглиз тиббий терминлари ва уларнинг лингвокультурологик тадқиқи. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) автореф. – Т., 2022. – Б.8.



Nafosat OROMOVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi
oromovanafosat@gmail.com

ADABIY TA'LIMDA BADIY ASAR TILI USTIDA ISHLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqolada badiiy asar tili bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari va talablari haqida fikr yuritilgan. Asar tilini o'rganish orqali o'quvchilarning tafakkurini oshirish, his-tuyg'u va estetik fikrlashga o'rgatish yo'llari ochib berilgan. Badiiy asarda til va san'atning mukammal uyg'unligi mavjudligi, bu esa o'quvchilarga dunyoni yangi, san'atkorona ko'rinishda anglash imkonini berishligi dalillar asosida ifodalangan.

Kalit so'zlar: *badiiy asar tili, o'xshatish, mubolag'a, sifatlash, jonlantirish, til uslubi, badiiy mahorat, asar mazmuni.*

Аннотация: в статье рассматриваются особенности и требования работы с языком художественного произведения. Через изучение языка произведения раскрываются способы развития мышления учащихся, обучения их восприятию эмоций и эстетическому мышлению. На основе фактических данных выражено существование идеального сочетания языка и искусства в художественном произведении, позволяющего учащимся понимать мир по-новому, художественно.

Ключевые слова: *язык художественного произведения, сравнение, гипербола, эпитет, истиора, стиль языка, художественное мастерство, содержание произведения.*

Annotation: the article discusses the features and requirements of working with the language of a literary work. Through the study of the language of the work, the ways of developing students' thinking, teaching them to perceive emotions, and fostering aesthetic thinking are revealed. Based on factual data, the existence of an ideal combination of language and art in a literary work is expressed, allowing students to understand the world in a new, artistic way.

Key words: *language of a literary work, comparison, hyperbole, epithet, history, language style, artistic craftsmanship, content of the work.*

Badiiy asarlar tili o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Bu xususiyatlarni ba'zan tasvirlash va ifodalash vositalariga qarab aniqlash hollari ham uchraydi. Shu fikrdagi o'qituvchilar asar tilini o'rganishda o'xshatish, sifatlash, mubolag'a, jonlantirish kabi tasvirlash vositalarini yoki omonim va sinonimlarni o'rganishnigina ko'zda tutadilar. Avvalo, asar tilini o'rganish malakani talab qiladi. Bundan tashqari, asar tilini o'rganishda uning xususiyatlarini birin-ketin o'rganib, sistemalashtirib boriladi. Shunga ko'ra, birinchi galda badiiy asar tilining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat ekanligini, yozuvchining ijodiy faoliyatida bu xususiyatlar qanday o'rin tutishini aniqlash lozim. O'qituvchi bu masalalarni to'g'ri hal etganidagina asar tilini o'rganish mashg'ulotini to'g'ri tashkil qilish mumkin. Badiiy asarning til xususiyatlarini baholashda tasvirlash vositalarini aniqlash masalaning faqat bir tomonini tashkil qiladi. Shuning uchun avvalo, fikr bayon qilish, obrazning xarakterini ochish, shu obrazga aloqador predmetlar yoki shart-sharoit, manzara kabilarni tasvirlashda so'z va iboralarning tanlanishi, ularning o'rinli ishlatilishini o'rganish kerak. Chunki yozuvchining badiiy mahorati birinchi galda fikrga mos iboralar, so'z yoki so'z birikmalarini o'z o'rnida ishlatishi bilan belgilanadi. Maqsadga muvofiq iboralar

ishlatish esa adabiy asarning badiyiligin, go'zalligini oshiradi.

Adabiy ta'limda badiiy asar tili ustida ishlashning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Adabiy ta'limda badiiy asar tili ustida ishlash, o'quvchilarga asarlarning estetik va ma'naviy jihatlarini tushunishga yordam beradi. Badiiy til – bu nafaqat tilni o'rgatish, balki o'quvchilarning nutqini ma'naviy jihatdan boyitish, dunyoqarashini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Badiiy asar tili o'ziga xos bo'lib, u sodda va oddiy nutqdan farq qiladi. Badiiy tilda obrazlilik, tasviriylik, o'xshatishlar, metaforalar, epitetlar va boshqa badiiy vositalar keng qo'llaniladi. Bu o'quvchini o'ylashga undaydi, uning his-tuyg'ularini uyg'otish va estetik zavq olishiga yordam beradi, shuningdek, badiiy asar tili o'zgacha uslublarga ega. Uslubiy rang-baranglik yozuvchining individual til uslubi va badiiy mahorati orqali yoritiladi. Badiiy tilda ko'pincha ijtimoiy, falsafiy va psixologik ma'nolar ham o'rin oladi.

Badiiy asar tili bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari nafaqat tilni o'rganish, balki o'quvchilarning tafakkurini oshirish, his-tuyg'u va estetik fikrlashga o'rgatadi. Badiiy tilda til va san'atning mukammal uyg'unligi mavjud bo'lib, bu esa o'quvchilarga dunyoni yangi, san'atkorona ko'rinishda anglash imkonini beradi.

Adabiy asar tilining badiiy bo'lishi uchun unga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Adabiy asarda so'z yoki so'z birikmalari shunday ishlatilsinki, tasvirlanayotgan personaj yoki voqea-hodisalarning o'ziga xos individual xususiyatlari aniq ko'rinib turadigan bo'lsin. Shu orqali o'quvchi o'ziga noma'lum bo'lgan kishilar xarakterining boshqalardan ajraluvchi ayrim belgilarini ko'z o'ngida gavdalandiradi va tasavvur qiladi.

2. Badiiy asar tilida tasvirlanayotgan kishi yoki voqeaning boshqalarga xos tipik xususiyat va belgilari alohida ko'rinib turishi zarur. Haqiqatan ham, badiiy asarlarda tasvirlangan voqea-hodisalar, bunda ishtirok etuvchi kishilar o'quvchilarga notanishdir. Lekin shu kishilarning xatti-harakati, o'ziga xos individual xususiyatlari avvallari tanish va ma'lum bo'lgan kishilarni, ko'rgan yoki eshitgan voqealarini eslatadi. Kitobxon asarda tasvirlangan qahramonga o'xshagan kishilarni eslash va xotirlash orqali asar qahramonini ko'z o'ngida gavdalandiradi. Demak, badiiy asarning tili tasvirlanayotgan kishi yoki voqealarni tipiklashtirib bermog'i kerak.

3. Yozuvchi o'z dunyoqarashini, tasvirlanayotgan voqealarga munosabatini, odatda, qahramonning xatti-harakati orqali, qahramonning ruhiy kechinmalarini tasvirlash orqali bildiradi. Modomiki shunday ekan, badiiy asarning poetik tili ham emotsional ifodali bo'lmog'i

Shuning uchun ham badiiy asar tilidagi aniqlik, tipiklik, emotsional ifodalilik, ta'sirchanlik va estetik bo'yoqdorlik kabi muhim fazilatlar ma'lum bir sinfda emas, balki o'rta maktabda bir necha yil davomida o'qitib boriladi. Sinfda o'rganiladigan asarlardan shu belgilarning bo'rtib ko'rinib turganini o'rganib borish yillar davomida asar tilining barcha eng muhim xususiyatlarini o'rganib chiqishga imkon beradi.

Asar tilini o'rganishda bir so'zni ikkinchisi bilan almashtirib bo'ladimi yoki yo'qmi degan doiradagina emas, balki har bir so'zning tutgan o'rni va qimmatini aniqlash, nima uchun yozuvchi shu so'zni tanlaganligini idrok etish ahamiyatlidir. Shundagina yozuvchi fikrining ifoda va tasviriy vositalari yaxshi tushuniladi. Personajlarning xarakterli xususiyatlari faqat yozuvchining tasviri bilangina emas, balki ularning asar voqeasi rivojidagi munosabatlari doirasida ham ochila boradi. Asarni bir darsda o'qib bo'lmaydi. Shuning uchun o'quvchilarga personajlarning xarakteristikasini uyda yozma ravishda tayyorlab kelish topshiriladi.

Asarlarda til nafaqat inson tabiatini, balki manzarani ham tasvirlashda ishtirok etadi. Ijodkorlar, ayniqsa, nasriy asarlar yozganda tabiat tasviridan boshlashadi. Asar tahlillarida negadir bunga e'tibor qilinmaydi. Shu ma'noda "So'z san'ati" usulini qo'llash o'rinli bo'ladi:

"So'z san'ati" usuli

T/r	Ijodkorning tasvir uslubini aniqlash	Natija
1.	Asarning qaysi qismida tabiat tasviridan foydalanishini aniqlab olish	Bu ijodkorning ifoda maqsadi haqida tasavvur hosil qiladi
2.	Tabiat tasvirining asar g'oyasiga bog'liqlik darajasi	Mantiqiy fikrlashga o'rgatadi
3.	Tabiat tasvirida asosan qanday til birliklaridan foydalanishini aniqlash	Muallif mahoratiga baho berishni o'rganadi
4.	Asarda tabiat tasvirini o'qiganda ko'z oldingizga sizga tanish/notanish manzara paydo bo'lishini aniqlashtirib olish	Ta'sirchanlikni, estetik didni oshiradi

kerak. Shu emotsional ifodalilik asarning g'oyaviy yo'nalishini ham, yozuvchining ruhiy kayfiyatini ham ko'rsatib turadi.

4. Badiiy adabiyot ijtimoiy kurash va ijtimoiy tarbiya quroli bo'lgani tufayli asarning tili ishontirarli va ta'sirchan bo'lmog'i lozim, toki u kitobxonning ijtimoiy xulqiga ham ta'sir ko'rsatsin.

5. Badiiy asarning tili bo'yoqdor, jozibali bo'lmog'i kerak. Shundagina asar kishi ongini o'stirish va boyitishdan tashqari, estetik zavq bag'ishlaydi, nazokatni o'stiradi. Professor V.V.Golubkov ta'kidlaganidek, adabiy asar tili oldiga qo'yiladigan bu talablar muhim ahamiyatga egadir.

Asar tili oldiga qo'yilgan bu besh talab va belgilarni o'rganish anchagina murakkab bir ishdir. Bundan tashqari, o'rganilayotgan bir matn yuzasidan bu belgilarning barchasini aniqlab chiqish ham xiyalagina mashaqqatdir. Bu qiyinchilik birinchi galda barcha belgilarni bir matn misolida o'rganishning o'quvchilarga og'irlik qilishida ko'rinadi.

5-sinf o'quvchilari O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasidan olingan parcha bilan tanishib, uning til xususiyatlarini o'rganadilar. Darslikka kiritilgan parchaning voqeasi ham, undagi tabiat manzarasi tasviri ham o'quvchilarga ancha yaqin va tanishdir. Chunki respublikamiz o'quvchilarining ko'pchiligi asarda tasvirlangan voqealar doirasida yashaydi. Boshqa bolalar ham gazeta, jurnal, televideniye orqali tog' manzarasini kuzatadilar. Shu sababli romandan olingan parchani o'rganish oldidan o'qituvchining tayyorlab kelgan savollari asosida sinfda guruhda suhbat uyushtirish mumkin. Suhbat uchun taxminan quyidagi savollar o'rtaga tashlanadi:

1. Siz tog'ga borganmisiz?
2. Qir va adirlarda bo'lganmisiz?
3. Tog' havosi sizga yoqadimi?
4. Siz cho'qqilarni nimaga o'xshatasiz?

Suhbatlashilgach, matndan shu savollarga javob bo'luvchi o'rinlarni aniqlashga kirishiladi. O'quvchilar matn mazmunini mumkin qadar asar tiliga yaqinlashtirib

soʻzlab berishlari kerak. Bu asar mazmunini ijodiy qayta hikoyalashda yozuvchining tasviriga yaqinlashish, iloji boricha tabiat manzaralarini gavdalanitirish eslatiladi. Shu hikoyalash ham poetik tilni oʻrganishga yordam beradi. Bundan tashqari, yuqoridagi savollarga javob boʻluvchi oʻrinlarni belgilab chiqish topshiriladi. Bu faqatgina qissadagi “Haqqush” hikoyasi bilan bogʻliq suhbat. Bunday suhbatlarni yana davom ettirish mumkin.

Asarning poetik tilini oʻrganish uchun uning faqat xarakteristika va tabiat manzarasiga doir matnlarinigina emas, balki umuman fikr bayon qilishdagi oʻrnini ham har tomonlama oʻrganish maqsadida dars mashgʻulotining boshqa turlaridan ham foydalaniladi. Masalan, matndagi ayrim soʻzlarni almashtirib koʻrish yoki soʻz va iboralarni tushirib qoldirib, ularni oʻquvchilarga topirishga asoslangan mashgʻulotlar oʻtkaziladi. Asarning tili va uslubini oʻrganish maqsadida oʻtkaziladigan bu darslarni “stilistik eksperimentlar” deb yuritiladi. Stilistik eksperimentlar oʻquvchilarni matn mazmunini chuqur mushohada qilishga, ishlatilgan soʻz va iboralarning maʼnosini, jumladagi fikrlarning jozibador chiqishida yozuvchi tilining katta ahamiyati borligini bilishga oʻrgatuvchi vositalardir. Misol uchun Antuan de Sent-Ekzyuperining “Kichkina Shahzoda” romanidan olingan parchaning tilini shu yoʻlda oʻrganishni koʻrib oʻtaylik. Romanda hikoyachining bolaligi, rassomchilikka qiziqishi, kattalar tomonidan uni rad etilishi, uchuvchi boʻlishi, Saroyi Kabirga qoʻnishi va Kichkina Shahzoda bilan uchrashuvi hamda u bilan bogʻliq voqealar tasvirlangan. Oʻquvchilar asarni oʻqib chiqqanlar. Mazmuni ularga tanish. Hikoya tilini oʻrganish maqsadida oʻqituvchi

matndan alohida-alohida kartochkalar tuzib keladi. Bu kartochkalarda ayrim soʻzlar tushirib qoldirilgan boʻladi. Oʻquvchilarning vazifasi tushirib qoldirilgan soʻzlar oʻrnini toʻldirish va munosib soʻzlar topishdan iborat. Romandan olingan baʼzi misollarni koʻraylik:

1. Ularning tushunchalariga moslashardim-da, ..., ...oʻyinlari haqida, siyosat va boʻyinbogʻlar haqida gap boshlardim. Shunda kattalar menday ... odam bilan tanishganlaridan behad mamnun boʻlar edilar.

2. Shunday qilib, birinchi kechani ...sahroda, qum ustiga uzala tushib oʻtkazdim. Minglab chaqirim narida ham ...asari sezilmasdi. Kemasi halokatga uchrab, ... okeanda sol uzra suzib borayotgan odam ham menchalik yolgʻiz boʻlmagandir. Shu bois tong saharda meni kimningdir ...ovozi uygʻotib yuborganda naqadar hayratga tushganimni tasavvur ham qilolmasangiz kerak.

Oʻquvchilar birinchi misolda tushirib qoldirilgan soʻzlarning oʻrnini toʻldiradilar, matn mazmuniga mos soʻzlar tanlaydilar. Ikkinchi misolda huvullab yotgan, tirik jon, bepoyon, ingichka soʻzlari tushirib qoldirilgan parchaning oʻrnini ham shu yoʻl bilan toʻldiradilar. 5-sinf oʻquvchilari bunday mashgʻulotlarga endigina kirishayotganligini nazarga olib, topish osonroq boʻlgan soʻzlar tushirib qoldirildi.

Badiiy asar tilini shu tariqa oʻrganish yozuvchining asar tili ustida qanday ishlaganligini bilib olishga yordam beradi. Soʻzning qisqasi, badiiy asar tili faqat tasvirlash vositalarini aniqlash yoʻli bilangina emas, balki yozuvchining asarda ifodalangan mazmunga mos shakl yaratishdagi mahoratini atroflicha aniqlash yoʻli bilan ham oʻrganib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yoʻldoshev Q.B. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumtaʼlim maktablarida adabiyot oʻqitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 1997. 77-b.
2. Gʻulomov A., Neʼmatov H. Ona tili taʼlimi mazmuni. Oʻqituvchilar uchun metodik qoʻllanma. – T.: Oʻqituvchi. 1996. 9-b.
3. Yoʻldosh Q., Yoʻldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016. 30-b.
4. Husanboyeva Q. Adabiyot oʻqitish metodikasi va muammoli taʼlim. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. 42-b.

Madina SHAKIROVA,
O'zDJTU katta o'qituvchisi

SARIQ RANGNING MADANIYATGA XOS SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada sariq rangga oid idiomalar tahlil qilinib, ularning semantik ma'nosi, metaforik xususiyatlari va turli tillardagi qo'llanilishi o'rganiladi. Idiomalar sariq rangning ijtimoiy va madaniy qirralarini aks ettiradi. Ingliz, o'zbek va rus tillarida uchraydigan sariq rangga oid idiomalar taqqosiy jihatdan ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: sariq rang, idiomalar, semantik tahlil, metafora, rang va madaniyat, hasad, yolg'on axborot, tillararo tahlil, o'zbek tili, ranglarning ramziy ma'nosi.

Аннотация: в данной статье рассматриваются идиомы, связанные с жёлтым цветом, их семантическое значение, метафорические особенности и использование в разных языках. Идиомы, связанные с жёлтым цветом, отражают социальные и культурные аспекты, связанные с этим цветом. Проведён сравнительный анализ идиом в английском, узбекском и русском языках.

Ключевые слова: жёлтый цвет, Идиомы, Семантический анализ, Метафора Цвет и культура, Зависть, Ложная информация, Межъязыковой анализ, Узбекский язык, Символическое значение цветов.

Annotation: this article analyzes idioms related to the color yellow, examining their semantic meanings, metaphorical features, and applications in different languages. Yellow-colored idioms reflect the social and cultural aspects associated with the color. A comparative analysis of idioms in English, Uzbek, and Russian is provided.

Keywords: yellow color, Idioms, Semantic analysis, Metaphor, Color and culture, Envy, Fake news, Cross-linguistic analysis, Uzbek language, Symbolic meaning of colors.

Ranglar inson tafakkuri va madaniyatida muhim o'rin tutadi. Ular nafaqat tashqi ko'rinishni ifodalash, balki hissiyot va tushunchalarni aks ettirishda ham vosita sifatida ishlatiladi. Ranglarning ramziy ma'nosi turli tillar va madaniyatlarga qarab farq qilsa-da, ayrim umumiy xususiyatlar mavjud. Xususan, sariq rang iliqlik, quvonch va energiyani ifodalashi bilan birga, qo'rqqoqlik, hasad yoki yolg'on kabi salbiy ma'nolarni ham ifodalashi mumkin.

Sariq rangga oid idiomalar esa bu rangning til orqali ifodalangan ramziy ma'nolarini o'rganish imkonini beradi. Idiomalar odatda biror madaniyat yoki xalqning o'ziga xos hayotiy tajribasi va dunyoqarashini aks ettiradi. Ingliz, o'zbek va rus tillaridagi sariq rangga oid idiomalarni taqqoslash orqali rangning turli tillarda qanday semantik yukka ega ekanligini ko'rish mumkin.

Mazkur maqola sariq rangga oid idiomalar va ularning metaforik hamda semantik xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tahlil davomida sariq rangning ijobiy va salbiy kontekstdagi qo'llanilishi hamda ushbu idiomalar tilshunoslik nuqtai nazaridan qanday ahamiyatga ega ekanligi ko'rib chiqiladi.

Sariq rangli idiomalarni semantik tahlil qiladigan bo'lsak, u turli tillarda o'ziga xos o'xshashlik va farqli jihatlarga egadir. Ularni quyidagi misollar orqali tahlil qilib chiqamiz. Sariq rang, ko'plab madaniyatlarda, tillarda va ijtimoiy kontekstlarda ko'plab ma'nolarni aks ettiradi. Bu rang o'zining tabiiy o'zgaruvchanligi va yorqinligi bilan, turli xil his-tuyg'ular, holatlar va xususiyatlarni ifodalashda ishlatiladi. Sariq rangning semantik tahlili nafaqat bu rangga oid an'anaviy ma'nolarni, balki uning metaforik va idiomatik qo'llanilishini ham o'z ichiga oladi. Quyida

sariq rangga oid ba'zi mashhur idiomalar va ularning semantik tahlili keltirilgan. Dastlab ingliz tilidagi sariq rangga oid idiomalarni tahlil qilamiz.

Example 1: "Yellow-bellied". Ma'nosi: Qo'rqqoqlik, jasoratsizlik.

Tahlil: Bu idiomada sariq rang qo'rqqoqlikni ifodalovchi metafora sifatida ishlatiladi. "Yellow-bellied" ifodasi hayvonot olamidagi ba'zi o'ziga xos xususiyatlarga ishora qiladi, masalan, ayrim hayvonlarning jigari yoki qorinchalarining rangini "sariq" deb tasvirlash. Shunday qilib, sariq rang qo'rquvni anglatadi. Qo'rquvni anglatuvchi idiomalar nafaqat ingliz tilidagi ko'plab asarlar va qisqa hikoyalarda, balki og'zaki nutqda ham keng qo'llaniladi.

Example 2: "Yellow with envy". Ma'nosi: Hasad yoki qasddan qo'rqish.

Tahlil: Sariq rangning "hasad" bilan bog'lanishi eski madaniyatlarda kuzatiladi, chunki sariq rang "zararli" yoki "salbiy" kuchlarni anglatadi. Bu idiomada "yellow" hasadni, ya'ni biror kishining boshqasiga nisbatan yomon his-tuyg'ularini ifodalash uchun ishlatiladi. Sariq rang idiomalarining salbiy ma'nosi ham mavjud. Bu nafaqat ingliz tilida balki o'zbek va rus tillarida ham mavjuddir. Salbiy ma'noni ifodalovchi idioma keyingi misolimizda ham tahlil qilingan.

Example 2: "The yellow press". Ma'nosi: Yolg'on yoki manipulyatsiyalangan axborot.

Tahlil: "Yellow press" (sariq matbuot) atamasi jurnallarning axborotning past sifatini ta'riflash uchun ishlatiladi. Bu idiomada sariq rang yolg'on yoki haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni aks ettiruvchi sifat sifatida ishlatilgan. Sariq matbuot idiomasi har uchala tilda ham bir xil ma'noni yoki o'xshash ma'nolarni aks

ettiradi va tarjimada hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi. Keyingi misollarimiz esa o'zbek tilida mavjud bo'lgan sariq rangga oid idiomalardir .

Misol 1: “Sariq chaqmoqdek qochmoq”. Ma'nosi: Tez va dadil harakat qilish.

Tahlil: Ushbu idiomada sariq chaqmoqning tezligi va yorqinligi tezkor harakatni ifodalovchi metafora sifatida ishlatilgan. Sariq rangning chaqmoq bilan bog'lanishi, uning kuchli va tezkor energiyasini aks ettiradi. O'zbek tilida sariq rang odatda, yaxshilik, samimiylik va aksariyat holatlarda ijobiy ramzga egadir. Keyingi misolimiz orqali ham buning isbotini ko'rishimiz mumkin.

Misol 2: “Sariqni ko'rganidan keyin yashilni unutgan”. Ma'nosi: Hayotda yangi imkoniyatlar va xususiyatlar kashf etish, eski narsalarni unutish.

Tahlil: Bu idiomada sariq rang yangi boshlanishlarni yoki yangi imkoniyatlarni ifodalashda ishlatiladi. Sariqning yangi imkoniyatlar va istiqbollarni anglashi, bu idiomaning semantik ma'nosini yaratadi.

Misol 2: “Sariq yuz bilan kirishga”. Ma'nosi: Yuzaki yoki ko'rkam bo'lishga harakat qilish.

Tahlil: Bu idiomada sariq rang tashqi go'zallik va yuzaki ko'rinishni anglatadi. Bu, o'z navbatida, insonning ichki dunyosi va tashqi qiyofasining bir-biriga mos emasligini ko'rsatadi. Yuqoridagi misoldan ko'rishimiz mumkinki, sariq rangning ham salbiy ma'noni aks ettiruvchi idiomatik birligi mavjud va ular ko'p hollarda og'zaki nutqda o'z aksini topadi.

Keyingi misollarimiz rus tilidagi sariq rangga oid idiomalar tahlili bo'lib, ular ham rus tilida o'ziga xos ma'nolarga egadir.

Misol 1. “Жёлтый пресс”. Ma'nosi: Yolg'on yoki manipulyatsiyalangan axborot (xuddi inglizcha “yellow press” kabi).

Tahlil: Bu idiomada sariq rang axborotning past sifatini yoki noto'g'ri yoritilishini anglatadi. Bu esa jurnallarning asosan, sensatsion ma'lumotlarni tarqatishga moyilligini aks ettiradi. Yuqoridagi rus tilidagi idiomatik birlik nafaqat rus tilida yuqorida aks ettirilgan har uchta tillar idiomatik birliklari sifatida to'g'ridan to'g'ri tarjima qilish imkonini beradi.

Misol 2. “Жёлтое лицо”. Ma'nosi: Kasallik yoki yomon holat.

Tahlil: Bu idiomada sariq rang kasallik yoki jismoniy holatning yomonlashishini ifodalash uchun ishlatiladi. Sariq rangning kasallanishi, odamning o'zgarishlarga duch kelganini yoki salomatligining yomonlashganini ko'rsatadi.

Misol 3. “Жёлтая зависть”. Ma'nosi: Hasad, g'azab.

Tahlil: Sariq rang hasad va yomon his-tuyg'ularni ifodalovchi metafora sifatida ishlatiladi. Bu idiomada hasadning g'azab bilan bog'liq ekanligini va sariq rangning yomon ma'nolarda ishlatilishini ko'rsatadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, sariq rangga oid idiomalar, tilda va madaniyatda, rangning semantik va metaforik xususiyatlarini aks ettiradi. Har bir madaniyatda sariq rangning o'ziga xos ijtimoiy va psixologik ma'nolari mavjud. Ingliz, o'zbek va rus tillaridagi sariq rangli idiomalar orasidagi tahlil, ranglarning faqat tashqi ko'rinish yoki estetika bilan bog'lanmasligini, balki ular ko'plab his-tuyg'ular, holatlar va ijtimoiy kontekstlarni ifodalashda muhim vosita ekanligini ko'rsatadi. Ingliz tilidagi “yellow-bellied” va “yellow with envy” kabi idiomalar sariq rangni qo'rqoqlik va hasad bilan bog'lash orqali rangning salbiy tasvirini yaratadi. Boshqa tomondan, o'zbek tilidagi “sariq chaqmoqdek qochmoq” va “sariqni ko'rganidan keyin yashilni unutgan” kabi iboralar sariq rangni tezkorlik, yangi imkoniyatlar va kuch bilan bog'laydi. Rus tilidagi “жёлтая пресса” va “жёлтое лицо” kabi idiomalar esa sariq rangning past sifatidagi axborot va salomatlik bilan bog'lanishini ta'kidlaydi.

Tahlil, sariq rangga oid idiomalar va ularning turli tillarda ishlatilishida madaniyatlararo tafovutlarni va umumiyliklarni o'rganish imkonini beradi. Bu ranglarning lingvistik salohiyatini va ularning xalqning dunyoqarashidagi o'rnini tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari, sariq rangli idiomalar tilshunoslik, psixologiya va madaniyatshunoslik kabi sohalarida yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors we live by*. University of Chicago Press.
2. Macmillan, M. (2007). The yellow press and its influence on mass media. *Media Studies Journal*, 14(2), 45-60.
3. Matveev, M. L. (2003). *Основы теории дискурса [Fundamentals of discourse theory]*. Moscow State University Press.
4. Uzbekiston Encyclopedia. (2019). *Leksikografik tahlillar va ranglar [Lexicographic analysis and colors]*. – Tashkent: Uzbekistan Publishing House.
5. Sharifov, A. (2015). *Semantika va ranglar tahlili [Semantics and color analysis]*. Bukhara University Press.
6. Sirojiddinov, D. (2008). *Madaniyatshunoslik: Rang va til [Cultural studies: Color and language]*. – Tashkent: National Publisher.

Gulnoza NARZIYEVA,
Katta o'qituvchi
TATU Samarqand filiali
gnarzieva85@gmail.com

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA MILLIY-MADANIY KODNING IFODALANILSHI

Annotatsiya: ushbu maqolada frazeologik birliklar orqali milliy ong, madaniyat, mentalitet va jamiyat turli qiyofalarining tildagi ifodasi tahlil qilingan. Xususan, maqolada frazeologik birliklar, ularning semantik xususiyatlari va tildagi ko'chma ma'nolar orqali milliy-madaniy kodlarning shakllanishi va ularning ommaviy axborot vositalarida namoyon bo'lishi haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *milliy-madaniy kod, frazeologik birliklar, milliy tuyg'u, urf-odatlar, qadriyatlar.*

Аннотация: в данной статье анализируется языковое выражение различных образов национального сознания, культуры, менталитета и общества при использовании фразеологизмов. В частности, в статье рассматривается представления о формировании национально-культурного кода и его проявлении в средствах массовой информации с помощью фразеологических единиц, их семантические особенности и переносные значения в языке.

Ключевые слова: *национально-культурный код, фразеологизмы, национальное чувство, традиции, ценности.*

Annotation: this article analyzes the linguistic expression of various images of national consciousness, culture, mentality and society through phraseological units. In particular, the article presents ideas about the formation of the national cultural code and its manifestation in the media through phraseological units, their semantic features and figurative meanings in the language.

Key words: *national-cultural code, phraseological units, national feeling, traditions, values.*

Zamonaviy tilshunoslikning yo'nalishlaridan bo'lgan lingvokulturologiya hozirda keng iste'molda bo'lgan milliy ong, milliy tafakkur, milliy madaniyat, milliy ma'naviyat, milliy mentalitet, milliy xarakter hamda milliy-madaniy kod kabi tushunchalarni til negizida tadqiq etadi. Shu bois mediaviy diskursdagi madaniy kodlarni aniqlash xalq madaniyati turini uning xulq-atvor stereotiplari bilan bog'liq holda o'ziga xos xususiyatlarini, yashash tarzini axborotni dekodlash orqali yetkazish imkonini beradi.

Elektron gazeta matnlari milliy-madaniy kodni namoyon qilishda asosiy rol o'ynaydi. Gazeta va publitsistik matnlarda leksik va uslubiy vositalar orqali auditoriyaga milliy tuyg'uni singdirishda til birliklaridan foydalaniladi. Ular vositasida xalqning o'ziga xos dunyoqarashi, hayotiy qarashlari, ustuvorliklari yetkaziladi.

Tilshunos olimlar D.V.Gudkov va V.V.Krasnixlarning fikriga ko'ra, "milliy-madaniy kod" – bu insonning butun hayoti davomida shakllangan va uni tasdiqlovchi hujjatlar (xatlar, kundaliklar, tadqiqotlarning sharhlari)ga asoslangan, dalil-isbotlari bor ma'naviy hamda moddiy tajribalarini uzatishdir¹. Milliy-madaniy kod – bu avloddan avlodga o'tib kelayotgan va har bir madaniyatning o'ziga xosligini tashkil etuvchi ramzlar, belgilar, me'yorlar, an'analar va qadriyatlar yig'indisidir. Ma'lumki, milliy-

madaniy kod asosiy tushunchalar – munosabatlar, qadriyatlar va me'yorlar (inson psixikasining elementi, ko'rinishi) to'plami sifatida ma'lum bir insoniyat jamiyatining mentallik tizimiga kirib, ma'nodan (umumiy tan olingan belgi) mohiyatga (muayyan madaniyat tilining elementiga) o'tishga imkon beradi.

Tilshunoslikda boshqa tillar kabi o'zbek tilida ham so'z ma'nosini o'rganuvchi fan – semasiologiya asosiy o'rin tutadi. Tilning antroposentrik tamoyili ifodasida leksik birliklar, jumladan, ularning ko'chma ma'nolari muhim rol o'ynaydi². Elektron gazetalar matnida ko'chma ma'noli so'zlar auditoriya e'tiborini jalb qilish, ma'lum bir kayfiyat yaratish yoki murakkab fikrlarni yanada qulayroq va ta'sirchanroq yetkazish uchun qo'llaniladi. Bu ekspressiv vositalar jurnalist-mualliflarga o'z fikrlarini yanada ifodali va ishonarli ifodalash imkonini beradi.

Ma'lumki, frazeologizmlar – bu barqaror ma'noga ega va tilda leksik birlik kabi tayyor holda qo'llaniladigan birliklar bo'lib, ular o'ziga xos sintaktik, semantik va strukturaviy xususiyatlarga ega. Milliy-madaniy kodni frazeologik birliklarda aks ettirish turli xalqlar tillari va madaniy xususiyatlarini o'rganishning muhim jihati hisoblanadi. Frazeologizmlar – bu muayyan ma'noga ega bo'lgan va ko'pincha ma'nosini tarkibidagi so'zlar ma'nosi asosida izohlash mumkin bo'lmagan turg'un

¹ Красных В. В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология. – М., 2002. – С. 232.

² Юлдашев Г.А. Тил birliklarini kategoriyalash tirishda kognitiv ёндашув // Scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2020. – № 4 (33). – Б.108.

iboralardir. Ular ko'pincha xalqning tarixi, madaniyati, dini yoki urf-odatlar bilan bog'liq bo'lgan majoziy yoki metaforik elementlarni o'z ichiga oladi. Masalan: ingliz tilida "After this play flopped, he was not very happy to find somebody else using the same effect in a production of *Macbeth* (1606). They **literally stole his thunder!**"; "Blaming minority communities for having higher rates of chronic disease which makes them more susceptible to COVID-19; I'm certain that he was responsible"; "I think People believe that this idea of literally **burning bridges** originated during the days of the Roman Empire"; "The politician promised to address the pressing social issues facing the country, and the citizens were eager to see if he would follow through or if it was just another case of talking **head over heels**"; "The team of researchers was **head over heels** in their pursuit of finding innovative solutions to combat poverty and unemployment"; "Despite their differences, the diverse group of volunteers worked together **head over heels** to promote tolerance and understanding in the community"³ va h.k. Ushbu misollarda "literally stole his thunder", "burning bridges", "head over heels" kabi milliy-madaniy kodni namoyon qiluvchi idiomalar qo'llanilgan.

O'zbek media olamida milliy-madaniy kodning frazeologik birliklarda aks etishini quyidagi misollarda kuzatish mumkin: "Non sindirilsa-yu, ko'ngillar birlashmasa..." Fotiha to'yi... Qiz tomonning roziligini olgan quda bo'lmishlar tog'ora-tog'ora noz-ne'matu sarpo-suruqni ko'tarib, qiznikiga kelishdi. **Patir sindirishdi, ikki yoshning baxtini tilashdi. Nonning orasiga shirinliklar qo'yib, qo'ni-qo'shni, xesh-u aqrabolarga ulashildi, qiz va yigitning boshi bog'langani ma'lum qilindi**⁴.

Milliy-madaniy xususiyatli iboralarni shakllantirishda, ayniqsa, oziq-ovqat va taom nomlari o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. O'zbek kundalik turmushida non muhim ozuqa hisoblanadi. Xalqimiz nonni azaldan hurmat qiladi, hamma narsadan afzal, aziz va muqaddas biladi. Ushbu misolimizda o'zbek milliy an'analariga xos nikoh marosimi, unashtirish odati bilan bog'liq non sindirish va boshini bog'lamoq iboralari qo'llanilgan bo'lib, otaning sovchi yuborgan oilaga qizini uzatishga rozi ekanligi, va'daning qat'iy va muqaddasligini, shuningdek, kuyov-kelin, quda oilalar ahil bo'lishi uchun bildirilgan istakni ifodalaydi⁵.

Non G'arb xalqlarining kundalik hayotida ham muhim o'rin egallaydi. Shuning uchun ingliz tilida *bread* (non) so'zi bilan yasalgan iboralarni ko'plab uchratish mumkin: *bread and butter* "kimningdir tirikchilik qilish yo'li",

earn one's bread "nonini topmoq", *bread and butter letter* (a letter of thanks for hospitality) iboralari shular jumlasidandir⁶.

Ko'pgina frazeologik birliklar ma'lum bir xalqqa taalluqli tarixiy voqelik yoki rivoyatlar asosida ham ke-lib chiqishi mumkin. Masalan, ingliz tilida "to bury the hatchet" idiomasi mavjud bo'lib, bu "munosabatlar-ni qayta ko'rib chiqish" degan ma'noni anglatadi. O'zbek matbuotida ham frazeologizmlardan samarali foydalaniladi, zero, ular mediamatn ekspressivligini oshirishga xizmat qiladi va axborotni chuqur anglab yetishga imkon beradi: "Bu yangilikni eshitgan xalq **do'ppisini osmonga otishi** aniq edi"⁷. Ma'lumki, har bir xalqning kiyim-kechak nomlari va realiyalari ham milliy frazeologizmlarni hosil qilish uchun asos bo'ladi va ular orqali milliy-madaniy kod ifodalanadi. Ushbu misoldagi **do'ppisini osmonga otmoq** iborasi "juda xursand bo'lmoq" ma'nosida qo'llanilgan.

Ta'kidlash joizki, til bizning fikrimiz va e'tiqodlari-mizni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi va shuning uchun bu salbiy stereotiplar tarqalishi va ularni yengish uchun kuchli vosita bo'lishi mumkin. Milliy-madaniy kodning tilda qanday aks etishi va salbiy ma'nodagi iboralardan muallifning xabar mazmunida undan ongli ravishda foydalanishi orqali auditoriyani yaxshilik va yomonlikni anglashga, yomonlik oqibatlarining oldini olish orqali tolerant jamiyatni shakllantirishga xizmat qiladi. O'zbek matbuotida quyidagi misollar orqali salbiy ma'noli iboralar qo'llanishini ham kuzatish mumkin:

"Har gapni **tilga olishga to'siq bo'luvchi suyak yo'q ekan, qo'l-chi? Qo'llarimizda suyak bormi? Bugun biz shu qo'llar orqali istagan mulohazamizni yozishga kirishdik. Nega dildagini yozuvga ko'chirish ishini suyaklar nazorat qilolmayapti?**"

"Muloqot imkoniyati – bizga atalgan ne'matlardan biri. Uni suiste'mol qilmaslik, **so'z uvoliga** yo'l qo'y-maslik har kimning o'z qo'lida. **Iroda ishga solinsa, teran tafakkur va qalb amriga quloq solinsa** bas"⁸; "**Ba'zan atrofdan "Tilning suyagi yo'q deb, gapiraverasanmi? degan tanbehni eshitamiz"**"; "Oramizdagi **begonalik pardasi biroz ko'tarildi**"; "**Tarvuzi qo'ltig'idan tushgan hakamlar**"; "**Tirnoq tagidan kir qidirayotgan bloggerlar**"; "**Bugungi kunda kasalni yashirsak, isitmasi oshkor qilmoqda**"; "**Bozor qachon o'pkasini bosib oladi**"; "**Guruch kurmaksiz bo'lmaydi**"; "**Barcha ishlarga qo'l siltab ketgim keladi ba'zida**"; "**Boqi beg'am insonlar sababli davlatimiz yuksalishdan ortda qolmoqda**"; "**Yopig'lik qozon yopiqligicha qolsin talqinida ish qiluvchilar ko'payib bormoqda**"¹⁰ va h.k.

Frazeologizmlarda ma'lum madaniyatga xos bo'lgan

3 <https://medium.com/smart-minds>; <https://www.oxford-royale.com/article>; <https://www.hellovaia.com/2021>.

4 <https://darakchi.uz/oz/19795?ysclid=lw92s4hvrz/14.12.2016>.

5 https://uz.wikipedia.org/wiki/Non_sindirish/ O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

6 Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019. 248- b.

7 <http://www.adolatgzt.uz/03.06.22>.

8 <http://www.adolatgzt.uz/society/5869>. №7.2020

9 <http://www.adolatgzt.uz/society/5869>. №7.2020

10 <https://xs.uz/uzkr>; <http://press.natlib.uz/ru/publications/vatanparvar>; <https://ishonch.uz/>; <https://ishonch.uz/>; <https://hudud24.uz/category/>

diniy yoki mifologik obrazlarga ishoralar bo'lishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi *"to be a good Samaritan"*: *"In a time of crisis, the government must strive to be a good Samaritan, offering assistance and support to its citizens in need"* iborasini olaylik. Bu ibora quyidagicha ma'noni anglatadi, ya'ni Samariyalik mifologik shaxs bo'lib, o'zgalar, ayniqsa, notanish kishilar ma'lum bir muammoga duch kelganda yordam beradigan shaxs sifatida gavdalanadi. *"Inqiroz davrida hukumat yordamga muhtoj fuqarolariga ko'makdosh va qo'llab-quvvatlovchi yaxshi Samariyalik bo'lishga intilishi kerak"*.

"The senator has a green thumb when it comes to economic policies, consistently nurturing growth and prosperity for the nation". Iqtisodiy siyosat haqida gap ketganda, senatorning qobiliyati doimiy ravishda mamlakatning o'sishi va farovonligini ta'minlaydi. Ushbu misoldagi *to have a green thumb* (yashil bosh barmoq) iborasi kishilarning tabiiy iste'dodi yoki o'simliklarni yetishtirish qobiliyatiga ega ekanligini anglatadi. Shu nuqtayi nazardan, bu senatorning iqtisodiy siyosatni samarali amalga oshirishni bilishidan dalolat beradi. Ushbu jumla iqtisodiy siyosatni o'simliklar kabi "boqish" mumkinligini taklif qiladi. Bu insoniyatga siyosatning mavhum tushunchasini beradi.

Frazeologizmlar madaniy urf-odat va an'analarga xos xususiyatlarni aks ettirishi mumkin. Misol uchun, barcha tillarda milliy-madaniy xususiyatlar bilan bog'liq frazeologik birliklar mavjud bo'lib, ular xalq madaniyatida tushunchaning ahamiyatini aks ettiradi. O'zbek matbuotida milliy-madaniy kodning namoyon bo'lishi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, bu axborotning yoritilishida kuchli ta'sirchanlikni hosil qiladi. Masalan:

"Ha, dehqonchilikning barakasi – ishning ko'zini bilib mehnat qilishda"; *"Ota meni yaxshi bilasiz, tishlagan yerimni uzmay qo'ymayman"*¹¹.

e-mutolaa/inson-va-konun-gazetasi/ va x.k.

11 <https://uzhurriyat.uz>; <https://daryo.uz>; <https://kun.uz/news> 17.03.21.

Rusiyazabon onlayn gazetalarida frazeologizmlardan foydalanish matnlarning jozibadorligini oshirish va ularni o'quvchilarga yaqinlashtirish maqsadida amalga oshiriladi va ularda o'zbek jamiyatida ro'y berayotgan axborotni uzatishga qaratilgani bois unda o'zbek milliy-madaniy kodning namoyon bo'lishini kuzatishimiz mumkin: "Пришло время развязать этот узел", "Птица с крыльями, человек с друзьями", "Попал на плов", "Не сидеть сложа руки», «Душа радуется», "Бросить взгляд", "Говорить от сердца" va h.k. Onlayn nashrlardan misollar keltiramiz: "Учителя не могут сидеть сложа руки, когда перед ними стоят задачи по внедрению новых технологий в образовательный процесс", "Сегодня невозможно сидеть сложа руки, когда страна нуждается в прогрессивных идеях и реформах", "Душа радуется, когда видишь, как ученики с гордостью защищают честь своей школы на республиканских олимпиадах"; "В сложной ситуации нужно было прикусить язык и не поддаваться эмоциям, чтобы не усугубить конфликт", "На встрече с читателями редактор говорил от сердца, выражая благодарность за их поддержку и активность", "Достаточно бросить взгляд на статистику, чтобы увидеть, как улучшились показатели в сфере образования" va h.k.

Yuqorida keltirilgan frazeologizmlar xalqning milliy xarakteri va mentalitetiga xos xususiyatlarni aks ettira olishi sababli ularning milliy-madaniy kod sifatida voqelanishi muayyan tilning madaniy jihatlarini tushunish, shuningdek, turg'un lisoniy iboralar shakllanishi va faoliyat ko'rsatishi mexanizmlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Maqola tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohasida o'rganish va tadqiqotlar olib borayotgan olimlar uchun muhim manba bo'lib, til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur anglashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Красных В. В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультуроология. – М., 2002. – С. 232.
2. Юлдашев Г.А. Тил бирликларини категориялаштиришда когнитив ёндашув // Scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2020. – № 4 (33). Б.108.
3. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent 2019. 248- bet.



Умида ПУЛАТОВА,
и. о. доцента кафедры
Узбекского языка и литературы ТГЮУ

ЛИНГВОМЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ У СТУДЕНТОВ-ЮРИСТОВ НАВЫКОВ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ

Аннотация: в данной статье проводится сопоставительный анализ письменной и устной форм речи, обосновывается мнение о необходимости формирования у студентов-юристов навыков письменной речи с опорой на грамматику. В связи с этим предлагаются виды упражнений в соответствии с уровнями языка.

Ключевые слова: письменная и устная речь, навыки, принципы, комплекс упражнений.

Annotatsiya: ushbu maqolada nutqning yozma va ogʻzaki shakllari qiyosiy tahlil qilinib, yurist talabalarida yozma nutq koʻnikmalarini shakllantirish zarurligi haqidagi fikrlar asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada til darajalariga mos ravishda mashq turlari taklif etilgan.

Kalit soʻzlar: yozma va ogʻzaki nutq, koʻnikmalar, tamoyillar, mashqlar toʻplami.

Annotation: this article provides a comparative analysis of written and oral forms of speech and substantiates the opinion about the need to develop writing skills based on grammar among law students. In this regard, types of exercises are proposed in accordance with language levels.

Key words: written and oral speech, skills, principles, set of exercises.

Известно, что «письменная речь – продуктивный вид речевой деятельности»¹ и с точки зрения методики является сложным процессом, которому уделяется меньше внимания при обучении языку как неродному. Письменная речь также является средством коммуникации между людьми, когда непосредственное (устное) общение не представляется возможным, т.е. когда они разделены пространством и временем.

Сходство обеих форм речи заключается в том, что основу их составляет литературный язык. В практике обе формы занимают примерно равное место по своей значимости, проникая во все сферы человеческой жизнедеятельности, включая сферу производства, управления, образования, юриспруденции и т.д.

Между обеими формами также существуют различия, которые заключаются в употреблении средств выражения: устная речь связана с интонацией и относится к разговорному стилю. Письменная речь использует буквенные, графические обозначения (точки, запятые, тире, которые служат для членения речи и соответствуют интонационной паузе в устной речи) и используют чаще книжный язык со всеми его стилями и особенностями.

В письменной речи большое значение имеет порядок слов, строгая последовательность. Предложение, являясь основной единицей письменной речи,

выражает логико-смысловые связи посредством синтаксиса, поэтому письменной речи свойственны сложные синтаксические конструкции, причастные и деепричастные обороты, распространенные определения, вставные конструкции и т.п.; каждый абзац строго связан с предшествующим и последующим контекстом.

В настоящее время в связи с активным развитием международных отношений устное общение становится менее актуальным и возникает реальная потребность в письменной речи. Следовательно, в целях эффективной коммуникации не только в бытовых ситуациях, но и в профессиональной деятельности будущий специалист должен уметь письменно выражать свою речь. В связи с этим перед преподавателем русского языка нефилологических вузов должна быть поставлена задача подготовить студентов к письменному общению в профессиональной деятельности.

Методисты отмечают, что «при обучении письменной речи важно прежде всего определение целей обучения. Цели многообразны, так как определяются коммуникативными потребностями определенных контингентов учащихся с учетом возраста, социального статуса, формы обучения, наличия или отсутствия языковой среды»².

Целью обучения письменной юридической речи является формирование навыков деловой пись-

¹ Чеснокова, М.П. Методика преподавания русского языка как иностранного: учеб. пособие / М.П. Чеснокова. – 2 изд., перераб. – М.: МАДИ, 2015. – 132 с. ISBN 978-5-7962-0175-6. URL: <https://lib.madi.ru/fel/fel1/fel15E327.pdf>

² Чеснокова, М.П. Методика преподавания русского языка как иностранного: учеб. пособие / М.П. Чеснокова. – 2 изд., перераб. – М.: МАДИ, 2015. – 132 с. ISBN 978-5-7962-0175-6. URL: <https://lib.madi.ru/fel/fel1/fel15E327.pdf>

менной речи как средства фиксации информации в сфере профессиональной коммуникации и развитие коммуникативной компетенции.

В связи с этим основной задачей обучения студентов-юристов написанию текстов процессуальных документов является формирование у них навыков самостоятельного выбора языкового материала, что значительно повышает роль изучения грамматической системы языка. Известно, что данная система – это сложный организм, состоящий из взаимосвязанных и взаимодействующих частей: фонетики, лексики, морфологии, синтаксиса, стилистики. Поэтому для достижения поставленной цели следует разработать комплекс заданий и упражнений, включающий следующие задачи:

- ознакомить студентов с официально-деловым стилем речи, своеобразием лексики, употреблением конкретных грамматических конструкций;

- дать представление об основных структурно-синтаксических особенностях организации текста процессуальных документов, его внешней (овладение основными жанрами письменной речи и соотношение их структурных элементов) и внутренней (овладение структурно-семантической организации текста, основными категориями текста (информативность, связность, модальность), тем самым выработать у студентов навык лингвистического видения текста;

- сформировать умения отбора нужных языковых средств (лексико-грамматические и стилистические);

- выработать навык и сформировать умения самостоятельного составления текстов процессуальных документов определенной тематической направленности, опираясь на знание структурно-синтаксической и структурно-семантической организации текста.

В содержание обучения письменной речи должны быть включены основы стилистики, особенности официально-делового функционального стиля речи, что играет определяющую роль при использовании языка в ситуациях письменного делового общения в сфере профессиональной коммуникации.

Подобный подход позволил нам предложить при обучении языку процессуальных документов такой комплекс упражнений, который, на наш взгляд, будет способствовать целенаправленному усвоению соответствующего материала.

Разумеется, разработанный нами комплекс упражнений будет служить для выработки навыков только письменной речи. В связи с этим главной задачей при создании комплекса обучающих упражнений, является учет особенностей изучаемого подстиля, дающий возможность сформировать у студентов навыки грамотного использования отобранного языкового материала.

Обучая студентов русскому языку как нерод-

ному, следует формировать и развивать у них умение пользоваться в профессиональной деятельности не только устной, но и письменной формой коммуникации. При этом учитывается важнейшая особенность письменной речи – отсутствие лица-коммуниканта, т.е. подразумевается монологический характер речи. Другой отличительной особенностью письменной речи является логичность, связность, максимальная доступность ее предметно-языкового содержания. Письменная речь представляет собой самый сложный вид речевой деятельности и предполагает решение орфографических, пунктуационных, стилистических и других задач.

В решении данных задач важную роль играет комплекс заданий и упражнений, который должен строиться с учетом преемственности, постепенного усложнения характера упражнений, использования разнообразных упражнений конструктивно-речевого характера, направленных на формирование речевых действий.

Учитывая указанные особенности письменной речи, упражнения можно дифференцировать на лексические, словообразовательные и морфологические, синтаксические, пунктуационные и стилистические.

Наиболее эффективным способом достижения положительного результата обучения письменной речи является создание и организация комплекса упражнений, т.е. последовательное выстраивание упражнений каждого уровня.

Итак, мы считаем, что в обучении письменной речи первичным представляются упражнения лексического характера, содержащие термины. Изучение терминологической лексики при обучении русскому языку (с учетом небольшого количества часов, отведенного на усвоение языка в вузе) требует четкого и обоснованного отбора именно тех терминов, которые будут наиболее ценными в коммуникативном отношении.

Кроме того, одним из принципов отбора лексики, связанной с будущей специальностью студентов, является принцип выбора единиц, которые соответствуют коммуникативным потребностям студентов.

Другим, не менее важным принципом считается принцип выбора наиболее употребительных в речевых ситуациях средств, с помощью которых организуется общение в учебно-профессиональной сфере.

Annotation: poetics of names in modern Uzbek literature is one of the important and interesting topics in literary criticism. Names and their poetic meanings in Uzbek literature are studied by many authors. In this article we will consider some of the main aspects of the poetics of names on the example of the creativity of Ulughbek Hamdam.

Key words: *symbolism of names, emotional renaissance, evolution of names, national symbol, psychology of heroes in names.*

Аннотация: поэтика имен в современной узбекской литературе является одной из важных и интересных тем в литературоведении. Имена и их поэтические значения в узбекской литературе изучаются многими авторами. В данной статье мы рассмотрим некоторые основные аспекты поэтики имен на примере творчества Улугбека Хамдама.

Ключевые слова: *символика имен, эмоциональный ренессанс, эволюция имен, национальный символ, психология героев в именах.*

1. Ismlar va ularning simvologiyasi.

O'zbek adabiyoti o'z tarixida inson va uning ichki dunyosini ifoda etishda turli badiiy usullarni shakllantirdi. Shu jarayonda qahramonlarning ismlari ham alohida poetik vazifa bajarib, ularning xarakterini ochish, mazmunni boyitish va asar maqsadini ifodalashda muhim vositaga aylangan. Zamonaviy o'zbek nasrida ismlar poetikasi yanada murakkablashib, chuqur ramziy ma'nolarni ifodalash imkoniyatiga ega bo'ldi. O'zbek adabiyotida figura va simvol sifatida ishlatiladigan ismlar ko'pincha muallifning ifoda etayotgan g'oyalari hamda rejalariga bog'liq bo'ladi. Ular asarlarga chuqur ma'no va mazmun beradi. Masalan, qahramon nomlarining tanlanishi ularning xakteri va hayotdagi o'rnini anglatadi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida Kumush ismi sof va begunoh muhabbatni ifodalasa, Otabek ismi erksevarlik va fidoyilik ramzi sifatida talqin qilinadi.

2. Milliy an'analar va ismlar.

O'zbek adabiyotida milliy an'analar ismlar orqali ifodalanadi. Ular ko'pincha ma'lum bir tarixiy yoki madaniy kontekstdagi ahamiyatga ega. Ismning o'zi millat tarixini, urf-odatlarini va an'alarini aks ettirishi mumkin. Misol uchun, "Dilshod", "Gulbahor" kabi ismlar o'zbek madaniyatida o'ziga xos bir o'rin tutadi. Yozuvchilar tomonidan qadimiy yoki diniy mazmundagi ismlarning tanlanishi badiiy uslubni boyitadi va asar mazmunini chuqurlashtiradi. Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" asarida qahramonlar ismlari xalqona va arxaik uslubda tanlangan bo'lib, bu o'zbek qishloq hayoti va an'alarining poetik ifodasini beradi.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida yozuvchilarning ismlar

poetikasiga yondashuvi muhim mavzulardan biridir. Ismlar poetikasi, asosan, asar qahramonlarining ismlarini tanlash va ularni badiiy kontekstda qo'llash orqali ma'no va mazmunni kuchaytirish bilan bog'liq. Bu yondashuvda quyidagi jihatlar e'tiborga olinadi:

1. Ismlarning semantik vazifasi

Yozuvchilar qahramonlarga ismlar berishda ularning xakteri, jamiyatdagi o'rni yoki ichki dunyosini aks ettirishga harakat qilishadi. Masalan: Ulug'bek Hamdam asarlarida ismlar milliy merosga xos qadriyatlarni aks ettiradi. Isajon Sulton ijodida ismlar orqali qahramonlarning ruhiy kechinmalari va ichki konfliktlari ochib beriladi.

2. Milliy va tarixiy kontekst

Ko'p hollarda ismlar milliy qadriyatlar va tarixiy davrni aks ettirish uchun ishlatiladi. Masalan, o'zbek adabiyotida milliy ruhni saqlash uchun Sharqona va qadimiy o'zbek ismlari keng qo'llaniladi, bu orqali yozuvchi qahramonning ijtimoiy va madaniy kontekstini belgilaydi. Erkin A'zam ijodida esa ismlar ichki syujet va dramatik holatlarni aks ettiruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

3. Ismlarning o'zbek folklori va diniy merosga aloqadorligi

Ko'plab zamonaviy yozuvchilar folklor va diniy manbalardan foydalanib, qahramonlarga ma'naviy boylik va chuqur ma'no yuklaydi. Bu o'quvchiga ismlar orqali asarning ma'no qatlamlarini tushinishda yordam beradi.

Ushbu kichik tadqiqotimiz orqali bugungi kunda o'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan Ulug'bek Hamdamning nasriy asarlarida qo'llanilgan ismlar poetikasini tahlilga oldik.

Ulug'bek Hamdam — o'zbek adabiyotining zamonaviy yozuvchilaridan biri bo'lib, uning asarlarida tahlil va poetik uslub, jumladan, ismlar poetikasi katta ahamiyatga ega. Ulug'bek Hamdam o'z asarlarini yozishda faqat badiiy tasvirlar, syujet yoki ichki konfliktini emas, balki har bir qahramonning ismi orqali uning mohiyati, jamiyatdagi o'rni, hayotdagi maqsadi va psixologik portretini taqdim etadi. Ismlar nafaqat shaxsiyatni, balki jamiyatdagi o'zgarishlarni, qarama-qarshiliklarni, milliy va madaniy qadriyatlarni aks ettiradi.

Ulug'bek Hamdam asarlarida ismlar poetikasining o'ziga xosligi.

1. Ismlar va xarakterlarning o'zaro bog'lanishi.

Ulug'bek Hamdam asarlarida ismlar har doim ma'no va ramz sifatida ishlatiladi. U asaridagi har bir ismni aynan o'sha qahramonning ichki holatini, shaxsiyatini, turmush tarzini yoki ijtimoiy o'rnini aks ettirish uchun tanlaydi. Ismlar orqali u nafaqat qahramonlarning xarakterini, balki jamiyatning o'zgarishlari va dunyoqarashini ham aks ettiradi.

Masalan:

2. Xalq va ijtimoiy o'rin.

Ba'zi ismlar orqali Ulug'bek Hamdam o'z asarida o'zbek xalqining ijtimoiy va iqtisodiy holatini aks ettiradi. Ismlar o'rtasidagi farqlar orqali yozuvchi qahramonlarning ijtimoiy qatlamdagi o'rnini yoki kelajakka bo'lgan intilishlarini ko'rsatadi. [1. "Muvozanat" romanidagi Yusuf obrazi misolida.]

3. Ismlar va milliylik

Ulug'bek Hamdam o'z asarlarini yozishda ismlar orqali milliy qadriyatlarni, an'analarni yoki tarixiy xotiralarni ham yoritadi. Ismlar, ba'zida, ma'lum bir tarixiy kontekst yoki milliy ramz sifatida xizmat qiladi. Masalan, ba'zi qahramonlarning ismlari o'zbek xalqining qadimiy tarixiga ishora qiladi, bu esa kitobxonga jamiyatdagi o'zgarishlarni, kelajakdagi istiqbolini yoki o'tmishni qayta tiklash g'oyasini yetkazadi.

Masalan, ismlar orqali o'zbek xalqining qadimiy tarixidagi buyuk shaxslar yoki muhim voqealarni xotirlash mumkin. Ba'zi ismlar (*masalan, Yusuf ismining keltirilishi ham Yusuf payg'ambarimizning xarakter xususiyati va hayoti tarixiga ishora*) va an'anaviy o'zbek ismlari yordamida jamiyatda mustahkam o'rin tutgan qadriyatlar aks ettiriladi.

4. Ismlar va ijtimoiy o'zgarishlar

Ulug'bek Hamdamning asarlarini o'qish orqali, ismlar orqali ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni, jamiyatdagi yangi g'oyalarni ko'rish mumkin. Ismlar, ayniqsa, o'zgarishlarni aks ettirishda muhim rol o'ynaydi. Asarlarning ko'pida ismlar orqali eski va yangi, an'anaviy va zamonaviy, o'zgaruvchan jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar tasvirlanadi.

5. Ismlar evolyutsiyasi.

Ba'zi qahramonlar ismlaridan ma'lum bir jamiyatning o'zgarishlari va dunyoqarashdagi yangiliklarni ko'rsatadi. Eski va yangi ismlar o'rtasidagi farq, ular orqali jamiyatdagi o'zgarishlarni aks ettiradi. Misol uchun, eski ism "Muhammadjon" yoki "Yusuf" kabi an'anaviy ismlar eski, o'zgarishga qarshi turayotgan qahramonlarni anglatadi, zamonaviy ismlar esa o'zgarishlarni qabul qilgan, zamon bilan hamnafas qahramonlarni aks ettiradi.

7. Ismlar va psixologik holatlar.

Ulug'bek Hamdam asarlarida ismlar, shuningdek, qahramonlarning ichki psixologik holatini ifodalashda ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ismlar orqali yozuvchi qahramonning tashqi ko'rinishi yoki xatti-harakatlarini emas, balki uning ruhiy holatini, ichki muammolarini va o'zgarishlarga bo'lgan munosabatini tasvirlaydi.

Psixologik analiz: ismlar yordamida Ulug'bek Hamdam qahramonlarning ichki muammolari yoki ularning psixologik holatini aks ettiradi. Masalan, ismlar ichki ziddiyatlar yoki o'zini anglash jarayonini tasvirlashda xizmat qiladi. Ba'zi qahramonlar ismlari orqali o'zgarishlarga qarshi turayotgan yoki o'zini anglashga intilayotgan obraz qiyofalanadi. [1.2. "Muvozanat" romanidagi Muhammadjon aka obrazi misolida.]

Ulug'bek Hamdam asarlarida ismlar poetikasi — bu yozuvchining o'ziga xos uslubiy yondashuvi bo'lib, u qahramonlarning xarakterini, jamiyatdagi o'rnini, ijtimoiy va psixologik holatlarini yoritishda juda katta rol o'ynaydi. Ismlar Ulug'bek Hamdamning asarlarida o'ziga xos ramzlar, simvollar sifatida ishlatiladi, ular orqali insonning ichki dunyosi, jamiyatdagi o'rni va hayotiy maqsadlari ko'rsatiladi. Ismlar nafaqat xarakterlarni ifodalaydi, balki asarlarning chuqur ma'nolarini va jamiyatdagi o'zgarishlarni ta'kidlaydi. Bu poetik yondashuv U. Hamdam asarlarini yanada boy va ma'naviy jihatdan boyitadi, ularning chuqur ijtimoiy va psixologik qatlamlarini o'qishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. МУВОЗАНАТ. Роман. — Тошкент: «ШАРҚ» НАШРИЕТ-МАТБАА АКЦИЯДОРЛИК КОМПАНИЯСИ БОШ ТАХРИРИЯТИ ТОШКЕНТ, 2007.
2. Tuychiyeva Ravshanoy Quchqarxojayevna. "ULUG'BEK HAMDAM IJODIDA AN'ANA VA NOVATORLIK". 5A120101 — Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti) mutaxassisligi bo'yicha adabiyotshunoslik magistri darajasini olish uchun yozilgan DISSERTATSIYA.
3. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. — Toshkent, 2004-yil.
4. Quronov D. Zavqimdan bir shingil. — Toshkent.: Akademiya, 2013-yil.
5. Quronov D. Mutolaa va idrok mashqlari. — Toshkent.: Akademiya, 2013-yil.
6. Solijonov Y. Haqiqatning sinchkov ko'zlari. — T.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2009-yil.
7. Solijonov Y. Mo'jizalar sehri. — Toshkent, 2013-yil.
8. Rahmat R. Adabiyotdan chiqish. — T.: Akademiya, 2015-yil.
9. Ali U. Ko'ngilga sayr. — T.: Yangi asr avlodi, 2009-yil.
10. Quronov S. Ifoda va ifodaviylik — T., 2012-yil.

Ro'zixon MAVLONOVA,
Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani faxriy ustози,
Javlonbek MAVLONOV,
Mustaqil tadqiqotchi, magistr

“HUSN BOG‘I” – QADD-U QOMAT RAMZI YOXUD “HUSN BOG‘INING BO‘LUR ERMISH NIHOLI O‘ZGACHA”

(Adabiyot muallimlari e'tiboriga taqdim)

A.Navoiy tavalludining 584 yilligiga bag'ishlaymiz

Annotatsiya: ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotining birinchi devoni “G‘aroyib us-sig‘ar”dagi 371-g‘azali tahlilga tortilgan. Boshqa navoiyshunos ustozlarimizning tahlillariga qo‘shimcha tarzda yangi fikrlar ham qo‘shildi.

Kalit so‘zlar: bog‘, bog‘bon, xazon sipohi, bog‘ tomi, ignadin tikan.

Аннотация: в этой статье приводится анализ 371-й газали в “странном ус-сигаре”, первом девизе куллиота Алишера Навои “хазайн уль-Маони”. В дополнение к анализу других наших наставников-навоистов были добавлены новые идеи.

Ключевые слова: сад, садовник, садовник, садовая крыша, игнадин терн.

Annotation: in this article, Alisher is drawn into the analysis of the 371st ghazal in the first Devonian of Nawai's “Khazoyin ul-maoniy” Kulliyat “Wonder us-SIGAR”. In addition to the analysis of our other nautical teachers, new ideas were also added.

Key words: garden, gardener, gardener, garden roof, ignadine thorn.

Assalomu alaykum, aziz yosh hamkasblar. Mana bugun – «G‘aroyib us-sig‘ar» devonining 371-g‘azali yuzasidan olib borayotgan navbatdagi suhbatimiz. Agar haqiqatan ham avvalgi suhbatlarimizni tushunib yetgan bo‘lsangiz, biz Sizning bu intiluvchanligingizdan juda mamnunmiz. Stolingiz ustidan «Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at» kitobi, qog‘oz va qalam o‘rin olgan bo‘lsa, bugungi mashg‘ulotimizni ham boshlaymiz. Suhbat mavzusi quyidagi bayt:

Xazon sipohiga, ey bog‘bon, emas mone‘,

Bu bog‘ tomida gar ignadin tikan qilg‘il.

Ushbu bayt mutaxassis-navoiyshunoslarning ta’kidlashicha “Qaro ko‘zum” g‘azalining lirik chekinishi ekan. Biz kuzatayotgan syujetga ko‘ra oshiq yor jafosi, umr safosi haqida so‘zlab shikoyatlar qilib borayotib edi, kutilmaganda shoir hayot ibratini, umr va fosi masalasiga faylasufona yuz buradilar. Hayotiy lavhalaridan o‘g‘itay mazmun kashf etishga o‘tadilar. TAN “bog‘bon”ni turmushidan ibratli epizod so‘zlaydilar. Umr kuzi manzaralarini berish uchun **bog‘** – balog‘at fasllari, inson tanasi; **bog‘bon** – shu “gulshan”ning murabbiysi, tan egasi (oshiq yo ma‘shuqa), **xazon sipohi** – qarilik, inson umrining quvvatsizlanib, yuzlar sariq tus olib umr zimistoniga kirib borish pallasi; **bog‘ tomi** – inson aqli va tafakkuri, **ignadin tikan** – muhofazakorlik hamda ehtiyotkorlik, qadar va qazoga qarshi bormaslik singari ramziy-timsoliy tasvirlar chizadilar...

Endi bu gal boshqacha yo‘nalish olamiz. Shu o‘g‘itay “lirik chekinish”ga boshqa olimlarimiz bergan sharhlarni birgalikda kuzatamiz va so‘ng xulosalaymiz. **Filologiya fanlari doktori Ismatilla Abdullayev tahlilidan.**

(“Toshkent oqshomi” gazetasi, 1975- yil 20- oktabr soni)

“Ey bog‘bon, sen, bog‘ingga hech kim tushmasin va uni payhon qilmasin deb, uning tom va devorlariga ignalardan tikan sanchib qo‘ygan bo‘lsang ham, quritish lashkarlari (xazon sipohi) uchun bu tikanlarning mone‘lik qilolmaydi, ya‘ni baribir quritish lashkarlari bog‘ingni quritib yuboradi”.

Endi filologiya fanlari doktori, professor Najmiddin Komilov ustoz sharhidan: (“Yoshlik” jurnali, 1987-yil 2-son.) “G‘azalning murakkab ma‘noli tagdor baytlaridan. Shoir ishq-u oshiqlik, sevgi-sadoqat haqida yozib kelib birdaniga dunyo va uning ishlari, umr, hayotning o‘tkinchiligi to‘g‘risida falsafiy mushohadaga beriladi... Yor jamoli vasfi, sadoqat izhorining xushholiklaridan keyin buni qanday tushunish mumkin?”

“Xazon sipohi” – kuz lashkari, xazonrezgi payti. Tikan, igna orqali lashkarning nayzalari ham qiyosga olingan: son-sanoqsiz qo‘shin qo‘lidagi uchli nayzalar uzoqdan osmonga qaratib terilgan ignalarday ko‘rinadi... Navoiy o‘z davrida keng tarqalgan yana bir odat – bog‘ va hovlilarning devori ustini tikanli butalar bilan o‘rashini nazarda tutgan. Bog‘dagi mevalarni zararkunanda hayvon va o‘g‘rilardan qo‘riqlash uchun shunday qilingan. Shoir shunga ishora qilib deydi: “Ey bog‘bon, sen bog‘ing devorlarinigina emas, uning tomi ustini ham hatto ignadan tikanlar yasab, berkitib chiqsang-da, uni xazondan saqlab qololmaysan, baribir kuz keladi, daraxtlar bargi xazon bo‘ladi”. Baytning mazmuni: “Ey bog‘bon, bu bog‘ tomini ignadan tikanlar qilib yopib chiqsang ham, kuz qo‘shinining hujumiga mone‘lik qilolmaysan”. Chunki inson falak aylanishi, zamonlar-

ning o'tishi, tabiat qonunlariga qarshilik qilishga o'jiz. Shunday bo'lgach, yor vasliga intil, g'animat damlarni behuda o'tkazmay, umr shodliklaridan bahramand bo'l. Bunda dunyoga mehr qo'yish, olam-olam qo'shin yig'ib jahongirlik qilish, mol-u mulk yig'ishga qarshi fikr ham mujassam, zero, qancha mehr qo'yima, dunyo baqosiz, faqat ilohiyot abadiy, o'shaning yodida yasha. Ma'lum bo'ladiki, bayt ohangida hazinlik sezilsa-da, lekin botiniy ma'no xulosasi hayotsevarlikka hidoyat etadi va shu asosda oldingi baytlarga bilvosita bog'lanadi.

Endi tadqiqotchi Vohidjon Qodirov fikrlari bilan tanishaylik: ("Sharq yulduzi" jurnali, 1991-yil 9-son).

"Bu baytni tushunish uchun "bog", "bog'bon" so'zlarining tasavvufiy ma'nosini aniqlab olish zarur. Bog'daraxtzor, mevali daraxtlar maydoni. Daraxt tasavvufda inson naslini bildiradi. (Qaysi lug'atga asosan? M.O.) Inson naslining bog'boni ham odamning o'zi. Chunki bog'bon yangi nihollarni o'stirgani kabi, kishi ham o'zidan nasl qoldirib tarbiyalab, uni voyaga yetkazadi. Bunda dunyoviy hayot ramzi sifatida berilmoqda. Xazon sipohi – xazonrezgilik, inson hayotining oxiri, keksalik davri. Bayt ma'nosi: Ey inson, agar sening umring oxirlab, keksalik davri kelsa, qanchalik harakat qilmagin, unga hech narsa mone' bo'lolmaydi, chunki bu olam o'tkinchi dunyo. Bu qisqa davr davomida poklanishga ulgurish, vujud mutlaqqa yetishga erishish kerak. Bu bayt yoqoridagi baytlarda ifodalangan oshiqning zor-intizorligi, cheksiz qiynoqlari va besabr intilishlarining sababini tushuntirgandek bo'ladi"...

Endi akademik Alibek Rustamovning shu bayt sharhiga bag'ishlangan mulohazasi: ("Adiblar obo-bidan adablar". – T., 2003) "Bu baytda kuz izg'irining bog'ni xazon qilishi – yopirilib shahar darvozasidan oshib kelib, u yerni vayron qiluvchi sipohga o'xshatilmoqda. "Tom" so'zining ma'nosi devordir. Sho'x bolalar devordan oshib bog'ni payhon qilmasliklari uchun devor ustiga tikan o'rnatish odat bo'lgan. Shoir kuz kelgach, devorning tikanini ignadan qilsang ham, uni xazon ta'siridan saqlab bo'lmaydi, deydi. Nega shunday deydi? Navoiy ikkinchi baytda aytilganidek, inson yuzining guli va uning qaddi niholidan vujudga kelgan ko'nguldagi ma'naviy bog' abadiy, unga fasllarning ta'siri yo'q, lekin moddiy bog' muvaqqat narsa, demoqchi. Muvaqqat narsaga ishq qo'yib bo'lmaydi, shu tufayli o'zga kishilarga zarar yetadigan ishlarni qilib bo'lmaydi. Moddiy narsalarni insondan aziz deb bilish kishini haqiqat yo'lidan ozdiradi."

Endi kaminaning izohi: ("O'qituvchilar gazetasi", 1996-yil 7-fevral soni)

"...bog'bon kuz fasli yaqinlashayotganini bilib, bog'ini qo'qon devor bilan o'rab chiqqan, ustiga tikan-butalar ham qadab qo'ygan ekan. Kim ham o'z bog'ini sap-sariq rangda ko'rgisi keladi. Vodarig', baribir kuz boqqa kiribdi. Bu nimasi? Bu abadiy va azaliy hukm. Bu sun' naqqoshi charxni mana shunday tilsimli yaratgan. Axir, inson umrining ham fasllari bor-ku. Shu sabab lirik parda

ortida yor borligi, uning umr fasliga ham kuz kirishi mumkinligi, bunga bog'bon kabi qarshilik ko'rsatish befoyd ekanini, qadar va qazo azaliy ekanini eslatmoqda. Demak, Yor va oshiqning galdagi imkoniyati navbatdagi faslga tayyorgarlik ko'rib qo'yish, umrni bekorchi hoy-u havaslarga sarf etmaslik ekan. Nega kuz, qish emas? Umrning qishida kechikish mumkin. Kuzda olam sariq rangga burkanadi. Sariq rang – ayriliq, ishq azobi, oshiqning g'amzada yuzi. U so'nggi sinovdan darak"...

Keyinroq yana bir maqolamda esa bunday tahlil qilganman: ("Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 1998-yil 4-son.) "Bu yerda tom – so'zini devor, to'siq, qo'ra, g'ov ma'nolarida anglash mumkin, yana uni – tom, ya'ni uyning ust qismi – tomi ma'nosidagi tepasini, ustini mazmunida ham anglash mumkin. Shunda u 2-baytda bayon qilingan inson yuzi guli va qaddi niholi yodidan vujudga kelgan Ko'ngil ravzasi (bog'i) nomli ma'naviyat gulshani va chamanzorining aksi bo'lgan, muvaqqat va moddiy (foni) bog'ning ustini bildiradi. Bu bog' har qancha berkitilmasin, baribir azaliy va abadiy hukm nizomi ostida kirib keluvchi voqeliklar mavjud. Biri – kuz, biri esa shabnam (shudring)dir. Kuz o'zi bilan xazonrezgilik boshlanishini ham yetaklab kelib bog'ni qish uyqusiga hozirlaydi. Shu kabi inson umrining ham fasllari bor. Bahor ayyomi bilan xushnud, ey ruxsor. Navbatda sening kuzing ham bor. Ko'p noz-u ishva qilavermay oshiqlaring niyozmandligiga ham imkon ber, "demoqdalar"...

Meni ma'naviy qoniqtirgan, mulohazalaridan ichim chiqqan eng **so'nggi sharh filologiya fanlari nomzodi Ismoil Bekjonov ijodiga mansub:** ("O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi)

"Ma'shuqaning oshiqni kuydiradigan nozlaridan biri – uning o'z husniga bino qo'yishi, go'zallik faslining ham intihosi borligini anglamasligi yoki anglasa-da, imkon qo'lida bor chog'ida oshiqni sinab ko'proq qiynab qolishga urinishidir... Shuncha azob chekayotgan oshiq bunga ham chidashi mumkin, albatta. Lekin u bu haqiqatni suyuklisi esiga solib qo'yish bahonasida yana bir bor dardini to'kib solmoq istaydi. Oshiq goh faylasuf bo'lib tabiat qonuniyatlaridan, umr zavoli; kuz daraxtlarni so'ldirishi, shirin mevalardan asar ham qolmasligi, bog' endi o'z fayz-u tarovatini qo'ldan berajagi kabi vaqt har qanday go'zallikka nisbatan o'z hukmi va zug'umini o'tkazishi, uni hech qanday yo'l, vaziyat bilan to'xtatib qolish mumkin emasligini anglatish va uqtirish yo'li bilan ma'shuqani bu bahor damlarini g'animat bilishga chaqirmoqda. Shoir o'z fikrini bo'ttirib vahimani ko'rsatish uchun xazonli kuz kelish manzarasini, qahrli dushman lashkarlarining shahar qal'asiga bostirib kirishi, istehkomlarni vayron, aholisini talon-taroj qilish voqeasiga o'xshatadi"...

Ko'ryapsizki, bayon qilish usuli har xil bo'lsa-da, obyekt yagona bo'lganligi sababdan olib boradigan manzili o'xshash, chiqarilgan o'g'itay yakunlari umumiy bo'lgan sharhlar ekan...

Endi baytdagi **bog'** mavzusiga qaytsak, bizningcha **bu bog' Yor va Oshiq jism-u tanasi, vujud-u joni timsoli**. Hozir o'zingiz iqtiboslarni kuzatib shu qarorga kelasiz:

Yilda besh-o'n kun o'ldi nihol uzra gul, valek

Gul keldi to'rt faslida qadding niholida (ey Yor).

Husn bog'inda ko'rub zulfu qadingni **bog'bon** (oshiq)

Chekti xijlat sunbulu sarvi xiromoni birla. (II-563-g'.)

Bog' naxling qadingdek boshida gul butmamish,

Husn bog'ining bo'lur ermish **niholi o'zgacha**.

(II-549-g'.)

Chun **husn**(bog'i)**davri** vafosizdur, **ey guli ra'no**,

Qil iltifot gohi andalib(oshiq)lar sori. (II-605-g'.)

Jamoli kozgusi ichra sorig' yuzum aksi,

Ajab: **xazoni** ayon aylamish **bahor** ichra. (II-562-g'.)

Tugandi ashki gulgun, emdi qolmish za'faroni yuz,

Falak zulmi badal qildi **xazon** ila **bahorimni**. (II-

656-g'.)

Xazon faslida ul oy jismi ruxsorini ko'rgan chog'.

Degaykim: bir quruq shox uzra qolmish sorig' yafrog'. (II-297-g'.)

Qadam qo'yma adabsiz bu **xazon ko'rgan chaman ichra**,

Ki bor gulrang yuzing safhasidadur har sorig' yafrog'.

Bog' (qomating) **aro ruxsori qadding** jilvasin to ko'rdilar,

Bo'ldi obi tobsiz gulbargi ham, shamshodi ham. (II-408-g'.)

G'azallaridan ma'lumki shoir fors-tojik, arab-u turk, hind-u ozar mumtoz adabiyotida qo'llangan barcha ramziy obrazlarni o'z g'azallarida keng qo'llaganlar. Hatto, muxlis tushunmay qolmasin deb "yuz guli", "g'am tuni", "ishq vodiysi", "firog tog'i", "husn bog'i" kabi tashbeh – iboralarni qisqartirib istiora shaklida qo'llashdan tiyilganlar. Shu sabab bunday baytlardagi "**bog'bon**" va "**bog'**" so'zini ham o'z ma'nosidagi bog' egasi (sadvnik, sad) deb emas, balki **ramziy bog' egasi** (boy qiz, ma'shuqa) yoki ayrim o'rinlarda shu yosh (nihol – boy qiz)ni tarbiyalab oluvchi **oshiq** (lyubovnik) ma'nosida anglash va tushunish sharhni to'g'ri yechimga olib keladi. Menimcha, bu holatlarni yuqorida berilgan dalil-sitalardan anglab yetdingiz...

Qomatingdek **bog'i husn** ichra yo'q sarvi ravon, (qomat – bog'i husn)

Orazingdek xud qoni sarv uzra arg'uvon. (II-444-g'.)

Bu baytda yor qaddini sarvga, yuzini arg'uvon guliga o'xshatib, manzurning shunday **qomati niholi ulg'ayayotgan "o'rin"i HUSN BOG'i ekanligi aytilmoqda ...** Shu *bog'i husn*: **tana, vujud, qomat, jism, jussa** bog'boni esa mantiqan manzura (qiz) yo oshiqning o'zi bo'ladi-da, shubhasiz...

Ana endi yuqoridagi iqtiboslarga asoslanib 6-baytdan chiqib keluvchi nasriy bayon, bizningcha, shunday: "**Ey umrining bahor faslida davron surayotgan nozarin! Endi oshiqning niyozmandligini tan olib,**

o'z fitna-yu ishvang, noz-u istig'nongni ozaytirib mardumafkandlig' (mardlik) qilib, mardumkushlik (oshiqqotillik)dan tiyilib, mardumdorlik (muloyimlik) shevasini tutsang bo'lardi. "Bahor ayyomi besh kun g'animat angla"b o'zingni me'yorsiz kerakli qilishdan xorimadingmiki, bu husn bog'i tomida igna-yu tikan (aql va tafakkur choralari)dan "devor" qursang ham, qadar va qazo hukmini hal etolmaysan. Chunki kajraftor falak... Husn bog'ingdagi xazon yellaridan nasim esganida, shu husn bahoring intihosidan firib yeb, nadomatlar tortib qolmagin". Shunda afsus-la:

Ko'p osig' umrum **bahorin mevasidin istadim.**

Mevaga yetmay **xazon bo'ldi bahorim ne osig'**, – deb qolma" deyaptilar hazrat. (II-302- g'.)

Navbahori husn(ng)idin topma firibe, ey sho'xkim,

Charx davri **navbahor o'tmay xazonin yetkrur.** (II-144g'.)

Demak, yuqoridagi iqtiboslarni kuzatish jarayoni bizni shunday xulosaga boshlamoqdaki, "Qaro ko'zum" g'azalining 6-baytidagi **bog'** moddiy bog' mevazor-u gulzor emas, **inson tanasi** – vujudi va ko'ngil olamini ifodalovchi **ma'naviy-ramziy bog'**ni ifodalar ekan... Uni shoir misralaridagi **ishoralar** sabab **Yor jismi** – "**husn bog'i**" (qomat) deb anglasak va shunday qabul qilsak, shunda bu baytni **lirik chekinish** deyishga ham aslo hojat yo'q. **U o'z-o'zidan g'azal syujetining tarkibiy qismi sifatida o'zining tabiiy-azaliy haqli o'rnini "bizningcha" qayta to'liq egallaydi...**

Ushshoq ashkidin su ichib bar jafo berur,

Yo Rabki, **qomating ne ajoyib nihol erur?!**

Gap "Qaro ko'zum" asari haqida borar ekan, bu g'azal tahlili, uzoq yillardan buyon umumiy o'rta ta'lim maktabi dasturida asosan, 8-sinf adabiyot darsligida berib kelindi. Sakkizinchi sinf o'quvchisi bu 15-16 yoshlardagi o'spirin. Bu yoshdagi o'smirlar, umuman, Navoiyning oddiy o'rtamiyona dunyoqarashga ega muxlisiga bu g'azalning badiiy jihatlarni ochishga qaratilgan chuqur tahlillar yoxud g'azalning tasavvufiy mazmunini batafsil ochish niyatlangan: so'filik suluki silsilasiga (tajalli nazariyasiga), Navoiy tasavvufidagi visol onlariga, yuksak orzulangan botiniy yor – Haqqa, ilohiy ma'shuq lutf-u ehsoni tajallisiga, asl moya bilan birlashish – vahdadi vujud istagiga, tasavvuf nazariyasiga asoslangan akademik sharh, ya'ni **oddiy navoiyxon muxlisga mazmuni o'ta labirint bo'lgan akademik talqinlarga**, aslo hojat yo'q. Bu yoshdagi o'spirin navoiyxon yoshlarga va shoirning oddiy ixlosmand muxlislariga, bizningcha, g'azalning qiz va yigit (oshiq va ma'shuqa) o'rtasida ro'y berayotgan insoniy tuyg'ular in'ikosi mahsuli bo'lgan sevgi kechinmalari va iztiroblarini ochib berishga qaratilgan oddiy, kitobxonning boshini qotirmaydigan sodda sharhlar zarur. Chunki ular filolog, adabiyot muallimlari, adabiyotshunos yoki til-adabiyot bo'yicha respublika olimpiadasi g'oliblari emas, ular oddiy o'rtamiyona qarashli ixlosmand muxlis.

Demak, sharh saviyasi ham shunday auditoriya vakillariga muvofiq bo'lmog'iga asosiy e'tiborni qaratishga to'g'ri keladi. Bunday ommabop tahlilni esa professional navoiyshunos emas, biz singari oddiy muxlis navoiyxon qilgani o'rinliroq bo'lsa kerak...

Xulosa shuki, kuzatilgan iqtibos-dalillardan, shoir ijodiy laboratoriyasi tajribalaridan kelib chiqib shoir g'azallarida qo'llangan **bog'** – inson tanasi, vujud-u jismini ifodalovchi, she'riyatda "**husun bog'i**" birikmasi bilan ifodalanuvchi bir **ramziy obraz** ekan. Sinchkov muxlis uchun hammasi oddiy, hammasi sodda: shunchaki navoiyona tashbeh va tasvirlar ekanligini sodda qilib yetkazish lozim bo'ladi.

Kular, ey bog'gon, (oshiq) har g'uncha go'yo-

Ki: **g'ofildur xazon(o'lim)din guliston(husn bog')**

ing!

Chekma boshkim emin emassan XAZON (o'lim) yag'mosidin,

Bu chaman (husn bog'i) ichra agar savsan, agar shamshod bo'l. (I-384-g'.)

Chu tuzung **HUSN BOG'IN**, uzor-u qadni qilding:

Birin(uzor) – gulbarg ra'no, birisin(qad) – sarvi cholok. (II -322-g'.)

Ushbu sharhiy mulohazalarimizdan kelib chiquvchi **so'nggi yakuniy xulosa shuki**, biz "Qaro ko'zum" g'azali tadqiqi tarixida hali birorta shorih bayon qilmagan, biroq: **shoir lirik iqtiboslari oydek ravshan isbotlab turgan bir qarash**: ya'ni bu g'azal 6-bayti 12-misrasidagi **BOG'** so'zi mevazor moddiy bog'ni emas, inson jussasini ifodalovchi, kishi tanasi – HUSN BOG'I atalmish odam umri fasllari bilan bog'liq **foniy-ma'naviy "bog'"ni** bildirmoqda ekan. Yuqorida biz bu iddaomizni lozimicha iqtibosiy dalillar bilan isbotlashga urindik. Shoir ijodiy laboratoriyasiga tayanib yuqorida keltirilayotgan she'riy iqtiboslarga asoslanib ushbu baytdagi **bog'** so'zi: **bog'i husn** atalmish **inson vujudi** (figurasi) ekanligi to'liq ayonlashayotganini shorihlar, navoiyshunoslar va shoir ixlosmand muxlislari tomonidan to'liq e'tirof etilsa, **bu baytni lirik chekinish deyishga ham aslo hojat yo'q**. Shundan so'ng bu bayt o'z-o'zidan avtomatik tarzda g'azal mazmuniy silsilaviy syujetidan uning tabiiy va tarkibiy qismi sifatidagi o'z "qonuniy" haqli o'rnini egallaydi. Bu bilan g'azal ilk ijodiy yaratilish davridayoq ushbu tana bog'boni(oshiq yo ma'shuqa)ning tabiiy jussasi ma'nosida bo'lgan **bog'** so'zi esa o'zining azaliy va abadiy qoim o'rnini adolatli qayta egallashi orqali ushbu bayt uzoq yillar davomida qatog'onga uchragan yetim boladek o'gay nomi bo'lmish – **lirik chekinish** atalmish asrandi ismidan forig' bo'lib, nihoyat, mutloq istiqloлга erishadi... Natijada, akademik fikrlovchi shorihlarimiz tomonidan uzoq yillar davomida ushbu bayt peshonasiga adabiy mahbus sifatida urilgan tamg'a – **lirik chekinish** nomli badiiy ayblov hukmidan va nihoyat ozod bo'ladi. Va ushbu g'azal ma'naviy-mazmuniy maydonida mustaqil so'z sifatidagi o'z erkin shaxsiy

ma'ni qatlami o'zanidan o'z o'rnini qayta to'liq egallaydi. Bir adabiy mahbusning achinarli taqdiri sabab muxlisona tadqiqotlarimiz davomida advokat singari hayajon va ehtirolarga berilgan bo'lsam, hazratning sodiq fanat muxlislaridan uzr so'rayman. Nihoyat, adabiy mahbus № 6-b 12-m badiiy ayblov hibsxonasidan ozod etildi. Yashasin ma'naviy Erk, mazmuniy Ozodlik!

Ul kishi **umri bahoridin terar gulbargi aysh**,

Kim kafida lolagun may birla bo'lg'ay sog'ari. (II-640-g'.)

Demak, yuqorida bizni quvvatlash uchun keltirilgan dalil-iqtiboslarning umumiy xulosaviy motiviga asoslanib bu baytni quyidagicha: xazon sipohi (qarilik lashkarlari: g'am, dard, yo'qchilik, tajribasizlik, quvvatsizlik va o'lim)ga, ey tan Bog'boni (ma'shuqa, ba'zan oshiq), bilki hech narsa aslo to'siq bo'lolmaydi. Chunki bu umr fasllari mana shunday galma-gal kechish asosiga qurilgan. Qadar va qazo lavhi mahfuz bitigi. Unga ming muhofazakorlik qilgin imkonsiz. Inson falakning ilohiy qonunlariga qarshilik qilolmaydi. Xazon(qari)rezgilik fasli umr fasllarining tabiiy-mantiqiy bosqichi ekanligini ma'rifiy angla!

Bu Husn bog'i tomi(tafakkuring, onging, miyang, dunyoqarashing)ga igna(turli o'ylar, kutilmagan yechimlar, aqliy hozirjavobliklar)dan to'siq qo'ymoq istovchi allomayi zamon bo'lsang-da, bu ishing befoyda. Chunki ilohiy hukm – nizomlari oldida sening odamiy hukm choralaring chikora? Ularni o'ylayversang bu bog' (jussa) tomi ketib qoladi... Eng yaxshisi ilmiy-mantiqiy qonunlarga bo'ysunib, unga moslashib havosini olvolib tan qayiq(vujud)da oqim bo'ylab suzib o'tmoq joiz, deyilmoqda ekan.

Umrining bahor ayyomida o'z chiroyiga bino qo'yib husn shohi jamol sultonbegimi bo'lgan badmehr, mardumlig' shevasidan yiroq bir dilozor pari paykarning imkon qo'lida pallasida g'amzada oshiqqlar boshiga jahon ayvonida mavjud barcha azob-u uqubatlarni qasddan solib bisyor sinashga uringan Yorning ushbu go'zallik fasli bog'i tomiga o'zicha igna-yu butadin "to'siq" yasab uni bor jon-u jahoni bilan saqlab qolishga tirishgan, bu ishq xonining umr kuzida qazo-yu qadar bitigi sabab shu husn bog'i tomiga tushgan xazonrezgi(qari)lik to'fonlaridan keyingi: "Tugandi ashki gulgun emdi qolmish zafaroni yuz", – deya zorlanayotgan holatini shoir o'z misralarida quyidagicha sharhlaydi:

Xazon faslida ul oy jismi ruxsorini ko'rgan(ing) chog'.

Degay(san)kim:bir quruq shox uzra qolmish sorig' yafrog'.

Demak, baytda kelayotgan "ey bog'bon" undalmasi mevazor-u gulzorning egasi(sadovnik)ni emas, odam vujudini parvarishlovchi, insonning o'z tanasi va ma'shuqa jussasiga bo'lgan murabbiyligini bildiruvchi, husn bog'i "bog'boni" ma'nosidagi istiorali so'zni ifodalab kelgan ekan.

Тимур АЮПОВ,
и. о. доцента кафедры теории русского языка и литературы
Кокандского Государственного педагогического института,
Гульчехра ДАВЛЯТОВА,
кандидат педагогических наук, профессор кафедры русской филологии
Ферганского государственного университета

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ СТИЛЬ, КАК СПОСОБ КОНСТРУИРОВАНИЯ РЕАЛЬНОСТИ В РОМАНЕ РАННЕГО ПЕЛЕВИНА «ЧАПАЕВ И ПУСТОТА»

Аннотация: в данной статье рассматривается художественная реальность раннего Пелевина, в частности анализируется роман «Чапаев и пустота». Это позволяет нам рассматривать сегмент в творчестве раннего Пелевина, как не-постмодернистский художественный текст и применить при его исследовании традиционный литературоведческий подход, зачастую малоэффективный при анализе постмодернистского текста, но не менее значимый при общем исследовании.

Ключевые слова: В. О. Пелевин, дзен-буддизм, новаторство, пустота, традиции, двоемирие, интертекст, гнозис, медитация, цитаты.

Annotation: this article examines the artistic reality of early Pelevin, in particular analysing the novel 'Chapaev and Pustata'. This allows us to consider a segment in the work of early Pelevin as a non-postmodernist artistic text and to apply a traditional literary science approach to its study, which is often ineffective in analysing a postmodernist text, but no less significant in general research.

Key words: V. O. Pelevin, Zen Buddhism, innovation, emptiness, tradition, dichotomy, intertext, gnosis, meditation, quotations.

Annotatsiya: ushbu maqolada ilk Pelevinning badiiy haqiqati, xususan, "Chapayev va Pustata" romani tahlil qilinadi. Bu bizga ilk Pelevin ijodidagi segmentni postmodernistik bo'lmagan badiiy matn sifatida ko'rib chiqishga va uni o'rganishda postmodernistik matn tahlil qilishda ko'pincha samarasiz bo'lgan, ammo umumiy nuqtayi nazardan kam ahamiyatli bo'lmagan an'anaviy adabiy yondashuvni qo'llashga imkon beradi. o'rganish.

Kalit so'zlar: V. O. Pelevin, Dzen buddizmi, yangilik, bo'shlik, an'analar, dual dunyo, intertekst, gnozis, meditatsiya, tirnoq.

В статье «Способы реализации интертекстуальности в лирике А. С. Пушкина» А. А. Михеев назвал особенностью Букера-97 отсечение фаворита уже на раннем этапе. И Виктор Пелевин действительно был главным претендентом на награду, судя по многочисленным упоминаниям его имени в прессе и широкой популярности романа «Чапаев и пустота». Но понятие «фаворит», как нам показалось, А. Михеев употребил не в смысле «тот, кто должен выиграть», но – «тот, кто достоин выиграть». О достоинствах и пойдет речь.

Выдвижение на соискание престижной премии само по себе является знаком того, что текст выдерживает определенный качественный уровень. Собственно, премирование в гораздо большей степени, чем номинация, зависит от случая и т. п. После того как Пелевина «обделили», ажиотаж вокруг его имени усилился, и следующего «Букера» он, думаю, получит. Данная статья есть запоздалая попытка предотвратить неизбежное. Дело в том, что недалеко от слова «премия» располагается слово «шедевр», а там рукой подать до учебника литературы. Но обо всем по порядку.

На первый взгляд, название романа состоит из двух

частей. Реально же таковым является лишь фамилия героя анекдотов, а собственно текст уместился по ту сторону союза «и», могущего, впрочем, сойти и за знак равенства. Так что каждому, кто взял знаменитую книгу в руки, пришлось прочесть ее дважды, причем подряд. Что ни говори, а небывалый случай в истории литературы. Думаете, я утрирую? Посмотрим.

«Стиль – это человек», – сказал Жорж-Луи Леклерк де Бюффон. Допустим, он был прав. Какое отношение имеет стиль к роману «Чапаев и пустота»? Самое прямое. У Пелевина есть стиль. Это стиль школьного сочинения «Как я провел лето». Автору не мешало бы поучиться у Обломова, которого И. А. Гончаров заставил мучаться из-за составляемого письма, потому что в нем выходило «два раза сряду что, а там два раза который». Чтобы стать писателем, недостаточно просто знать слова, а В. Пелевин и слов-то, прямо скажем, знает совсем не много. И скудость его словарного запаса легче всего показать на примере глагола «быть», которым кишат страницы романа «Чапаев и пустота». Иначе как с его помощью автор, видимо, не в состоянии осуществлять процедуру описания. Вот абзац, состоящий всего из трех предложений:

«У нее была длинная серебряная рукоять, покрытая резьбой, – на ней были изображены две птицы, между которыми был круг с сидящим в нем зайцем. Рукоять кончалась нефритовым набалдашником, к которому был привязан короткий толстый шнур витого шелка с лиловой кистью на конце. Перед рукояткой была круглая горда из черного железа, сверкающее лезвие было длинным и чуть изогнутым – собственно, это была даже не шашка» [5. с. 91– 92].

И это не исключение, а правило. Плюс ко всему невероятное количество главного глагола во всем его разнообразии напрочь опровергает заявление автора о том, что «действие романа происходит в абсолютной пустоте». Но так, наверное, было задумано, ведь он – сама парадоксальность.

Примитивность языка, еще отчетливее становится на фоне философской и прочей терминологии, знакомой Пелевину на уровне фонетической оболочки. И примитивность эта – не концептуальна, а естественна, автор ее и не замечает, увлеченный полетом фантазии. Для изображения перемены внутреннего состояния героя Пелевин использует не что иное, как клише, а, точнее, оно использует Пелевина:

«я вдруг заметил», «мне вдруг стало страшно», «я вздрогнул от неожиданности», «вдруг меня кольнуло странное предчувствие», «мысли вдруг стали даваться очень тяжело», «мне вдруг вспомнилось», «мне вдруг пришло в голову», «мне в голову пришла неожиданная мысль», «неожиданно на меня обрушился целый вихрь мыслей», «в его глазах вдруг мелькнула какая-то испуганная мысль», «и вдруг мне стало совершенно ясно» и т. д., и т. п.

Если вы полагаете, что я придираюсь, выдергиваю цитаты (ЦИТАТЫ еще впереди !!!), тогда откройте наугад любую страницу романа, и вы найдете там все то, о чем я говорю, а после обязательно прочитайте следующую, дабы убедиться в их тождестве, читай – пустоте.

Слава Богу, что у Пелевина вроде бы нет претензий на эстетизм, но там, где он все-таки пытается поразить читателя виртуозностью письма, возникают семанτικο-эстетические казусы высшего порядка, как-то:

«и тогда становились заметны короткие мгновения тишины между звуками» [5. с. 81], «я целил в лицо, но в последний момент какое-то странное целомудрие заставило меня отклонить струю вниз» [5. с. 154], «Кавабата смотрел на аппарат, не шевелясь и не меняя позы» [5. с. 223], «еле слышимым шепотом матерились девушки... но ничего из их ругани нельзя было разобрать» [5. с. 223], «заложив за голову сложенные руки, уставился в потолок» [5. с. 336].

Нашлось пустое место и для следующих конструкций:

«чтобы восстановить дыхание, я сделал дыхательное упражнение» [5. с. 19], «– Не знаю даже, что

сказать, – сказал он» [5. с. 222], «открыв дверь, я сел на сиденье рядом с ним» [5. с. 387].

Не завалялись избитые выражения типа:

«ветер судьбы нес меня куда-то» [5. с. 25], «невыносимое бремя этой жизни» [5. с. 57], «комната осветилась мрачным светом занимающегося пожара» [5. с. 363], «то, что я увидел, было подобием светящегося всеми цветами радуги потока» [5. с. 367].

Интересны физиогномические наблюдения Пелевина:

«Его лицо было очень интеллигентным» [5. с. 256], «черты его лица были вполне интеллигентны» [5. с. 331].

Как говорится, без комментариев. Обломов, между прочим, письмо свое забросил. А к классике хоть иногда стоит прислушиваться. Чем же хорош Пелевин? Чем берет читателя? Воображением? Есть у Н. В. Гоголя на этот счет одно существенное замечание примерно следующего содержания: писатель имеет право сказать, что на яблоне растут золотые яблоки, но яблоки, растущие на березе, – уже перебор. Какие только гибриды не создает на плантациях своего романа Мичурин от литературы. Все подвластно его творческому гению! Мановением руки он скрещивает Тарантино с Аристотелем (глава 5, эпизод в ресторане) и Парменида с «Джентльмен-шоу» (глава 8), а окказионализму Ебанишада [5. с. 275] позавидовал бы сам Жак Деррида. Не беда, что в результате получилось нечто равное по качеству «Похождениям Штирлица», зато какое побоище дискурсов! Тут вам и стёб (набивший оскомину), и светская беседа (на сеновале). Да неужели вершиной воображения следует считать фразу «Красота достижима, но только сама в себе, а то, чего ищет за ней опьяненный страстью разум, просто не существует» [5. с. 343], произносимую героем в процессе совоплощения с героиней?! И выдает в этом случае нашего романиста даже не явная надуманность эпизода, а «опьяненный страстью разум». Еще пример: «Где-то далеко на улице заржала лошадь, затем долетел протяжный крик возницы. Один из офицеров, наконец, попал иглой в вену». Какая нота в этом отрывке самая фальшивая? Ну конечно же, «протяжный крик возницы»!

Исходя из вышеперечисленного, пафос романа «Чапаев и пустота» я бы обозначил так: удивл-Я-ние с критическим уровнем отсеб-Я-тины. В этом смысле Пелевин по духу и претензиям, на мой взгляд, имеет прямого предшественника – Леонида Андреева. Я даже подумал, не есть ли он реинкарнация Андреева? Или они друг другу снятся? Кстати, критика начала века не испытывала никаких иллюзий относительно автора «Иуды Искариота». Сто лет назад умели отделять зерна от плевелиных.

Идем дальше. Уже в процессе ознакомления с предисловием стало ясно, что автор – ярко выраженный интертекстуал. Пристрастие вполне объяснимое и

простительное, поскольку никто не в силах избежать литературной чумы XX века. И постмодернистской ориентации Пелевин не скрывает, а наоборот, настаивает на ней, понимая, по всей видимости, привилегированность такого статуса – ведь термин давно приобрел ценностную окраску. Хотя есть у него с этим литературным направлением существенные разногласия. Пелевин открыто стремится во что бы то ни стало доказать, что не «все сказано». Желание-то похвальное, да и мысль верная, но перевод на русский язык притчи о Чжуан-цзы и бабочке, выполненный в состоянии наркотического опьянения, это, согласитесь, не совсем то, что нужно.

Вообще-то стиль романа «Чапаев и пустота» породил во мне некоторые сомнения. А не осуществляется ли Пелевиным в тексте просто-напросто интенсивное самоцитирование? Разовьем свою мысль. Может быть, он меня, как читателя, «кидает»? Может быть, все это сделано специально? Посредственная фантазия, однообразная до безобразия образность, вымученные языковые игры, навязший на зубах сленг – не воплощение ли это заранее продуманного плана? Поставить целью сотворение плохого романа – установка, достойная истинного постмодерниста. Если я прав, то задача действительно выполнена блестяще! Пустота, цитирующая саму себя! Беспрецедентно!

Но вернемся к пелевинской интертекстуальности. Автор не брезгует заимствованиями. Мистический элемент романа заставляет вспомнить Булгакова. Очевидна связь Чапаева-Юнгера с Воландом и его свитой. Та же ситуация и с параллельными мирами. Финал девятой главы пересекается со сценой из «Мастера и Маргариты», в которой Воланд покидает Москву. Полет Марии со Шварценеггером – Маргарита, отправляющаяся на шабаш. Ну и, конечно, сатира, правда, двадцать второй свежести. Не оставлен без внимания и Набоков. Я имею в виду «Приглашение на казнь», где тот тщательно разжевал тему мира-сновидения. Некоторые места романа «Чапаев и пустота» настолько близки к тексту Набокова (смотри концовки обоих романов), что начинает попахивать плагиатом. Чем и являются шестая и восьмая главы. Оригинал – «Москва-Петушки». Используя образность Пелевина,

скажу, что читателю «вместо икры подсунили клюкву, воняющую рыбой». Наряду с интертекстуальностью роман пропитан рефлексией. Автор «прячется» в нее, полагая, что таким способом ему удастся освободиться от банала. Фрагменты текста, где Пелевин начинает оговариваться (оправдываться), более всего дискредитируют его намерения.

«Я подумал о том, насколько безысходна судьба художника в этом мире. Эта мысль, доставившая нам сперва какое-то горькое наслаждение, вдруг показалась невыносимо фальшивой. Дело было не только в ее банальности, но...» [4. с. 11]. Здесь акт самосознания (вы ни за что меня не поймаете) еще сильнее подчеркивает наивность интеллектуальных и эстетических потуг. А сам термин рефлексия, не раз проговариваемый автором (бессознательно?) на страницах романа, возводит в куб эту наивность и становится элементом очередного клише: «я старался не рефлексировать по этому поводу», «сознание продолжало реагировать на раздражители, никак не рефлексировав по их поводу». Еще один зазор – переход от стеба к искренней серьезности, в частности, в главе восьмой (как уже отмечалось выше, списанной у Венедикта Ерофеева), когда после изображения наркотической оргии новых русских Пелевин ставит одного из них, так сказать, в «просвет бытия»: «Он на секунду поднял к звездному небу лицо, которое приобрело мечтательное и возвышенное выражение, и тихо вздохнул» [5. с. 321]. Почему-то в этом месте Пелевин забывает (опять бессознательно?) о рефлексии. На такого рода «улики» натыкаешься в «Чапаев и Пустота» повсеместно. Панцирь псевдо-постмодернистской иронии скрывает выпирающий при каждом удобном случае романтизм Ленского. Так он писал темно и вяло, что постмодерном мы зовем, хоть постмодерна тут нисколько не вижу я. «Для Пелевина окружающий мир – это череда искусственных конструкций, где мы обречены вечно блуждать в напрасных поисках «сырой», изначальной действительности», – цитирует В. Курицын А. Гениса в статье «Великие мифы и скромные деконструкции». [1. с. 233] А по мне, если Пелевин доказывает, что «сырой» действительности нет, значит она есть!

Использованная литература:

1. Генис А. Беседа десятая: Поле чудес. Виктор Пелевин / Звезда. – 1997. – № 12. – С. 230–233.
2. Мелетинский Е.М. Поэтика мифа. «Восточная литература» РАН. М., 2000г.
3. Нагорная Н. А. Осмысление идей буддизма в прозе В. О. Пелевина // Буддизм Ваджраяны в России: история и современность. Сборник докладов Международной научно-практической конференции. СПб.: Unlimited Space, 2009. с. 450 – 459.
4. Нечепуренко Д. В. О философских предпосылках и цели творчества В. О. Пелевина // Вестник Челябинского государственного университета. Челябинск, 2011. № 11 (226). Филология. Искусствоведение. с. 95 – 98.
5. Пелевин В. «Чапаев и Пустота» ВАГРИУС М., 2001 г. с. 315, 339.
6. Разумневич В. «Роман о легендарном начдиве» М., Просвещение 1979. с. 29.



Nilufar KADIROVA,
 Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)
 DXX "Temurbeklar maktabi" HAL o'qituvchisi
 nilufark06@gmail.com

TANQIDIY TAFAKKURNI ANGLASH TEXNOLOGIYASI: TAJRIBA VA MULOHAZALAR

Annotatsiya: adabiy ta'limda yangicha yondashuvlar o'sib kelayotgan avlodning ijodiy idrokiga rag'bat berish, o'z kuchiga ishonch hissini uyg'ota bilishni vazifa qilib qo'yimoqda. Mazkur maqolada o'quvchi tanqidiy tafakkurini rivojlantirishning yangicha yondashuvga asoslangan usullardan ayrimi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: *sun'iy idrok, tanqidiy tafakkur, emotsional intellekt, kognitiv daraja, konstruktivizm, mantiqiy xulosa.*

Аннотация: новые подходы к литературному образованию направлены на стимулирование творческого восприятия подрастающего поколения и привитие чувства уверенности в себе. В статье анализируются некоторые методы, основанные на новом подходе к развитию критического мышления учащихся.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, критическое мышление, эмоциональный интеллект, когнитивный уровень, конструктивизм, логический вывод.*

Annotation: new approaches to literary education are aimed at stimulating creative perception of the younger generation and instilling a sense of self-confidence. The article analyzes some methods based on a new approach to the development of critical thinking in students.

Key words: *artificial intelligence, critical thinking, emotional intelligence, cognitive level, constructivism, logical inference.*

Jahon miqyosdagi globallashuv, integratsiyalashuv, zamonaviy texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanishi, sun'iy idrokning tabiiy idrok o'rnini egallashga bo'layotgan tendensiyalar yoshlarning hayotga munosabatining keskin o'zgarishiga, ulardagi emotsional intellektning zaiflashuviga zamin yaratmoqda. Bugun jamiyatimizdagi axborot xurujlari o'quvchi-yoshlarning ongi, tafakkurini to'g'ri shakllantirish, ularda yot g'oyalarga qarshi kuchli immunitet hosil qilish, atrofida sodir bo'layotgan voqealarga tanqidiy munosabatda bo'lish ko'nikmasini shakllantirish ta'limning muhim vazifalaridan biridir. Mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari shakllangan o'quvchi ongli ravishda o'z kelajagiga, qolaversa, millat kelajagiga ochiq ko'z bilan qarab, kelgusi hayot yo'llarida oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshira oladi. Bunday mas'uliyatli vazifaning asosiy qismi esa adabiyot darslari zimmasiga tushadi. Adabiyot o'qituvchilaridan katta izlanish, yangicha ta'lim texnologiyalarini, jahon pedagogikasining ilg'or usul va yondashuvlarini o'rganib, darslarda qo'llab ko'rish talab etiladi. Mazkur maqolada adabiyot darslarida badiiy asarni tahlil qilish orqali kitobxon javobi reaksiyalarini yuzaga chiqarish, ularning mustaqil va tanqidiy fikrlariga rag'bat berish asosiga qurilgan konstruktivizm ta'limotiga xos texnologiyalar, usullar o'tkazilgan tajribalar asosida yoritib beriladi. O'quvchini ta'lim jarayonining subyektiga aylantirish, darsda muammoni qo'ya olish va uni yechishda o'quvchining hayotiy hamda kitobxonlik tajribalariga tayanib badiiy asarlarning turli xil talqinlarini yaratish, asar va uning qahramonlarini tanqidiy baholash, badiiy asar

yuzasidan mustaqil qarorlar qabul qila olish ko'nikmasini hosil qilishga alohida urg'u berilgan.

Bugun O'zbekiston uchinchi renessans davriga po'ndevor qo'yayotgan bir pallada adabiy ta'lim ham yangicha fikrlash, izlanish, o'quvchilarning milliy tafakkurini shakllantirishni talab etmoqda. Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, ayniqsa, yoshlarning ijodiy harakatlariga rag'bat berish, o'z kuchiga ishonch hissini uyg'ota bilish aniq maqsad qilib qo'yilmoqda. Adabiy ta'limda badiiy asarni o'qitishga yangicha yondashish yangi avlod kitobxonini shakllantirishga xizmat qiladi. Buning uchun esa adabiy ta'limning nazariy asoslarini yaratishda bir qator konseptual masalalarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi:

– o'quvchilarning ijodkorlik, faollik, fikrlash, mustaqil ishlash qobiliyatini yuzaga chiqarish va rivojlantirishga qaratilgan yangi zamonaviy metodlardan foydalanish;

– o'quvchilarni darslikdagi yozuvchilar umr yo'llariga oid sanalarni quruq yodlash bilan band etmasdan, ijodkor hayotini asarlarining yaratilish tarixi yoki asar mazmuni bilan bog'liq jihatlarnigina o'rgatish;

– ta'lim jarayonida ma'lum bir ijodkorning asarlarini tanlab o'qish uchun o'quvchilarga imkon berish;


– tahlilga tortilgan asarning tayyor talqinini berishdan chekinib, o'quvchini fikrlashga chorlaydigan savol va topshiriqlar asosida o'z talqinini yaratishga, mulohazasini erkin bayon qila olishga erishish;

– badiiy asar tahlilida o'quvchi hayoti bilan aloqasini ta'minlash, o'quvchining adabiyotni shunchaki fan sifatida emas, balki hayotiy ehtiyoj sifatida qarashga

asoslangan metodlarni ishab chiqish.

Mohir rus pedagogi Ye.N.Ilin yozganidek, "Adabiyot darsi yuqori sinf o'quvchilarini an'anaviy, bir xil qolipdagi savollar bilan emas, balki "aniq bitta yechimga ega bo'lmagan" axloqiy muammolarni muhokama qilish orqali asar muallifi va uning qahramonlari bilan faol munosabatga kirishishga undaydi"¹. Yuqoridagi fikrdan shuni anglash mumkin, badiiy asar tahlilini o'tkazish jarayonida o'qituvchi tomonidan tanlanadigan dars turi, metod va usullar, qolaversa, tuziladigan savol va topshiriqlar o'quvchi tanqidiy tafakkurini charxlashga, mustaqil tarzda yangi bilimlarni egallashga va shu orqali badiiy asar ummoniga sho'ng'ish va uning qahramonlari bilan yaqinroq munosabatga kirishiga asos bo'ladi. Tanqidiy tafakkurni rivojlantirish bu, avvalambor, ta'limning yo'l xaritasida o'qitish strategiyalarini to'g'ri tanlashni ifodalaydi. Ya'ni texnologiyaning adabiyot o'qitishga tatbiq etilishi o'quvchilarni badiiy asar ustida tahliliy fikrlashga undaydi. Mazkur texnologiyaning ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi uchun afzalliklarini quyidagilarda kuzatish mumkin.

Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchining o'z faoliyatini mudom tahlil qilib borishni talab etadi. Tanqidiy tafakkurni anglashga qaratilgan texnologiya quyidagi besh jihatga e'tibor qaratadi:



Tanqidiy tafakkur texnologiyasining afzalliklari

Ta'lim oluvchi uchun afzalliklar	Ta'lim beruvchi uchun afzalliklar
Bilim olishning samarali va interaktiv usullari yordamida dars jarayonida faol bo'lish	Ta'lim jarayoni va o'rganilayotgan asarga nisbatan qiziqitiruvchi muhit yaratish
Asar yuzasidan qo'yiladigan muammoga turli rakursdan qarab yechim izlash malakasiga erishadilar	O'quvchilarda sinchiklab o'qish, tahlil qilish, solishtirish, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini hosil qiladi
O'quvchi o'z mulohazalarini ifodalash-da tengdoshlarining yondosh fikrlarini tinglash, murosaga kirishish va o'z navbatida taftish qilish ko'nikmalarini egallaydilar	Asar tahlili jarayonida o'quvchilarda bahs-munozara muhitini yaratish asosida tanqidiy fikrlash, baho berishga erishadilar
Olingan bilimlarni hayot bilan bog'lash, tengdosh bir-biriga o'rgatish va o'rganish, jamoa oldida xato qilishdan cho'chimaslik, erkin fikr bildirish, dadillik ko'rsatish imkoniyati vujudga keladi.	Sinfda samarali hamkorlik muhiti asosida sog'lom raqobat, o'zaro hurmat, bir-birini qo'llab-quvvatlash, jamoa a'zolari jipsligiga erishadi. Sinfdagi o'quvchilarning barchasi ushbu jarayonga jalb etiladi.

Shu tariqa tanqidiy tafakkur texnologiyasi ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, axborotni idrok etish samaradorligini oshirish, o'z-o'ziga baho berish, asardan olgan taassurotlarini tizimlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur texnologiyani dars jarayonida to'g'ri tashkil etish va o'quvchilarni unga yo'naltirish ta'lim beruvchidan ham katta mehnat va hozirlikni talab etadi. O'qituvchi darsni oldindan loyihalashtirishi, texnologiyaning har bir bosqichi uchun mos usulni tanlashi, o'rni kelganda tanlangan usullar bir sinf uchun samarali bo'lsa, boshqa sinf o'quvchilarining kognitiv darajasiga mos kelmaslik holatini yodda tutgan holda har bir sinf uchun individual yondashuv qilishi lozim.

Tanqidiy tafakkurni anglash texnologiyasi

Tanqidiy fikrlashga asoslangan darsda har bir o'quvchi boshqalardan farqli o'laroq o'z g'oyasi, o'z bahosi va o'z falsafasiga ega bo'ladi;

Aynan tanqidiy fikrlash orqali bilish jarayoni yanada mazmunli, samarali bo'lib, har bir o'quvchi o'z haqiqatini kashf etadi;

Tanqidiy fikrlash to'g'ri savol berish hamda yechim topish lozim bo'lgan muammoni to'g'ri tushunishdan boshlanadi;

Keltirilgan har qanday dalil asosli va mantiqli mazmunga ega bo'lishi lozim;

Tanqidiy tafakkur ayni paytda ijtimoiy tafakkur shakli sifatida ham namoyon bo'lib, jamoaviy topshiriqlarda,

kichik guruhlar bilan hamkorlikdagi ishlarda, o'zaro muhokamalarda o'quvchi kitobxonlar bir-biri bilan bahsga kirishadilar, fikr-mulohazalar bilan o'rtoqlashib, o'z shaxsiy pozitsiyalarini mustahkamlab oladilar.

Tanqidiy fikrlay oladigan o'quvchi voqelik yoki biror bir muammoni turlicha talqin qilish va baho berish layoqatiga ega bo'lib, u matnda ziddiyatni hosil qilgan jihatlarni aniqlay olishga, nafaqat mantiqqa, balki sinfdoshining g'oyalari tayanib, o'z nuqtayi nazarini asoslashga qodir bo'ladi.

5-sinf adabiyot darsida L.Hyuzning "Rahmat sizga, xonim" hikoyasini tanqidiy tafakkur texnologiyasi asosida o'rganish maqsad qilib olinganda o'quvchilardagi bilimlar va tajribalarni faollashtirish uchun ularga savollar bilan murojaat qilindi.

1. Rahmat degan so'zni odatda qachon aytamiz?
2. Eslab ko'ringchi, so'nggi kunlarda kimga minnatdorchilik bildirib rahmat degansiz?
3. Qaysi ishlaringiz uchun siz rahmat eshitgansiz?
4. Biror marotaba nojo'ya ish qilib qo'yganingizda yaqinlaringiz sizni qanday tartibga chaqirishgan?
5. Nima deb o'ylaysiz, nega bunday vaziyatda ular sizni jazolashmagan?
6. Sizga tartib-intizomga chaqirishning qaysi usullari ko'proq yoqadi?

"Ko'ring, fikrlang, hayratlaning" (KFH) strategiyasi quyidagi bosqichlardan iborat:

Ko'rish bosqichida o'quvchilar ko'rayotganlarini diqqat bilan kuzatadilar va qo'llariga berilgan jadvalning birinchi ustuniga qator yozib boradilar. Bu bosqich xulosalar va sharhlarsiz ma'lumot to'plashdan iborat bosqich sanaladi.

Fikrlash bosqichida o'quvchilar o'z kuzatishlari asosida mushohada yuritadilar, ya'ni ko'rganlari orasidagi bog'liqlik yuzasidan farazlar qiladilar. Eng muhimi, ko'rish bosqichidagi har bir so'z fikrlash bosqichida izohlanishi kerak. O'quvchining hech kimda takrorlanmaydigan, original javoblari o'qituvchi tomonidan, albatta, e'tiborga olinib borilishi shart.

Hayratlanish bosqichida o'quvchilar ko'rganlari va izohlaganlari haqida savollar tuzishadi. Aynan mana shu bosqichda kitobxonning tanqidiy tafakkuri sarhadlariga erkinlik beriladi. O'quvchilar o'z savoliga o'zi javob izlashga harakat qiladi, aloqa o'rnatish va yangi xulosalar chiqarishga yordam beradi. Natijada endi o'qiladigan asarga qiziqish yanada ortadi.

Mazkur strategiyada vaqt qat'iy belgilanib, har bir bosqich 2 daqiqaga mo'ljallanishi lozim.

"Ko'ring, fikrlang, hayratlaning" (KFH)

Rasmda nimalarni ko'ryapsiz?	Nimalar haqida o'ylandingiz?	Nimalar hayratlantirdi?

O'quvchilarning savollarga bergan javoblari rang-barang bo'lib, ular orasida kutilmagan, bir-birini takrorlamaydigan javoblar ham uchraydi. Bajargan ishlari, bergan yordamlari uchun eshitgan rahmatlarini eslashdi, o'z navbatida so'roqsiz qilgan harakatlari uchun otanalaridan tanbeh eshitgani, shaxsiy gadjetlarni ishlatish bilan bog'liq turli xil cheklovlar tariqasida jazolanishini ham yoki oilaning keksa avlodlari tomonidan nasihat yo'li bilan tushuntirilishini ham ochiq ifodalay olishdi.

Dars loyihasida ko'zda tutilganidek **"Ko'ring, fikrlang, hayratlaning" (KFH)** strategiyasidan foydalanish mumkin. Mazkur strategiyani o'rta va yuqori sinflarda 5-6 kishilik kichik guruhlar yoki yakka holda o'tkazish samarali natija ko'rsatadi. O'quvchilarga yo'naltirilgan ushbu yondashuv vizual (san'at asari, rasm, surat, kitob muqovasi,...) vositalarni tahlil qilish orqali o'quvchilarning tanqidiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Buning uchun hikoyaga ishlangan rasmdan foydalaniladi. Ekranga qo'yilgan rasm guruhlar e'tiboriga havola etiladi. Har bir guruh yoki o'quvchiga to'ldirib borish uchun jadvallar tarqatiladi.

Tavsiya etilgan ushbu usul o'quvchi tafakkurini yo'naltirish, o'zining fikrlarini anglab yetishda yo'l ko'rsatish uchun yaxshi vosita bo'lib xizmat qiladi. O'quvchining notanish asar haqidagi farazlarini harakatga keltiruvchi bunday yondashuvlar ularning matn bilan tanishishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bu jarayonda ular qilingan prognoz (bashorat)larining to'g'riligiga ishonch hosil qilishi yoki aksincha noto'g'ri faraz ekanligiga amin bo'lishadi.

Dars so'nggida Luella xonimga maktub yozish topshirig'i kitobxonning asardagi voqeaga munosabatini, bo'lib o'tgan ishda xonimning harakatini o'z nuqtayi nazaridan kelib chiqib baholashi lozim bo'ladi. Luel xonimga aytar so'zlarini yozib qoldiradi. Ular Luella xonimga xat yozishda quyidagi ikki jihatga e'tibor berishlari kerak bo'ladi:

1. Luella xonimning o'g'ri bolani uyga olib kelish sabablari;
2. Xonimning harakatlarida sizga maqbul bo'lgan yoki maqbul bo'lmagan jihatlarni, sabablarini so'rang kabi talablar maktub matnining asosini tashkil etishi lozim.

Tajribada kuzatilganidek, o'quvchilar Luella xonimga "Nega Rojerni politsiyaga topshirmadingiz?", "Siz yoshligingizda qanday yomon ishlarni qilgansiz?", "Siz Rojerga rahmingiz kelganidan uni uyga olib keldingizmi?", "O'g'ri bolani jazolamay pul berib yuborib, to'g'ri ish qildim, deb o'ylaysizmi?", "Xonim, bu harakatingiz bilan siz atrofda qora tanli odamlarga munosabatni o'zgartira olaman, deb o'ylaysizmi?" kabi e'tirozli murojaatlar bilan birga "Luella xonim, siz Rojerga pul berib xato qildingiz, uni o'g'rilik qilmasligiga kim kafolat beradi?!" yoki "Luella xonim, siz juda to'g'ri yo'l tutdingiz, Rojerga xatosini tushunib yetishi uchun imkon berdingiz", "Sizning harakatlaringiz menga yoqdi, axir qora tanli

bola ham yaxshi kiyinishga haqi bor-ku!," "Sizday insonlar jamiyatda ko'paysa, bolalar bezorilik, o'g'rilik yo'lga kirmaydi", "Rojerga yaxshi gap bilan xatosini anglatganingiz menga yoqdi, endi u uyalganidan ham bu ishni boshqa takrorlamaydi" singari qarama-qarshi munosabatlarni ifodalashgan. Bu esa o'quvchilarda o'rganilgan ma'lumotlarni tahlil qilish, ijodiy qayta ishlash va sharhlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, "Tanqidiy tafakkur" texnologiyasi o'quvchilarni faol fikrlash, tahlil qilish, muhokama qilishga o'rgatish, muloqotda kirishimli bo'lish malakasini rivojlantirishda, sog'lom raqobatga asoslangan tafakkurni shakllantirishda muhim texnologiyadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo'ldosh Q., Yo'ldosh M. Adabiyot o'qitish metodikasi.– T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
2. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o'qitish metodikasi (An'anaviylikdan zamonaviylikka). – T., 2020.
3. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi.– T.: Innovatsiya-Ziyo, 2022.
4. Шаталова Н.П. Албука конструктивного обучения. – К.: ООО Научно-инновационный центр, 2011.



Feruza TASHPULATOVA,
 O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
 Roman-german filologiyasi fakulteti,
 ispan tili nazariy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi
 Elektron pochra manzili: feruzasultanova19740401@gmail.com

MULOQOT JARAYONIDA TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASINI MASHQLAR SISTEMASI ORQALI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqola muloqot jarayonida tinglab tushunish ko'nikmasining ahamiyatini va uni takomillashtirishda mashqlar tizimining o'rnini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy muloqotning o'ziga xos xususiyatlari, tinglab tushunish ko'nikmasining muhimligi va uning yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan belgilanadi. Maqolada tinglab tushunish ko'nikmasining ta'rifi, komponentlari, muloqotdagi o'rni va ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, turli xil mashqlarning tinglab tushunish ko'nikmasini takomillashtirishdagi o'rni va ahamiyati, mashqlar tizimini tuzish tamoyillari va ularning samaradorligini baholash mezonlari aniqlanadi. Ishda tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan turli xil mashqlar turlari va ularning muloqot jarayonidagi amaliy qo'llanilishi o'rganiladi. Tadqiqot natijalari muloqot jarayonida tinglab tushunish ko'nikmasini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga yordam beradi. Maqolada lingvodidaktik va psixolingvistik nazariyalar asosida mashqlar tizimining samaradorligi asoslanadi va tinglab tushunish ko'nikmasini o'qitishda mashqlarning ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqot o'qituvchilar, metodistlar va til o'rganuvchilari uchun muhim manba hisoblanadi.

Kalit so'zlar: muloqot, tinglab tushunish ko'nikmasi, mashqlar tizimi, muloqot ko'nikmalari, lingvodidaktika, psixolingvistika, til o'rgatish metodikasi, o'quv jarayoni, tinglash strategiyalari.

Аннотация: статья посвящена изучению значения навыков аудирования в процессе общения и роли системы упражнений в их совершенствовании. Актуальность исследования определяется особенностями современной коммуникации, значимостью навыков аудирования и их недостаточной сформированностью. В статье рассматриваются определение, компоненты, роль и значение навыков аудирования в общении. Также определяются роль и значение различных упражнений в совершенствовании навыков аудирования, принципы построения системы упражнений и критерии оценки их эффективности. В работе рассматриваются различные виды упражнений, направленные на развитие навыков аудирования и их практическое применение в процессе общения. Результаты исследования помогут разработать практические рекомендации по совершенствованию навыков аудирования в процессе общения. В статье обосновывается эффективность системы упражнений на основе лингводидактических и психолингвистических теорий, а также дается глубокий анализ значения упражнений в обучении навыкам аудирования. Это исследование является важным ресурсом для преподавателей, методистов и изучающих языки.

Ключевые слова: коммуникация, навыки аудирования, система упражнений, коммуникативные навыки, лингводидактика, психолингвистика, методика преподавания языка, процесс обучения, стратегии аудирования.

Annotation: this article is devoted to studying the importance of listening comprehension skills in the communication process and the role of the exercise system in improving it. The relevance of the research is determined by the specific features of modern communication, the importance of listening comprehension skills and their insufficient development. The article covers the definition, components, role and importance of listening comprehension skills in communication. It also identifies the role and importance of various exercises in improving listening comprehension skills, the principles of constructing a system of exercises and the criteria for assessing their effectiveness. The work studies various types of exercises aimed at developing listening comprehension skills and their practical application in the communication process. The results of the research help to develop practical recommendations for improving listening comprehension skills in the communication process. The article substantiates the effectiveness of the exercise system based on linguodidactical and psycholinguistic theories and deeply analyzes the role of exercises in teaching listening comprehension skills. This study is an important resource for teachers, methodologists, and language learners.

Key words: communication, listening comprehension skills, exercise system, communication skills, linguistic didactics, psycholinguistics, language teaching methodology, learning process, listening strategies.

Muloqot inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, unda tinglab tushunish ko'nikmasi alohida o'rin tutadi. Zamonaviy dunyoda ma'lumot oqimining tezlashishi, xalqaro aloqalarning kengayishi, turli sohalarda muloqotning ahamiyatini oshirmoqda. Muloqotning samarali bo'lishi uchun tinglab tushunish ko'nikmasini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Tinglash orqali biz boshqalarning fikrlarini, his-tuyg'ularini va niyatlarini tushunamiz, muloqotda faol ishtirok etamiz va o'zaro tushunishga erishamiz (Brown, 2001).

Tinglab tushunish ko'nikmasi til o'rganish jarayoni-ning muhim komponentlaridan biri bo'lib, u nafaqat tilni o'rganishda, balki real muloqot jarayonida samarali muloqot qilish uchun ham asosiy ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy muloqotning murakkabligi va tinglab tushunish ko'nikmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi uni o'qitishda innovatsion yondashuvlarni talab qiladi.

Tinglab tushunish ko'nikmasi – bu o'zga nutqini qabul qilish, tushunish va unga munosabat bildirish qobiliyatidir. U faqat eshitish emas, balki nutqning mazmunini tushunish, ma'lumotni qayta ishlash, asosiy g'oyani ajratib olish va xulosa chiqarishni ham o'z ichiga oladi (Lund, 1990). *Tinglab tushunish ko'nikmasi* nutqning fonetik, leksik va grammatik darajalarini, shuningdek, madaniy va ijtimoiy kontekstni ham o'z ichiga oladi. Shu bilan bir qatorda tinglab tushunish lingvistik va psixolingvistik jarayonlarning birligidan iborat. Til o'rganishda bu jarayon semantik, sintaktik va pragmatik ma'nolarni to'g'ri idrok etish bilan bog'liq (Chomsky, 1965). Ushbu ko'nikma muloqotning asosiy komponentlaridan biri sifatida qaralib, undan samarali foydalanish kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishini ta'minlaydi (Vygotsky, 1978).

Tinglab tushunish ko'nikmasini o'rganishga oid tadqiqotlar lingvistika, psixolingvistika, didaktika va kommunikativ tadqiqotlar sohasida olib borilgan (Tashpulatova, 2023). *O'zbek tilshunosligida muloqot va tinglab tushunish ko'nikmasi masalalari bo'yicha bir qator tadqiqotlar mavjud* (Yo'ldoshev, 2020). Rus tilshunosligida tinglab tushunish ko'nikmasi masalasiga L.S. Vygotskiy (1982) va boshqa olimlarning asarlarida e'tibor qaratilgan. Ispan olimlari (masalan, R.M. Sole, 2002) til o'rgatish metodikasida tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishning muhim jihatlari o'rganganlar. Dunyo miqyosida D. Nunan (1989), H.D. Brown (2001) va boshqa olimlarning ishlari bu sohaning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

O'zbekistonlik olimlarning ta'kidlashicha, tinglab tushunish ko'nikmasi faqat lingvistik bilimlar bilan chegaralanmasdan, madaniyatlararo muloqotni ham qamrab olishi kerak (Tashpulatova, 2023). Bu ko'nikma, ayniqsa, chet tillarni o'rganayotgan talabalar uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Q. Hasanov (2018) o'z tadqiqotlarida multimodal materiallarning o'quvchilarning tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini ta'kidlagan. Shuningdek, Mahmudov

(2019) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda interfaol mashqlardan foydalanish nafaqat talabalar faoliyatini faollashtirishi, balki ularning mustaqil ravishda fikrlash qobiliyatini ham oshirishi qayd etilgan.

Tinglab tushunish quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan:

1. Fonematik idrok: bu bosqichda o'quvchi talaffuz va intonatsiyaga asoslangan holda so'zlarni tanlaydi.

2. Semantik tahlil: tinglovchi ma'lumotni mazmunli qayta ishlaydi.

Pragmatik talqin: kontekst asosida ma'lumotning amaliy ahamiyatini tushunadi (Anderson, 1995).

Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish uchun mashqlar tizimi muhim rol o'ynaydi. Mashqlar talabalarga turli xil tinglash strategiyalarini o'rgatadi, e'tiborni jamlashga yordam beradi, nutqni qayta ishlash qobiliyatini oshiradi va o'ziga ishonchni shakllantiradi (Richards & Renandya, 2002). Mashqlar turlari quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- **Tinglab mazmunni aniqlash:** matnni tinglab, uning asosiy g'oyasini va tafsilotlarni aniqlash.

- **Tinglab xulosa chiqarish:** matnni tinglab, undan xulosa chiqarish va fikr bildirish.

- **Tinglab javob berish:** savollarga javob berish yoki matnni tinglab keyingi harakatlar bo'yicha ko'rsatmalar olish.

- **Tinglab tanlash:** matnni tinglab mos keladigan rasm, matn yoki javob variantini tanlash.

Mashqlar tizimi o'quv jarayoniga mos ravishda rejalashtirilishi va talabalarning darajasi, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda tuzilishi kerak. Mashqlar sistemasi orqali tinglab tushunish ko'nikmasini takomillashtirish quyidagi afzalliklarga ega:

- Talabalarda motivatsiyani oshiradi.
- O'quv materialiga bo'lgan qiziqishni oshiradi.
- O'ziga ishonchni mustahkamlaydi.
- Muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi.
- Turli xil nutq vaziyatlariga moslashuvchanlikni shakllantiradi.

Mashqlar tizimi til o'rgatishda tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda muhim vositadir. Mashqlar tizimining samaradorligi uning lingvodidaktik tamoyillarga mosligi bilan belgilanadi. Ushbu tamoyillar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Kontekstual moslik: mashqlar real hayotiy vaziyatlarga asoslanishi kerak (González, 2015).

Interfaol yondashuv: o'quvchini faol ishtirokchi sifatida jalb etish.

Avtentiqlik: mashqlar tabiiy muloqot muhitini yaratishi lozim (Richards & Rodgers, 2014).

Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda mashqlar quyidagi asosiy tamoyillar asosida tuzilishi kerak:

Progressivlik: mashqlar murakkablik darajasiga ko'ra ketma-ket tashkil etilishi lozim (Fernández, 2020).

Kontekstualizatsiya: mashqlar real vaziyatlarga asoslanishi talab qilinadi (Pérez, 2017).

Qiziqarli bo'lish: o'quvchilarning qiziqishini oshiruvchi mashqlarni tanlash zarur.

Tahlil va qayta aloqa: mashqlarni tahlil qilish va natijalar asosida o'quvchini rag'batlantirish muhimdir (Smith, 2019).

Ushbu tadqiqot davomida talabalarga turli darajadagi tinglab tushunish mashqlari taqdim etildi. Eksperimentda qatnashgan talabalar uch guruhga bo'lindi: interfaol mashqlardan foydalangan guruh, autentik materiallardan foydalangan guruh va an'anaviy usullarda ta'lim olgan guruh. Natijalar shuni ko'rsatdiki, interfaol va autentik mashqlar asosida ishlagan talabalar 25% yuqoriroq natijalarga erishgan.

Mashqlar turlarining tahlili:

Ovozli matnlar asosida mashqlar: talabalar real hayotdagi vaziyatlarni idrok etishni mashq qilishdi.

Dialog va suhbatlarga asoslangan mashqlar: muloqot jarayonida qiyinchiliklarni yengishga qaratilgan.

Video va multimediadan foydalanish: multimodal materiallar yordamida til o'rganish jarayoni osonlashgan (García, 2018).

Mashqlar tizimi muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. U nafaqat til bilimlarini

oshirishga, balki talabalarga o'z bilimlarini amaliyotda qo'llashga yordam beradi (Tashpulatova, 2023). Shuningdek, tinglab tushunish mashqlarining madaniyatlara muloqot kompetensiyasiga ijobiy ta'siri kuzatildi (Pérez, 2017).

Tadqiqot natijasidan quyidagi amaliy tavsiyalar kelib chiqdi:

Tinglab tushunish mashqlari real hayotiy vaziyatlarga asoslanishi kerak.

O'quvchilarning ehtiyojlariga mos mashqlarni ishlab chiqish lozim.

Muloqotga yo'naltirilgan multimodal materiallardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Xulosa. Muloqot jarayonida tinglab tushunish ko'nikmasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, uni mashqlar sistemasi orqali takomillashtirish zarur. Mashqlar talabalarining tinglash qobiliyatini oshiradi, ularni muloqotga tayyorlaydi va o'zaro tushunishni osonlashtiradi. Yuqoridagi fikrlar shuni ko'rsatdiki, tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar tizimi til o'qitishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv o'quvchilarning muloqotga bo'lgan ishonchini oshiradi va ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anderson, J. R. (1995). *Cognitive Psychology and Its Implications*. New York: Freeman.
2. Brown, H.D. (2001). *Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy*. Pearson Education.
3. Chomsky, N. (1965). *Aspects of the Theory of Syntax*. Cambridge: MIT Press.
4. Fernández, J. (2020). "Integrative Approaches to Listening Skills Development". *Language Teaching Research*, 24(4), 398-412.
5. García, L. (2018). "Uso de entornos de aprendizaje multimodal en la enseñanza de idiomas". *Modern Language Journal*, 102(1), 12-25.
6. González, M. (2015). "El desarrollo de las habilidades de escucha en contextos educativos". *Revista de Lingüística Aplicada*, 32(2), 145-163.
7. Hasanov, Q. (2018). "O'quv jarayonida multimodal yondashuvning o'rni". *Oliy Ta'lim Jurnali*, 3(1), 45-57.
8. Lund, R.J. (1990). *A taxonomy for teaching second language listening*. *Foreign Language Annals*, 23(2), 105-115.
9. Mahmudov, T. (2019). "Interfaol metodlar orqali chet tilini o'qitish". *Tilshunoslik va Pedagogika*, 5(2), 112-119.
10. Martínez, L. (2021). "Aplicación de tecnologías interactivas para el aprendizaje de idiomas". *Journal of Educational Studies*, 15(1), 89-102.
11. Nunan, D. (1989). *Designing tasks for the communicative classroom*. Cambridge University Press.
12. Pérez, R. (2017). "La importancia del contexto en la enseñanza de idiomas". *Hispania*, 100(3), 435-449.
13. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
14. Sole, R.M. (2002). *La comprensión auditiva en la enseñanza del español como lengua extranjera*. Arco/Libros.
15. Tashpulatova, F. S. (2021). Methodology of developing auditing skills and skills of Spanish language students. www.auris-verlag.de.
16. Tashpulatova, F. S. (2023). Педагогические особенности, методы и понятия, используемые в обучении творческого мышления. *Интернаука. Научный электрон журнал*. Москва, 1(271), 17-18.
17. Tashpulatova, F. S. (2023). Tinglab tushunishda og'zaki nutqning, kommunikativ yo'nalganlik tushunchalarini aniqlash. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 23(6), 107-109.
18. Yo'ldoshev, M. (2020). *O'zbek tilida nutqiy muloqotning lingvopragmatik xususiyatlari*. Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi.
19. Выготский, Л.С. (1982). *Мысль и речь. Педагогика*.

Zebo AZIZOVA,
Shahrisabz shahar 22-umumiy
o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

SINF DAN TASHQARI O'QISH DARSLARINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya: ushbu maqola mazmunida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'qish darslarini innovatsion usulda tashkil etish va undan ko'zlangan maqsad haqida so'z yuritilgan bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'qish darslarini turizm shaklida tashkil etish orqali ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyani olib kirish mexanizmi haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: *sinfdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari o'qish darsi, sinfdan tashqari ommaviy ishlar, sinfdan tashqari to'garak ishlari, sinfdan tashqari mustaqil ishlar*

Annotation: the content of this article talks about the organization of reading lessons for elementary school students in an innovative way and the purpose of it, organizing reading lessons for elementary school students in the form of a tour. Opinion about the mechanism of bringing innovative technology into the educational process is expressed through

Key words: *extracurricular activities, extracurricular reading lesson, extracurricular mass work, extracurricular final work, extracurricular independent work*

Аннотация: в содержании данной статьи говорится об организации уроков чтения для учащихся младших классов инновационным способом и цели этого, а также организации уроков чтения для учащихся младших классов в форме экскурсии через механизм внедрения инновационных технологий в учебный процесс.

Ключевые слова: *внеклассная работа, внеклассный учебный урок, внеклассная общественная работа, внеклассное домашнее задание, внеклассная самостоятельная работа.*

Sinfdan tashqari ishlar – umumiy o'rta ta'lim tizimining, ya'ni maktabda amalga oshiriladigan o'quv tarbiyaviy ishining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish shakllaridan biridir. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning maktabda olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan bir qatorda ularning barkamol shaxs sifatida shakllanishi va hayotga unumli tayyorlanishida keng imkoniyatlar yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarga o'quvchilar bilan o'tkaziladigan va ularga tarbiya hamda bilim berishga qaratilgan turli xil mashg'ulotlar tizimi kiradi. Bunday mashg'ulotlar pedagogik jamoa, sinf rahbari, yoshlar tashkilotlari rahbarligi va bolalarning o'z-o'zini boshqarish tashkilotlari tomonidan darsdan tashqari vaqtda uyushtiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o'quvchilar saroylari, yosh texniklar, yosh tabiatshunoslar, yosh sayyohlar klubi va maktabdan tashqari boshqa muassasalar katta yordam beradi.

Sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakllari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

– ommaviy tashkil etiladigan ishlar (maktab klublaridagi tadbirlar, badiiy kechalar, munozara va muzokaralar, turli tanlovlar, viktorinalar, ko'rgazmalar uyushtirish, tabiat qo'yniga sayr, maktab va muzeylarga ekskursiyalarga chiqish) va boshqalar kiradi.

– to'garak shaklida tashkil etiladigan ishlar (o'quvchilarning turli to'garaklari, sport seksiyalari, ansambllardagi qatnashishlar),

– mustaqil tashkil etiladigan ishlar (o'quvchilarning

sinfdan tashqari o'qishi, kolleksiya to'plashi, texnikaviy ishlar, musiqa, tasviriy san'at, chizmachilik) ni ko'rsatish mumkin.

Boshlang'ich sinfdan sinfdan tashqari o'qishga kichik yoshdagi o'quvchilarni ona tilini puxta o'zlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi sifatida ta'lim jarayonida ularni axloqiy-estetik tarbiyalashning muhim vositasi sifatida turizmni alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Turizm boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun nafaqat sayohat, balki dars hamdir. Chunki ularning badiiy tasavvurlarga boy dunyosini turizmning turli shakllari orqali yanada go'zallashtirish, balki bilimlarini ham boyitish mumkin. Endi turizmning o'qish darslariga qanchalik aloqasi bo'lishi mumkin degan savolga quyidagicha javob berish mumkin. Boshlang'ich sinflar uchun yaratilgan maktab darsliklarining barcha mavzularini va chorak sifatida umumlashtiriladigan mavzularni turizmning barcha turlari yordamida mustahkamlash mumkin.

Turizm (fransuzcha *tour* – sayr, sayohat) sayyohlik – sayohat (safar) qilish; faol dam olish turlaridan biri demakdir. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat qilib turgan yashash joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda boshqa bir joyga yoki mamlakatga haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan 1 yil muddatga jo'nab ketish ya'ni sayohat qilishi tushuniladi. Turizm faoliyatining tarixiga nazar tashlaganimizda uning asl paydo bo'lish vaqti XIX asr boshlariga borib taqaladi. Dastlab turizmning paydo bo'lishi 1815-yilda uyushgan bir guruh sayyohlarning Angliyadan Fransiyaga sayohat

qilishidan boshlangan deyish mumkin. Turizmning asoschisi hisoblanish ingliz ruhoniysi Tomas Kuk 1843-yilda 1-temir yo'l sayyohligini tashkil qildi. Shundan so'ng u o'zining xususiy turistik korxonasini tuzdi va 1866-yilda dastlabki sayyohlik guruhlarini AQShga jo'natdi. Sharqda arab sayyohi Ibn Battuta 21 yoshida sayohatini boshlab, deyarli barcha Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarini piyoda kezib chiqdi. Boshqa sohalarda bo'lgani kabi turizm sohasida ham bir nechta asosiy mazmun kasb etuvchi tushunchalar bor, biz har gal ularga duch kelganimizda turizm sohasining ajoyibotlarini his eta olamiz.

Turizm – jismoniy shaxsning vaqtincha yashash mamlakatidagi joyidan boshqa bir joyga manbalardan daromad olish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda jo'nab ketishi, ya'ni sayohat qilishi tushuniladi.

Turist – vaqtincha yashash mamlakatidagi joyidan manbalardan daromad olish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan **shug'ullanmagan holda** vaqtincha **24 soatdan** ketma-ket **12 oygacha bo'lgan davr mobaynida** yoki vaqtincha bir kecha tunab qoluvchi jismoniy shaxs.

Gid (gid-tarjimon) – axborotga oid va tashkiliy xizmatlar ko'rsatish, turistlar va ekskursantlarni vaqtincha yashash mamlakatidan olib chiquvchi turistik resurslar bilan tanishtirish uchun kasbiy jihatdan tayyorgarlik ko'rgan, O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan jismoniy shaxs.

Turizm sohasi bo'yicha Sharqiy davlatlar tarixi ham tarixiy manbalarga boy deb bimalol aytishimiz mumkin. Jumladan Movarounnahrda ilk sayyohlarning safarlari Amir Temur va Temuriylar davrida faollashgan. Amir Temur o'z davrida fransuz qiroli Karl VI va ingliz qiroli Genrix IV bilan doimiy aloqada bo'lgan va ular o'z elchilarini boshqa davlatlarga tez-tez yuborib turgan. 1403-yili Parijga elchi bo'lib kelgan Ispaniyalik Klavixoning "Buyuk Temurning hayoti va faoliyati" nomli kitobida Movarounnahrda ijtimoiy hayot Temur davlatiga bo'ladigan sayohatlarning asl sababi bo'lgan.

Hozirgi davrda turizm dunyoning juda ko'p

mamlakatlarida ommaviy tus olgan. Odatda, turizm tashkilotlari orqali turizm marshrutlari bo'yicha uyushtiriladi. Turizmning juda ko'p turlari va shakllari mavjud (ichki, xalqaro, havaskorlik turizmi, uyushgan turizm, yaqin joyga sayohat, uzoqqa sayohat, bilim saviyasini kengaytirish maqsadidagi turizm, toqqa chiqish, suv turizmi, avtoturizm, piyoda yuriladigan turizm, sport turizmi va boshqalar). Quyida biz ularning ba'zilariga alohida to'xtalib o'tamiz.

Sarguzasht turizmi sayohatchilar kutilmagan hodisalarni kutishlari mumkin bo'lgan uzoq joylarni o'rganishni o'z ichiga oladi. Bu yangi madaniyat yoki yangi landshaft bilan bog'lanishni va ayni paytda jismoniy faollikni o'z ichiga oladi. Sarguzasht turizmining ba'zi turlari kunduzgi yurish, ryukzak, zip astar, erkin tushish, rafting, tog' velosipedi, chang'i va snoubordni o'z ichiga oladi.

Agroturizm yoki agroturizm odatda, fermer xo'jaliklarida olib boriladi. Bu sayohatchilarga qishloq hayotini boshdan kechirish, mahalliy taomlarni tatib ko'rish va turli dehqonchilik vazifalari bilan tanishish imkoniyatini beradi. Ushbu turdagi turizm Italiyada fermer xo'jaligi deb ham ataladi. Agroturizmning ba'zi turlari to'g'ridan-to'g'ri bozor agroturizmi, tajriba va ta'lim agroturizmi va tadbir va dam olish agroturizmidir.

Yuqorida nomlari qayd etilgan turizm yo'nalishlaridan biz alohida eng ta'sirli va uzoq tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishni, ya'ni madaniy turizmni alohida qayd etamiz va uni yanada rivojlantirish bizning asosiy vazifalarimizdan biri ekanligini ta'kidlaymiz.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'qish darslarini turizmning madaniy, sport, diniy, eko, arxeologik va hattoki gastronomik turizm orqali integratsiyalashgan tarzda tashkil etish haqiqatdan ham ta'lim jarayoni uchun balki boshlang'ich sinflar uchun haqiqiy innovatsion texnologiya bo'la oladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun madaniy turizm namunasi bo'lgan har qanday joy va unda amalga oshirilgan ishlar eng avvalo ularning milliy ruhiyatiga ta'sir etmasdan qolmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ortiqova Dilsabo Munavvarjon qizi "Boshlang'ich sinfda sinfdan tashqari o'qish darslarida xalq og'zaki ijodini o'rgatish" Nizomiy nomidagi TDPU 2-kurs talabasi Вестник магистратуры. 2023. № 6-3 (173)
2. Sarbarova Malika Yuldashaliyevna "Boshlang'ich ta'limda sinfdan tashqari darslarni tashkil etish metodikasi va ularning ahamiyati" Namangan tumani 17-umumta'lim maktabi o'qituvchisi Вестник магистратуры. 2020. № 4-1 (103)
3. Mirzayev Murotjon Ahmadjonovich "Turizm asoslari" o'quv qo'llanma –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2011-yil 288- bet.
4. M.T.Aliyeva "Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti" darslik –T.: TDIU, 2007-yil 339-bet.

Mashrabxon UMAROVA,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
Boshlang'ich ta'lim kafedrası dotsenti v.b

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERFAOL METODLARNI QO'LLASH ORQALI SAMARADORLIKKA ERISHISH

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida samara beradigan interfaol metodlar va ularning ishlatilish holatlari haqida ma'lumot berilgan. Pedagog-o'qituvchilar tomonidan bu metodlarni qo'llash orqali o'quvchilardan qanday natijalar kutilishi, natijalarning samaralari aniq yozilgan.

Kalit so'zlar: metod, fan, "davom ettir", "tushunchalar tahlili", o'yin.

Annotation: this article provides information about effective interactive methods for primary school students and their application cases. It also specifies the expected outcomes for students through the use of these methods by teachers, as well as the effectiveness of these results.

Key words: method, subject, "continue", "concept analysis", game.

Аннотация: в данной статье представлена информация об эффективных интерактивных методах для учащихся начальной школы и случаях их применения. Также указаны ожидаемые результаты для учащихся при использовании этих методов педагогами, а также эффективность этих результатов.

Ключевые слова: метод, предмет, «продолжи», «анализ понятий», игра.

O'quv jarayonida o'quvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zanonaviy uslublarning qo'llanilishi o'quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatini his qilish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi o'qishga, mustaqil ishlash va erkin bayon etishga, fanga va o'zi tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Bunday vazifalarni amalga oshirishda interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalar juda qo'l kelishini ta'lim muassasalarida tadqiqotchilar tomonidan o'tkazilayotgan pedagogik tajribalar, natijalari tasdiqlamoqda. O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda ko'proq samaraga ega bo'lish uchun o'tmish ajdodlarimizning g'oya va qarashlaridan foydalangan holda innovatsion va axborot texnologiyalarni qo'llashi zarur va bugungi o'zgarishlar shuni talab etmoqda. Texnologiyalardan umumiy shaklini olgan holda o'zlarining dars texnologiyalarini yaratishlari, berilgan pedagogik texnologiya va interfaol metodlarni to'liq yoki ularni ba'zi bir bosqichlari elementlarini qo'llashlari mumkin. Ilg'or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish davr talabidir. Bugungi o'quvchilarga ta'lim berish, ularni tarbiyalash o'qituvchi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Bu esa pedagogdan talabchan, o'z ustida ishlash, ijodiy yondashuv asosida faoliyat yuritishni taqozo etadi.

Pedagogning faoliyat shakllari darsni amaliy mashg'ulot, hikoya, suhbat, savol-javob, bahs-munozara, darslarda namoyon bo'lib undan unumli va o'rinni texnologiyalarni qo'llashni talab qiladi. O'quvchilar zamonaviy dars jarayonlarida o'ziga nisbatan talabchanlikni oshiradi, muammoni esa yechimini, oson, qulay usullarini topishni, taqqoslashni, qiyoslashni o'rganadi. O'tilgan mavzuga mustaqil munosabat bildirish malakasi oshadi. Har bir o'qituvchi darsda qaysi usulni qo'llashidan qat'i nazar talabchanlikka, faollikka, mustaqil fikr

yuritishga erishishni maqsad qilishi kerak. O'qituvchining nutq madaniyati ham dars jarayonini muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam beradi. Notiqlik mahorati faolligini oshirib, ishga ijobiy yondashuvini ta'minlaydi. Dars davomida zamonaviylikka erishishda barcha usullardan o'rinsiz, ko'p foydalanish ham yaramaydi. Zamonaviy, noan'anaviy dars shakli va uni tashkil etishdan maqsad o'quvchilarning bilish faoliyatini kuchaytirish, o'quv mashg'ulotlarida samarali natijalariga erishish yo'llaridan biri hisoblanadi. Pedagogik texnologiya o'quv jarayonlarini harakatga keltiradi. O'qituvchi belgilangan maqsadga erishmoqchi bo'lgan yo'lidan og'ishmay borishi undan kuchli kasbiy mahorat talab etishi hammamizga ma'lum.

"Tushunchalar tahlili" metodi orqali o'quvchilarga so'zlarning qanday ma'nosi va u nimani anglatishi o'rgatib boriladi. Ya'ni tushunchalarning mazmuni va aksincha, berilgan mazmundan tushunchani anglab olishga o'rgatadi. Rasmlar berilganda o'quvchilar mazmun yoki tushunchaga qo'yilgan rasmlarga qarab, ularni aniqlab to'ldiradi. Bunda o'quvchilar bitta so'zda mazmunini yoritishi mumkin. 1-sinf uchun mevalar yoki nima so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni o'rgatishda qo'llash mumkin. Mevalar rasmiga qarab uning nomini yozish mumkin. Bu metodda mazmunda berilgan izohi asosida kerakli tushunchani yozishlari ham mumkin. Yoki chizma, belgilar, formulalar, rasmlar berilishi orqali ham tushunchalarni aniqlash, yozish, chizish mumkin.

Masalan:

Tushunchalar	Mazmuni
Bahor	Fasl, unda gullar ochiladi, qorlar eriydi, onalar bayrami bo'ldi, ekinlar ekiladi
Daraxt	Meva qiladi, gullaydi, soya beradi, yog'och olinadi

Bundan tashqari 1-sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslari tarkibiga kiruvchi "Alifbe" darslarida savod

chiqarish uchun “Kubik-rubik” metodi orqali samarali natijaga erishish mumkin. Bu metodda o'qituvchi tomonidan o'n dona kubik-rubik tayyorlanadi va uning har bir tomoniga turli harflar yoziladi. O'quvchilar kubik-rubikni aralashtirib tashlaydi. Yuqorida turgan harflar yordamida turli bo'g'inlarni hosil qiladi. Turli bo'g'inlar yordamida har xil so'zlarni hosil qiladi. Bu metod orqali o'quvchilarning fikrlash salohiyati oshiriladi. O'quvchilarda xotirani mustahkamlab, so'z boyligi oshirilishiga yordam beradi.

Shuningdek, boshlang'ich sinf darslarida “Assesment” texnikasidan foydalanish mumkin. Bu usul ham o'quvchilarga o'z-o'zlarini taqdimot qilish imkonini beradi. Unda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib 3 ta yoki 4 ta chizmadan iborat topshiriqlar berish mumkin. Bu usul orqali ham boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlarini baholab shu bilan birga xatolarini ko'rib boradilar, mustaqil ishlashga o'rganadilar. Undan mustahkamlash va nazorat qilish hamda bo'shliqlarni to'ldirishda foydalanish mumkin. Barcha darslarda qo'llasa bo'ladi. Mustaqil, yakka holda, ba'zan guruhlarda ham bajarish mumkin. Avval, savol varianti beriladi, so'ng tegishli javoblar yozib borilgandan so'ng javoblar varianti beriladi. (Uni monitorida yoki tayyor ko'rgazmada ko'rsatish, shuningdek, o'qituvchi o'qib boradi, o'quvchilar esa o'z javoblarini kuzatib tekshirib borishi mumkin.) O'quvchi o'zining javoblariga o'qituvchi to'g'ri javobiga qarab ball qo'yishi mumkin. Har bir topshiriq tegishli ball bilan baholanishi belgilab taqsimlab qo'yiladi.

“Kim chaqqon?” ta'limiy metodidan o'quvchilar savodxonlik darslarida foydalanishi o'rinli hisoblanadi. Buning uchun quyidagi jadval ko'rinishida alifbodagi barcha harflar 4 yoki 5 tadan turli joylarga yozilgan bo'ladi. O'quvchining vazifasi esa berilgan vaqt ichida o'tilgan harfni belgilab katak ichini bo'yashi lozim. Birinchi tayyor bo'lgan 5 yoki 10 nafar o'quvchi g'olib hisoblanadi.

Masalan, o'quvchilar “M” harfi bilan tanishgan bo'lsa, berilgan vaqt ichida shu harfni topib yashil rangga bo'yashadi. Shu tarzda har darsda o'quvchilar tanishgan harflarini turli ranglarga bo'yab borishadi. Bunday

A	Q	NG	E	D	R	N	T	U	S
I	D	O	X	V	C	F	J	K	Q
P	S	H	V	D	Z	B	R		CH
L	W	CH	G	M	T	C	G	Y	B
R	F	E	C	A	C	H	K	M	D
B	R	V	SH	L	X	O	W	C	I
U	Z	C	R	I	P	C	R	P	NG
J	SH	O	Y	V	G	SH	KN	Y	Z
X	M	NG	C	Q	CH	L	P	J	V
F	A	T	S	D	U	H	Y	N	E

tarqatmalar har bir o'quvchiga alohida berilishi kerak¹.

1-rasmda ko'rsatilgan jadvaldagi harflar yordamida o'quvchilar o'rgangan harflarini birlashtirib, yangi so'zlarni hosil qilishi kerak. Bunda o'quvchilarning fikrlash qobiliyati ham o'stiriladi.

Savod chiqarishda yuqoridagi metodlardan tashqari yana “O'xshash halqalar”, “Faol bo'lamiz”, “Javobini bilasanmi?”, “Mazmuniy davom ettir” kabi metodlardan ham foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'quvchi “O'xshash halqalar” orqali xususiylik va umumiylikni halqalar ichiga to'ldirishi kerak. Bunda, bir xil harflar bilan boshlangan so'zlar yoki bir so'z tarkibida o'xshash harflarni topishi kerak. “Mazmuniy davom ettir” – bir so'zni tarmoqlashni, ya'ni so'zdagi harflarni boshqa harflar bilan davom ettirishi, natijada yangi bo'g'in va so'zlar paydo bo'ladi. “Faol bo'lamiz” orqali ijod qilish so'z va gaplarni o'zaro bog'lab to'ldirishni o'rganadilar.

O'qituvchi maqsadga erishish va yaxshi natijalar olish uchun texnologiya yoki metodni qay birini tanlamasin ikkala tomonning natijasiga qaratiladi. Bunda o'quvchilar salohiyati, intilishlari, guruh tabiati, sharoit va o'qituvchining yetkaza olish mahoratiga bog'liq holda tanlanadi. Natijalar texnologiya va metodlarni tanlashga, har bir sinf o'qituvchisi reja va darsliklar asosida undan o'rinli, aniq, mahorat bilan samarali qo'llashiga bog'liq.

1 Umarova M. va boshqalar. O'qituvchi kitobi. (o'quv qo'llanma). – Toshkent, 2023.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R. Ishmuhammedov, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2013.
2. “Ona tili 1” o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma” (Masharipova U.A, Umarova M.A, Baynazarova D, Nabiyeva M.T. mualliflik ulushi. – Toshkent: “Sharq” nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2014. 7,98 bet) nomli metodik qo'llanma.
3. “Ona tili 2”. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma” (Masharipova U.A, Umarova M.A, Baynazarova D, Nabiyeva M.T. mualliflik ulushi. – Toshkent: “Sharq” nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2015. 11,2 bet) nomli metodik qo'llanma.
4. “Ona tili 3”. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma” (Masharipova U.A, Umarova M.A, Baynazarova D, Nabiyeva M.T mualliflik ulushi. – Toshkent: “Sharq” nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2016. 10,3 b.t.) nomli metodik qo'llanma.
5. “Ona tili 4”. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma” (Masharipova U.A, Umarova M.A, Baynazarova D, Nabiyeva M.T mualliflik ulushi. – Toshkent: “Sharq” nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2017. 15 b.t.) nomli metodik qo'llanma.
6. “O'qituvchi kitobi” (Umarova M.A, Erxonova N.A, Ro'ziyeva Z Maxmudova M. mualliflik ulushi. – Toshkent: “Evrifa” nashriyat-matbaa uyi, 2024. 9 b.t.) nomli metodik qo'llanma.

Ug'iloy QULDOSHEVA,
TISU 2-kurs magistranti

SINFDAN TASHQARI ISHLARDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI ONA TILIGA QIZIQTIRISHNING METODIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqola sinfdan tashqari ishlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ona tiliga qiziqtirishning metodik imkoniyatlari haqida

Kalit so'zlar: *sinfdan tashqari ish, boshlang'ich sinf, ona tili, metodika, imkoniyat*

Аннотация: в данной статье речь идет о методических возможностях формирования интереса учащихся начальных классов к родному языку во внеклассной деятельности.

Ключевые слова: *внеклассная работа, начальная школа, родной язык, методика, возможность.*

Annotation: this article is about the methodical possibilities of getting primary school students interested in their mother tongue in extracurricular activities.

Key words: *extracurricular work, elementary school, mother tongue, methodology, opportunity*

Kirish. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tiliga qiziqtirish, ularning til o'rganishdagi faoliyatini motivatsiya qilish va tilga bo'lgan qiziqishni oshirish, o'quv jarayonining samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda turli metodik imkoniyatlar yordamida o'quvchilarni ona tili bilan tanishtirish va ularni til o'rganishga jalb qilish mumkin. Quyidagi metodik usullarni ko'rib chiqish mumkin.

USULLAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI

O'yin usullari: o'yinlar orqali til o'rganish jarayoni qiziqarli va interaktiv bo'lishi mumkin. Masalan, "So'zlarni to'g'ri joylashtirish", "So'zlar ketma-ketligi", "Rasmga asoslangan so'zlarni tuzish" kabi o'yinlar o'quvchilarning tilni tez va samarali o'rganishlariga yordam beradi.

"So'z topish" yoki "So'zlar zanjiri" kabi o'yinlar orqali o'quvchilar tilning turli jihatlarini o'rganadilar.

Interaktiv mashqlar: fikrni ifodalash va tahlil qilishga qaratilgan interaktiv mashqlar yordamida o'quvchilarning ona tiliga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin. Masalan, hikoya yozish, she'r yozish yoki rasm asosida hikoya yaratish.

"Savol-javob" va "Dialoglar o'tkazish" metodlari orqali o'quvchilar turli vaziyatlarda ona tilida to'g'ri va aniq so'zlashga o'rganadilar.

Eshitish va ko'rish: audiovizual materiallar, masalan, ona tilidagi hikoyalar, she'rlar, ertaklar yoki qisqa filmlar orqali tilni o'rganishning qiziqarli usullarini taklif qilish. Bu o'quvchilarning eshitish va tushunish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'quvchilarni turli ona tili shoirlar va yozuvchilarning asarlari bilan tanishtirish, ular orqali tilni sevish va qadrlashga undash.

NATIJALAR

Ijodiy faoliyat: o'quvchilarga ijodiy vazifalar (masalan, "Yangi ertak yaratish" yoki "O'z hikoyangizni yozing") berish orqali ona tiliga bo'lgan qiziqishni oshirish mumkin.

Leksik boylikni kengaytirish va grammatika qoidalarini o'rganish uchun kreativ mashqlar (masalan, "So'zlar bilan yangi jumlarlar tuzish" yoki "Fikrni turli usullar bilan ifodalash") berish o'quvchilarning ona tili bilimlarini chuqurlashtiradi.

Ko'rgazmali vositalar: ona tilini o'qitish jarayonida ko'rgazmali vositalardan (plakatlar, kartochkalar, diagrammalar, rasmlar) foydalanish orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirish mumkin. Bu ularning ongida til elementlarini yanada yaxshi anglash imkonini beradi.

Guruhli ishlash: o'quvchilarga guruhlarda ishlashni taklif qilib, ularga o'zaro muloqot qilishga imkon yaratish, ularning tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Guruhlarda muhokama, fikr almashish va o'zaro fikr bildirish o'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Madaniy va tarixiy kontekstda ishlash: o'quvchilarga ona tilining madaniy va tarixiy ahamiyatini tushuntirib berish, ularni ona tili orqali milliy madaniyat, adabiyot va san'atga qiziqtirishga yordam beradi.

Ushbu metodik imkoniyatlar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilari ona tilini o'rganishga ko'proq qiziqish bildirishlari mumkin, bu esa o'z navbatida ularning til o'rganish jarayonini samarali va qiziqarli qiladi.

TAHLIL VA MUHOKAMA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tiliga bo'lgan qiziqishini oshirishning boshqa metodik imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz:

1. Hikoya qilish va so'zlashni rivojlantirish:

Tashabbusli hikoya yaratish: o'quvchilarga rasm, so'z yoki mavzu berib, hikoya yoki ertak yaratishni taklif qilish. Bu metod o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi va tilni ishlatishga undaydi.

Boshqa mavzudagi hikoyalar: o'quvchilarga ma'lum bir mavzu asosida (masalan, "Do'stlik", "Tabiat", "Hayvonlar") hikoya yaratishni so'rash. Bu ularni o'z fikrlarini aniq va tushunarli ifodalashga o'rgatadi.

2. Turli xil adabiyotlar bilan tanishtirish:

Ertaklar va afsonalar: o'quvchilarga xalq ertaklari, afsonalar va dostonlar orqali ona tili haqida tasavvur shakllantirish. Ushbu adabiyotlar o'quvchilarga tilning boyligi va go'zalligini tushunishga yordam beradi.

She'rlar va qo'shiqlar: O'quvchilarga oson va qisqa she'rlar yoki qo'shiqlar o'rganish, ularni yodlab, qo'shiq aytish, shuningdek, she'rlarni ifodalash va tushunishga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, nutqni yaxshilashga yordam beradi.

3. O'qish va yozish bo'yicha faoliyatlar:

O'qish mashqlari: o'quvchilarga qisqa matnlar, ertaklar yoki she'rlarni o'qib, ularni tahlil qilish, mazmuni haqida savollar berish orqali ular bilan muloqot qilish. O'qish jarayoni o'quvchilarning tushunish qobiliyatini va she'r yodlashni oshiradi.

Oilada tolerantlik tushunchasi shakllangan o'smirlarda turli xil axborotlarni qabul qilish va ularni obyektiv o'zlashtirish ko'nikmasi rivojlanadi. Buning uchun esa, oilada o'smirlar orasida ishchan muhit yaratilishi kerak. Tolerantlik tarbiyasida har bir oiladagi o'smirlarning alohidalik, o'ziga xoslik, bag'rikenglik tushunchalarini o'zlashtirishga moyilligi, ijodiy fikrlashga odatlanish darajasini aniqlagan holda, pedagogik chora-tadbirlarni qo'llash tavsiya qilinadi.

Tolerantlikni xorijiy tillar asosida shakllantirishni o'zga xalq va millatlar qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish sifatida ko'rsatish mumkin, chunki bu turli xil etnik guruhlar o'rtasidagi tolerantlik aloqasi boshqalarni o'rganish bilan bog'liq madaniyatlar va ularga kirish uchun asosdir. Tolerantlik fenomenini xorijiy tillar asosida o'rganishning asosiy uslubiy asoslari bu mavjud prinsiplarga qat'iy amal qilishdir. Demak, tolerantlik kompetensiyasi xorijiy tillarni o'rganish bilan chambarchas bog'liq.

Tolerantlikni an'anaviy tushunish bilan, uni zamonaviy talqin etishda juda katta ilmiy va information farq mavjud. Agar oilalarda tolerantlik ko'proq an'anaviy xususiyatlar va axloqiy me'yorlarning shakllantirilishiga asoslansa, bugungi davr talabi mana shu an'anani takomillashtirib, tolerantlikning zamonaviy mazmuniga doir bilim va malakalarni ham oila tarkibiga olib kirishni dolzarb vazifaga aylantiradi.

Tolerantlik ham oilaning yurish-turish madaniyati, an'analari, qiziqishlari, rivojlangan ma'naviy ehtiyojlarida tarbiyalanadigan tuyg'udir. Shu o'rinda o'smirlarda xorijiy tillar asosida tolerantlikni rivojlantirish ham muhim masalalardan biri. Bu oilada yosh avlodni boshqa madaniyatlar va tillarga hurmat, muloqot va bag'rikenglik ruhida tarbiyalashga qaratilgan metodlar, usullar va vositalarni ifodalaydi. Bu jarayon yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi, ularni turli madaniyatlar bilan tanishtiradi, o'zaro hurmat va tushunishni rivojlantiradi. Oilada o'smirlarda xorijiy tillar asosida tolerantlikni rivojlantirish uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan quyidagi ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarni keltirish mumkin:

1. Xorijiy tillarni o'rgatish orqali madaniy axborot almashinuvi.

Xorijiy tillarni o'rgatish o'smirlarni boshqa xalqlarning madaniyatlari, an'analari va qadriyatlari bilan tanishtiradi. Madaniyatlararo tushunishni rivojlantirish, o'zaro hurmat va bag'rikenglikni shakllantiradi. Masalan, o'smirlarga ingliz, fransuz, nemis kabi xorijiy tillar o'qitilganda, ular faqat tilni o'rganish emas, balki shu tilni gapiradigan xalqning madaniyati, san'ati, tarixi va urf-odatlarini haqida ham bilimlarga ega bo'ladi.

2. Madaniyatlararo muloqotni rag'batlantirish.

Oilada xorijiy tillarda kitoblarni o'qish, filmlar ko'rish va turli xil xalqaro tadbirlarda ishtirok etish orqali o'smirlarga madaniyatlararo muloqotning ahamiyatini tushuntirish mumkin. Masalan, birgalikda chet tillarida yozilgan kitoblarni o'qish va o'qilgan asar haqida muhokama qilish, o'smirlarni o'zaro muloqotga jalb qilish va madaniyatlararo tushunishni rivojlantirishga yordam beradi.

3. Xorijiy tilda muloqot qilishga undash.

Oilada xorijiy tilni o'rganayotgan o'smirlarni tilni amaliy ravishda ishlatishga rag'batlantirish muhimdir. Masalan, xorijiy tilni biladigan oila a'zolari bilan doimiy ravishda muloqot qilish yoki xorijiy tilni o'rgatishda o'smirlarni guruhlariga ajratib, amaliy mashg'ulotlar o'tkazish, bu tilni ijtimoiy kontekstda ishlatishni rivojlantirishga yordam beradi. Bu o'z navbatida boshqa madaniyatlar bilan tanishishni va ularni qabul qilishni osonlashtiradi.

4. O'smirlar uchun madaniyati va tiliga asoslangan interfaol treninglar.

Madaniyatlararo muloqot va tolerantlikni rivojlantirish uchun o'smirlar bilan turli xil interfaol treninglar o'tkazish mumkin. Bunday treninglar, masalan, xorijiy tillar o'rganilayotgan davlatlar madaniyatiga oid o'yinlar, ro'yxatlar, simulyatsiyalar va rasmiy va norasmiy vaziyatlar asosida muloqot qilishni o'z ichiga oladi. Bu treninglar o'smirlarning madaniyatlararo muloqotga nisbatan ochiqligini oshirishga va bag'rikenglikni kuchaytirishga yordam beradi.

5. Xorijiy tildagi ijtimoiy muhitni yaratish.

Oilada o'smirlarning xorijiy tilni o'rganish jarayonini ijtimoiy faoliyatlar bilan qo'llab-quvvatlash muhimdir. Masalan, o'smirlarga xorijiy tilda ijtimoiy tarmoqda muloqot qilish, xalqaro forumlarga qatnashish yoki o'z fikrlarini xorijiy tilda ifodalash imkoniyatlarini yaratish mumkin. Bu ularga o'z fikrlarini boshqa madaniyatlar vakillari bilan almashish imkonini beradi va tolerantlikni rivojlantirishga yordam beradi.

6. Xorijiy til o'qituvchilari bilan hamkorlik.

Oilada xorijiy til o'qituvchilari bilan hamkorlik qilish, o'smirlarni o'qitishda faol ishtirok etishga jalb qilish muhimdir. O'qituvchilar o'smirlarga boshqa madaniyatlarni, xususan, ularning qadriyatlarini va urf-odatlarini tanitish orqali tinchlik, bag'rikenglik va o'zaro hurmatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

7. Interkultural ta'lim.

O'zbekistonda madaniyatlararo o'zaro hurmatni rivojlantirish uchun interkultural ta'limni joriy qilish zarur. Bunda o'smirlar chet tillarini o'rganish jarayonida, bir vaqtning o'zida, o'z galar madaniyatini o'rganadilar, bu esa ular orasida bag'rikenglik va tinchlikni qo'llab-quvvatlashni kuchaytiradi. Bunday ta'limni oila ichida ham, jamiyatda ham amalga oshirish mumkin.

8. Millatlararo o'zaro bag'rikenglikni tarbiyalash.

Xorijiy tillarni o'rganish, shuningdek, millatlara-ro o'zaro bag'rikenglikni tarbiyalashga qaratilgan

ijtimoiy-pedagogik mexanizm sifatida xizmat qilishi mumkin. O'smirlarni boshqa xalqlarning tarixiy va madaniy merosini o'rganishga undash, ular orasida milliy va madaniy farqlarni qabul qilishni o'rgatadi.

Zero, prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi³ning 74-maqsadi diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasiga qaratilgan. Unga ko'ra "Jamiyatda millatlara-ro totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash" zarur.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi. V-bo'lim, 74- maqsad.

Xulosa qilib aytganda, o'smirlar orasida xorijiy tillar asosida tolerantlikni rivojlantirish oila a'zolarining birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab etadi. Oilada xorijiy tillarni o'rganish va madaniyatlararo tushunishni rivojlantirish uchun pedagogik mexanizmlar, masalan, interfaol treninglar, madaniyatlararo muloqot, ijtimoiy faoliyatlar va xorijiy tilda amaliy mashg'ulotlar o'tkazish o'smirlarning tolerantligini oshirishga katta hissa qo'shadi. Bu jarayon o'z navbatida jamiyatda ko'p millatli va bag'rikeng muhitni yaratish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20.12.2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi. V-bo'lim, 74- maqsad.
3. Тўрақулов Э., Рахимов С. Абу Райҳон Беруний (руҳият ва таълим тарбия ҳақида). – Т.: “Ўқитувчи” 1992. – Б. 34.
4. Nodira Egamberdiyeva. Ijtimoiy pedagogika // darslik. – Т.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
5. Nazaraliyeva M.X. Tolerantlik namoyon bo'lish muammosining nazariy va amaliy jihatdan o'rganilganligi // TDPU ilmiy axborotlari. – Toshkent, 2024. 5-son. 558-564-betlar. (19.00.00 №15)/
6. Nazaraliyeva M.X. Ta'lim sifatini va mazmunini takomillashtirishda kommunikativ tolerantlikni o'rganishning psixologik imkoniyatlari // Fan va Innovatsiya 2022: Rivojlanish va ustuvor yo'nalishlari mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Namangan, 2022. 355-357-betlar.

Munavvar FAYZULLAYEVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti
Ingliz tili tarixi va grammatikasi kafedrasida o'qituvchisi
munavvar@samdchti.uz

JON ERNEST STEYNBEEK ASARLARIDA “ONA” TUSHUNCHASI TAVSIFI

Annotatsiya: maqolada Jon Ernest Steynbek asarlarida “ona” tushunchasining ramziy va ijtimoiy ma'nosi o'rganiladi. “O'rkachli uzumlar” va “Sharqiy bog'lar” kabi asarlarida onalik obrazlari oilaviy barqarorlik va insoniy bardosh ramzi sifatida tahlil qilinadi. Maqola Steynbek ijodidagi onalikning ijtimoiy ahamiyatini va inson tabiatini ochib berishdagi rolini yoritadi.

Kalit so'zlar: *Jon Ernest Steynbek, ona tushunchasi, Ma Joud, onalik, “O'rkachli uzumlar”, “Sharqiy bog'lar”, ijtimoiy ahamiyat, ramziy ma'no, oilaviy barqarorlik, insoniy bardosh.*

Annotation: the article examines the symbolic and social meaning of the concept of “mother” in the works of John Ernest Steinbeck. In works such as “Orkachli Uzumlar” and “Oriental Gardens” images of motherhood are analyzed as a symbol of family stability and human endurance. The article highlights the social significance of motherhood in Steinbeck's work and its role in revealing human nature.

Key words: *John Ernest Steinbeck, concept of mother, Ma Joud, motherhood, “Grounded Grapes”, “Oriental Gardens”, social significance, symbolism, family stability, human endurance.*

Аннотация: в статье рассматривается символическое и социальное значение концепта «мать» в творчестве Джона Эрнеста Стейнбека. В таких произведениях, как «Орkachлы Узумлар» и «Восточные сады», анализируются образы материнства как символа семейной силы и человечности. В статье раскрывается социальная значимость материнства в творчестве Стейнбек и его роль в раскрытии человеческой природы.

Ключевые слова: *Джон Эрнест Стейнбек, концепция матери, Ма Жу, материнство, «Почва виноградной лозы», «Восточные сады», социальная значимость, символика, стабильность семьи, человеческая выносливость.*

Kirish. Jon Ernest Steynbek – XX asr adabiyotining ulug' namoyondalaridan biri bo'lib, o'z asarlarida inson tabiatining chuqur qatlamlarini, jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni yoritishda o'ziga xos uslubni qo'llagan. Uning ijodi Amerika jamiyatining eng og'riqli davrlarini, xususan, buyuk depressiya yillaridagi ijtimoiy tengsizlik, qashshoqlik va oilaviy inqirozlarni tasvirlashga bag'ishlangan. Steynbekning asarlarida oila va undagi onaning o'zni asosiy mavzulardan biri bo'lib, ularning jamiyatdagi roliga alohida e'tibor qaratilgan.

“Ona” tushunchasi Steynbek asarlarida faqatgina biologik yoki an'anaviy ma'noda emas, balki insoniyatning ijtimoiy va ma'naviy tayanchi sifatida tasvirlanadi. Ayniqsa, “O'rkachli uzumlar” romanidagi Ma Joud obrazi va “Sharqiy bog'lar” asaridagi Keti Trask obrazlari orqali yozuvchi onalikka nisbatan turli qarashlarni aks ettiradi. Ma Joud oilaning birlashtiruvchi kuchi va bardoshlilikning timsoli sifatida gavdalanadi, Keti esa o'z manfaatlarini ustun qo'yuvchi no'anaviy ona obrazidir. Ushbu yondashuvlar orqali Steynbek jamiyatdagi onalikka oid stereotiplarni muhokama qiladi va insoniylikning murakkab tomonlarini ochib beradi. Ushbu maqola Steynbekning ijodida “ona” tushunchasining ramziy ma'nosini va uning asarlardagi o'ziga xos tasvirini o'rganishga bag'ishlanadi. Maqola davomida onalikning ijtimoiy va ma'naviy ahamiyati, shuningdek, uning Steynbek asarlaridagi keng qamrovli

tasviri tahlil qilinadi. Mazkur tadqiqot yozuvchining asarlarida aks etgan insoniy qadriyatlarni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Jon Ernest Steynbek asarlarida “ona” tushunchasi muhim o'rin tutadi va bu mavzu atrofida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. The Grapes of Wrath (“O'rkachli uzumlar”) romanida Ma Joud obrazi oilaning birlashtiruvchi kuchi sifatida tasvirlanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Ma Joud faqat onalik vazifalarini bajaruvchi emas, balki oila a'zolarining ruhiy va ma'naviy tayanchi hamdir. Benson (1984) ushbu obrazni insoniy birdamlikning ramzi deb ataydi.

“Sharqiy bog'lar” romanida Keti Trask obrazi esa Steynbekning onalik tushunchasiga qarama-qarshi yondashuvini aks ettiradi. Tadqiqotchilar (Lisca, 1978; Shillinglaw, 2014) Keti obrazi orqali yozuvchining onalik va ayollikka oid an'anaviy stereotiplarga tanqidiy qarashlarini ko'rsatganini ta'kidlashadi. U mazkur obrazni insonning o'z manfaatlarini ustun qo'yishidan kelib chiqadigan inqirozni tasvirlash uchun ishlatgan.

Adabiyotlarning ko'pchiligi Steynbekning onalikni ijtimoiy mas'uliyat va psixologik bardoshlilik ramzi sifatida tasvirlashga e'tibor qaratadi. Shillinglaw (2014) yozuvchining qahramonlari orqali jamiyatning ijtimoiy muammolarini yoritishga intilganini qayd etadi. Bu tadqiqotlar Steynbekning asarlarida onalikning nafaqat

oilaviy, balki ijtimoiy va ramziy ahamiyatga egaligini ochib beradi [3].

Metodologiya. Tematik tahlil: The Grapes of Wrath va East of Eden asarlarida onalik mavzusi chuqur tahlil qilindi. Har bir asarda onalikning ramziy va ijtimoiy jihatlarini aniqlab chiqildi (Steinbeck, 1952) [5].

Qiyosiy yondashuv: Ma Joud va Ketu Trask obrazlari bir-biriga qiyoslanib, ular orqali onalikning ijobiy va salbiy jihatlarini, shuningdek, jamiyatdagi stereotiplarga ta'siri tahlil qilindi (Benson, 1984) [1].

Kontekstual tahlil: Steynbek asarlaridagi ijtimoiy muammolar va onalikning davrga xos talqinlari o'rganildi. Asarlar yozilgan davrdagi Amerika ijtimoiy muhitiga asoslanib, yozuvchining g'oyalari va nuqtayi nazari aniqlandi (Lisca, 1978).

Metodologik yondashuvlar orqali Steynbek asarlaridagi onalik tushunchasining murakkabligi va keng qamrovli ma'nosi ochib berildi. Bu, xususan, onalikni nafaqat biologik, balki ijtimoiy va ma'naviy hodisa sifatida ko'rsatdi.

Natijalar va muhokama. Ijtimoiy barqarorlik ramzi: The Grapes of Wrath romanidagi Ma Joud obrazi onalikning ijtimoiy mas'uliyatni amalga oshirishdagi rolini o'rnatib ko'rsatadi. U oilaning iqtisodiy qiyinchiliklar va ijtimoiy bosimlarga bardosh berishida hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Benson (1984) Ma Joud obrazini "insoniy birdamlik va ijtimoiy adolatning yorqin timsoli" sifatida baholaydi. Ushbu qahramon o'zining ruhiy mustahkamligi bilan boshqa oilalar uchun ham umid ramzi bo'lib xizmat qiladi.

Onalikning murakkab jihatlarini: East of Eden romanida esa Ketu Trask obrazi orqali onalikning salbiy tomonlari ko'rsatilgan. Ketu nafaqat o'z farzandlariga, balki jamiyatga nisbatan ham zarar yetkazuvchi sifatida tasvirlanadi. Lisca (1978) bu obrazni insoniy nuqsonlarni va onalikning stereotipik qarashlaridan chetda bo'lgan aspektlarini tadqiq qilishga xizmat qilganini ta'kidlaydi. Steynbek Ketu obrazi orqali onalikni o'z-o'zidan ijobiy tushuncha sifatida qabul qilishga tanqidiy yondashadi [2].

Psixologik bardoshlilik va yetakchilik: Ma Joudning qahramonligi uning oilasi va jamiyatidagi yetakchilik sifatida namoyon bo'ladi. Shillinglaw (2014) bu obrazni inson ruhining eng og'ir sharoitlarda ham kuch topa olish qobiliyatining ifodasi sifatida ko'rsatadi.

Onalik va insoniy huquqlar himoyasi: Steynbek asarlarida onalik tushunchasi keng qamrovda, faqatgina oilaviy doirada emas, balki ijtimoiy masalalar bilan chambarchas bog'langan. Ma Joud obrazida u, masalan,

ijtimoiy adolatni himoya qilish, qo'shma harakatni tashkil etish va zaif qatlamlarni qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi (Steinbeck, 1939) [4].

Ijtimoiy va tarixiy kontekstda onalik: Steynbekning asarlari Amerikaning iqtisodiy tushkunlik davrida yozilgan bo'lib, unda onalik tushunchasi faqat oilaviy institut sifatida emas, balki ijtimoiy va tarixiy fenomen sifatida ham ko'riladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yozuvchi onalikni ijtimoiy o'zgarishlarning markaziy elementi sifatida talqin qilgan (Benson, 1984).

Onalikning stereotipik va noan'anaviy talqini: The Grapes of Wrath romanida Ma Joud onalikning stereotipik ijobiy tomonlarini ko'rsatgan bo'lsa, East of Eden Ketu Trask onalikni jamiyatning noan'anaviy va negativ jihatlarini orqali talqin qiladi. Ushbu ikki obraz bir-biriga qarama-qarshi bo'lsa-da, ular orqali Steynbekning onalikni murakkab va ko'p qirrali hodisa sifatida ko'rsatishga bo'lgan intilishi ko'zga tashlanadi (Lisca, 1978).

Onalikning ijtimoiy ahamiyati: Ma Joud obrazi orqali Steynbek ayollarni jamiyatning axloqiy asosini saqlab qoluvchi kuch sifatida tasvirlaydi. Shillinglaw (2014) ta'kidlaganidek, Steynbekning asarlari insonning boshqa odamlarga nisbatan ma'suliyatini eslatadi.

Xulosa. Jon Ernest Steynbekning asarlarida "ona" tushunchasi ko'p qirrali va murakkab tarzda tasvirlangan. U onalikni nafaqat biologik, balki ijtimoiy, psixologik va falsafiy nuqtayi nazardan ham o'rganadi. Steynbekning The Grapes of Wrath va East of Eden kabi asarlaridagi onalar turli ijtimoiy va axloqiy rollarda namoyon bo'lib, ular jamiyatning axloqiy asosini saqlash va barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ma Joud obrazidagi onalik, ijtimoiy birdamlik va barqarorlikni qo'llab-quvvatlashda o'z o'rniga ega bo'lsa, Ketu Trask obrazi onalikning salbiy qirralarini, ya'ni egoizm va shaxsiy manfaatni ustun qo'yishni ko'rsatadi. Steynbek onalikni ijtimoiy kontekstda ko'rib chiqib, uning faqat oilaviy ahamiyatga emas, balki insoniyat va jamiyatdagi mas'uliyatni anglashga xizmat qilganligini ta'kidlaydi. Shuningdek, uning asarlarida onalikning tasviri orqali ayollarning turli rollarini va jamiyatdagi o'rinlarini ko'rsatuvchi chuqur ijtimoiy va falsafiy tahlillar mavjud. Ushbu tahlil Steynbekning "ona" tushunchasiga bo'lgan murakkab va ko'p jihatli yondashuvini o'zida aks ettiradi. Yozuvchi onalikning nafaqat ijobiy, balki salbiy jihatlarini ham o'rganishga bo'lgan qiziqishini namoyon qiladi, bu esa uning adabiy merosida "ona" tushunchasining yangi talqinlarini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Benson, J. J. (1984). The True Adventures of John Steinbeck. New York: Viking Penguin.
2. Lisca, P. (1978). The Wide World of John Steinbeck. New Brunswick: Rutgers University Press.
3. Shillinglaw, S. (2014). On Reading The Grapes of Wrath. New York: Penguin Books.
4. Steinbeck, J. (1939). The Grapes of Wrath. New York: Viking Press.
5. Steinbeck, J. (1952). East of Eden. New York: Viking Press.

San'at YUSUPOV,
 Nukus davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar
 fanlar kafedrası o'qituvchisi.
 E-mail: sanatyusupov999@gmail.com
 ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0008-2428-485X>

QORAQALPOG'ISTONDAGI ETNONIM, OYKONIM, FITONIM, ZONIM KOMPONENTLI NEKROTOPONIMLAR

Annotatsiya: maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasidagi etnonim, oykonim, fitonim, zoonim komponentli nekrotoponimlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *toponim, etnonim, oykonim, fitonim, zoonim, nekrotoponim.*

Аннотация: в статье проанализированы этнонимы, ойконимы, фитонимы, некропонимы с зоонимическими компонентами в Республике Каракалпакстан.

Ключевые слова: *топоним, этноним, ойконим, фитоним, зооним, некропоним.*

Annotation: the article analyzes necrotoponyms with ethnonyms, oikonyms, phytonyms, and zoonyms in the Republic of Karakalpakstan.

Key words: *toponym, ethnonym, oikonym, phytonym, zoonym, necrotoponym.*

Kirish. Nekrotoponimlar ham toponimlarning boshqa turlari kabi xalqning tarixi, hayoti, kasb-kori, turmush tarzi, uni qurshab turgan tabiat, atrof-olamning xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarni kumulyatsiya qiladi. Ularning ma'nolarini o'rganish orqali biz ajdodlarimizning kim bo'lganligi, qanday hayot kechirganligi, qanday kasblar bilan shug'ullanganligi va boshqa shu kabi ko'pchilik ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Markaziy Osiyoning boshqa hududlari kabi Qoraqalpog'iston Respublikasi ham "Buyuk Ipak yo'li" o'tgan hududda joylashganligi bois, bu yerda ham insoniyatning necha ming yillik tarixlari yashiringan.

Adabiyotlar tahlili. Hozirgi davrda Qoraqalpog'istonda yuzga yaqin millat va elat vakillari istiqomat qiladilar. Ular bir xil ijtimoiy tuzumda, bir xil sharoitda yashasalar ham, millat sifatida o'zlarining qadimgi an'alariga, diniy aqidalariga ega. Shu bois ular vafot etganlaridan keyin ham o'zlarining an'alariga muvofiq dafn qilinadilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Islom dinida ham musulmonlar o'z qabristonlariga dafn qilinganligi sababli, g'ayridinlar u yerga qo'yilmagan. G'ayridinlar uchun alohida qabristonlar barpo qilishgan.

Tahlil va natijalar. Mavjud yuzga yaqin xalqlarning xristian dini vakillari uchun "Xristianlar" nekrotoponimi Nukus shahrining "Shig'is" MFYda joylashgan. Ma'lum bo'ladiki, ularning bu hududlarga kelib joylashishi ko'proq sobiq ittifoq davriga to'g'ri keladi. Ularning ko'pchiligi Nukusda yashagan. Vafotidan keyin alohida qabristonga qo'yilganlar.

Xristianlar ham o'z ichlarida katoliklar, protestantlar va provaslavlarga bo'linadi. Dunyoda eng ko'p uchraydiganlari katoliklar bo'lib, 1mlrd. 250 mln.dan ortiq kishini tashkil qiladi. Ikkinchi o'rinda protestantlar bo'lib, ular hozirgi kunda 800 mln. dan ortiq kishini tashkil qilsa, uchinchi o'rinda turadigan provaslavlilar 300 mln.dan ortiq

hisoblanadi. Hozirgi kunda provaslavlilar, asosan, Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Moldaviya, Gruziya, Gretsiya, Serbiya va boshqa davlatlarda yashaydilar. "Provaslav" nekrotoponimi hozirda Taxiatosh tumanining "Nayman-ko'l" OFYda joylashgan. Sobiq ittifoq davrida Taxiatosh shahri zavodlar, turli ishlab chiqarish korxonalarini joylashgan shahar edi. O'sha davrlarda ko'pchilik mutaxassislar kelib shu yerda yashagan. Vafotlaridan keyin o'z udumlarga muvofiq alohida qabristonga qo'yilgan.

Hozirgi statistik ma'lumotlarda Qoraqalpog'iston hududida 7000 ga yaqin koreyslar istiqomat qilayotganligi haqida ma'lumot bor. Ular ayrim o'rinlarda jips istiqomat qilishadi. Ular Nukus shahrida ham ko'pchilikni tashkil qilishadi. Ular dastlabki paytlari vafot etganlarini "Shorsha baba" qabristoniga alohida qilib dafn qilganlar. Keyingi vaqtlarda u yerda har xil millat vakillari qo'yilgan. "Koreyslar" nekrotoponimi Beruniy tumanining "Do'stlik" OFYda joylashgan. Bu yerdagilar asosan koreyslardan iborat.

Turkiy xalqlardan biri bo'lgan qalmoq xalqi haqidagi ayrim ma'lumotlar qoraqalpog'iston xalq dostonlarida, xususan "Alpomish"da ham uchraydi. Shunisi e'tiborliki, "Qalmaq qo'yimshiliq" nekrotoponimi Mo'ynoq tumani "Talli o'zak" MFYda joylashgan. Lekin qaysi davrlarda qalmoqlar bu yerda jips yashashgan. Qanday qilib, ular alohida qabriston tashkil qilishgan? Bu masala kelajakda aniqlik kiritishni talab qiladi.

Qozoqlar mustaqillikkacha bo'lgan davrda Qoraqalpog'iston aholisining 30% ga yaqinini tashkil qilar edi. Hozirgi kunda mustaqillikdan keyingi migratsiya jarayonlari natijasida ular ancha kamayib qoldi. Shunday bo'lsa ham, ular jips yashaydigan hududlarda alohida qabristonlar tashkil qilingan: "Qozoq" nekrotoponimi To'rtko'l tumanining "Ko'xna To'rtko'l" OFYda joylashgan.

Rus millatiga mansub kishilar ham mustaqillikdan keyin ancha kamayib qolishdi. Lekin ular ko'pchilik paytida

Nukus shahrida va ba'zi tumanlarda ruslar jips yashaydigan o'rinlarda ular vafot etganlarini alohida qabristonga qo'yishgan. Shu tafayli bir necha nekrotoponimlar paydo bo'lgan: **"Rusmozor"** nekrotoponimi Beruniy tumanining "Do'stlik" OFYda joylashgan. **"Rusmozor"** nekrotoponimi Beruniy tumanining "Xorazm" MFYda joylashgan. **"Rus qabristoni"** nekrotoponimi Mo'ynoq tumanining "Mo'ynaq" OFYda joylashgan.

Qoraqalpoq xalqining tumanlarda joylashishi ham bir xil emas. Ularning ba'zi urug'lari ayrim tumanlarda ko'p yashashadi. Shunday joylarda nekrotoponimlar ham ular nomiga qo'yiladi. Quyidagi urug'lar nomi bilan ataladigan nekrotoponimlarni kuzatish orqali urug'larning qaysi tumanlarda ko'p yashashini bilib olish mumkin:

"Aranshi" nekrotoponimi Kegeyli tumanining "Abat" OFYda joylashgan.

"Arsari" nekrotoponimi Chimboy tumanining "Baxtli" APJda joylashgan.

"Beksiyiq" nekrotoponimi Taxtakopir tumanining "Atakol" APJda joylashgan.

"Bessari" nekrotoponimi Chimboy tumani Tazg'ara APJda joylashgan.

"Irg'aqli" nekrotoponimi Taxtakopir tumanining "Qaraoy" APJda joylashgan.

"Jamansha" nekrotoponimi Chimboy tumanining "Baxtli" APJda joylashgan.

Oronekrotoponimlar. Ba'zan oronimlar, ya'ni tog', tepa, qum va shu kabi yerning tabiiy geografik xususiyatlarini bildiruvchi so'zlar ham nekrotoponimlar tarkibida uchraydi. Ularning ayrimlari oykonimlar hisoblanib, aholi yashash joylarini ifodalaydi. Nekrotoponim mazkur oykonim hududida joylashganligi bois, nekrotoponimlar ham oykonimlar nomi bilan ataladi.

a) oronimning rangini bildiradi:

"Aqkesek" nekrotoponimi (Kegeyli tumani Juzimbog' OFYda), **"Aqqum"** nekrotoponimi (Chimboy tumani Kenges APJda),

b) sonini bildiradi: **"Egiz qum"** nekrotoponimi (Qorao'zak tumanining "Quralpa APJda),

v) xususiyatini bildiradi: **"Lavzanqum"** nekrotoponimi (Taxtakopir tumanining "Qaratereh" MPJda joylashgan);

g) tegishlilik, xoslikni bildiradi: **"Qaraqshiqum"** nekrotoponimi (Nukus tumani "Taqirko'l" OFYda), **"Qaraning qumi"** nekrotoponimi (Qorao'zak tumani "Berdaq" OFYda),

taw (o'zbekcha tog') komponentli: **"Quo'ntaw"** nekrotoponimi (Qorao'zak tumani "Qorao'zak" OFYda), **"Porlitov"** nekrotoponimi (Bo'zatov tumanining Qusxanatov ovulida),

tas (o'zbekcha tosh) komponentli: **"Taslaq"** nekrotoponimi (Taxtakopir tumanining "Atakol" APJda), **"Tasmo'la"** nekrotoponimi (Amudaryo tumani Nazarxon

OFYda),

Tebe (o'zbekcha tepa) komponentli: **"Shubartebe"** nekrotoponimi (Bo'zatov tumani Erkindaryo ovulida joylashgan).

Jar komponentli: **"Qizijar"** nekrotoponimi (Taxtakopir tumanining "Qaraoy" OFYda joylashgan). Shuningdek, ushbu nomdagi oykonim ham mavjud bo'lib, shunday izohlangan: **"Qizijar – Moynaq rayonidagi awil, Bozataw rayonidagi jer. Jar – o'zenning jag'asining tik bo'lip opirilip qalg'an jeri, yag'niy sol jerdning (topyraqting) reni qizil bolg'an"**.¹

qyr (o'zbekcha qir) komponentli: **"Iytqiri"** nekrotoponimi (Bo'zatov tumani Aspantay ovulida joylashgan).

Oykonekrotoponimlar. Nekrotoponimlar asosan oykonimlar atrofida joylashadi. Odamlar vafot etgan yaqinlarini dafn qilish uchun qulay joy tanlaydilar. Borib ziyorat qilish, xabar olib turish maqsadida aholi manziligiga yaqin joylashadi. Ba'zan aholi yashash manzili nomi bilan ham oykonimlar nomlanishi mumkin. Bunda odamlar gap oykonim yoki nekrotoponim haqida ekanligini darhol anglab oladilar. Hududda bir nechta nekrotoponimlar oykonimlar nomi bilan atalgan:

"Araszqal'a" nekrotoponimi ("To'rtko'l tumanining "Kalta minor" OFYda), **"Aydosqal'a"** nekrotoponimi (Taxtakopir tumanining "O'zbekiston" MPJda),

"Qalashiq" nekrotoponimi ham uchraydiki, buning tarkibidagi – **shiq** qo'shimchasi so'z yasovchi qo'shimcha hisoblanadi. Qadimda -ak, -chiq kabi qo'shimchalar toponimlarga qo'shib, "kichik" ma'nosini ifodalagan. **"Qalashiq"** toponimi "kichik qal'a" ma'nosini bildiradi. **"Qalashiq"** nekrotoponimi (Kegeyli tumani "Aqto'ba" OFYda joylashgan).

To'rtko'l tumani hududida **"Sho'raxon"** degan ovul bor. Unga lug'atda shunday izoh beriladi: **"Sho'raxon"** – Tertkyl rayonyndagi aoyil. Bul jerde Shura degen rus adamy basshy bolg'an, sol sebepli *Shuraxan, Shoraxan* dep atalg'an.² Mazkur hududda joylashgan nekrotoponim ham **"Sho'raxon"** deb nomlanadi.

Diniy bino va inshootlar nomi bilan bog'liq nekrotoponimlar. Masjid, madrasa va boshqa shu kabi inshootlar nomi bilan atalgan nekrotoponimlar ham mavjud. Masalan, **"Tosh madrasa"** nekrotoponimi Amudaryo tumani Besh tom MFYda joylashgan. Ruslar Markaziy Osiyoni bosib olishlaridan oldin Amudaryo bo'yida madrasa joylashgan bo'lib, u pishiq g'ishtdan qurilgan. Shuning uchun "Tosh madrasa" deb nomlangan. O'z davrida nufuzli madrasa bo'lgan. Ruslar madrasani buzdirib, uning g'ishtlarini Nukusga tashitib, u yerda harbiy garnizon qurilishiga ishlatgan. Madrasa buzilib ketgandan keyin aholi u yerning atrofiga vafot etgan kishilarni dafn qilishgan. Shu bois bu nekrotoponim "Tosh madrasa" deb nomlanadi.

O'simlik va daraxt nomlari bilan bog'liq

1 Пахратдинов Қ., Абишев Г. Қарақалпақстан топонимлериниң сөзлиги. –Некис: Қарақалпақстан, 2021. – Б. 46.

2. Пахратдинов Қ., Абишев Г. Қарақалпақстан топонимлериниң сөзлиги. –Некис: Қарақалпақстан, 2021. – Б. 77.

nekrotoponimlar. Ba'zi nekrotoponimlar mahalliy fitonimlar bilan bog'liq bo'ladi. Hududda ko'p zsgan yovvoyi o'tlar yoki daraxtlar nomi bilan ataladi. Masalan, **"Aqbasli"** nekrotoponimi Nukus shahari Altinjag'is MFYda joylashgan. Ushbu hududda ko'p uchraydigan yovvoyi o't qoraqalpoq tilida "aqbas" deyiladi. Shu bois nekrotoponim **"Aqbasli"** deb atalgan.

Qoraqalpoq tilida "daraxt" ma'nosida "terek" lek-semasi ishlatiladi. U barcha turdagi daraxtlarning umumiy nomi hisoblanadi. Ushbu nom bilan mevali va manzarali daraxtlarning barcha turlari anglanishi mumkin: **"Jalg'iz terek"** nekrotoponimi (Kegeyli tumanining "Jalpaqjap" OFYda),

Zoonekrotoponimlar. Hududdagi ba'zi nekrotoponimlar zoonimlar, ya'ni qushlar va sudralib yuruvchi hayvonlar nomlari bilan bog'liq paydo bo'lishgan: **Qusxana** nekrotoponimi Nukus shahrining "Jayxun" MPJda joylashgan bo'lib 2-3-asrlarga taalluqli hisoblanadi. Qusxana qabristoni Nukus shahridan tashqari boshqa tumanlarda ham mavjud. Jumladan, Bo'zatovda Qusxana deb nomlanuvchi tog' va qabriston bor. Ikkalasi ham Qusxana deb nomlanadi, ikkalasi ham tarixiy yodgorlik hisoblanadi. Keyinchalik bu hududda draxtlar va baland qoldiqlar bo'lganligi sababli qushlar ko'p kelib yashaydi shu sababli ham qusxana deyilgan Ma'lumot: Qusxana qabristoni imomi. O'serbay Genjimovdan NDPI magistranti San'at Yusupov tomonidan yozib olindi.


Jilanli nekrotoponimi Taxtako'pir tumanining "Atakol" APJda joylashgan. Xalq orasidagi og'zaki ma'lumotlarga qaraganda oldin bu yerda ilonlar ko'p bo'lgan. Keyin esa qabrlar qo'yilib, Jilanli qabristoni deya atalib kelinmoqda.

Ayrim nekrotoponimlarning ma'nolari vaqt o'tishi bilan xiralashgan. Ularning nima ma'no anglatishi, nima uchun bunday nomlanganini aniqlash qiyin. Mahalliy aholi vakillari bilan suhbatlashganimizda ular ham buning ma'nosini bilmasligini aytib o'tishgan. Masalan: **"Amanda"** nekrotoponimi (Taxtako'pir tumani Ag'itay Adilov ovulida), **"Bayet"** nekrotoponimi (Chimboy tumanining Baxitli makan APJda), **"Gulek"** nekrotoponimi (Chimboy tumanining Qo'sterek APJ da), **"Guret"** nekrotoponimi (Chimboy tumanining Qo'sterek APJda),

Shuningdek, quyidagi nekrotoponimlarning ham dastlab ma'nolarini tushunish qiyin bo'ldi. Qo'shimcha izlanishlardan keyin ularning ma'nolarini aniqlashtirishga erishdik: **"Estek"** nekrotoponimi (Kegeyli tumanining

"Jangabazar" OFYda joylashgan). Estek qoraqalpoq millatining urug'ining nomi bo'lib, bu qabristonga shu urug'ga mansub insonlar dafn qilinadi. Shu sababli ham bu qabriston Estek qabristoni deb nomlanadi.

1-diagramma



Xulosa. Bu guruhga kiruvchi nekrotoponimlarning umumiy soni 201 ta bo'lib, umumning 43% ini tashkil qiladi.

Nekrotoponimlarning qolgan qismini mahalliy geomorfologik xususiyatlar, zoonimlar, fitonimlar va boshqa xususiyatlar bilan atalganlari tashkil qiladi. Ba'zilarining hatto ma'nolarini hozir aniqlash murakkab bo'lganlari ham mavjud. Ularning ma'nolari xiralashgan bo'lib, ularning etimologiyasini qo'shimcha tadqiq qilish zarur. Bularni quyidagi diagramma orqali ko'rish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Пахратдинов Қ., Абишев Г. Қарақалпақстан топонимлериниң сөзлиги. –Нөкис: Қарақалпақстан, 2021. – Б. 46.
2. М. Nizanov. Qoraqalpoqlar. – Nukus: Bilim, 2020. 191-bet.
3. Hakimov Q. Toponimika. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2016. 98-bet.
4. Yusupov S. Sh. Qoraqalpog'iston nekrotoponimiyasida qo'llaniladigan toponimik indikatorlar. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2024-9. 417-414-betlar.



Zebo UMAROVA,
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

INGLIZ TILIDA TURIZMGA OID LEKSIKANIING RIVOJI VA O'RGANILISH TARIXI

Annotatsiya: ingliz tilida turizmga oid leksikaning rivoji va o'rganilish tarixi haqida ushbu maqola, tilshunoslik va turizm sohasidagi so'nggi yutuqlarni yoritadi. Ingliz tilidagi turizm leksikasi XX asr oxiri va XXI asr boshlarida kengayib, globalizatsiya va texnologiyalarning ta'siri ostida o'zgarib bordi. Maqolada bu leksikaning o'zgarishlari, yangi atamalar va ularning tilshunoslik va amaliy turizmdagi o'rni ko'rib chiqiladi. Ingliz tilida turizmga oid so'zlar, ularning semantikasi, konteksti va kommunikativ rolini tahlil qilish orqali, bu sohaning tilshunoslikdagi o'rni va rivoji tushuntiriladi.

Kalit so'zlar: ingliz tili, turizm leksikasi, rivojlanish, o'rganish, atamalar, globalizatsiya, texnologiya, tilshunoslik, kommunikatsiya, semantika.

Аннотация: данная статья посвящена развитию и изучению туристической лексики в английском языке. В статье рассматриваются изменения в лексике английского языка в конце XX и начале XXI века, вызванные глобализацией и развитием технологий. Анализируются изменения в лексике, появление новых терминов, их значение и роль в туристической практике и лингвистике.

Ключевые слова: английский язык, туристическая лексика, развитие, изучение, термины, глобализация, технологии, лингвистика, коммуникация, семантика.

Annotation: this article discusses the development and historical study of tourism-related vocabulary in the English language. The expansion of English tourism lexicon at the end of the 20th century and early 21st century, influenced by globalization and technology, is examined. The article analyzes the changes in this lexicon, the emergence of new terms, and their role in both linguistic and practical tourism contexts. By analyzing English tourism vocabulary, its semantics, context, and communicative function, the article highlights its significance and evolution in linguistics.

Key words: english language, tourism lexicon, development, study, terms, globalization, technology, linguistics, communication, semantics.

Kirish. Ingliz tilida turizmga oid leksikaning rivoji va o'rganilish tarixi, turizm sohasining global miqyosda kengayishi va iqtisodiy jihatdan ahamiyat kasb etishi bilan bevosita bog'liq. XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida globalizatsiya, internet va texnologiyalarning rivojlanishi bilan turizm sohasidagi so'zlar va iboralar kengayib, yangi atamalar paydo bo'ldi. Ingliz tilida turizm leksikasi, ayniqsa, transport, mehmonxona xizmatlari, sayohatlar, madaniy tajribalar va marketing sohalaridagi terminlar bilan boyidi.

Turizm sohasidagi inglizcha atamalar, ularning semantikasini va kontekstual ishlatilishini o'rganish, tilshunoslar uchun muhimdir. Misol uchun, "ekoturizm", "madaniy turizm", "sostenible turizm" kabi yangi

atamalar atrof-muhitga bo'lgan e'tiborning ortishiga va sayohatlarning mas'uliyatli tarzda olib borilishiga qaratilgan. Shuningdek, internetning o'sishi bilan "on-layn rezervatsiya", "e-turizm", "mobil ilovalar" kabi yangi atamalar ham paydo bo'ldi.

Turizm leksikasini o'rganish nafaqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan, balki turizm biznesining rivojlanishi va sayohat qilish madaniyatining o'zgarishlarini tahlil qilish uchun ham zarur. Bu leksika, global sayohat sohasidagi o'zgarishlar va yuksalishlarni aks ettirib, ijtimoiy va iqtisodiy kontekstni yoritadi. Ingliz tilidagi turizmga oid atamalar, ularning semantik jihatlari va o'zgarishlari, global miqyosda til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi.

The *English-language* word *tourist* was used in 1772 and *tourism* in 1811. These words derive from the word *tour*, which comes from Old English *turian*, from Old French *torner*, from Latin *tornare* – “to turn on a lathe”, which is itself from Ancient Greek *tornos* (τόρνος) – “lathe” [Ingliz tilidagi turist soʻzi 1772- yilda, turizm soʻzi 1811 - yilda ishlatilgan. Bu soʻzlar qadimgi inglizcha *turian*, qadimgi fransuzcha *torner*, lotincha *tornare* – “tornani yoqish” soʻzlaridan kelib chiqqan tur soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, uning oʻzi. Qadimgi yunoncha *tornos* (τόρνος) - *torna*].

The custom flourished from about 1660 until the advent of large-scale rail transit in the 1840s and generally followed a standard itinerary. It was an educational opportunity and rite of passage. Though primarily associated with the British nobility and wealthy landed gentry, similar trips were made by wealthy young men of Protestant Northern European nations on the Continent, and from the second half of the 18th century some South American, US, and other overseas youth joined in. The tradition was extended to include more of the middle class after rail and steamship travel made the journey easier, and Thomas Cook made the “Cook’s Tour” a byword. [Odat taxminan 1660-yildan 1840-yillarda keng koʻlamli temir yoʻl tranziti paydo boʻlgunga qadar gullab-yashnagan va odatda, standart marshrutga amal qilgan. Bu tarbiyaviy imkoniyat va oʻtish marosimi edi.

Tahlil va natijalar. Asosan, ingliz zodagonlari va badavlat yer egalari bilan bogʻliq boʻlsa-da, shunga oʻxshash sayohatlar qitʼada protestant Shimoliy Yevropa xalqlarining boy yigitlari tomonidan amalga oshirilgan va 18-asrning ikkinchi yarmidan boshlab Janubiy Amerika, AQSh va boshqa chet ellik yoshlar ham qoʻshilgan. Temir yoʻl va paroxod sayohati sayohatni osonlashtirgandan soʻng anʼana koʻproq oʻrta sinfni qamrab oldi va Tomas Kuk “Oshpaz sayohati” ni soʻzga aylantirdi.]

In 1936, the League of Nations defined a foreign tourist as “someone traveling abroad for at least twenty-four hours”. Its successor, the United Nations, amended this definition in 1945, by including a maximum stay of six months’[1936 yilda Millatlar Ligasi chet ellik sayyohni “chet elda kamida yigirma toʻrt soat sayohat qilgan kishi” deb taʼrifladi. Uning vorisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1945-yilda ushbu taʼrifni oʻzgartirib, maksimal olti oy qolishni oʻz ichiga olgan].

In 1941, Hunziker and Kraft defined tourism as “the sum of the phenomena and relationships arising from the travel and stay of non-residents, insofar as they

do not lead to permanent residence and are not connected with any earning activity” [1941-yilda Hunziker va Kraft turizmni “nerezidentlarning doimiy yashashga olib kelmaydigan va daromad olish faoliyati bilan bogʻliq boʻlmagan sayohatlari va qolishlari natijasida kelib chiqadigan hodisalar va munosabatlar yigʻindisi” deb taʼrifladilar].

Yuqoridagi ilmiy manbalarda keltirilgan maʼlumotlardan maʼlumki, turizm leksikasining shakllanishi uzoq tarixga borib taqaladi. Shu bilan birga, turli izohli lugʻatlarda bu leksemaga berilgan taʼriflarni koʻrib chiqsak.

Ingliz tilining nufuzli *Collins English Dictionary* online lugʻatiga koʻra: *Tourism is the business of providing services for people on holiday, for example hotels, restaurants, and trips*³.

Ingliz tilining mashhur Cambridge Advanced Learner’s Dictionary & Thesaurus online lugʻatiga koʻra: *Tourism the business of providing services such as transport, places to stay, or entertainment for people who are on holiday: Tourism is Venice’s main industry. These beautiful old towns have remained relatively untouched by tourism. We must ensure that tourism develops in harmony with the environment. The island is being destroyed by the relentless march of tourism. It is unclear how to mitigate the effects of tourism on the island. Service industries such as tourism have become more important in the post-industrial age. The region’s reliance on tourism is unwise*⁴.

Ingliz tilining mashhur Oxford Advanced Learner’s Dictionary online lugʻatiga koʻra: *Tourism the business activity connected with providing places to stay, services, and entertainment for people who are visiting a place for pleasure: The area is heavily dependent on tourism. the tourism industry*⁵.

Ingliz tilining mashhur Merriam-Webster Dictionary online lugʻatiga koʻra: *Tourism the practice of traveling for pleasure or the business of encouraging and serving such traveling*⁶.

Ingliz tilining mashhur Longman Dictionary of Contemporary English online lugʻatiga koʻra: *Tourism the business of providing things for people to do, places for them to stay while they are on holiday*⁷

Encyclopaedia Britannica” (“Britannika ensiklopediyasi”) da berilgan taʼrifga koʻra: *Tourism the act and process of spending time away from home in pursuit of recreation, relaxation, and pleasure, while making use of the commercial provision of services. As such, tourism is a product of modern social arrangements, beginning*

1 Griffiths, Ralph; Griffiths, G.E. (1772). “Pennant’s Tour in Scotland in 1769”. *The Monthly Review, Or, Literary Journal*. 46: 150. Retrieved 23 December 2011.

2 Theobald, William F. (1998). *Global Tourism* (2nd ed.). Oxford [England]: Butterworth–Heinemann. pp. 6–7. ISBN 978-0-7506-4022-0. OCLC 40330075.

3 Hunziker, W; Krapf, K (1942). *Grundriß Der Allgemeinen Fremdenverkehrslehre* (in German). Zurich: Polygr. Verl. OCLC 180109383.

4 <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/tourism>.

5 <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/tourism>

6 https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/american_english/tourism

7 <https://www.merriam-webster.com/dictionary/tourism>

in western Europe in the 17th century, although it has antecedents in Classical antiquity⁸.

Xulosa. Ingliz tilida turizm terminologiyasining soha bilan shakllanib borishi quyidagi davrlarga ajratilgan⁹:

Antik davrdan XIX asr boshigacha bo'lgan davr. Bu paytda inglizlar sayohatining asosiy maqsadi savdo,

ziyorat, ta'lim, davolanish kabilar bo'lgan.

Ayni shu bosqichda harakatlanish vositalari, yashash sharoitlariga doir tushunchalarni ifodalovchi terminlar to'planishi kuzatilib, ular umumadabiy tildagi miqdor-an uncha ko'p bo'lmagan leksik birliklar asosida hosil bo'lgan: carriage.

8 <https://www.ldoceonline.com/dictionary/tourism#>

9 <https://www.britannica.com/topic/tourism>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Griffiths, Ralph; Griffiths, G.E. (1772). "Pennant's Tour in Scotland in 1769". *The Monthly Review, Or, Literary Journal*. 46: 150. Retrieved 23 December 2011.

2. Theobald, William F. (1998). *Global Tourism* (2nd ed.). Oxford [England]: Butterworth–Heinemann. pp. 6–7. ISBN 978-0-7506-4022-0. OCLC 40330075.

3. Hunziker, W; Krapf, K (1942). *Grundriß Der Allgemeinen Fremdenverkehrslehre* (in German). Zurich: Polygr. Verl. OCLC 180109383

4. <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/tourism>

5. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/tourism>

6. https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/american_english/tourism

7. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/tourism>

8. <https://www.ldoceonline.com/dictionary/tourism#>

9. <https://www.britannica.com/topic/tourism>

10. Виноградова Л. Терминология туризма английского и русского языков в синхронном и диахронном аспектах: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Великий Новгород, 2011. – С.8.

Madina UMIRQULOVA,
Toshkent tibbiyot akademiyasi o'qituvchisi
O'zbek va Xorijiy tillar kafedrasida

TIL VA MADANIYAT O'RTASIDAGI O'ZARO ALOQALAR

Annotatsiya: ushbu maqolada muallif til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganadi. Asarda tilning madaniyat shakllanishidagi roli, shuningdek, til orqali madaniy identifikatsiya qanday amalga oshirilishi haqida fikrlar keltirilgan. Muallif tadqiqot jarayonida etnolingvistik usullardan foydalangan va turli ijtimoiy guruhlar orasida til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish uchun so'rovlar o'tkazgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, til va madaniyat o'rtasidagi aloqalar insonlarning dunyoqarashini va ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu maqola tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida yangi nazariyalar va fikrlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: til, madaniyat, etnolingvistika, ijtimoiy guruhlar, madaniy identifikatsiya, o'zaro aloqalar, tilshunoslik, madaniyatshunoslik, tahlil, tadqiqot usullari.

Аннотация: в данной статье автор исследует взаимосвязь языка и культуры. В работе представлены идеи о роли языка в формировании культуры, а также о том, как культурная идентичность реализуется посредством языка. Автор использовал этнолингвистические методы в процессе исследования и провел опросы для изучения взаимосвязи языка и культуры среди различных социальных групп. Результаты показывают, что взаимосвязь языка и культуры играет важную роль в формировании мировоззрения людей и социальных отношений. Данная статья вносит вклад в разработку новых теорий и идей в области лингвистики и культурологии.

Ключевые слова: язык, культура, этнолингвистика, социальные группы, культурная идентичность, взаимодействия, лингвистика, культурология, анализ, методы исследования.

Annotation: in this article, the author explores the relationship between language and culture. The work presents ideas about the role of language in the formation of culture, as well as how cultural identity is realized through language. The author used ethnolinguistic methods in the research process and conducted surveys to study the relationship between language and culture among different social groups. The results show that the relationship between language and culture plays an important role in the formation of people's worldview and social relations. This article contributes to the development of new theories and ideas in the fields of linguistics and cultural studies.

Key words: language, culture, ethnolinguistics, social groups, cultural identity, interactions, linguistics, cultural studies, analysis, research methods.

Tilning ijtimoiy-antropologik tabiati, shubhasiz, uning madaniyat, dunyoqarash va millat ruhi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. V. Gumboldning fikrlari bu yo'nalishda muhim ahamiyatga ega. Uning ta'kidlagani kabi, til faqatgina alomatlar va tovushlardan iborat emas, balki u insonlarning dunyoqarashi va fikrlash tarzini ham shakllantiradi. Amerika antropolingvistlari, ayniqsa B. Uorf va E. Sepir, Gumboldning g'oyalarini rivojlantirib, til va madaniyat o'rtasidagi murakkab aloqalarni o'rganishga harakat qildilar. B. Uorfning ta'kidlashicha, til har bir millat uchun unikal va shunga muvofiq ravishda olamni qabul qilish va tushunish usulini belgilaydi. Uning fikricha, til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar o'zaro bog'liq emas, bu esa tilning madaniyat bilan bog'liqligini yanada chuqurroq tahlil qilishni talab qiladi. Bu tadqiqotlar tilning faqatgina kommunikatsiya vositasi emas, balki ijtimoiy hayotdagi o'rni, millatlarning o'zgarishi va madaniyatlar o'rtasidagi aloqa haqidagi tushunchalarni kengaytirishga yordam beradi. Tilning antropologik tadqiqoti, shuningdek, yozuvsiz xalqlarning tillarini o'rganish va klassifikatsiya qilish orqali ularning madaniy merosini saqlashga ham xizmat qiladi. Shuning uchun, tilni faqatgina leksik va grammatik struktura sifatida emas, balki ijtimoiy va madaniy kontekstda ham o'rganish muhimdir. Antropolingvistikada til va madaniyat o'rtasidagi aloqa

murakkab va ko'p qirrali tushuncha sifatida qaraladi. Bu aloqani quyidagi asosiy jihatlar orqali tushunish mumkin:

1. Tilning madaniyatni ifodalashi: til, madaniyatning bir qismi sifatida, xalqning urf-odatlarini, qadriyatlarini va dunyoqarashini aks ettiradi. Har bir til o'ziga xos so'zlar, iboralar va ifodalar orqali o'sha madaniyatga xos bo'lgan tushunchalarni ifodalaydi. Masalan, ba'zi tillarda ma'lum bir madaniy hodisalarni ifodalovchi so'zlar mavjud bo'lishi mumkin, lekin boshqa tillarda bunday so'zlar yo'q.

2. Madaniyatning tilga ta'siri: madaniyat, tilning rivojlanishiga va o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi. Madaniy o'zgarishlar, yangi texnologiyalar, ijtimoiy munosabatlar va boshqa omillar tilga yangi so'zlar va iboralar kiritishi mumkin. Shuningdek, madaniyatning o'zgarishi tilning grammatikasi va sintaksisiga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3. Dunyoqarash va til: antropolingvistikada til, insonlarning dunyoqarashini shakllantiruvchi muhim omil sifatida ko'riladi. V. Gumbold va B. Uorf kabi olimlar, tilning har bir xalqning o'ziga xos dunyoqarashini ifodalashda muhim rol o'ynashini ta'kidlaganlar. Til orqali insonlar o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini va tajribalarini ifodalaydilar, bu esa ularning madaniy kontekstini belgilaydi.

4. Madaniy kontekstda tilni o'rganish: antropolingvistikada tilni o'rganish, faqatgina grammatik va leksik

jihatlarni o'rganish bilan cheklanmaydi. Bu, shuningdek, tilning ijtimoiy va madaniy kontekstda qanday ishlatilishini, qanday vaziyatlarda va kimlar tomonidan ishlatilishini o'rganishni ham o'z ichiga oladi. Bu yondashuv, tilni o'rganishda madaniyatning ahamiyatini ko'rsatadi.

5. Til va identifikatsiya: Til, shuningdek, milliy va madaniy identifikatsiyaning muhim belgisi hisoblanadi. Insonlar o'z tillarini va madaniyatlarini saqlab qolish orqali o'z identifikatsiyalarini mustahkamlashadi. Bu, til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yanada kuchaytiradi.

Umuman olganda, antropolingvistikada til va madaniyat o'rtasidagi aloqa, ularning o'zaro ta'siri va bir-birini shakllantirishi orqali chuqurroq tushuniladi. Bu yondashuv, tilni o'rganishda madaniy kontekstni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Wilhelm von Humboldt (1767-1835) tilshunoslik va antropologiya sohasida muhim shaxs hisoblanadi. Uning til haqidagi asosiy g'oyalari quyidagilardan iborat:

1. Til va fikr: Humboldtning eng muhim g'oyalaridan biri, til va fikr o'rtasidagi bog'liqlikdir. U tilni inson fikrining ifodasi sifatida ko'radi va til orqali fikrlar shakllanadi. U "Til - bu fikrni ifodalovchi vosita" degan fikrni ilgari surgan.

2. Dunyoqarash: Humboldt, har bir til o'ziga xos dunyoqarashni aks ettiradi, deb hisoblagan. U "dunyoqarash" (Weltanschauung) tushunchasini kiritgan va har bir xalqning o'z tili orqali o'ziga xos dunyoqarashini shakllantirishi mumkinligini ta'kidlagan. Bu g'oya, tilning madaniyat va identifikatsiya bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

3. Tilning dinamikasi: Humboldt tilni statik tizim sifatida emas, balki dinamik va o'zgaruvchan jarayon sifatida ko'radi. U tilning rivojlanishi va o'zgarishini, ijtimoiy va madaniy omillar bilan bog'liq holda tushuntiradi. Bu yondashuv, tilning vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarishini va yangi so'zlar, iboralar va grammatik shakllarning paydo bo'lishini o'z ichiga oladi.

4. Til va madaniyat: Humboldt, til va madaniyat o'rtasidagi aloqani kuchli ravishda ta'kidlagan. U tilni madaniyatning bir qismi sifatida ko'radi va til orqali madaniy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar ifodalinishini ta'kidlaydi. Bu g'oya, antropolingvistikada til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunishga yordam beradi.

5. Tilning estetikasi: Humboldt, tilning estetik jihatlari ham o'rganadi. U tilni nafaqat mantiqiy va funksional vosita sifatida, balki estetik ifoda vositasi sifatida ham ko'radi. Bu, tilning go'zalligi va ifodali kuchini tushunishga yordam beradi.

6. Til va inson: Humboldt, tilni insoniyatning o'ziga xos xususiyati sifatida ko'radi. U tilni insonning o'zini ifodalash, o'z fikrlarini va his-tuyg'ularini boshqalar bilan baham ko'rish vositasi sifatida tushunadi. Bu g'oya, tilning ijtimoiy va psixologik jihatlari o'rganishga olib keladi.

Albatta, Ye. Sepir va B. Uorfning til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar haqidagi ta'limotlari Amerika tilshunosligida muhim rol o'ynaydi. Sepir F. Baosning madaniyatning tilga ta'siri konsepsiyasini inkor etgani bilan birga, u Humboldtning fikrlariga ham yaqin bo'lgan. Uning ta'kidlashicha, til faqatgina madaniyatni aks ettirishdan iborat emas, balki madaniyatni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega. D. Xaymsning yetakchiligidagi shakllangan etnolingvistika maktabi, o'z navbatida, til va ijtimoiy strukturalar o'rtasidagi aloqalarni chuqurroq o'rganishga intilishni ko'rsatadi. Bu maktabda til faqatgina individual fikrlash vositasi emas, balki jamiyatning ijtimoiy dinamikasiga ham ta'sir ko'rsatadigan element sifatida qaraladi. Shu tariqa, til va madaniyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'rganish, ularning o'zaro ta'sirini tushunish, antropologik tadqiqotlarning asosiy maqsadlaridan biri bo'lib qolmoqda. Tilshunoslik va etnolingvistika sohasidagi bu yo'nalishlar, jamiyatning madaniy, ijtimoiy va psixologik jihatlari aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Til va madaniyatning o'zaro aloqasi, shubhasiz, gnoseologiya, psixologiya, etnografiya va sotsiologiya kabi sohalar bilan integratsiyalashgan holda, lingvokulturologiya yo'nalishini shakllantiradi. Bu yo'nalish, tilning madaniy kontekstdagi funksiyasini va uning ijtimoiy dinamikadagi o'rnini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, til va madaniyatning o'zaro ta'siri, ijtimoiy identifikatsiya, etnik stereotiplar va inson xulqini shakllantirishdagi rolini tahlil qilish, etnolingvistika va sotsiolingvistika o'rtasidagi aloqalarni chuqurroq tushunish imkonini beradi. Ushbu tadqiqotlar, til va madaniyatning ijtimoiy kontekstdagi dinamikasi haqidagi bilimlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Сепир Э. Язык. Введение в изучение речи // Избранные труды по языковедению и культурологии. М.: Прогресс, 1993. 666 с.

2. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. Darslik. – Toshkent: TDSHI, 2017. 256-b.

3. Maslova V. A. Lingvokulturologiya. Uchilgan kitoblar uchun o'quv qo'llanma. – M.: Izd. Sentr (Akademiya), 2001. 208-s.

4. Воробьев В. В. Лингвокультурология: теория и методы. Монография. М.: Изд-во РУДН, 2008. 240 с.

5. Сепир Э. Язык. Введение в изучение речей. Избранные труды по языковедению и культурологии. М.: Прогресс, 1993. 656 с.

6. Тер-Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация. М.: Слово, 2000. — 624 с.

Umida NAMAZOVA,
 Termiz davlat universiteti
 O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

JURNALISTIKANING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI: MATBAACHILIKDAN RAQAMLI DAVRGACHA

Annotatsiya: mazkur maqolada jurnalistikaning ilk ko'rinishlari, "Jurnalistika" va "Publitsistika" o'rtasidagi ilk farqlar hamda birinchi "Ensiklopediya"da jurnalistika haqida bildirilgan fikrlar haqida so'z boradi. Maqola davomida asosli fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *jurnalistikaning ilk ko'rinishlari, ijtimoiy munosabat, madaniyat, inson jamiyati, ilk bosqich.*

Annotation: this article discusses the first manifestations of journalism, the first differences between "Journalism" and "Publicism", and the views expressed about journalism in the first "Encyclopedia". The article presents the main ideas and considerations.

Key words: *the first manifestations of journalism, social relations, culture, human society, the first stage.*

Аннотация: в статье рассматриваются первые проявления журналистики, первые различия между "журналистикой" и "публицистикой", а также взгляды, высказанные о журналистике в первой "Энциклопедии". В статье представлены обоснованные мнения и соображения.

Ключевые слова: *ранние формы журналистики, социальные отношения, культура, человеческое общество, начальный этап.*

Har qanday ijtimoiy hodisani o'rganishda avvalambor uning tarixiy asoslarini hisobga olish va ushbu hodisa qanday paydo bo'ldi, qanday rivojlandi, qanday asosiy bosqichlarni bosib o'tdi va hozir qanday holatda ekanligiga e'tibor berish muhimdir.

Publitsistikaning ijtimoiy munosabat sifatida paydo bo'lishi inson jamiyati, shahar, davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Ommani ishontirishga intilish, hamkorlikdagi (mehnat, harbiy, savdo, xo'jalik-iqtisodiy va h.k) harakatni tashkil-lashtirish kabilar og'zaki chiqish, nutq san'atini rivojlantirishga turtki bo'lib xizmat qilgan. Jurnalistika o'zining ilk bosqichida bir muncha boshqa maqsadlarni nazarda tutgan. Bu yerda eng asosiysi jamiyatda, davlatlarda inson faoliyatining turli sohalaridagi iqtisodda, madaniyatda, siyosatda, san'atda, ilm-fandagi ishlarning ahvoli haqidagi axborotlarga bo'lgan ehtiyoj o'sa boshladi. XVIII asrda yashagan faylasuf Sh.Monteske jurnalistika bilan birinchi shug'ullanganlar haqida ba'zi istehzo bilan shunday yozadi: "Ushbu xatda men sen bilan xabarchilar deb atalmish bir qavm haqida gaplashmoqchiman: ular o'zlarining bayramona kayfiyatini nishonlash uchun ajoyib bir bog'da to'planadilar. Ular ellik yil davomida gapirganlarida ham bundan mam-lakatga hech qanday foydasi tegmaydi, aksincha ular shuncha vaqt jim turganlarida foydasi ko'proq bo'lardi. Lekin ular o'zlariga yuksak baho beradilar, chunki ular ulkan loyihalar haqida suhbatlashadilar va muhim narsalar haqida fikr almashadilar". Xabarlarni tarqatish bo'yicha paydo bo'lgan faoliyatning ushbu yangi turi XV-XVI asrda jurnalistika sifatida shakllana boshladi. Ushbu ilk bosqichlarda "Jurnalistika" va "Publitsistika" tushunchalarining farqi aniq sezilib turadi. Hozirgi paytda ularning to'liq qo'shilib ketganligi mazkur ho-

disalarning kelib chiqishini aralashtirib yubormasligi kerak. Olimlarning "Publitsistika" so'zi haqidagi turli tushuncha va izohlarini keltirish mumkin. Lekin ularning barchasi ushbu so'z tagida ayni paytdalik, dolzarblilik va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan fikrga e'tiborni jalb etish kabilarni tushunishadi. Ijtimoiy munosabatlarni o'zida aks ettirgan publitsistikaning paydo bo'lishini insoniyatning paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixi bilan birgalikda o'rganishni taqozo etadi. Umuman zamonaviy tipdagi birinchi gazetalarning paydo bo'lishi bor-yo'g'i XVII asrga borib taqaladi. Lekin ijtimoiy axborotlar bilan insonlar bir-birini xabardor qilib turishi juda uzoq tarixga ega. U insonning o'zi kabi qadimiydir.

Publitsistik faoliyat og'zaki so'z san'atining rivojlani-shi orqasidan va uning omma harakatini ijtimoiy-siyosiy boshqarish maqsadida foydalanishi tufayli shakllandi. Jurnalist kasbi esa ilk davrda texnik vositachi, xabar yetkazuvchi, "aloqa kanali xodimi" sifatida xabarlarni tarqatuvchi vazifasi shaklida paydo bo'lgan. Zamonaviy jurnalistlarning avlodlari choparlar va pochta xizmatlaridir. Ular xuddi birinchi xabar sotish markazlari kabi qo'llarida bo'lgan yangiliklar yordamida auditoriyani boshqarish vazifasini qo'ymagan edilar. Ilk bosqichlarda jurnalistik faoliyat savdo mahsuloti sifatida rivojlana-di. Yangiliklar, xabarlar, bu o'ziga xos mahsulotlar hisoblangan. To'g'ri, mazkur ish bilan tarqatuvchilarning o'zlari ham uning o'ziga xos xususiyatini anglab ulgur-magan edilar. Ushbu "mahsulot" xaridorlarni boshida, asosan, xo'jalik, savdo, madaniy oqartuv maqsadidagi ehtiyojlariga xizmat qilib keldi, keyinchalik esa u siyosiy maqsadlarda faol foydalanila boshladi. "Publitsistikaning gneseologik muammalari" kitobi muallifi V.V. Ucheno-vaning ta'kidlashicha yangiliklarni "tarqatuvchi"larning faollashuvi jamoatchilik tartibini saqlovchilar uchun katta

xavfga aylana boshlagan. Misol uchun 1572-yilda ularga qarshi poplar tomonidan ishlab chiqarilgan nizomlar nashr ettiriladi, unda uzatish uchun beriladigan xatlar yozish ta'qiq etilgan, uni buzuvchilar esa tosh ko'tarishga surgun qilingan. Yoki 1521-yilda katolik cherkovining mashhur arbobi Koxmus Frankfurtdan Rimga papa Aleksandrda jo'natgan xatida kuzgi ko'rgazmadagi kitob bozori popga qarshi varaqalar bilan to'lib ketganligini yozadi.

Haqiqiy ma'nodagi kundalik matbuotning paydo bo'lishi XVII asr Reformatsiya davriga to'g'ri keladi. Tugab borayotgan feodalizm dunyosini diniy qarama-qarshiliklar yemirayotgan va uning o'rnini kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari egallay boshlagan edi. Eng asosiysi bu davrda keng xalq ommasining siyosiy faolligi uyg'otib yuborilgan edi. Siyosiy va ijtimoiy ko'tarishlar davrida bosma publitsistik so'zning odamlar ongi va xatti-harakatiga, ijtimoiy faoliyatining faollashuviga va siyosiy harakatlarda qatnashuviga ta'siri beqiyos darajada o'sdi. Bu ta'sir, ayniqsa, XVII asr Angliya burjua revolyutsiyasi va XVII asr buyuk Fransuz burjua revolyutsiyasi davrida yaqqol sezilib qoldi.

O'sha davr voqealari, orzu-umidlari, umidsizliklari xalq qo'shiqlarida, hikoyalarida, voqealarida o'z aksini topdi va ular ko'plab nusxada bosib chiqarila boshladi. "Uchib yuruvchi varaqalar" davrning tezkor darakchilariga aylana boshladi va ular Bazelda, Syurixda, Strasburgda, Maynsda, Erfrutda, Breslauda, Leypsikda, Vyuyurtenburgda, Drezdenda, Augsburgda, Nyurenburgda nashr etila boshladi. Publitsistikaning yorqin ko'rinishlari, ayniqsa, Angliyada 1644-yilgi inqilob va uzoq muddatli parlament davrida paydo bo'ldi. Buyuk Fransuz burjua revolyutsiyasi davrida gazetalarda oddiy idoralardan jamoatchilik fikrini tashuvchi va boshlovchisiga aylandi. Aynan ingliz va fransuz burjua revolyutsiyalari davrida ijtimoiy zarurat bo'lgan publitsist

kasbi dunyoga keldi, u endi nafaqat yangilikni, ishbi-larmonlikni, noshir, muharrir, sahifalarni yig'uvchi va tarqatuvchi bo'lib qolmasdan, balki haqiqiy ma'nodagi yangi g'oyalarni, fikrlarni ilgari suruvchi publitsistikaga aylandi. O'sha davr publitsistikasi siyosiy harakatlar uchun turli partiya dasturlari va jamoatchilik fikrining ifodachisi sifatida maydonga chiqdi.

Publitsist – notiq (antik va o'rta asrlardagi)ni iqtisodning kapitalistik rivojlanish davridagi jurnalist – ishbi-larmon faoliyatidan farqlash zarur. Masalan, Didro va D. Alamber "Ensiklopediyasida" jurnalistikaga quyidagicha ta'rif beriladi: jurnalist bu adabiy fanlar va san'at asarlari haqida parcha va fikrlar nashr ettiruvchi muallif. Shundan ko'rinib turibdiki XVIII asrda jurnalist funksiyasi va uning faoliyat maydoni ancha kengaygan. Jurnalistika asta-sekinlik bilan professional ta'lim, ijtimoiy-siyosiy faoliyatning o'ziga xos sohasi sifatida mustaqil shakllana boshladi. Boshida vositachi, xodim sifatida paydo bo'lgan jurnalistika keyinchalik o'ziga ijtimoiy ta'sirning boshqa ko'rinishlarini ham qo'shib ola boshladi. Masalan, savdo reklamasini olib boradi, yangi adabiyotlarni targ'ibot qiladi, hukumat hujjatlarini ko'paytiradi. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalarning murakkablashuvi, ishlab chiqarish sohasining va ularning o'zaro aloqasining chuqurlashuvi, aholining ta'limiy va madaniy ongi o'sishi bilan jurnalistika ham jamiyatning ulkan ijtimoiy-siyosiy kuchiga aylanib boradi. Avvalgi kundalik matbuot asosida, keyinchalik radio va televideniye yordamida nafaqat ommani tezkor yangiliklar bilan ta'minlash uchun, balki jamoatchilik fikrini shakllantirish uchun ham xizmat qilmoqda.

Hozirgi kunda unga mo'tadil jamiyat qurish, ilg'or davlat va milliy rivojlanish, dunyodagi million odamlarning tinch hayot faoliyatini ta'minlash kabi vazifalar qo'yilmoqda. Jurnalistikaning paydo bo'lishiga texnik, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy sabablar asos bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Лихачев Д.С. Развитие русское литературы X–XVII веков. Эпохи и стили. – Л., 1973.
 2. Ученова В.В. Исторический истоки современной публицистики. – М., 1972.
 - Ученова В.В. У истоков публицистики. – М., 1989.
 - Тог'ayev О. O'zbek badiiy publitsistikasi. – T.: Fanb 1973.
 - Ворошилов В.В. Журналистика. Учебник. – С. Петербург. 1999.
 6. Материалы к курсу «История мировой журналистики». Сост. Муминова Ф.Т., 1994.
- www.ziyounet.uz

Sohiba NASIMOVA,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti Tillar kafedrası assistenti

DIMINUTIVLARNING LINGVISTIK TABIATI XUSUSIDA

Annotatsiya: mazkur maqolada erkalash-kichraytirish kategoriyasiga xos bo'lgan so'zlarning lingvistik tabiati, o'ziga xos xususiyatlari, turlari haqida ayrim mulohazalar bayon etilgan. Erkalash-kichraytirish ma'nolariga ega so'zlarning semantik va so'z hosil qilish xususiyatlarini o'rganish muammosi lingvistik adabiyotlarda keng yoritilgan. Maqolada bu borada jahon tilshunosligida olib borilgan tadqiqotlar, olimlarning nazariy qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *diminutivlar, erkalash-kichraytirish kategoriyasi, subyektiv baholovchi, emotsional bo'yoqdorlik, morfologik vositalar, suppletiv usul.*

Аннотация: в этой статье описаны некоторые соображения о лингвистической природе, специфических особенностях, типах слов, которые характерны для категории уменьшительно-ласкательности. Проблема изучения семантических и словообразовательных свойств слов со значениями уменьшительно-ласкательности широко освещается в лингвистической литературе. В статье анализируются исследования, проводимые в мировой лингвистике на этот счет, теоретические взгляды ученых.

Ключевые слова: *диминутивы, категория уменьшительно-ласкательности, субъективная оценка, эмоциональная окраска, морфологические средства, супплетивный прием.*

Annotation: this article describes some considerations about the linguistic nature, specific features, and types of words that are characteristic of the diminutive category. The problem of studying the semantic and word-formation properties of words with the meanings of diminutive endearment is widely covered in the linguistic literature. The article analyzes the research conducted in world linguistics on this subject, the theoretical views of scientists.

Key words: *diminutives, the category of diminutive endearment, subjective assessment, emotional coloring, morphological means, suppletive technique.*

Subyektiv baholashni ifodalash shakllari masalasi XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab M.V.Lomonosov, F.I.Buslaev, A.H.Vostokov, G.P.Pavskiy, K.S.Aksakov, A. A. Shaxmatov, V. V. Vinogradov, A. A. Potebnya tomonidan keng yoritilgan. O'Ichovli-baholovchi hosilalar haqida birinchi eslatma G.V. Ludolf tomonidan "Rus grammatikasi" da topilgan [1].

Erkalash-kichraytirish ma'nolariga ega so'zlarning semantik va so'z hosil qilish xususiyatlarini o'rganish muammosi lingvistik adabiyotlarda keng yoritilgan. Ushbu muammoga bag'ishlangan asarlar orasida M.G. Danielova [2], L.I.Osipova [3], V.I. Churganova [4] va boshqalarning ishlarini alohida ta'kidlab o'tish joizdir. "Rus tilining morfologiyasi" hamda "Lingvistik ensiklopedik lug'at" da berilishicha, diminutivlar lotincha "diminutio" so'zidan olingan bo'lib, kichraytirish degan ma'noni anglatadi [5]. Ular hissiy ifodali qo'shimcha ma'no bilan birga, unga undovchi so'z bilan ko'rsatilgan obyektga nisbatan kichraytirish ma'nosini ifoda etadi [6].

Morfologik derivatsiyaning bir turi sifatida diminutivlar bir bosqichli va ikki bosqichli turlarga bo'linadi. Bir bosqichli turida diminutivlar derivatsion jarayonda bitta bosqichda shakllanadi:

1. *Xo'p bo'ladi, akajon, — deydi Oysha (X. To'xtaboyev. Sariq devni minib).*

2. *Oppoqqinam, jonimning huzuri, deb erkalatgani erkalatgan (X.To'xtaboyev. Sariq devni minib).*

3. *Demak, qalpoqcham chindan ham sehrli ekan, deb o'yladimda, termosdan choy quyib ichgan edim, hiqichoq bosildi (X. To'xtaboyev. Sariq devni minib).*

Keltirilgan misollarda akajon, oppoqqinam, qalpoqcham kabi so'zlar diminutivlar sanalib, ular bir bosqichli

derivatlardir. Bunda aka+jon, oppoq+qina, qalpoq+cha kabi diminutivlar bitta bosqichda shakllanmoqda. -jon, -qina, -cha kabi morfologik vositalar esa, kichraytirish-erkalash so'zlarini shakllantirmoqda. Shu bilan birga, mazkur affikslar so'zlarga emotsional ma'no yuklamogda.

Ikki bosqichda shakllangan diminutivlarda mazkur emotsionallik xususiyati ikki karra bo'rttirilib ko'rsatiladi. Bu vaziyatda so'zlar erkalash-kichraytirish qo'shimchalarni olib o'zgarishi ikki bosqichda amalga oshadi. Fikr isboti uchun e'tiborimizni quyidagi misollarga qaratamiz:

1. Kunlarning birida mehribon oyijonginamga, direktorimizga alohida-alohida qilib xat yozdim (X.To'xtaboyev. Sariq devni minib).

2. Uychacha, uychacha, o'rmongamas menga qara (Rus xalq ertaklaridan).

3. Onam xamir qorganda, Men kulchacha yasayman. Qizib turgan tandirga, Qiziqsinib qarayman (Sh.Xolmahatova. Kulcha).

Keltirilgan misollarda oyijonginamga, uychacha, kulchacha kabi so'zlarda diminutivlik ifodalovchi vositalar ikki marotaba qo'shilganining guvohi bo'lamiz. Bunday vaziyatlarda emotsional ma'no ikki barobar kuchaytiriladi. Shu bilan birga, mazkur so'zlarda morfologik hosila shakllanishi ikki bosqichda amalga oshiriladi. Buni biz diminutivlarning yasalishi jarayonida o'tkazishimiz mumkin: oyi+jon+gina, uy+cha+cha. Ammo shuni aytish kerakki, kulcha so'zida garchi biz bitta morfologik vositani ko'rayotgan bo'lsakda, mazkur diminutivning ikki bosqichda shakllanganligini inkor eta olmaymiz. Zero, kulcha nonning kichik bir turi ekanligini hisobga olsak, bunda diminutiv yasalishining birinchi bosqichi suppletiv usulda hosil bo'lyapti. Ikkinchi

bosqichda esa affiksatsiya usuli maydonga chiqmoqda: *non – kulcha – kulchacha*

Diminutivlarning semantik xususiyatlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, subyektiv baholash qo'shimchalarining ma'nosi nuqtayi nazaridan ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: kichraytiruvchi, erkalovchi, kichraytirish-erkalovchi, kichraytiruvchi-kamsituvchi. Bu diminutivlar ma'nosining hissiy va baholovchi komponentidir. Kichraytirish-erkalash kategoriyasining ma'nosi, o'z navbatida, quyidagi turlarni o'z ichiga olishi mumkin [7]:

Shakl kichraytirish: uycha, kitobcha.

Ma'lum hodisani kichraytirish-erkalash asosida ma'nosini kuchaytirish: sovuqqina havo, yaxshigina yomg'ir va h.k.

Kichraytirish-erkalash asosida ma'lum narsaning qadr-qimmatini oshirish: chiroyli fasoncha.

4. Kichraytirish-erkalash asosida maqtanish ma'nosini keltirib chiqarish: moshinacha oldim.

5. Kichraytirish-erkalash asosida kamsitish ma'nosini berish: Allaqanday xodimcha menga aql o'rgatadi va h.k.

Y.Svobodova [8] o'z ishlarida kichraytiruvchi so'zlar leksikalizatsiyadan omon qolishi mumkin bo'lgan hodisani, ya'ni so'zlarning diminutivlik ma'nosini yo'qotishi hodisasini ko'rib chiqadi. Bu kichraytiruvchi qo'shimchani to'g'ri obyektiv ma'noga ega bo'lgan sof so'z hosil qiluvchi qo'shimchaga aylantirish bilan bog'liq. Leksikalizatsiya jarayoni kichraytiruvchi shaklni kichraytirmaydigan ma'noga ega mustaqil so'zga aylantirishga yordam beradi. Bunday hodisalar ikki xil so'z bilan amalga oshadi:

1) eraklash-kichraytirish ma'nosidagi so'zning yo'qolishi: kulcha (Bitta zog'ora kulchani to'rtga bo'lib yeyishdi, nonushtalari shu bo'ldi. (T. Malik, Ajab dunyo), zarcha – kasallik (Oysha xolaning kelini zarcha bo'lib, do'xtirga ketdi) (diminutivlarning kelib chiqishi faqat etimologik tahlil bilan belgilanadi);

2) kichkina so'z bilan maxsus ma'noga ega bo'lish va derivat bilan aniq aloqani yo'qotish: yengcha (Sojidxon tutayotgan yengchasiga kosadagi suvdan sepib o'chirdi. (S. Zunnunova, Go'dak hidi)), qizilcha (Qizilcha – virus tabiatli o'tkir yuqumli kasallik (<https://privivki.uz/>)).

Diminutivlar yorqin stilistik bo'yoqdorlikka ega, ko'pincha ular lug'atlarda so'zlashuv jarayoni bilan belgilanadi. S.G. Sheydayevaning fikriga ko'ra, turli nutq uslublari subyektiv va baholovchi shakllarni ham sifat, ham miqdoriy jihatdan turli xil ifodalab beradi. Subyektiv baholovchi shakllarning mavjudligi so'zlashuv nutqiga xosdir, chunki ular nutqda barcha xilma-xilliklarga egadirlar. Nutqning bu turida subyektiv baholash ma'nosiga ega so'zlar bo'lmaganida, kundalik nutqimiz ham rasmiy tus olgan bo'lardi va bu suhbat uslubining buzilishiga olib kelardi [9].

Publitsistik uslubda nutq mavzusini baholashni bevosita ifodalashda ko'pincha subyektiv baholovchi shakllanishlar qo'llaniladi, chunki suhbatdoshga (o'quvchiga) va xabarga ta'sir qilish publitsistikaning asosiy maqsadidir.

Ilmiy uslubda yozilgan asarlar mualliflari deyarli hissiy-baholovchi morfemalar bilan so'zlarni ishlatmaydilar, ammo shu bilan birga o'lchovli-baholovchi shakllanishlardan va ayniqsa, kichraytiruvchi affiksli otlardan foydalanadilar. Bunday hollarda kichraytirish tavsifiy tarzda ifodalanadi.

Subyektiv baholashning derivatlari rasmiy biznes uslubining zamonaviy matnlarida mavjud emas, ammo o'tmishda ular biznes hujjatlari tilining o'ziga xos xususiyati bo'lgan.

Insonning individualligi, ayniqsa, badiiy nutqda namoyon bo'ladi va badiiy adabiyotda va uning individual mualliflik maqolalari va janrlarining xilma-xilligida tilning subyektiv va baholovchi so'z shakllanishi salohiyati to'liq amalga oshiriladi. Subyektiv va baholovchi lug'atning barcha boyligi badiiy matnlarda aks etadi.

Shunday qilib, lingvistik adabiyotlarni tahlil qilish asosida biz diminutivlar kichraytiruvchi, erkalovchi, kichraytiruvchi-erkalovchi, kichraytiruvchi-kamsituvchi ma'nolarni ifodalovchi so'zlar ekanligini aniqladik. Diminutiv so'zlar kichraytiruvchi ma'no tabiatiga ko'ra tasniflanadi: hajmi, balandligi, o'lchamlari va h.k. ga ko'ra kichraytirish, namoyon bo'lish darajasi, ahamiyat darajasi, har qanday fazilatlarida me'yordan chetga chiqish. Ushbu so'zlar guruhi aniq stilistik bo'yoqdorlikka ega. Demakki, diminutivlar ko'pincha so'zlashuv uslubiga xos degan xulosaga kelish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Лудольф Г.В. Русская грамматика. – Оксфорд, 1696.
2. Даниелова, М.Г. Деминутивы в комплексных единицах словообразования в современном русском языке: автореф. ... канд. филол. наук 1985. 17 с.
3. Осипова, Л.И. Закономерности словообразования и лексикализации деминутивов в современном русском литературном языке: автореф. дис.... канд. филол. наук 1968. 15 с.
4. Чурганова, В.Г. К истории словообразования деминутивов в русском языке // Вопросы исторической лексикологии и лексикографии восточнославянских языков – М.: Наука, 1974. 366 с.
5. Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1990, 683 с.
6. Панова, Г.И. Морфология русского языка: Энциклопедический словарь-справочник – М.: Ком-книга, 2010. 444 с.
7. Резанова, З.И. К функциональной характеристике деминутивов (в художественной и разговорной речи) // Коммуникативные аспекты слова в 66 текстах разной жанрово-стилевой организации. – Томск: Изд-во Том. ун-та, 1995. 199 с.
8. Свободова, Й. Деривационные и стилистические особенности русских деминутивов (на материале автобиографической трилогии М. Горького): автореф. дис. ...канд. филол. наук – Волгоград, 1992. 22 с.
9. Шейдаева, С.Г. Категория субъективной оценки в русском языке: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Н.Новгород, 1998. 42 с.

Sadoqat SOTVOLDYIEVA,
erkin tadqiqotchi

SAMAR BONUNING BIR SHE'RIGA LINGVOPOETIK BAHO

Annotatsiya: mazkur maqolada Huvaydo shajarasining sohibi devon shoirlaridan biri bo'lgan Samar Bonuning bir she'riga lingvopoetik munosabat bildirilib, uning shoira ijodiyotidagi o'rniga baho berilgan. Ayni chog'da, bu she'r tahlili o'laroq shoira she'riyatining umummazmuniga ham ekskurs qilingan. Muhimi esa, tadqiqqa tortilgan she'rning lingvopoetik xususiyatlari borasida ayrim bir mulohazalar yuritilgan. Bir she'r doirasida shoira metafora, o'xshatish hamda takrorlardan qay darajada foydalanganligiga baho berish barobarida, uning hasbi hol usulini nazokat bilan badiiy bayon etganligiga urg'u berilgan.

Kalit so'zlar: *badiiy adabiyot, she'riyat, gender, jins munosabati, mushtaraklik, tafovutlar, ruhiyat, ruhoniyat ayollar she'riyati, asosiy qarashlar, so'fiya ayollar, umumiy yo'nalish, hasbi hol, she'r texnikasi, badiiy qurilish, takrorlar, vazn, qofiya, badiiy san'atlar, mahorat.*

Annotation: in this article, a linguopoetic attitude is given to a poem by Samar Bonu, one of the Devan poets, the owner of the Huvaiddo family tree, and its place in the poet's work is evaluated. At the same time, in addition to the analysis of this poem, the general content of the poet's poetry was also explored. Importantly, some comments have been made regarding the linguopoetic features of the researched poem. While assessing the extent to which the poetess used metaphors, similes, and repetitions within one poem, emphasis was placed on her artistic description of the simile method.

Key words: *fiction, poetry, gender, sex relations, commonalities, differences, spirituality, women's poetry of the priesthood, main views, Sufi women, general direction, hasbi hol, poem technique, artistic construction, repetitions, weight, rhyme, fine arts, skill.*

Аннотация: в данной статье дается лингвопоэтическое отношение стихотворению Самара Бону, одного из деванских поэтов, владельца родословной Хувайдо, и оценивается его место в творчестве поэта. При этом, помимо анализа данного стихотворения, исследовалось и общее содержание поэзии поэта. Важно отметить, что были сделаны некоторые замечания относительно лингвопоэтических особенностей исследуемого стихотворения. При оценке того, насколько поэтесса использовала метафоры, сравнения и повторы в пределах одного стихотворения, акцент был сделан на художественном описании ею метода сравнения.

Ключевые слова: *художественная литература, поэзия, пол, половые отношения, сходство, различие, духовность, женская поэзия жрецов, основные взгляды, суфийские женщины, общее направление, хасби хол, техника стихотворения, художественное построение, повторы, вес, рифма, изобразительное искусство, мастерство.*

To'xtasin Jalolovning "Nafosat olamida" kitobida Huvaydoyi Chimyoniy haqida maqola berilar ekan, uning shajarasidan to'rt nafar sohibi devon chiqqanligi borasida so'z yuritiladi. Darhaqiqat, so'fiy shoir Huvaydo shajarasida bu zotning o'zlari, nabirasi Sirojijiy, va Sirojijiyning ikki farzandi Samar Bonu va uning ukasi Salohiddin Soqib devon tuzgan mahoratli shoirlar bo'lgan. T.Jalolov shu kitobida Samar Bonuning hayot yo'li va uning she'riyati borasida asosli ilmiy mulohazalarini bayon qilgan. Ayni paytda, kitobda shoira o'ttiz beshta g'azalini ham havola qilgan. [Жалолов;129-221]

Samar Bonuning she'riyati mazmun va shakl jihatidan salafлари she'riyatiga juda yaqin turadi. Uning g'azallari ichida bobosi Huvaydo she'rlariga yozilgan tatabbu'lar ham anchagina. Jumladan, Huvaydo hazratlari yozadi:

Ayladim ishqing aro, ey sho'x, afg'on o'zga nav',
Aylag'ondek el aro Majnuni hayron o'zga nav'.

Bonu yozadi:

Keldi bu kun qoshima noz ila jonon o'zga nav',
Qomati ra'nosi chun sarvi xiromon o'zga nav'.

Huvaydo bayti:

Zulayhoyi zamon, ishq ofati davrondurur ul sho'x,
Malohat Misri ichra Yusufi Kan'ondurur ul sho'x
Samar Bonu bayti:

G'arib jonimg'a qildi har kuni yuz ming jafo ul sho'x,
Vafoni izladim andin, bo'lubdur bevafo ul sho'x.

[Жалолов;178-179]

Keltirilgan iqtiboslar ham mazmun, ham shaklda yakranglik qilayotganiga e'tibor qilinsa, Samar Bonu ilohiy va majoziy ishqni farqlay oladigan mahoratli shoirlaridan biri ekanligini ko'rish mumkin. Uning bir g'azalining har bayti "ishqi yo'q" birikmasi bilan boshlanib, kishida Yaratganga, uning Rasuli (s.a.v.)ga ishq bo'lmas ekan, uni odam qatoriga qo'shib bo'lmaydi, uning chorpo (to'rt oyoqlilar), xususan, modagov (sigirdan farqi yo'q, degan xulosalarni havola qiladi. Bu jihatdan shoira o'ttiz beshta g'azalini ham havola qilgan. Ayni paytda, kitobda shoira o'ttiz beshta g'azalini ham havola qilgan. [Жалолов;129-221]

Ishqi yo'q odamni odam dema,
Modagov-u barzagovdin kam dema.
Ishqi yo'q odam misoli chorpo,
Tuqqan emas hech vaqt Odam Ato, -
der ekan, she'ning ikkinchi qismida "Ishqi yo'qdin so'z keldi so'zladim, Ishq o'tig'a men o'zimni ko'zladim" deya ishqning aslida qanday tuyg'u ekanligini o'tli misralar mazmuniga singdira olganini ko'rish mumkin.

Ayollar she'riyatining umummanzarasiga nazar tashlansa, ular ko'proq o'zlarining hayotlari, yaxshi-yomon kunlari, boshdan kechirganlari, hayotlarida yuz bergan turli savdolar haqida yozganlarining shohidi bo'lish mumkin. Samar Bonu ham bundan benasib emas. T.Jalolovning qayd etishicha, Samar Bonu balog'atga yetganida uni bir boyvachchaga unashtiradilar. Biroq shoiraning marhamatlik Sharifjon ismli bir yigit bilan ahd-u paymonlari bo'lgan. Ayni to'y kuni Samar Bonu Sharifjon huzuriga qochib ketadi. Sirojij qizining bu xatti-harakatini kechirmaydi va uni oq qiladi. Oradan yil o'tgach, Sirojij xufyalar yollab, Sharifjonni o'ldirtiradi. Samar Bonu qo'lidagi Zahiriddin bilan tul qolgan. Biz maqola markaziga qo'ygan va tahlilga mo'ljallagan g'azal shoiraning ana shu fojialardan keyingi yolg'izlikdagi g'amgin hayoti, bu tufayli chekkan iztiroblari haqida, qisqasi, bu she'r hasbi hol mazmunida. G'azal o'n bayt. Ramali musammani mahzufda. Afoyli foilotun foilotun foilotun foilon. G'azalning tub mazmunida boshiga tushgan bu ko'rguliklar - judolikdan dod, fir-oqdan faryod sadosi eshitiladi. She'ning qofiyasiga chiqarilgan so'zlarni izchil tartibda qo'yib chiqilsa ham, shoira demoqchi bo'lgan fikrni, demakki, she'r mazmunini tushunib yetish mumkin. Bular: *g'arib, sarg'arib, muztarib, andalib, qarib, axtarib, kirib, yorib, erib, sizib*. Shunisi xarakterliki, bu qofiyalar bilan tugagan baytlardan keyin kelgan bayt sadri ayni shu poetik so'z bilan boshlanadi va she'rda ifodalangan hasbi holni muayyan bir izchilikda, silsilaviy ko'rinishda yanada bo'rttirib ko'rsatishga olib keladi. Qolaversa, bir misra yoki baytda istifoda qilingan takrorlar ham shoira ahvoliga urg'u beradi. Masalan, matla'ning birinchi misrasida "g'arib" so'zi to'rt marta, ikkinchisida bir marta va maqtadan avval yana bir marta ishlatiladi. Qolgan baytlarda esa lirik qahramonning g'aribligi "g'ariblik", "ayriliq", "judolik" kabi sinonim so'zlari zimniga singdirilgan maydonda o'quvchiga peshma-pesh eslatib boriladi. Yanayam to'g'risi, lirik qahramonning g'aribligi – boshiga tushgan savdolar haqida, buning oqibatida u qanday holga tushganligi xususida so'z yuritiladi, bular baytlararo ta'kidlab turiladi. Samar Bonuning boshiga tushgan bundayin savdolar haqida boshqa g'azallarida ham so'z yuritilgan. Lekin bu g'azalchalik izchil emas. Mazkur g'azalda esa baytma-bayt bu savdolar nimadan iboratligi, shoiraning qalbida qanday po'rtanalarni yuzaga keltirganligi, qisqasi, ruhiyatidagi evrilishlar silsilaviy tarzda izchil berilgan. G'azalning birinchi baytidagi takror - lirik qahramonning g'aribligi. "G'arib" so'zida shoira boshiga

tushgan barcha sho'rihlarning ruhiyatiga shiddatli ta'siri to'la mujassamlashgan. Lirik qahramon o'quvchi ko'z o'ngida tuganmas qayg'uga botgan, ko'zlarida shashqator yoshlar oqayotgan, vujudi darddan to'lg'anib turgan mushtipar ayol sifatida gavdalanadi va bu mislsiz g'amdan qutilmoqlik dushvorligi peshma-pesh eslatib turiladi. "Men g'arib – Bonu g'arib" ta'kidida ham shuni ko'ramiz. Misraga "Bonu g'arib" birligining kiritilishining o'zidayoq biz so'z yuritgan voqealar yanada aniqlik bilan, qog'ozlarga o'ralmagan holda realistik usulda tasvirlangan. Bu eslatishlar: oti g'aribligi, zoti g'aribligi ayol zotiga mansub bo'lgani; bu o'rinda uzoq zamonlar ayol zotiga past nazar bilan qaralganligi, ularga muomalada g'ayriinsoniyliklar haqidagi haqiqatni anglash qiyin emas. Shoira aslida ham ayni shunga ishora qiladi. Shu bois uning yuzi kahrabodek sarg'ayib ketgan, za'faronlik uning ichki-yu tashqi dunyosini egallab olgan:

Men g'arib, Bonu g'arib, otim g'arib, zotim g'arib,
Bu g'ariblikda yuribmen, kahrabodek sarg'arib.

Keyingi baytning "sarg'ayib" so'zi bilan boshlanishi (shoiraning yana bir mahorati shundaki, matla'ning ikkinchi misrasining qofiyasidagi "sarg'arib" so'zining birinchi bo'g'ini ajratilsa, "sarg'arib", ya'ni "bosh g'arib" bo'lib, yettinchi "g'arib" so'zi paydo bo'ladi – S.S.) matla' bilan undan keyingi baytni mazmunan bir-biriga bog'lab, muayyan fikrni bardavom qilishga olib kelgan: "Sarg'ayib, bir soddadil bechoraman, bu ishlar tufayli holim xarob, jafoning ko'pligi, alamning beadadligi tufayli iztirobdaman, betoqatu parishonman", deydi shoira. Qofiyaga chiqarilgan "muztarib" so'zi ayni shu ma'noni beradi, ya'ni "iztirob chekuvchi, iztirobli holda qolgan; parishon, betoqat, beqaror" ma'nolarini ifodalaydi. Buning ma'nosini shoiraning o'zi keyingi baytda izohlaydi:

Muztarib ahvol munglig'dur meni yalg'uz boshim,
Men giriftori qafasmen munisimdur andalib.

Shoira deydi, "Mening yolg'iz boshimga shunchalik og'ir balo-qazolar yopirildi, shuning uchun men parishon holda, beqaroru betoqatman. Go'yo bir qafasga solingan dekmanki, andalib (bulbul) mening do'stim, sirdoshim, munisimga aylandi".

Keyingi baytda yozg'irish davom ettiriladi:

Andalibdek termulibmen zor-u nolon men yana,
Termulon ojizlarga bo'lg'ay farosatlig' qarib.

Baytdagi tashbeh (andalibdek) shoiraning bu vaziyatdagi ruhiy ahvolini nisbatan to'laroq ifoda etadi. "Andalibdek termulibon" o'xshatishidan keyin kelgan "zor-u nolon" leksik birligi bulbulga tegishlidek ko'rinsa ham, bayt mazmunidan shoiraning boshiga tushgan musibatdaydagi, boshiga tushgan sho'rihlardan nolon bo'layotganligi, yuragiga dalda bo'ladigan yaqinlari undan voz kechganligi, shu yaqinlarining kelishlariga intizor ko'z tikkanligini afodalaydi. Axir, undan yaqinlari ham yuz o'girganlar, axir unga yaqinlaridan birortasi ham yaqin (qarib) kela olmaydilar. Lirik qahramon ulardan madad kutadi, ularning yo'liga ko'z tikib, bulbuldek nolay-u afg'on chekadi:

Qarib etkay befarosat to saodatlik kuning,
Topmag'aymen sar batanho, po batanho axtarib.

Baxtiyor kunlaring befarosatlar sening atrofingni o'rab oladilar. Axir qarindosh-urug'laring bunday emas-ku! Og'ir kunlaringida senga hamdard bo'lmaydilarmi? Qani ular? Qaniydi shunday og'ir kunlarimda ham ular yonimda bo'lsa... Bugun ularni yolg'iz boshim, yolg'iz oyog'im bilan yurib axtaraman. Mening ahvolimga kuyadigan kishi bormikan? Agar bo'lsa

Axtaray to o'lguncha bir ichkuyar dilxohlik,

To'ldi bag'rim, ezdi ko'ksim, kimga aytay qichqirib.

Agar menga ichi kuyadigan bir dilxoh bo'lsa, uni to o'lguncha axtaray. Axir bu balolardan, taqdirning bu beshafqatligidan bag'rim qonga to'ldi, ko'ksim ezildi. Men buni kimga qichqirib aytay?!

Qichqirib ko'nglim yozolmay termulurmen har sari,

Yo'qki, bir amma-xola yo bir opa kelsa kirib.

Afsuski, na bir amma, na bir xola, na bir opa uyimga kela oladi. Men ularning kirib kelishini, mening dilimga dalda bo'lishini istab har kuni yo'llariga ko'z tikaman. Agar eshikdan biror jigarim nogoh kirib kelsa edi, men ularga ko'ksimni yorib ko'rsatar edim, bag'rimni yorib ko'rsatardim. Shundagina ular mening dardimni, oh-u afg'onlarimning sababini tushunarmidi...

Yorubon bo'lmas tufayli dard bo'lg'ondur dilim,

Koshki oqsa g'ariblikda yurak-bag'rim erib.

Afsuski, ezilgan bu yurakni, qonga to'lgan bag'irni yorib ko'rsatib bo'lmaydi. Agar shunday bo'lganda edi – yorib ko'rsatardim dardga to'lgan dilimni. Qaniydi, yurak bag'rim erib oqsa edi, ular mening ahvolimni tushungan bo'lardi – buning ham iloji yo'q. Mening bu bitiklarim erib oqqan yurak-bag'rimdagi anduhlarimdir. Bular mening dilimdan sizib chiqib, erib oqqan ko'z

yoshlarim – ikki ko'zumdan sizib oqqan va daryoga aylangan firoq daryolarim. Endi o'limdan boshqa iloji korim qolmadi. Rangi ro'yim ham tanim sizib borayotgani shundan:

Erib oqti Bonuyo, ikki ko'zingdin daryolar,

Yo'q bo'lursan bora-bora rangi ro'y ham tan sizib.

Mana, Samar Bonuning hasbi hol g'azalining ma'no qirralari. Zikri borgan tahlil shoiraning tahlilali qismatining dardli manzarasi. Buni o'qishning o'zi azob. Buni his etishning o'zi azob. To'g'ri, qars bir qo'ldan chiqmaydi, ikki qo'ldan chiqadi. To'g'ri, shamol bo'lmasa, daraxtning boshi qimirlamaydi. Bonuda ham ayb bor, Sirojiyda ham. Yuqorida Robiya Qazdoriy boshiga tushgan fojia xususida bejiz so'z yuritmadik. Bonu boshiga tushgan bu ishlar Qazdoriylikidan zarra kam emas. Bonuni jisman o'ldirmasalar-da, ruhan sindiradilar. Uning boshiga falokatlar yog'dirib, uni borlig'idan ayirdilar; umrlik azob-uqibatga giriftor etdilar. Shu sababdan uning aksariyat g'azallarida pajmurda dilning ohu zorlari, ohanggi bir mungli qo'shiqday mayin, g'ussalar girdobida hazin eshitilib turadi. Bugina emas G'arbda ham, xususan, rus she'riyatida Anna Ahmatova, Mariya Svetaeva, Lesiya Ukrainka kabi shoiralarning she'riyati ham xuddi Bonu she'riyati kabi g'am-u g'ussalardan shikoyat ohanglariga yo'g'rilgan. Umuman olib qaralganda, mumtoz she'riyat – g'amgin she'riyat, mahzun she'riyat. Ayniqsa, mumtoz adabiyotimizda qalam tebratgan ayollar she'riyati o'qigan kishini moziyning eng kir, eng qora kunlariga (A.Qodiriy) yetaklab kiruvchi, uni bugungi kun qadriga yetishga undovchi she'riyat. Islomda ayol-qizlarga munosabat bobida harchand nekbin ko'rsatmalar berilgan bo'lmasin, manbalar xotin-qizlarning og'ir turmushidan darak berib turaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алишер Навоий, Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. 6-жилд.// Ҳайрат ул-аброр. Фарҳод ва Ширин. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2011.
2. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат мин шамойим ул футувват// Мукамал асарлар тўплами 20-томлик, 17-том. –Т.: Фан, 2001.
3. Аннамарие Шиммел. Жонон менинг жонимда. Олмон тилидан Йўлдош Парда таржимаси. – Т.: Шарқ, 1999.
4. Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. – Т.: Фан, 2009. 153-154.
5. Джураев М. Ёрмуҳаммад Ёрий – шоир ва таржумон. –Т., 2021.
6. Жалолов Т. Нафосат оламида. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат наш., 1974.
7. Жалолов Т. Ўзбек шоирлари. – Т.: Ўздавнашр, 1959.
8. Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. – Т.: Фан, 2009. – Б. 153-154.
9. Ишоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: “Зарқалам”. 22-23-б
10. Нодира-Комила. Девон. Нашрга тайёрловчи М.Қодирова. – Т.: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти. 2001.
11. Нодира. Эй сарви равон. –Т.: Ёзувчи, 1992.
12. Сиддиқов М. Заковат адабиёти. – Т.: Баёз, 2015.
13. Сиддиқов М. Навоий ҳайратлари. –Т.: Академнашр, 2015.
14. Содиқова Д. Муслиҳабегим Мискин шеърляти поетикаси. PhD AP. – Бухоро, 2022.
15. Шайх Фаридиддин Аттор. Тазкират ул-авлиё. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2017.
16. Қодирова М. Иброҳим Даврон ва унинг адабий мероси. // Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: 2005. 35-72-б.
17. Қодирова М. Иброҳим Даврон. Монография. – Т.: Фан, 2006.



Yulduz SAFARBAYEVA,
Ajiniyoz nomidagi NDPI doktoranti

TURKIY TILLARDA “TUYA” KOMPONENTLI FRAZEMALARNING STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqolada turkiy tillardagi zoonim komponentli frazemalar, jumladan, “tuya” komponentli frazemalarning semantik xususiyatlari tadqiq qilingan. Mazkur iboralarning qoraqalpoq adiblari tomonidan qo'llanishi haqida ham fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: frazemalar, lug'at tarkibi, milliy mentalitet, komponent, denotativ semalar.

Аннотация: в статье изучаются семантические особенности словосочетаний с зоонимическим компонентом в тюркских языках, в том числе с «верблюжьим» компонентом. Обсуждалось также использование этих выражений каракалпакскими писателями.

Ключевые слова: фразеологизмы, лексика, национальный менталитет, компонент, денотативная символика.

Annotation: the article studies the semantic features of phraseological units with a zoonymic component in Turkic languages, including phraseological units with a «camel» component. The use of these expressions by Karakalpak writers is also discussed.

Key words: idioms, vocabulary, national mentality, component, denotative symbols.

Har bir xalqning milliy tili lug'at tarkibida frazemalar salmoqli o'rinni egallaydi. Ular tilda ma'lum bir voqeahodisani bildirish, voqelik haqida axborot berish bilan birga unga so'zlovchining munosabatini ham ifodalaydi. “Frazeologik ma'noning madaniy ma'no komponenti baho munosabatini anglatishi bilan birga u yoki bu millatning milliy mentaliteti, etnokulturasida to'g'risida ma'lumot beradi. Umuman, frazeologizmlar u yoki bu xalqning hayot tarzi, madaniyati, ma'rifati, milliy mentalitetining yorqin ifodasidir” [Mamatov: 1-5].

Frazemalar tarkibidagi qismlar yaxlitligicha bir butun ma'no ifodalashi ma'lum. Frazemaning ma'nosi uning har bir komponenti ifodalaydigan ma'nodan boshqa bo'lishi ham mumkinligi adabiyotlarda yetarlicha izohlangan. Frazemalarning shakllanishi va ma'no kasb etishida ekstralingvistik omillar, jumladan, tarix, milliy qadriyatlar, milliy-ma'naviy meroslar, urf-odatlar, hududning o'ziga xosligi, voqeliklar, tarixiy jarayonlar, xalqning turmush tarzi, kasb-kori va boshqa omillar ma'lum rol o'ynaydi.

Qoraqalpoq tili ham frazemalarga boy til hisoblanadi. Q.Paxratdinov va Q.Bekniyazovlar tuzgan “Qoraqalpoq tilining frazeologizmlar lug'ati”da 7500 dan ortiq frazema berilgan [Q.Paxratdinov: 2,160].

Ma'lumki, turkiy xalqlar chorvachilik, savdo-sotiq va boshqa kasblar bilan shug'ullanishgan. Ular hayotida tuyaning ham alohida o'rni bor. Shu sababli turkiy xalqlar tilida “tuya” komponentli frazemalar ham uchraydi. Masalan: “O'zbek tilining frazeologik lug'ati”da tuya komponentli quyidagi frazemalar berilgan:

Tuya ko'rdingmi – yo'q o'zini ko'rmaganga, bilmaganga chiqarmoq.

Iloji bo'lsa, yamatganingizni aytmang, koyib-netib yurmasin, tag'in. **Tuya ko'rdingmi – yo'q, vassalom**

(Oybek). *Shuning bilan “Yopiqli qozon yopiqli”, meni chiqarib yuborishdi, chiqishimda “Tuya ko'rdingmi – yo'q” qilib menga qasam ichirdilar(G'.G'ulom).*

Tuyaning dumi yerga yetganda – hech qachon.

Hasan so'fi tog'ning ikki tomonini sinchiklab qaradida, kallasini chayqab: “Suv chiqadi-yu, lekigin boyga yarasha chiqadi. Bu suvdan bizga tuyaning dumi yerga yetganda tegadi”, – dedi (M.Ismoiliy).

Tuyaning kallasiday hajmi odatdagidan ancha katta, yirik.

Qovunga qarang. Har biri tuyaning kallasiday (Oybek).

Tuyaning ustida [ham] it qopadi ishi biror to'siqqa uchrab, doim yurishmaydi.

Ammo mudom uni tuyaning ustida it qopar edi; ukasidan yashirincha do'ppi tikkani ipak oldirgan edi, nima falokat bo'lib, uning ustiga binafsha siyoh to'kib yubordi (A.Qahhor).

Tuyani tuzlamasdan yutmoq har qanday ishni udda qila olmoq, uddaburonlik bilan ish qilmoq.

“Mening bir amakim bor. Yoshi yetmish oltida shekilli”, – dedi Bektemir jonlanib, e'tiroz bilan... “Ha u chol tuyani tuzlamasdan yutadiganlardan...” – dedi Asqar polvon (Oybek) [Rahmatullayev:3, 272].

“Tatar tilining frazeologik lug'ati”da ham tuya komponentli quyidagi frazemalar berilgan: **tøya belan sæfer chygasy tygel** – tuya bilan safarga chiqmoq tugul; **tøyane tøge belan yotar** – tuyani tugi bilan yutar; **tøyaneñ kourygy kaychan jirge tiyar** – tuyaning dumi qachon yerga tegar [Naki Isanbet:4,182].

Qozoq xalqining ilgari ko'chmanchilik hayoti chorvachilik bilan bog'liq, ularning to'rt tulik mol boqib, o'z kasbini doim rivojlantirib, o'zining ruhiy va intellektual

tomondan takomillashtirishning kafili bo'lganligini tilshunos G.Smagulova ta'kidlaydi. U shunday yozadi: "Tilimizda mo'lichilik ma'nosini beradigan **Aq tyyeni qarni jarlybyo'** (Oq tuyanining qorni yorilish) degan turg'un birikmaning shakllanishi mol chorvachiligi bilan bog'liq ravishda paydo bo'lganligi ma'lum. Mazkur birikma haqida XIX asrda yashagan qozoq etnograf olimi Sh.Ualixanov bunday tushuncha bergan: Totem davrida qonni uzoq joydan eng yaqin qarindoshi eson-omon kelsa yoki ko'p kutilgan ayoli o'g'il tug'sa yaylovda yurgan oq tuyanining qorniga pichoq tiqib oladigan dastur bo'lgan. Butun dalani boshiga ko'tarib bo'zlagan tuyanining ovozi el eshitganda, quvonchli yangilikning bo'lganini bilib, bir yerga yig'ilar ekanlar. Bu hodisa tilimizda "**Aq tyyeni qarni jarlydy**" degan birikmada saqlangan.

Oq tuyanining qornini yorib qurbonlik qilish keyinroq qozoqlar uchun mo'lichilik ma'nosini berib, mazkur birikmaning dastlabki shakllanish ma'nosi xiralasha boshlagan" [G.Smagulova:5, 163].

Qoraqalpoq xalqi hayoti, turmush tarzi ham qozoq xalqinikiga o'xshash bo'lgan. Bu yaqinlik ularning tilida va urf-odatlarida ham ko'rinadi. Frazeologizmlar tarkibida chorvachilik bilan bog'liq frazemalarning ko'pligining boisi ham shundan bo'lsa kerak. "Qoraqalpoq tilining frazeologizmlar lug'ati"da tuya bilan bog'liq quyidagi frazemalar keltirilgan: **tyyeden postyn taslag'anday** – yersi, o'g'insiz, jensiz, turpayu tyrd; **tyyeni tygi menen jutady** – ashkez, napsiqao', qanaatsiz, para alg'yish; **botaday bozladay** – zar jylady, zar uejiredi; **ao'yzyma tyyeni tabany** – yendi qayty aytrayman, seylemeymen [Q.Paxratdinov: 2. 18, 157].

Tilshunos G.Aynazarova teng ikki komponentli frazemalarni tadqiq qilgan ekan, hayvon nomlari bilan bog'liq frazeologizmlarga misol sifatida **ingendey qayyysyp, botaday bozlaoy** (*inganday qayyishib, bo'taday bo'zlam-oq*) frazemasini keltiradi [Aynazarova: 6. 35].

Misoldagi **ingan** so'zi tuyanining qadimgi shakli bo'lib, u qoraqalpoq tilida saqlanib qolgan. Ona tuya o'z bolasi bo'taga mehribonlik qiladi. Bu ma'no **ingendey qayyysyo'** qismi bilan ifodalanadi. Ikkinchi qismi **botaday bozlaoy** esa o'zining prototipi bilan ma'no jihatidan yaqin. Bo'ta onasidan ajralsa, beto'xtov ovoz chiqarib, bo'zlab yuradi. Yosh bolalarning ham qayg'u, alam bilan me'yorida ortiq yig'lashi bo'taning bo'zlashiga o'xshatilishi natijasida mazkur frazema shakllangan. **Botaday bozlaoy** frazemasini tarkibidagi komponentlarning birinchi

tovushlari uyg'unlik hosil qiladi. Bu tilshunoslikda alliteratsiya deb nomlanadi.

Ingen so'zi qoraqalpoq tilidagi paremiyalar tarkibida ham uchraydi. Masalan, **iyne de niyaz, ingen de niyaz** paremiyasining ma'nosi igna ham ehsonga o'tadi, tuya ham ehsonga o'tadi degan tushunchani ifodalaydi.

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, **tuyani tugi bilan yutmoq** frazemasini turkiy tillarda uchraydi. Qoraqalpoq tilida ham mazkur frazema poraxo'r, yulg'u chlarga nisbatan qo'llanilishi lug'atda ko'rsatilgan. Lekin mashhur yozuvchilar salbiy qahramonning xususiyatlarini bo'ttirib ko'rsatish, asarning ta'sirchanligini oshirish maqsadida unga ba'zi qismlarni ko'shib, yangi frazema yasab, ulardan mohirona foydalangan. Belgili qoraqalpoq yozuvchisi M.Nizanov o'z asarida salbiy qahramonni quyidagicha ta'riflaydi: *Bul Otemuratovtyñ sumlyyqqa qarasa tyyeni tygi menen, gybini tybi menen, arbanu jygi menen jutatug'yn adam yeken*. Misoldagi **tygi, tybi, jygi** so'zlari assonans-alliteratsiyalik uyg'unlikni ta'minlashga, frazema semantikasidagi denotativ semalarning kuchliligini ta'minlashga xizmat qilgan. Ma'nosi: **Tuyani tuki bilan, kuv (qatiqni pishib, yog' va ayronni ajratadigan idish) ni tubi bilan, aravani yuki bilan yutadigan odam ekan**.

Qoraqalpoq tilida boshqa turkiy tillarda deyarli uchramaydigan **ao'yzyma tyyeni tabany** frazemasini mavjud. Uning ma'nosi sirni hech kimga aytmayman, agar aytib, sirni oshkor qilib qo'ysam, mening o'sha gapni aytgan og'zimni tuya to'voni bilan bossin, degan ma'noni ifodalaydi. Mashhur qoraqalpoq yozuvchisi Sh.Seyitov "Xalqabad" romanida mazkur frazema foydalangan. Masalan: **–Ao'yzyma tyyeni tabany, al qoydyt**(158-b).

Sh.Seyitov mazkur frazemani **artyma tyyeni tabany** shaklida qo'llaydi. "Agar shu ishni qilsam, mening orqamni tuya to'voni bilan bossin", degan ma'noni anglatadi: *"Usyinnan aman qutylyp, yendi urluq yetsem artyma tyyeni tabany" dep, tæo'bege kelip, ant iship tur, liykin, mynao' zalyim qutqara jaq yemes* (Sh.Seyitov).

Xulosa qilib aytganda, har bir tilning frazeologik zaxirasida zoonim komponentli frazemalar salmoqli o'rinni egallaydi. Ularning ko'pchiligi turkiy tillar uchun yaqin ma'noda ishlatiladigan bo'lib, yashash tarzi, urf-odatlari yaqin bo'lgan xalqlarda deyarli bir xil qo'llaniladi. Ularni semantik, grammatik, lingvokulturologik jihatdan tadqiq qilish tilshunoslik uchun yangi ma'lumotlar berishi shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Маматов А.Э., Болтаева Б. Фразеологик бирликларнинг лингвомаданий ва семантик-прагматик тадқиқи. – Тошкент, 2018. С. 5.
2. Пахратдинов Қ., Бекниязов Қ. Қарақалпақ тилинің фразеологизмлер сөзлиги. – Неқис: Қарақалпақстан, 2018. – 160 с.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Қомуслар Бош таҳририяти, 1992. С. 272.
4. Исанбет Наки. Фразеологический словарь татарского языка в двух томах. 2-том. – Казань: Татарское книжное издательство, 1990. С. 182.
5. Смагулова Г. Қазақ фразеологиясы лингвистикалық парадигмаларда. – Алматы: Елтаным, 2020. – С. 163.
6. Айназарова Г. Қарақалпақ тилинде теңлес еки компонентли фразеологизмлердің лексика-семантикалық хэм стиллик өзгешеликлери. – Неқис: Қарақалпақстан, 2015. – С. 35.

Лола КАДИРОВА,
Кафедра узбекского и иностранных языков
Ташкентской Медицинской Академии

СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ СТРУКТУРА ИГРОВОЙ СПОРТИВНОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

berish kerakligini aytsa, psixologiya nima uchun aynan shunday qilish kerakligini aniqlaydi. Masalan, pedagogika maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limi va tarbiyasida o'yin usullaridan foydalanish kerakligini ta'kidlaydi. Psixologiya esa buning sababi ushbu yosh davrida o'yin yetakchi faoliyat ekanligini tushuntiradi. Tan olish kerakki, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash ancha murakkab jarayon. O'qituvchining pedagogik mahorati, zamonaviy dars o'tish usullaridan foydalanishi, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi bilan yakka tartibda ish olib borishi natijasida uni samarali amalga oshirish mumkin. Ularni bir-biriga ko'rsatadigan o'rnaklari intizomni yaxshilash va mustahkamlashga, ularning xulq madaniyatini, odatini, ko'nikmasini hosil qiladi. Bosh ustiga o'quvchi shaxsiga hurmat yuzasidan to'g'ri yondasha olmaydi. Bu kabi muammolar o'qituvchi va o'quvchi hamkorligida talaygina salbiy oqibatlarini keltirib chiqaradi.[3]

Past o'zlashtirish sabablarini aniqlaylik:

1. O'quvchining salomatligi talabga javob bermasligi.
2. Ikkilanuvchanligi.
3. Tortinchoqligi.
4. O'z tengdoshlariga kirishib keta olmasligi.
5. Berilgan bilimni sekin o'zlashtirishi.
6. Ko'p dars qoldirishi.
7. Oilada bolaning bo'sh vaqti

Xulosa. Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni aniqlash va ular bilan ishlash o'qituvchidan alohida sabot va mas'uliyatni talab etadi. Shu bois bu toifa bolalar bilan shug'ullanish uchun, avvalo, yakkama-yakka suhbat o'tkazib, ularning qiziqishlarini aniqlash lozim. Maxsus jurnal tutilib, bolalarning o'zlashtirishini muntazam monitoring qilib borilishi, o'quvchilarga qiynalayotgan fanidan alohida mashg'ulotlar daftari tuttirish kabi usullar ham samarali hisoblanadi. Shuningdek, o'quvchilardagi ijobiy o'zgarishlar rag'batlantirilishi muhim. Bo'sh o'zlashtiruvchilarning faolligini oshirish uchun ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini hamda nutqini rivojlantirish kerak. Bunda turli ertaklardan foydalanish mumkin. O'qituvchi dars o'tishda boshqa ko'plab usullardan ham foydalanishi lozim. Eng muhimi, ular samara berishi. Shuningdek, o'zlashtirishi past o'quvchilar uchun o'qish darslarni tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali nafaqat o'quvchining o'qish savodxonligi ortadi, shu bilan birgalikda dunyoqarashi ham kengayadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qish darsligida juda ham ko'plab hikoyalar beriladi. Xulosa qilib aytsak, boshlang'ich sinflarda past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash jarayonini tashkil etishda zamonaviy ta'lim-tarbiyada texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev.Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. 104 -b.
2. To'rayeva M.B. "Boshlang'ich sinflarda o'zlashtirmovchilikni yuzaga keltiruvchi omillar"// "Yosh mutaxassislar" ilmiy – amagliy jurnali 2023-yil 8-son.3-10-bet.
3. Amankeldiyevna.O.G. "Sinfdan past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash texnologiyasi"// "Uchinchi renessans: muammo va yechimlari" konferensiya 30 – to'plam.2022-yil. 30-33-bet.



Madina BAXRAMOVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Umumiy pedagogika kafedrasini o'qituvchisi

PEDAGOGIKA FANINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada pedagogika fanining rivojlanishida zamonaviy pedagogik texnologiyalarining ahamiyati va ularning o'rnini yoritilgan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida dars jarayonini yanada samarali va interfaol qilish mumkin. Kompyuterlar, videokompyuterli multimedia komplekslari va boshqa texnik vositalarning qo'llanilishi orqali o'qitish yanada jozibador va tushunarli bo'lib, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlashga yordam beradi. Ushbu texnologiyalar o'qituvchilarga o'z metodikalarini yangilash va yangi pedagogik yondashuvlarni tatbiq etishda imkon yaratadi.

Kalit so'zlar: *pedagogika fani, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim tamoyillari, didaktik vositalar, tarozi, vesi-texnologiyalari, mantiqiy topshiriq, video darslar, internet resurslari.*

Аннотация: в данной статье подчеркивается значение современных педагогических технологий и их роль в развитии педагогики. С помощью современных педагогических технологий процесс обучения можно сделать более эффективным и интерактивным. За счет использования компьютеров, мультимедийных комплексов с видеокomпьютерами и других технических средств обучение становится более привлекательным и понятным, способствует обеспечению активного участия учащихся. Эти технологии позволяют учителям обновлять свои методы и внедрять новые педагогические подходы.

Ключевые слова: *наука педагогика, современные педагогические технологии, принципы обучения, дидактические средства, весы, веси-технологии, логическая задача, видеоуроки, интернет-ресурсы.*

Annotation: this article highlights the importance of modern pedagogical technologies and their role in the development of pedagogy. With the help of modern pedagogical technologies, the teaching process can be made more effective and interactive. Through the use of computers, multimedia complexes with video computers and other technical means, teaching becomes more attractive and understandable, and helps to ensure the active participation of students. These technologies allow teachers to update their methods and implement new pedagogical approaches.

Key words: *science of pedagogy, modern pedagogical technologies, principles of education, didactic tools, scales, vesi-technologies, logical task, video lessons, internet resources.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash milliy dasturining "Uzluksiz ta'lim tizimi va turlari" bo'limida aytib o'tilgan tadbirlar, ayniqsa oliy ta'lim sohasidagi yangilanishlar va rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadbirlar amalga oshirilsa, oliy ta'lim tizimi samarali va zamonaviy bo'ladi. Yangi pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga kiritish o'qitishni samarali qilishga yordam beradi. Bu o'qituvchilarga o'quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish, ular bilan samarali muloqot qilish va ularni erkin fikrlashga, ijodiy faoliyatga jalb qilish imkoniyatlarini yaratadi. Kompyuter texnologiyalari va multimedia vositalari yordamida darslarni yanada interaktiv va qiziqarli qilish mumkin. Masalan, onlayn kurslar, video darslar, virtual laboratoriyalar va boshqa innovatsion yondashuvlar ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

1. Mustaqil bilim olishni individuallashtirish. Pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish orqali talabalar o'z bilim olish jarayonini yaxshilashlari mumkin. Har bir talabaga individual yondashuv taqdim etish, ularning o'z-o'zini boshqarish va mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, ta'limni tashkil etishning yangi shakllari, masalan, distansion ta'lim, talabalar uchun yanada keng imkoniyatlar yaratadi.

2. Distansion ta'lim tizimi texnologiyasini ishlab chiqish va o'zlashtirish. Ushbu texnologiyalar o'qitishning yangi formatlarini ishlab chiqishga imkon beradi. Distansion ta'lim tizimi, ayniqsa, hozirgi kunda o'qitishning keng tarqalgan shakli sifatida o'zining ahamiyatini orttirgan. Bu ta'lim shakli talabalarni geografik joylashuvidan qat'i nazar, o'qituvchilar bilan bevosita muloqot qilish va bilim olish imkonini beradi. Unga ko'ra, yangi axborot texnologiyalari, internet resurslari, videokonferensiyalar, onlayn sinflar va platformalar yordamida darslar o'tkazilishi mumkin.

3. Ta'limda yangi texnikaviy va didaktik vositalar. O'qitishda yangi texnik vositalar va didaktik metodlardan foydalanish talabalar uchun o'qish jarayonini ancha qiziqarli va samarali qiladi. O'qitishning zamonaviy texnologiyalari va ko'rgazmali materiallari talabalarni o'zlarini erkin ifoda etishlariga, o'quv jarayoniga faolroq jalb qilishlariga yordam beradi.

4. O'qitishni takomillashtirish va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash. O'qitishning yangi yondashuvlari va texnologiyalarini qo'llash orqali o'qituvchilar darslarni interaktiv, qiziqarli va talabalar uchun yanada samarasiz o'tkazishlari mumkin. Shu bilan birga, o'qituvchilarga o'quv

jarayonini yanada samarali va sifatli tashkil etish imkoniyatlari yaratadi. Rivojlangan mamlakatlarda bu texnologiyalar asta-sekinlik bilan joriy etilgan va ular o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatgan. O'zbekistonda ham yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish, oliy ta'limni yanada rivojlantirish va talabalar uchun ilg'or o'qitish usullarini joriy qilish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Bu jarayon, ayniqsa, zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim tizimiga tatbiq etilishi, bilim olishning sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Asosiy qism. Pedagogik texnologiya — ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi.[1]

“Pedagogik texnologiya – bu ta'lim shakllarini jadallashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va belgilashning izchil metodidir” (YUNESKO). “Pedagogik texnologiya – pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniladigan shaxsiy imkoniyatlar, jihozlar va metodologik vositalarda amalda bo'lishning tizimli yig'indisi va tartibini bildiradi” (M.V.Klarin). “Pedagogik texnologiya – o'zida turli mualliflar (manbalar)ning barcha ta'riflari mazmunini qamrab olgan mazmuniy umumlashma hisoblanadi”. (G.K. Selevko).[2]

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga qo'llash bo'yicha respublikamizning ko'zga ko'ringan olimlari tomonidan rivojlangan mamlakatlarda muvaffaqiyat bilan qo'llanib kelinayotgan pedagogik texnologiyalarni ilmiy asosda qiyosiy tahlil qilib, xalqimizning milliy pedagogika an'alaridan hamda ta'lim sohasining shu kundagi holatidan kelib chiqqan holda O'zbekistonning milliy pedagogik texnologiyasini yaratishga harakat qilinmoqda va bu sohada ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirildi. Pedagogik texnologiyani boshqa ta'lim usullaridan ajratib turadigan o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardir: Birinchidan, avval bir necha bor ta'kidlaganimizdek, pedagogik texnologiya sinergetik dunyoqarashdan kelib chiquvchi obyektiv narsa va hodisalarga majmuiy yondashuv tamoyiliga asoslanadi. Avvalgi pedagogik usullar, tuzilishi jihatidan erkin bo'lib, dars tarkibini belgilash faqat o'qituvchi ixtiyorida bo'lgan. Boshqa barcha pedagogik usullarda ta'lim-tarbiya faoliyatining kafolatlangan natijasi mavjud bo'lmay, stixiyali natijalar bilan kifoyalanib kelingan.[3] XXI asrda bu ijtimoiy voqelik innovatsion pedagogik texnologiyalar nomini olib, butun dunyo pedagoglariga dasturamal bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

“Dumalovchi qor uyumi”metodi. Dumalovchi qor

uyumi metodi o'quv mashg'uloti o'tkazish metodining ramziy nomi bo'lib, ish qo'yilgan muammo ustida mulohaza yuritib ko'rish uchun talabalarga vaqt, tegishli manbalar, tarqatma materiallar berishdan boshlanadi. Bu metod guruhning xar bir a'zosiga butun guruhning bilimlari va tajribalaridan foydalanib, o'zining keng qamrovli nuqtayi nazarini bayon etishni nazarda tutadi. Buning uchun talabalar 4 ta kichik guruhlariga ajratiladi. Muhokama qilib chiqish uchun barcha guruhlariga bitta topshiriq beriladi. Har bir kichik guruh topshiriq ustida alohida ishlaydi. So'ngra birinchi bilan ikkinchi va uchinchi bilan to'rtinchi guruhlar muammo ustida birgalikda muhokama yuritishadi. Oxir oqibatda barcha kichik guruhlar birlashib, butun yaxlit guruh bo'lib qo'yilgan muammo yechimini hal etishning turli yo'llarini, variantlarini muhokama qilishadi

“Sindikat” metodi. Guruh uchta kichik guruhlariga bo'linadi. Bunda taklif etilayotgan topshiriq uch xil nuqtayi nazardan hal etilish zarur. Masalan, uch noma'lumki, uchta tenglamalar sistemasini yechish topshirig'i berilgan bo'lsin, u holda birinchi guruh masalani Gauss, ikkinchi guruh Kramer, uchinchi guruh Matritsa usulidan foydalanib yechadi. So'ngra yechimlar birgalikda muhokama etilib, umumlashtiriladi.

“Vesi” -“Tarozi” texnologiyasi. Mazkur texnologiya munozarasi turli mazmunli mavzularni o'rganishda qo'l keladi. U tanqidiy tafakkur, mantiq, ijodiy improvizatsiya, fikriy tajribalarni yozma va og'zaki shaklda ishonchli va lo'nda qilib ifodalaydilar va o'z fikrlarini himoya qiladilar. Qaysi guruh ishonarli qilib ko'proq dalillar keltirsa, o'sha guruh g'olib deb sanaladi. Bu texnologiya o'quvchilarda o'z bilimini ishonch va munozara qilib madaniyatini rivojlantiradi. O'yinlar turli maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi.[4]

Xulosa qilib aytganda, pedagogik texnologiyalar shaxslararo o'zaro ta'sirlarni to'liq almashtiradi, lekin ulardan maqsadli foydalanish bolaning nutq va tilni tuzatish jarayonida ishtirok etishiga ko'maklashishi mumkin. Bu bolalarning o'zi uchun qiziqarli va foydali hisoblanadi. Texnologik taraqqiyot bugungi kunda ijtimoiy jarayonlarni kuzatib borishga qodir eng muhim komponentlardan biridir. Pedagogik ta'lim texnologiyasini yaxshilash jamiyat madaniy saviyasini va uning iqtisodiy qudratini shakllantirish shartidir. Pedagogik texnologiya-ta'lim texnologiyasi, yangi pedagogik tajriba, yangi pedagogik texnologiya, zamonaviy pedagogik texnologiya, axborot texnologiyasi, yangi tajriba, ta'lim-tarbiya metodlari tushunchalarini qamrab oladi. Demak, pedagogik texnologiya didaktik vazifalarni samarali amalga oshirish, shu sohadagi maqsadga erishish yo'li bo'lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. J.Yo'ldoshev, S.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. – T., 2004.
2. J.Yo'ldoshev, – Ta'lim yangilanish yo'lida. – T., 2000.
3. Azixodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. – T.: CHo'lpon, 2005.
4. M.Tojiyev, B.Ziyamuxamedov, M.O'ralova. pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat fanining o'quv mashg'ulotlarini loyihalash. "tafakkur bo'stoni". Toshkent, 2012
5. Yo'ldosheva D., Hamroyeva SH. Ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2017.



Aziza AXMEDOVA,
 Toshkent kimyo-texnologiya instituti
 Tillar kafedrasida katta o'qituvchisi

OLIV TA'LIM MUASSASASIDA INKLYUZIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: maqolada oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim shaklini joriy etish zaruriyati muhokama etiladi. Inklyuziv ta'limning milliy va xalqaro darajadagi huquqiy asoslari o'rganilib tahlil qilingan. Muallif maqolada inklyuziv ta'limning O'zbekiston oliy ta'lim muassasalaridagi mavjud ahvoli hamda ta'limning ushbu shaklini joriy etishda to'stinlik qilayotgan omillar atroflicha o'rganilgan holda ularni bartaraf etish bo'yicha bir qator vazifalar ham belgilab olingan. Ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni joriy etish, uning an'anaviy ta'lim shakliga samarali integratsiyalash va moslashtirish bo'yicha zaruriy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan shaxslar, nogironlik, jismoniy nogironlik, aqliy nogironlik, o'quv dasturlari, maxsus dasturlar, gender tenglik, ta'lim siyosati, tashkiliy-boshqaruv mexanizmi.

Аннотация: в статье рассматривается необходимость внедрения инклюзивного образования в высших учебных заведениях. Изучены и проанализированы национальные и международные правовые основы инклюзивного образования. В статье автор подробно анализирует современное состояние инклюзивного образования в высших учебных заведениях Узбекистана, а также факторы, препятствующие внедрению данной формы образования, и определён ряд задач по их устранению.

Разработаны необходимые рекомендации по внедрению инклюзивного образования в образовательных учреждениях, его эффективной интеграции и адаптации к традиционной форме обучения.

Ключевые слова: инклюзивное образование, лица с ограниченными возможностями, инвалидность, физическая инвалидность, умственная отсталость, образовательные программы, специальные программы, гендерное равенство, образовательная политика, организационно-управленческий механизм.

Annotation: the article discusses the need to introduce inclusive education in higher education institutions. National and international legal bases of inclusive education are studied and analyzed. In the author's article, the current situation of inclusive education in Uzbekistan's higher education institutions, as well as the factors hindering the introduction of this form of education, and a number of tasks for their elimination are determined. Necessary recommendations on the introduction of inclusive education in educational institutions, its effective integration and adaptation to the traditional form of education have been developed.

Key words: inclusive education, persons with disabilities, disability, physical disability, mental disability, educational programs, special programs, gender equality, educational policy, organizational-management mechanism.

Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan asosiy muammolardan biri, jamiyatning har bir a'zosi uchun ta'lim olish imkoniyatlarini yaratishidir. Nogironligi bor shaxslarga ta'lim berish, ta'lim tizimining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Kundalik hayot tarzimizda "Nogiron shaxs" atamasi muomalaga kiritildi. Davriy nashrlarda va ilmiy tadqiqot ishlarida nogironlik tushunchasiga turlicha ta'riflar berilgan bo'lib, ularning ko'pchiligida ushbu tushunchaning mazmuni keng yoritilgan. Xususan, birlashgan millatlar tashkiloti Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasida "Nogironlik – tana funksiyalari buzilgan insonlar hamda munosabat va infratuzilma bilan bog'liq to'stinlik orasidagi o'zaro aloqa natijasida vujudga keladigan holat", "Nogironlik – bu ta'lim olish uchun maxsus sharoit yaratmasdan, ta'lim dasturlarini ishlab chiqishga to'stinlik qiladigan jismoniy va (yoki) aqliy qobiliyati cheklangan shaxs. Yo'qlik – bolaga nisbatan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya va

kattalarga nisbatan tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasi tomonidan tasdiqlangan jismoniy yoki aqliy nogironlik.

Jismoniy nogironlik – bu inson organi yoki surunkali somatik yoki yuqumli kasallikning rivojlanishi va (yoki) ishlashida belgilangan tartibda tasdiqlangan vaqtinchalik yoki doimiy yetishmovchilik. Aqliy nogironlik – bu insonning aqliy rivojlanishidagi, shu jumladan, nutqning buzilganligi, hissiy-irodaviy soha, shu jumladan autizmning, miya shikastlanishining oqibati, shu jumladan, aqliy rivojlanishning sustligi, o'qishdagi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradigan vaqtincha yoki doimiy ravishda yetishmaslikdir". Shu nuqtayi nazardan nogironlarni o'qitish murakkab, ko'p kuch va vaqt sarflanadigan jarayon bo'lib, ta'lim tizimidan ushbu ko'p qirrali muammoni hal etishga kompleks yondashishni talab qiladi. Hozirgi kunda jahon hamjamiyatida qonuniy asosda nogironlarning ta'lim olishi uchun barcha sharoitlarni yaratish zarurati qayd etilgan. Xususan,

Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro deklaratsiyaning 26-moddasida, Bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyaning 28-moddasida, nogironlarning huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyada, nogiron bolalarga ta'lim olishda ko'maklashish, ushbu shaxslarning ta'lim olishi uchun o'quv dasturlari va baholash mezonlarini ularning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqishning huquqiy tamoyillari mustahkamlangan. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahonning ko'plab mamlakatlarida umume'tirof etilgan standartlar asosida professional ta'lim olish imkoniyatlarni taqdim etish maqsadida sog'ligida nuqsonlari mavjud shaxslarni ommaviy ta'lim muassasalariga integratsiyalash g'oyasi ishlab chiqilib amaliyotda keng qo'llanilishi boshlandi. Bugungi kunda aksariyat mamlakatlar ta'lim muassasalari Segregatsiyadan voz kechib (ajratish, chetlatish, kiritmaslik) nogironlarni ommaviy ta'lim muassasalari o'quv jarayonlariga integratsiyalashga o'tmoqda.

Bu, o'z navbatida, nogiron bolalarni ta'lim muassasalarida o'qitishda yangicha yondashuvni ishlab chiqishni talab qiladi. Bu sohadagi yangi yondashuvlardan biri bu "Inklyuziv ta'lim"dir.

Inklyuziv ta'lim – bu har xil ehtiyojli bolalarning umumiy, o'rta va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olishlari uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, ular

uchun ta'lim muassasalarida qo'shimcha moslamalarining yaratilishini talab etuvchi ta'lim tizimidir.

Bugungi kunda aksariyat mamlakatlar inklyuziv modelni ta'lim jarayonida joriy etishi quyidagi muammolarga duch kelmoqda: aksariyat ta'lim muassasalari sog'lom, nogironligi bo'lmagan o'quvchilar uchun mo'ljallangan va jihozlangan; nogironligi mavjud shaxslarning jamiyatga qo'shilolmaslik muammosi; nogiron shaxslarning boshqa insonlarga qaramligi; nogiron shaxslarning moddiy mablag' bilan ta'minlanmaganligi; o'quv mashg'ulotlari olib boriladigan auditoriyalarda o'quvchilar sonining ko'pligi; ba'zi holatlarda nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan salbiy munosabat; nogironligi bo'lgan shaxslarni o'qitishda professor-o'qituvchilar bilan bog'liq muammolar (aksariyat o'qituvchilar bunday toifadagi talabalarni o'qitishga moslashmagan).

Dunyo aholisining yetti foizidan o'n foizigacha nogironlar tashkil qilayotgan hozirgi sharoitda nogironlarni oliy ma'lumot olish imkoniyatini ro'yobga chiqarish juda dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Shu sababli, nogironlar uchun oliy ta'lim tizimini ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlariga, ushbu toifadagi talabalar ehtiyojlari va hayotiy maqsadlariga moslashtirish orqali oliy ma'lumot olish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Конвенция о правах инвалидов. Принята резолюцией 61/106 генеральной ассамблеи ООН от 13 декабря 2006 года.
2. Кондратьева С.И. "Механизм управления инновационным проектом по внедрению инклюзивной модели образования в ВУЗе" диссертация на соискание учёной степени кандидата экономических наук. – М., 2010 год.
3. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-soni farmoni.



Sevara BOBONAZAROVA,
Qarshi davlat universiteti doktranti

AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNI IJODIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH

Annotatsiya: ushbu maqolada akmeologik yondashuv asosida talabalarni ijodiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: akmeologiya, ijodiy-pedagogik faoliyat, ta'lim jarayoni, talabalar, kasbiy rivojlanish.

Annotation: this article analyzes the issues of preparing students for creative-pedagogical activities based on the acmeological approach.

Key words: acmeology, creative-pedagogical activity, educational process, students, professional development.

Аннотация: в данной статье анализируются вопросы подготовки студентов к творчески-педагогической деятельности на основе акмеологического подхода.

Ключевые слова: акмеология, творчески-педагогическая деятельность, образовательный процесс, студенты, профессиональное развитие.

Hozirgi kunda ta'lim sohasida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amaliyotga tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir. Bu jarayonda akmeologiya fanining o'rni alohida ahamiyatga ega bo'lib, u shaxsning eng yuqori rivojlanish bosqichlarini o'rganishga qaratilgan. Talabalarni ijodiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda akmeologik yondashuvdan foydalanish ularning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko'nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim o'z oldiga qator vazifalarni qo'yimoqdaki, bular o'z navbatida ta'lim jarayonini tubdan yangilashga nisbatan bir qancha vazifalarni yuklaydi. Jumladan:

– yoshlar o'zlarining ijod qobiliyatini qonuniy me'yor orqali boshqara olishi va bu jarayondagi faoliyatini yuqori cho'qqiga ko'tarish;

– shaxs estetikasi va intellektining yuqori bosqichga yetishdagi obyektiv va subyektiv birliklardagi ziddiyatli ta'sir omillari;

– o'z-o'zini o'qitish, o'z-o'zini takomillashtirish va boshqarish.

Akmeologiya – bu shaxsning intellektual, ma'naviy va kasbiy jihatdan rivojlanishini tadqiq qiluvchi fan. Ushbu fan XX asrda paydo bo'lib, insonning o'sish va rivojlanish bosqichlarini chuqurroq o'rganishni maqsad qilgan.

Akmeologik yondashuvning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

Individuallik tamoyili: har bir shaxsning rivojlanish yo'li o'ziga xosdir.

Yaxlitlik tamoyili: shaxsni intellektual, jismoniy va ma'naviy jihatdan bir butun sifatida o'rganish.

Dinamik rivojlanish tamoyili: shaxsning rivojlanishi doimiy va izchil jarayon ekanligi.

Akmeologik yondashuv talabaning shaxsiy rivojlanishiga ko'maklashib, uni kasbiy jihatdan puxta

tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarni ijodiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

Muammoli ta'lim: talabalar oldiga dolzarb muammolar qo'yiladi va ularni hal qilish jarayonida ijodiy yondashuv shakllanadi.

Muammoli ta'lim bu ta'limning talabalarning mustaqil fikrlash, muammolarini hal qilish va ijodiy yondashuvni shakllantirishga yo'naltirilgan shaklidir. Ushbu usulda talabalar oldiga muayyan masalalar yoki muammolar qo'yiladi va ularni hal qilish uchun o'quvchilar izlanishga, tahlil qilishga va o'z yechimlarini taklif qilishga undaladi.

Muammoli ta'limning asosiy xususiyatlari:

talabalarning faol ishtiroki: Ta'lim jarayonida talabalar passiv kuzatuvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida qatnashadi.

Mustaqil fikrlashni rivojlantirish: Muammolarni hal qilishda talabalardan mustaqil qarorlar qabul qilish talab etiladi.

Ijodkorlikni shakllantirish: Talabalar muammolarni turli yo'llar bilan hal qilishni o'rganadi, bu esa ijodkorlik va innovatsion fikrlashni rivojlantiradi.

Amaliy mashg'ulotlarga e'tibor: Muammolar ko'pincha real hayotga oid bo'lib, talabalarga nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatini beradi.

Muammoli ta'limni tashkil etish bosqichlari:

muammoni qo'yish: O'qituvchi talabalarga dolzarb va qiziqarli muammoni taqdim etadi. Masalan, darsda "O'quvchini qiziqtiradigan dars qanday bo'lishi kerak?" kabi savollar o'rta tashlanadi.

Muammoni tahlil qilish: talabalar muammoni chuqur o'rganib, uning sabablarini va hal qilish yo'llarini aniqlaydi.

Muammoni hal qilish variantlarini taklif etish: talabalar o'z yechimlarini ishlab chiqadi va ularni muhokama qiladi.

Guruhda ishlash orqali turli fikrlar almashinadi.

Yechimni baholash va tahlil qilish: taklif etilgan yechimlar amaliy jihatdan qay darajada samarador ekanligi muhokama qilinadi. Bu jarayon refleksiya orqali talabalarining bilimlarini chuqurlashtirishga yordam beradi. Masalan, pedagogika yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar uchun quyidagi muammoli vaziyat qo'yilishi mumkin:

“Sinfdagi passiv o'quvchilarni darsga qanday jalb qilish mumkin?”

Talabalar muammoni tahlil qilib, turli usullarni, masalan, interaktiv o'yinlar, guruhli ishlar yoki rag'batlantirish mexanizmlarini taklif qiladilar.

Treninglar va interaktiv mashg'ulotlar. Kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish.

Treninglar va interaktiv mashg'ulotlar talabalarni kasbiy va shaxsiy jihatdan rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim uslublaridan biridir. Bu metodlar talabalarining faol ishtirokini ta'minlash, nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalarga aylantirish va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Treninglar – bu maqsadli ta'lim shakli bo'lib, unda talabalarga muayyan ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashqlar taklif etiladi. Treninglar odatda, kichik guruhlarda o'tkaziladi va talabalar o'zaro muloqot orqali bilim almashadilar. Treninglarning asosiy maqsadi shundan iboratki, ular orqali talabalarda qator kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish mumkin bo'ladi (masalan, pedagogik ko'nikmalar, kommunikatsiya texnikalari, jamoada ishlash va muvofiqlashuv ko'nikmalari, shuningdek, qiyin vaziyatlarni hal qilishda ijodiy yondashuvni rivojlantirish).

Interaktiv mashg'ulotlar – bu ta'lim jarayonida talabalar bilan o'qituvchi o'rtasida faol muloqotni ta'minlaydigan metodlar yig'indisi. Bu metodda talabalarining bilim olishdagi ishtiroki kuchayadi, fikrlash va muloqot qilish ko'nikmalari rivojlanadi. Interaktiv mashg'ulotlar orqali talabalar butun dars davomida faollik ko'rsatadilar va o'z fikrlarini mustaqil bayon qilishga o'rganadilar.

Amaliy tajriba: nazariy bilimlar real hayotiy vaziyatlarda qo'llaniladi.

Ijodiy fikrlash: o'quvchilarda yangi g'oyalar va yechimlar ishlab chiqish ko'nikmasi shakllanadi.

O'zaro muloqot: talabalarining bir-biri bilan ishlash va o'zaro fikr almashish qobiliyatlari rivojlanadi.

Treninglar va interaktiv mashg'ulotlarning shakllari:

rol o'yinlari: Talabalar muayyan kasbiy vaziyatda (masalan, sinfdagi dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi sifatida) ishtirok etib, o'z vazifalarini bajaradi.

Misol: Guruhda “o'zaro o'qituvchilarni kuzatish va takliflar berish” sessiyasi.

Misol: Trening va interaktiv mashg'ulotni tashkil etish
Mashg'ulot mavzusi: “Samarali muloqot qilish ko'nikmalari”

Boshlanish: Talabalarga qisqacha nazariy ma'lumot beriladi (muloqot turlari, samarali aloqa tamoyillari).

Asosiy qism: Talabalar kichik guruhlarga bo'linib, turli vaziyatlarni (o'qituvchi-o'quvchi, ota-ona-o'qituvchi) hal qilishni mashq qilishadi.

Tahlil: Har bir guruh o'z ishini taqdim etadi va boshqa guruhlarning fikrlarini tinglaydi.

Refleksiya: Talabalar mashg'ulot haqida o'z fikrlarini bildiradi va natijalar baholanadi.

Xulosa. Treninglar va interaktiv mashg'ulotlar talabalarni faollikka, ijodiy yondashuvga va kasbiy rivojlanishga yo'naltiruvchi muhim metodlardan biridir. Bu jarayon talabalarni mustaqil va hamkorlikda ishlashga, real vaziyatlarda o'zlarini sinab ko'rishga yordam beradi. Zamonaviy ta'lim jarayonida ushbu metodlarni qo'llash talabalarining nafaqat bilimlarini, balki ko'nikmalarini ham rivojlantirishga imkon yaratadi.

Portfolio yaratish: Talabaning ijodiy ishlari va pedagogik faoliyat natijalarini jamlash orqali uning rivojlanishini monitoring qilish.

Refleksiya va o'zini baholash: Talabalarni o'z faoliyatlarini tahlil qilishga o'rgatish, bu orqali ularda o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish.

Ta'lim jarayonida akmeologik yondashuvning afzalliklari.

Akmeologik yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonining quyidagi afzalliklarini ajratish mumkin:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim: Har bir talabaga individual yondashuv qo'llaniladi.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish: Talabalarda ijodkorlik va innovatsion fikrlashni shakllantirishga ko'maklashadi.

Kasbiy tayyorgarlikni oshirish: Amaliy ko'nikmalar va nazariy bilimlar uyg'unligi ta'minlanadi.

Xulosa. Akmeologik yondashuv asosida talabalarni ijodiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biridir. Ushbu yondashuv talabalarining shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ko'maklashib, ularni kelajakda malakali mutaxassis sifatida shakllanishiga asos yaratadi. Mazkur yondashuvni ta'lim jarayoniga keng joriy etish orqali ijodkor va tashabbuskor kadrlar tayyorlashga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduqodirov A. “Akmeologik yondashuv va ta'lim texnologiyalari” – Toshkent, 2020.
2. Hasanov B. “Ijodiy fikrlashni rivojlantirish metodlari” – Samarqand, 2019.
3. Nazarova D. “Ta'limda innovatsion yondashuvlar” – Buxoro, 2021.
4. Kenjayeva D. “Pedagogik akmeologiya” – Toshkent, “Lesson press”. Darslik. 2022-y.
5. Kenjayeva D. “Akmeshaxsni tarbiyalash texnologiyasi” – Qarshi, Monografiya. 2024-y.

Shohida ABDIYEVA,
TISU 2-kurs magistranti

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KASB-HUNARGA QIZIQTIRISHNING ILMYIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotasiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kasb-hunarga qiziqtirishning shakl, usul, vositalari haqida batafsil keltirilgan.

Kalit so'zlar: *boshlang'ich sinf, o'quvchi, kasb-hunar, qiziqtirish, ilmiylik.*

Annotation: this article describes in detail the forms, methods, and tools of primary school students' interest in the profession.

Key words: *elementary class, student, profession, interest, scientific.*

Аннотация: в данной статье подробно описаны формы, методы и инструменты формирования интереса учащихся начальных классов к профессии.

Ключевые слова: *начальный класс, ученик, профессия, интерес, научный.*

Kirish. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyingi yillarda ta'limni isloh qilish bo'yicha ko'pgina qaror va qonunlar qabul qilindi, ularda o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirish vazifalari ham yetarlicha o'z ifodasini topmoqda.

Hozirgi kunda kasb-hunarga yo'naltirishdan maqsad o'sib kelayotgan yosh

avlodni kasbni ongli ravishda tanlashga tayyorlashdir. Insoning ilmga bo'lgan chanqoqligini qondiruvchi birinchi ziyo chashma bu maktabdir. Maktabda o'quvchi shaxs sifatida shakllana boshlaydi. Unda dastlabki kasbiy hissiyotlar yuzaga keladi. Bular mehnatsevarlik, mehnat qilish zarurligini tushunish va anglash, o'z ishini rejalashtira va nazorat qila bilish, ish o'rnini to'g'ri tashqil qilish, iqtisodiy - tejamkorlik, sabr – toqatlilik, talabchanlik, topshiriqni bajarishning eng oqilona usuli (yetti o'lchab, bir kes) tanlab ola bilish hamda vaqtni tejash va shu kabilardir. Bolalarni kasblar olamiga asta – sekin olib borish, ularni shu olamda mo'ljal olishga o'rgatish zarur.

Usular va adabiyotlar tahlili. O'qituvchi darslarda kuzatish, u bilan suhbatlashish, bola faoliyati mahsulini tahlil qilish jarayonida uning ba'zi xususiyatlarini qobilyat, qiziqish, moyilliklarni payqab oladi, bu xislat va fazilatlarini shakllantirib boriladi. Bular kasbni belgilashda asosiy omil bo'lishi mumkin. Bolaning kasbiy muhim xislat va fazilatlarini barvaqt aniqlash va esa keyingi o'z xususiyatlariga qarab kasbni to'g'ri tanlash, uni muvaffaqiyatli ravishda o'zlashtirish, mehnatda yuksak natijalarga erishish imkonini berishi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarda kasb-hunar tushunchalarini shakllantirishning asosiy maqsadi yoshlarni o'zining hayot yo'lini to'g'ri belgilashlarida o'zining qobilyat, qiziqish va moyilligini hamda ijtimoiy ehtiyojni hisobga olgan holda kasb tanlashlarida ko'maklashishdan iboratdir.

Bizning jamiyatimiz har bir shaxsning qobiliyatlari to'liq namoyon bo'ladigan, yuqori samara bilan ishlay oladigan faoliyat va shart-sharoitlar bilan band bo'lishiga

katta e'tibor berilmoqda.

Natijalar. Ko'pincha mustaqil Hamdo'stlik mam-lakatlarida hamda Respublikamiz olimlari o'tkazgan ilmiy – tadqiqotlarida bolajonlarning rayiga, hoxish – istagiga, intilishini uch bosqichda tajriba – sinov ishlarini umum-lashtirib tahlil qilmoqdalar. Diagnostik suhbatlar – yakka tartibda yoki jamoa tarzda o'tkazilishi mumkin. Psixolog olim K.M.Gurevich 3-4 yoshli bolalarda motivlarning bir-lamchi tobeligi va dastlabki irodaviy harakatning paydo bo'lishini tatbiq etib, bolaga o'yinchoqni olishdan – oldin o'zi yoqtirmagan ishni bajarish topshirig'ini bergan. Olingan ma'lumotlardan quyidagilar ma'lum bo'ldi:

a) – maktabgacha yosh davrida ezgu orzular yo'lida harakat qilish imkoniyati tug'iladi;

b) – ushbu orzularning bevosita bog'liq sabablari bevosita sabablarga qaraganda ertaroq paydo bo'ladi; v) – bevosita idrok qilinadigan narsalarga aloqador hoxishni bajarishga qaraganda, narsaning o'ziga aloqador xohishni bajarishni muayyan muddatga kechiktirish osonroq. Xulosa qilib buning zamirida bolaning mayinligi, niyati, orzusi, kasbga qiziqishi, hoxish – istagi va tilagining mazmuni hamda xususiyatidagi o'zgarishlar yotadi. Maktab o'quvchilarining tahminan 25-30% foizida tanlangan kasbga nisbatan kasbga barqaror qiziqishlar boshlang'ich kichik yoshlaridayoq shakllanar ekan. O'qituvchining vazifasi:

- o'quvchilarning qiziqishlarini mumkin qadar oldinroq aniqlashda va davlat, hokimiyat, mahalla, oila talab – ehtiyojlariga muvofiq shu qiziqishlarni rivojlantirishda, inson shaxsini har tomonlama uyg'un barkamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

O'quvchini mehnat qilishga o'rgatish, nafaqat mehnatni sevishga u bilan shunday uyg'unlashishiga ko'niktirish kerakki, mehnat uning vujudiga singib ketsin. Ularni kasb hunarga yo'naltirish, orqali biror kasb egasi bo'lishida, o'quvchilar mehnatisiz biror – bir narsaga erisha olmasliklarini tushunib yetsinlar.

Birinchi bosqichda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar ta'lim – tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat Ta'lim

Standarti talablarida ham maktabgacha yoshdagi bolalarning odob – axloqi va mehnatga layoqatligi jihatdan yetuk komil inson bo'lishiga katta e'tibor beriladi. Bolalar ilk yoshdan boshlab mehnatsevar bo'lish va boshqalar mehnatni qadrlash kabi odatlarga o'rgatiladi.

Mana shu odatlar bolani odob-axloqli, mehnatga moyillik qilib tarbiyalash mazmunining asosini tashkil etadi. Odob – axloqi va mehnatga layoqatligiga oid egallashlari zarur bo'lgan minimal talablari:

- kattalar mehnatini qadrlash lozimligini bilish;
- o'ziga ishonish;
- o'z -o'ziga xizmat qilish;
- uyda yoki bog'cha hovlisida yengil yumushlarni bajara olish;
- mahallada yoki tomorqada mehnat qilayotgan katalarga ko'maklashish;
- o'yinchoqlarni va xona anjomlarini o'z joyiga qo'yishni bilish;
- mehnatsevar bo'lish yaxshi odat ekanligini anglash va x.k.lar amalga oshirilsa, boshlang'ich kichik yoshdagi, o'rta yoshdagi, katta yoshdagi, akademik litsey, kasb-hunar kolleji bosqichlarning asosi hisoblanadi.

Ikkinchi bosqichi o'quvchilarni kasbga yo'naltirish (boshlang'ich kichik yoshdagi) quyidagi mazmuniga ega bo'ladi:

Boshlang'ich I–IV-sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirishdan maqsad ularni mehnat, kasb turlari, yo'nalishlari bilan tanishtirib borish va o'quvchilarda kasb faoliyatiga bo'lgan qiziqishni shakllantirishdan iborat.

Bunga erishish uchun ularda mehnat va kasb olami haqida tasavvur paydo qilish,

- o'quvchilar bilan "Kim bo'lsam ekan", "Kasbim-faxrim", "Kasb tanlash - hayot ko'zgusi" kabi mavzularida suhbatlar, bahslar munozaralarni tashkil qilish;
- o'z-o'zini baholay bilish malakalarini hosil qilish;
- intellektual va hissiy irodaviy hislarni rivojlantirish:

Bu yoshdagi bolalar mehnatga halol munosabatda bo'lishlari uning xayotdagi va jamiyatdagi rolini tushuna bilishlarida, har qanday ish bajarish uchun intiluvchanlik,

tabiat, atrof-muhitga va uning boyliklarini saqlash va boshqalarda.

Uchinchi bosqich (5-7 sinflar) o'rta yoshdagi o'quvchilarda kasb tanlash va jamiyatda o'z-o'rnini belgilash bilan bog'liq xolda o'zida bo'lgan qiziqish, qobiliyat va ma'naviy-moddiy qadriyatlarini anglashga zamin yaratish. Bo'lg'usi kasbiy faoliyatlar bu yoshdagi o'quvchilar uchun hayotdagi o'z o'rnini aniqlash va tayyorlashda turtki, o'z shakllanish imkoniyatlarini ochishi va kasb tanlashi uchun zarur bo'ladi.

Tahlil va muhokama. Kasb to'g'ri tanlanganda ular o'z qobiliyatlari va qiziqishlarini yaxshiroq ro'yobga chiqishlari hamda jamiyatga ko'proq naf keltirishlari mumkin. O'quvchilarni kasb tanlashda yo'llash, kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining asosiy ijrochisi mehnat ta'limi o'qituvchisi – uslubchi zimmasiga tushadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida kasb tanlashga yo'llash va mehnat ta'limidan dars beradigan o'qituvchilar yuqori natijalarga, dars samaradorligini erishishi uchun albatta quyidagilarga e'tiborni qaratish kerak.

- zamonaviy ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning va ma'naviyat-moddiy qadriyatlarining mohiyatini chuqur tushuna bilish;

- pedagogik texnologiyani va innovatsiyani asl mohiyati va uslublarini tushunib qo'llay bilishi;

- o'quvchilarni mustaqil kasb hunar o'rganishga, erkin kasb tanlashga sharoit yaratish;

- pedagogik texnologiyalardan foydalanar ekan, o'zi ham yangi yaratuvchi yangi xilma-xil ("Kasb darsi", "Aqliy hujum", "Zinama-zina") uslublarni o'ylab topishi, amalda qo'llashi;

- an'anaviy darslar orqali o'qituvchilarning yakka tartibda (individual) ishlashga erishish;

- test topshiriqlarni o'quvchi faoliyati darajalariga mos holda tuzish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi shart.

Xulosa. O'qituvchi uslubchilarimiz uchun bugungi kun talabi mana shulardan iborat. Xalqimizda ilmu - hunar ulug'lanib kelgan. Agar inson biron – bir kasbni mukammal egallasa, hunar unga huzur bag'ishlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Abdullayev N.** *Kasb-hunar ta'limining nazariy asoslari.* – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2010
2. **Xolmatov Sh.** *Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarda kasbga qiziqishni shakllantirish.* – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2015.
3. **Shukurov A.** *Kasb-hunar ta'limining psixologik asoslari.* – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2013.
4. **Davlatov B.** *Ta'limda kasb-hunar ko'nikmalarini rivojlantirish.* – Toshkent: Ma'naviyat, 2014.
5. **Piaget J.** (1970). *The Child's Conception of the World.* London: Routledge.
6. **Tursunov Sh.** *O'quvchilarda kasb-hunar ta'limi va kasbga qiziqishni shakllantirish.* – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2007.
7. **Aristova M.** *Pedagogika va kasb-hunar ta'limi: metodik yondashuvlar.* – Moskva: Pedagogika nashriyoti, 2009.
8. **Gorbatov, V.** (2016). *Professional development in primary education.* New York: Routledge.
9. **Vygotsky, L. S.** (1986). *Thought and Language.* Cambridge: MIT Press.

BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARNI MANTIQUIY FIKRLASHGA O'RGATISH METODIKASI

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga oid metod, shakl va vositalar haqida batafsil aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *boshlang'ich sinf, matematika, mantiqiy fikrlash, metodika.*

Аннотация: в статье подробно описаны методы, формы и средства логического мышления учащихся на уроках начальной математики.

Ключевые слова: *начальный класс, математика, логическое мышление, методика.*

Annotation: this article describes in detail the methods, forms, and tools for students' logical thinking in elementary mathematics classes.

Key words: *elementary class, mathematics, logical thinking, methodology.*

Kirish. Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish, matematik bilimlarni o'zlashtirish jarayonini samarali tashkil etish uchun muhim ahamiyatga ega. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish o'quvchilarga nafaqat matematikaga oid muammolarni hal qilishda, balki kundalik hayotda ham to'g'ri qarorlar qabul qilishda yordam beradi.

Usullar va adabiyotlar tahlili. Quyidagi metodikalar boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy fikrlashga o'rgatishda qo'l keladi:

1. Muammo yechish va vaziyatlarni tahlil qilish

Muammoni mantiqiy tarzda tahlil qilish: o'quvchilardan aniq bir muammoni qanday yechish kerakligini so'rab, yechimni topish jarayonida mantiqiy yondashuvni o'rgatish zarur. Masalan, oddiy matematik masalalar, tenglama yoki geometriya masalalarini yechishda ularni muammoni bo'laklarga ajratib, har bir qadamni izohlashga o'rgatish.

Vaziyatli masalalar: o'quvchilarga real hayotdagi vaziyatlarga oid masalalar berib, bu masalalarni yechish uchun qanday mantiqiy qadamlarni amalga oshirish kerakligini ko'rsatish. Masalan, "Agar sizda 5 ta olma bo'lsa, 3 tasini do'stingizga bersangiz, qancha olma qoladi?" kabi masalalar.

2. Tajriba va kuzatuvlar

Kuzatish va tahlil qilish: o'quvchilarni matematikaviy obyektlarni, masalan, shakllar yoki raqamlar bilan ishlashga undash. Shakllarni bo'laklarga ajratish, ularning o'xshashliklarini va farqlarini ko'rish, natijalarni taqqoslash mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

Tajriba o'tkazish: darsda matematik tajribalar o'tkazish orqali o'quvchilarni kuzatishga va tajriba natijalariga asoslangan mantiqiy xulosalar chiqarishga o'rgatish.

3. Matematik tilni o'rgatish

Mantiqiy operatorlar: "va", "yoki", "emas" kabi mantiqiy operatorlar bilan ishlashni o'rgatish. Masalan, "Agar bu haqda to'g'ri yoki noto'g'ri degan qaror qabul qilishni

o'rgansalar, ular matematik fikrlashni va qarorlar qabul qilishni yanada chuqurlashtiradilar".

Natijalar. Matematik izohlar va tushuntirishlar: O'quvchilarga har bir yechimni qanday qilib izohlashni o'rgatish. Masalan, biror masala yoki yechimni qanday asoslab berishni va mantiqiy xulosalar chiqarishni.

4. O'yinlar va interaktiv mashqlar

Mantiqiy o'yinlar: dars jarayonida matematik o'yinlardan foydalanish (masalan, "Sudoku", "Tangram", "Krossvordlar" va boshqalar). Bu o'yinlar bolalar mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Gruppaviy mashqlar: o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib, har bir guruhga matematik masalalarni yechishni topshirish. Bunda guruhlar o'z yechimlarini bir-birlari bilan taqqoslab, to'g'ri natijalarga qanday erishganini muhokama qilishadi.

5. Qiyinlashtirish va takrorlash

Bosqichma-bosqich murakkablikni oshirish: matematik masalalarni boshlang'ich darajadan boshlab, asta-sekin murakkablashtirish. Bu mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi, chunki o'quvchi dastlab oddiy masalalarni hal qilganidan keyin murakkabroq masalalarga o'tadi.

Takrorlash va mustahkamlash: o'quvchilarga o'rgatilgan mavzularni takrorlash orqali bilimlarini mustahkamlash, shu bilan birga ularni mantiqiy xulosalar qilishga undash.

6. Savollar va javoblar

Savollar berish: o'quvchilarga mavzuga oid savollar berish, masalan, "Nima uchun bu masalaning yechimi aynan bunday bo'ladi?" yoki "Agar shartlar o'zgarsa, qanday natija bo'lar edi?" kabi savollar orqali ularning mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirish.

7. Tasviriy va grafikli vositalardan foydalanish

Diagrammalar va grafiklar: Matematik masalalarni tasviriy ko'rinishda ko'rsatish va o'quvchilarni bu tasvirlarni tahlil qilishga o'rgatish. Bu usul bolalar uchun mantiqiy fikrlashni vizual ravishda rivojlantiradi.

Shu tarzda boshlang'ich sinfda matematikani o'rgatish jarayonida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun o'quvchilarga izchil va qiziqarli metodlarni qo'llash mumkin. Bu o'quvchilarning nafaqat matematik ko'nikmalarini, balki umuman fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini ham yaxshilaydi.

Tahlil va muhokama. Albatta! Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan yana bir nechta metodikalarni keltiraman:

8. Kognitiv jarayonlarni rivojlantirish.

Tasavvurlarni shakllantirish: o'quvchilarga geometrik shakllar yoki oddiy raqamlar tasvirlari orqali turli xil tasavvurlarni rivojlantirishni o'rgatish. Masalan, o'quvchilarga shakllarning o'xshashliklarini aniqlash, ko'plab shakllar orasida o'xshashliklarni topish yoki ularning qanday o'zgarishini kuzatish.

Xulosa chiqarish: o'quvchilarga ma'lum bir muammoni yechishdan oldin, avval uning yechimini qanday topish mumkinligini taxmin qilishni o'rgatish. Bu usul mantiqiy fikrlashni yanada kuchaytiradi.

9. Analitik fikrlashni rivojlantirish

Qiyoslash va tasniflash: o'quvchilarga turli xil matematik obyektlar (masalan, sonlar, shakllar yoki raqamlar ketma-ketligi) berib, ularni qiyoslash va tasniflashni o'rgatish. Misol uchun, turli xil shakllarni (to'rtburchak, uchburchak, doira va boshqalar) tasniflash va ular orasidagi farqlarni va o'xshashliklarni topish.

Ketma-ketliklarni o'rganish: raqamlar yoki shakllar ketma-ketligini taqqoslash, ularning qanday tartibda joylashganini tushunish va yangi ketma-ketliklarni yaratishga harakat qilish.

10. Matematik tasavvurlarni o'zgartirish

Shakllar va raqamlarni o'zgartirish: o'quvchilarga shakllarni yoki raqamlarni o'zgartirishni ko'rsatish, masalan, shaklni aylanma, yuqoriga yoki pastga o'zgartirish orqali, yangi shakllar qanday hosil bo'lishini tushun-

tirish. Bu mantiqiy tafakkur va mantiqiy muvozanatni rivojlantiradi.

Qismlarni birlashtirish: o'quvchilarga kichik qismlar orqali katta bir shakl yoki raqamni birlashtirishni o'rgatish. Masalan, turli xil kichik geometrik shakllardan katta shakl hosil qilish.

11. Reja tuzish va mantiqiy qadamlar

Reja tuzish: o'quvchilarga matematik masalani hal qilish uchun oldindan reja tuzishni o'rgatish. Masalan, muammoning yechimiga qanday erishishni bosqichma-bosqich tushuntirishni talab qilish, bu esa mantiqiy fikrlash va natijalarga erishishda muhim ahamiyatga ega.

Bo'laklarga ajratish: o'quvchilarga murakkab masalalarni oddiy bo'laklarga ajratish va har bir bo'lakni mantiqiy ravishda yechishni ko'rsatish.

12. Xatoliklarni tahlil qilish

Xatoliklarni tushunish va tahlil qilish: o'quvchilarga o'zlarining yoki boshqalarining matematik xatoliklarini tahlil qilishni o'rgatish. Xatoliklarni tushunish, masalan, qanday qilib noto'g'ri natijaga olib kelishini va qanday qilib xatolarni tuzatishni ko'rsatish. Bu mantiqiy fikrlarni to'g'ri tahlil qilish va xatolardan o'rganish imkonini beradi.

Savol-javoblar: o'quvchilarni masala yechish jarayonida xatoliklar topishga va ularga mantiqiy izoh berishga undash. Savollar yordamida o'quvchilar yechimdagi noaniqliklarni hal qilishadi va ularni to'g'rilashni o'rganadilar.

Xulosa. Vizual yordamlar: o'quvchilarga ko'rgazmali materiallar (diagrammalar, shakllar, raqamli kartochkalar) orqali masalalarni hal qilishni o'rgatish. Masalan, geometrik shakllarni tasvirlash, har bir shaklni qismlarga ajratish va ularning qanday o'zgarishini kuzatish.

Dasturiy vositalardan foydalanish: darslarda matematika bo'yicha dasturiy ta'minotlar (masalan, GeoGebra, Khan Academy)dan foydalanish orqali o'quvchilarga yanada interaktiv va vizual tarzda bilimlarni o'zlashtirish imkonini berish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alimov, A. A. (2011). "Matematika o'qitish metodikasi".
2. Zarirov, M. I., & Rahmatov, F. A. (2015). "Boshlang'ich sinfda matematika o'qitish metodikasi".
3. Piskunov, A. V. (2010). "Mantiqiy fikrlash va matematik o'qitish".
4. Nizamov, S. T. (2018). "Pedagogik texnologiyalar va metodikalar".
5. Tsvetkov, A. V. (2012). "Matematika darslarida innovatsion texnologiyalar".
6. Shirinova, L. (2017). "Boshlang'ich sinf matematika darslarida metodik yondashuvlar".
7. Kornilov, A. N. (2005). "Matematika va mantiq: Asosiy tamoyillar".
8. Pillay, D. (2008). "The Role of Logic in Mathematics Education".
9. Ergasheva, G. G. (2020). "Innovatsion yondashuvlar asosida boshlang'ich sinf matematika darslarini tashkil etish".

Akbarali TURAYEV,
 Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
 2-bosqich magistranti

MASALA YECHISHGA O'RGATISH ORQALI BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MATEMATIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarga o'rgatiladigan matematik tushunchalar tizimining mazmun-mohiyati hamda o'quvchilarning matematik tushuncha va tafakkurini rivojlantirishda murakkab masalalarning o'rni va ahamiyati xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: matematika, matematik bilimlar, matematik tushuncha va tafakkur, matematik masalalar, murakkab masala, masalani yechish.

Аннотация: в данной статье рассматривается сущность системы математических понятий, изучаемых учащимися на уроках начальной математики, а также роль и значение сложных задач в развитии математического понимания и мышления учащихся.

Ключевые слова: математика, математические знания, математическое понимание и мышление, математические задачи, сложная задача, решение задач.

Annotation: this article discusses the content of the system of mathematical concepts taught to students in elementary mathematics lessons and the role and importance of complex issues in the development of students' mathematical understanding and thinking.

Key words: mathematics, mathematical knowledge, mathematical understanding and thinking, mathematical problems, complex problem, problem solving.

Kirish. bugun zamon tez sur'atlar bilan o'zgarib boryotgan bir sharoitda, har bir sohada olib borilayotgan ishlar ham, ularning ko'lamini ham o'smoqda. Ayniqsa hozirgi asrimiz axborot – kommunikatsiya, zamonaviy texnika va texnologiyalar asridir. Biz bilamizki, har qanday rivojlanish asosida aniq hisob-kitoblar yotadi. Bu esa o'z navbatida matematika fani va uni o'rganishga, rivojlantirishga, uning yutuqlaridan samarali foydalanishga bo'lgan talabni kuchaytiradi. Ushbu talablardan kelib chiqqan holda butun dunyoda, jumladan, yurtimizda ham bu sohaga bo'lgan e'tibor kundan kunga kuchaymoqda. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi". Haqiqatdan ham ushbu jumlar zamirida keng ma'no-mazmun yotibdi.

Usullar va adabiyotlar tahlili

Talabalarda matematik tafakkurni va matematik kompetensiyalarni rivojlantirish, matematika fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish, matematika darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish, bo'lajak matematika fani o'qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorlash masalalari respublikamiz olimlaridan B.Abdullayeva, M. Jumayev, B.T.Ismoilov, D.Aduvaliyeva, D.N.Abdullayeva, G.Artiqova, M.Saidovalar tomonidan o'rganilgan bo'lib, matematik tafakkurni rivojlantirishning ahamiyatiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Natijalar

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini shakllantirish maqsadida qiziqarli matematik o'yinlar, boshqotirmalar, geometrik masala va mashqlar, muam-moli arifmetik masalalar, hazil masalalar, matematik mazmundagi topishmoqlardan vosita sifatida foydalanish o'rinlidir. Mantiqiy o'yinlar o'quvchilar bilimini boyitishga ularda aqliy faoliyatni o'stirishga yordam beradi. Mantiqiy o'yinlar, boshqa termalar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ulardagi o'quvchilarni o'ylashga majbur etadigan sharoit, ularning qiziqarliligi o'quvchilarda aqliy va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Qiziqarli matematik o'yinlar, boshqotirmalar o'quvchilar tafakkurining rivojlanishiga har tomonlama ta'sir etuvchi vosita hisoblanib, ularning yordamida aqliy va irodaviy rivojlanish amalga oshiriladi. Fazoviy hayol, mantiqiy tafakkur maqsadga qaratilganligi va maqsadga intilganlik, amaliy vazifalarni yechish uchun amallarning yo'llarini mustaqil qidirish va topish bularning hammasi birgalikda matematikani muvaffaqiyatli egallashlari uchun talab qilinadi. Bola maktab ostonasiga qadam qo'yar ekan, o'zining avvaldan mavjud bo'lgan qiziqishini yo'qotmaydi, u avvalgidek o'yinga juda o'ch bo'ladi. Hatto qiziqarli masalalar ham bolalarda faollikni uyg'otib, tafakkurni rivojlantiradi.

Tahlil va muhokama

Boshlang'ich sinfdanoq biz bolalarga matematika fanidan saboq berar ekanmiz, matematik masalalar bilan

ishlash ko'nikmasini shakllantirib boramiz. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga bugungi kunga kelib quyidagi 3 xil turdagi masalalar o'rgatilmog'qa:

– birinchisi, sodda masalalar – bunday masalalar qisqa hajmli, bir amal bajarish bilan yechiladigan, o'quvchilar uchun tushunarli masalalardir;

– ikkinchisi, murakkab masalalar – yechilishi uchun bir nechta o'zaro bog'liq amallarni bajarishni talab qilindigan masalalardir;

– uchinchisi, mantiqiy masalalar – o'quvchilarni fikrlash qobiliyatini o'stiradigan, ularni mantiqiy mulohazalar chiqarishga da'vat etadigan masalalardir.

Biz bugun kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning matematik tushuncha va tafakkurini rivojlantirishda murakkab masalalarning o'zni va ahamiyati xususida to'xtalamiz. Murakkab masalalarni yechish boshlang'ich sinf o'quvchilar uchun biroz o'rganilishi qiyin bo'lgan mavzular qatoriga kiradi. Chunki yosh o'quvchilarning sodda masalalardan murakkab masalalarga o'tish jarayoni ularning fikrlash qobiliyatlaridan kelib chiqadi. Aksariyat bolalar bu masalalarni oson qabul qilsa, ko'pchilik o'quvchilar qiyinchilik sezadilar.

Murakkab masalalar ustida ishlash jarayonini yaxshi o'zlashtirgan o'quvchi masala yechimini topishga qiynalmaydi. Murakkab masalalar ustida ishlash jarayonida biz boshlang'ich sinflarda 3xil turdagi masalalarga duch kelamiz: a) yig'indi va qo'shiluvchilardan biri ma'lum bo'lib, qo'shiluvchilarni taqqoslashni talab qiladigan masalalar.

Bu kabi masalalarni har doim ham yechimini ifoda yordamida tasvirlab bera olmaymiz. Ba'zan bunday masalalarning bosh savolini qo'yishda biz yechimini alohida amallar bilan yozilishiga murojaat qilamiz. Quyidagi masalani ko'rib chiqamiz:

Sinfda 37 nafar o'quvchi bor, ulardan 20 nafari o'g'il bola, qolganlari qiz bolalardir. Sinfda qizlar o'g'il bolalarga nisbatan nechta kam?

Masalani tahlil qilamiz: dastlab qiz bolalar sonini aniqlab olamiz. Buning uchun jami o'quvchilar sonidan o'g'il bolalar sonini ayiramiz. Shunday qilsak qiz bolalar soni kelib chiqadi. $37-20=17$.

Shundan so'ng ayrim o'quvchilarda qiyinchiliklar kelib

chiqadi. Ularning aksariyati shu joyida masala yechimini topdim deb o'ylaydi va asli bosh savol yodlaridan ko'tariladi. Bizdan yuqorida qiz bolalar soni emas aksincha, ularni o'g'il bolar sonidan nechta kamligi so'ralgan. Biz har doim shu o'rinda o'quvchilarga har bir savolga e'tiborli bo'lish kerakligini eslatishimiz kerak. Chunki asosiy maqsadni aniqlab olmay turib natijaga yetib bo'lmaydi.

Har qanday masala yechishning asosini masalaning qisqa shartini to'g'ri tuzish, masalaning asosiy savolini to'g'ri tushunish, asosiy va qo'shimcha ma'lumotlarni farqlay olish va uning amaliy hayotdagi o'rnini aniq ko'rsatib berish orqali amalga oshirishimiz mumkin.

Masalan: bolalar bog' qilish uchun har birida 4 tadan olma ko'chati bo'lgan 8 qator va yana har birida 6 tadan 3 qator o'rik daraxti ko'chatlarini ekishdi. Bolalar bog' qilish uchun jami nechta ko'chat ekishgan? Ifoda tuzish orqali quyidagi ko'rinishga keltiramiz:

$$1) 4 \cdot 8 + 6 \cdot 3 = 32 + 18 = 50$$

$$2) (4 \cdot 8) + (6 \cdot 3) = 32 + 18 = 50$$

Birinchi ko'rinishda biz hammasini ko'chatlar deb umumiy oldik. Ikkinchi ko'rinishda esa har bir ko'chatni alohida turiga ko'ra ajratdik. Bizdan o'quvchini har ikkala holatda ham muqobil yechimga yo'naltirish talab etiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini shakllantirish uchun, ularning matematik bilimlarini ongli ravishda o'zlashtirib olishlariga yordam beradigan faolliklarini oshiradigan va olgan bilimlarini mustahkamlaydigan, mustaqil ishlash malakalarini tarbiyalovchi ta'lim uslublari yuqori darajada rivojlangan bo'lishi kerak, bunday ta'lim uslublaridan yana biri umumlashtirishdir.

Xulosa. Mavzularni chuqurlashtirish hamda mustahkamlashda umumlashtiruvchi takrorlash darslari imkoniyat yaratadi. Umumlashtirib, o'rganish to'g'ri tashkil etilsa, talabalarda barcha mavzulardagi umumiy g'oyalarni ajratishga imkoniyat yaratadi. Bunday holda o'quvchilarning bilimi yanada mustahkamlanib, matematik madaniyati oshadi.

Shunday qilib, o'quvchilarda turli xildagi matematik masalalar yechish orqali matematik qonuniyatlarni amalda tatbiq etish malakalari shakllanadi hamda matematik tafakkuri birmuncha o'sib rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bikbayeva N.U. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi". – T. "O'qituvchi", 1996-yil.
2. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G' "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi". – Tosh. 2005-yil.
3. Jumayev M.E „Boshlang'ich matematika nazariyasi va metodikasi". – T.: "Arnoprint", 2005-yil
4. Toshmurodov.B. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishni takomillashtirish". – T.: "O'qituvchi", 2000-yil
5. To'rayev.A. (2024). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tafakkurni shakllantirish xalqaro baholash dasturi misolida. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 4(1), 87-90.
6. Toxirovich, B. I. (2022). Dunyo ta'lim tizimida konstruktiv masalalarning o'qitilishi (boshlang'ich sinflar misolida). *Conferencea*, 127-131.



Nafisa AHMATOVA,
 Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabasi

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA TABIIY FANLARNI O'QITISHDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiiy fanlarni o'qitishda kreativlikni rivojlantirish haqida fikr mulohazalar keltirilgan. Shu bilan birga boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy fanlarni o'qitishning ahamiyati haqida ham so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, tabiiy fan, qobiliyat, individ, intellekt, tabiat, tasavvur, metod.

Аннотация: в данной статье представлены идеи о развитии творческих способностей при обучении естественному учащимся младших классов. В то же время обсуждалась и важность преподавания естественных наук ученикам начальной школы.

Ключевые слова: творчество, естествознание, способности, личность, интеллект, природа, воображение, метод.

Annotation: this article presents ideas about the development of creativity in teaching natural sciences to elementary school students. At the same time, the importance of teaching natural sciences to elementary school students was also discussed.

Key words: creativity, natural science, ability, individual, intellect, nature, imagination, method.

Hozirgi zamonda yana bir katta o'zgarish. XX asr o'rtalarigacha insonlar ishga kirish uchun asosiy hujjat sifatida o'z diplomlarini taqdim etishar edi. Diplomni esa haqiqiy o'qigan talaba olardi. Ha, hozir ham ko'p ish beruvchilar diplom talab qiladi, ammo bu asosiysi va eng muhimi emas, muhimi sizda "creativity" hamda "critical thinking" kabi qobiliyatlar ham bo'lishi kerak. Hattoki juda ko'plab xorijiy hamda professional bilim talab qilmaydigan kompaniyalar, xodimlarni ishga yollash uchun "aptitude test" nomli tushuncha o'ylab topishdi. Bu xodimning kreativligi va qiyin vaziyatlardan qanday chiqishini tekshiradigan test ko'rinishiga keldi.

Zamonaviy dunyoning innovatsiyalariga moslashish, doimiy yangilanuvchi jamiyat hayotiga yosh avlodni tayyorlash va uni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish jarayonlarida faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirish oliy ta'lim muassasasi pedagogining muhim kasbiy vazifasi hisoblanadi. Kreativlik ta'lim jarayonini tashkillashtirishni o'zida mujassamlashtirib, kreativ ta'lim jarayonini qurish, ta'lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko'nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Kreativlikning mohiyati - intellekt insonning aqliy salohiyati bo'lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo'naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi. Kreativlik atamasi Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi. J. Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

- fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olish;

- o'ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish (fantaziya).

Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro'yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta'lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida interfaol o'qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishni keng tatbiq etish imkoniyatlari yaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish" kabi ustuvor vazifalar belgilanib berilgan. Shunga muvofiq interfaol o'qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun dastlab "kreativlik" tushunchasining ma'noni tushunib olish talab etiladi. "Kreativlik" tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin: Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

Tabiiy fan maktab o'quvchilariga butun borliq to'g'risida umumiy tushunchalarni beruvchi fan bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ushbu fanni o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida va samarali

o'qitish metodlaridan foydalanib kreativlik asosida dars berish muhim sanaladi.

Tabiiy fanlarni o'qitishning asosiy maqsadi, o'quvchilarni tabiatni kuzatishga o'rgatish, ularda mehnat ko'nikmalari va tabiatga ongli munosabatni shakllantirishdan iborat. Ana shu muhim talablarni bajarish, avvalo tabiat haqidagi tasavvur va tushunchalarni olishdadir.

O'quvchilarda u yoki bu tushunchani shakllantirishda narsalar to'g'risida aniq tasavvurlar hosil qilish, o'rganilayotgan materialni atrof-muhit bilan bog'lash, hissiy idrok muhim ahamiyatga ega, ya'ni tabiiy fanlarni o'rganish jarayonida olgan bilimlar asosida real borliq bilan ongli ravishda munosabat o'rnatishlari lozim.

Tabiiy fanlarni o'qitishda tasavvur muhim ahamiyat kasb etadi. Tasavvur sezgi organlar faoliyatining, xotiraning yoki tasavvur qilishning mahsulidir. Tasavvur tushunchalarning sezgili asosi hisoblanadi, biroq tasavvurlar bilan tushunchalar o'rtasida keskin chegara yo'q. 1-2- sinflarda o'quvchilar tabiiy fanlarni o'qitishda ularga tajribalar o'tkazish, kuzatishlar, ekskursiyalar orqali

o'quvchilarda tasavvurlar paydo bo'ladi. 2-sinf tabiiy fanlar darsligidagi "Rang-barang olam" mavzusida keltirilgan tajriba bunga misol bo'ladi.

Tajribaning maqsadi: oq rangning yettita rangga bo'linishiga ishonch hosil qilish.

1. Bir parcha shaffof mato oling. Singlingiz sochiga taqadigan shaffof tasma ham bo'laveradi.

2. O'qituvchingizdan shamni yoqib, stol ustiga qo'yishini so'rang.

3. Matoni ko'zingizga qo'yib, shaffof mato orqali shamning oloviga qarang.

4. Sham olovining atrofida qanday ranglar paydo bo'ldi?

5. Xulosa chiqaring.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, insonlar bir xillikdan zerikdi. Endi faqatgina kreativ o'ylagan insongina ham-madan ajralib tura oladi. Chunki "creativity" bu cheklash mumkin bo'lgan tushuncha emas. Inson ongining cheki yo'q ekan, kreativlik ham cheksizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G.Husanova. Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi fanidan ma'ruza matni. – Namangan, 2010.
2. M.I. Nuriddinova. Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2005.
3. Belskaya Y.M., Grigoryans A.G. Tabiatshunoslikni o'qitish. – T., 2000.
4. Grigoryans A. G., Malkina L.G. Atrof tabiat bilan tanishtirish. – T., 1990.
5. Yo'ldoshev J. Pedagogik innovatsiyalarni hayotga tatbiq etishning tashkiliy asoslari. J. «Xalq ta'limi», 1999.
6. Nuriddinova M.I. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi: tarixi; va nazariy asoslari. – Samarqand, 2003.
7. Davlatovna N. R. Indikatorlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatini diagnostika qilishning o'ziga xosligi // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – T., – №.1A.2022. 51-55-b.
8. Abdisamatova M., Norqobilova R. INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TARBIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH // Interpretation and researches. – 2023. – T. 1. – №. 1.
9. Norqobilova R. D. COMPONENT PARTS AND TASKS OF PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS // Modern Scientific Research International Scientific Journal. – 2023. – T. 1. – №. 6. – C. 76-83.
10. Norqobilova R. D. THE SIGNIFICANCE OF PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS IN THE EDUCATIONAL PROCESS // World of Scientific news in Science. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 48-53.

Islambek MAMBETNAZAROV,
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
 p.f.b.f.d (PhD) dotsent
 Islambekmambetnazarov95@gmail.com

AKADEMIK ESHKAK ESHISHDA QAYIQ ELEMENTLARINI TO'G'RI SOZLASH ORQALI ESHKAK ESHISH TEXNIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: ushbu maqolada akademik eshkak qayig'ining oyoq tirgagich elementini to'g'ri sozlash orqali eshkakchilarning eshish texnikasidagi o'zgarishlar tajribada sinovdan o'tkazilgan va bir qator qayiq elementlarining sozlanishi haqida xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *akademik eshkak eshish, oyoq tirgagich, eshkak dastagi, qayiq tezligi, eshkakka beriladigan kuchlanish.*

Аннотация: в данной статье представлены результаты экспериментальных испытаний изменений в технике гребли спортсменов путем правильной регулировки подножки академической гребной лодки, а также сделаны выводы о настройке элементов различных типов лодок.

Ключевые слова: *академическая гребля, подножка, рукоятка весла, скорость лодки, нагрузка на весло.*

Annotation: this article experimentally tested the changes in rowers' rowing technique by properly adjusting the footrest element of an academic rowing boat, and presented conclusions about the adjustment of elements of a number of boats.

Key words: *academic rowing, footrest, oar handle, boat speed, oar force.*

Dolzarbligi Sport natijalarining doimiy ravishda oshib borishi katta sport turlarida, shu jumladan, akademik eshkak eshish sport turida ham umumiy hodisaga aylandi. Bu holat sport fani va amaliyotini yuqori malakali sportchilarni tarbiyalashning butunlay yangi yo'llarini izlashga, ularning tayyorgarligini jadallashtirish usullarini topishga undadi [2]. Hozirgi kunda akademik eshkak eshishda eshkakchilarning yuqori darajadagi texnik tayyorgarligini tezkor shakllantirishning bir qator uslublari ishlab chiqilgan bo'lib, ular o'zaro mashg'ulot yuklari tizimiga asoslanadi. Bunday yondashuvning negizida jismoniy iqtidorli, amalda sog'lom yoshlar tegishli jadal tayyorgarlik orqali 2-3 yil maxsus texnik qobiliyatining yuqori darajasiga – oliy sport mahoratining poydevoriga erishishi mumkinligi haqidagi g'oya yotadi. Akademik eshkak eshishda qayiqni sozlash yuqori sport natijalariga erishish va jarohatlanish xavfini minimallashtirishda asosiy rol o'ynaydi [3.4]. Bu eshkak eshish texnikasining samaradorligi, jamoa a'zolarining uyg'unligi va eshkakchining qulayligiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan muhim jihattir [1].

Tadqiqot maqsadi. Akademik eshkak eshishda qayiqni to'g'ri sozlash orqali sportchilarning texnik tayyorgarligi va sport natijadorligiga erishish.


Tadqiqot obyekti. Qoraqalpog'iston Respublikasi akademik eshkak eshish bo'yicha terma jamoa a'zolarining tayyorgarlik davri.

Tadqiqot predmeti. Akademik eshkak eshuvchilarning tayyorgarlik davridagi texnik tayyorgarlikka qaratilgan mashg'ulotlar jarayoni.

Tadqiqot muhokamasi. Qayiqni sozlash har qanday ekipaj uchun g'oyat muhim; haqiqatan ham to'g'ri sozlash eshkak eshish texnikasini to'g'ri shakllantirish uchun juda katta ahamiyatga ega; noto'g'ri sozlash esa xato texnikani o'zlashtirishga olib kelishi mumkin.

Sozlash – bu eshkaklar va eshkakli uzatmalarning qo'zg'aluvchan elementlarini muayyan sportchi ishini maksimal mexanik samaradorligini ta'minlaydigan tarzda moslashtirishdir.

Sozlash eshkakchining bo'yi, vazni, kuchi va texnik imkoniyatlariga bog'liq bo'lib, ma'lumki, bular har bir sportchida turlicha bo'ladi. eshkak eshishda oyoq tirgagi balandligining eshish texnikasiga ta'siri [6.7]. BioRow kompaniyasi tomonidan oyoq tirgagi uchun yangi kuch datchigi ishlab chiqildi [5]. U faqat kuchning gorizontalk tarkibiy qismiga sezgir bo'lgan to'rtta o'lchov elementidan (oyoq uchi-tovon, o'ng-chap) tashkil topgan (1-rasm). Maxsus mahkamlagichlar yordamida bu datchikni istalgan qayiqda yoki eshkak eshish trenajyorida qo'llash mumkin[8]. Bundan tashqari, oyoq tayanchidagi kuchlarning ham gorizontalk, ham vertikal tarkibiy qismlarini o'lchash uchun 2D versiyasi ham mavjud. Tajribamiz davomida biz ushbu qurilmalardan foydalangan holda qayiq oyoq tirgagichning eshish texnikasiga ta'sirini o'rgandik.




1-rasm. Oyoq tirtagagi balandligini o'zgartirish graduslari va eshish texnikasiga ta'siri

Datchik RP3 Concept ergometrida kichik tajribada oyoqning ikki xil holatida ishlatilgan: eng past (a) bankadan 23 sm pastda va eng yuqori 4 sm yuqori. Har bir pog'ona holatida ikkita xalqaro darajadagi eshkakchilar daqiqasiga 20 dan 48 martagacha bo'lgan eshish tempini bosqichma-bosqich oshirib, 15-20 ta eshishdan iborat sakkiz qismdan tashkil topgan testni takrorladilar. Oyoq tirtagich kuchlanishlariga qo'shimcha ravishda eshkak tutqichdagi zo'riqish, tutqich holati, bankaning holati va trenajyor oyoq tirtagich – banka karetkasi tezlanishi ham o'lchandi. Kuchlanishlarni o'lchash aniqligini tekshirish uchun **ad**-tezlanish **Fh**-eshkak dastagi va **Fs**-oyoq tirtagichda o'lchangan kuchlanishlar va bankaning ma'lum massasi $m = 27\text{kg}$ bo'yicha hisoblandi:

$$ad = (Fh - Fs) / m \quad (1)$$

O'lchangan tezlanish cho'qqi nuqtalarida hisoblangan tezlanishga yetarlicha aniq mos kelishi aniqlandi va bu kuchlanishlarning o'lchash aniqligini ko'rsatadi (2-rasm, c). Banka harakati paytida yuzaga kelgan ishqalanish kuchlari ba'zi og'ishlarga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin. Daqiqasiga 36,9 eshish tempida past holatdagi oyoq tirtagichi ma'lumotlari 2-rasmda ko'rsatildi. Suvni ilish paytida oyoq tirtagidagi kuch eshkak eshishdan (1) taxminan 0,35 soniya oldin ortishni boshlaydi va ayni paytda qayiqning tezligi tayyorgarlik (2) paytida manfiy cho'qqiga yetadi hamda tezlanish (3) ishorasi o'zgaradi. Eshish boshida ko'tarilishdagi kuchlanishlar cho'qqi qiymatlarining deyarli yarmini tashkil qiladi (4), eshkak dastagidagi nol kuchlanishda, bu esa kes-

kin manfiy tezlanish cho'qqisini (5) yaratadi. Shundan so'ng dastakdagi kuch keskin ortadi va oyoq tirtagichi (6) kuchdan oshib ketadi, bu esa qayiq (7) tezligining cho'qqisi va tezlanishning birinchi musbat cho'qqisiga (8) to'g'ri keladi.



2-rasm. Oyoq tirtagagi graduslari o'zgartirilganda berilgan kuchlanishlarning biomexanik ko'rinishi.

Oyoq tirtagichidagi kuch, eshkak dastakdagiga nisbatan olib o'tishning oxirigacha (9) pastroq bo'lib qoladi va olib o'tishning oxirigacha taxminan 0,2 soniya qolganda (10) nolga tushadi. Bu paytda oyoqlar harakatini tugatadi (11) va qo'llar tortishning eng yuqori tezligiga erishadi (12). Shu lahzada tovonlar hali ham oyoq tirtagichga tiralishda davom etadi (13), lekin barmoqlar allaqachon teskari yo'nalishda tasmlarga tortila boshlaydi (14) va bu kuchlarni muvozanatlashtiradi.

Oyoq tirtagichini past joylashtirilganda oyoq uchi va tovon orqali kuchning ulushi past tempda taxminan teng bo'ladi (1-jadval), temp 32 dan yuqori bo'lganda esa kuchning taxminan 60% i oyoq uchi va faqat 40% i tovon orqali uzatiladi. Baland ko'tarilishda kuchning 80-90 foizi oyoq uchiga, atigi 10-20 foizi tovonlarga to'g'ri keladi.

1-jadvalda ikkita guruh eshkakchilarining barcha masofalardagi o'rtacha ko'rsatkichlari aks ettirilgan. Eshkak eshishning asosiy ko'rsatkichlari poyabzal tayanchi past holatda bo'lganda yaxshiroq natija ko'rsatdi: eshish uzunligi va oyoqlar harakati 1,7% va 3,0% ga uzunroq bo'ldi, eshkak dastasidagi o'rtacha kuch va bir eshishdagi ish samaradorligi esa 0,6% va 2,4% ga yuqori bo'ldi. Suvni ilish (eshish boshi) omili oyoq tirtagichning past joylashgan holatida modelga yaqinroq edi (qayiq ertaroq yo'nalishini o'zgartirardi), Eshkak eshish uslubi omili esa deyarli bir xil edi. Aksincha, eshishning oxirgi omilida

1-jadvalda

Ikkita guruh eshkakchilarining barcha masofalardagi o'rtacha ko'rsatkichlari

Xarakteristika	NG Baland oyoq tirtagich	TG Past oyoq tirtagich	Farq%
Eshish uzunligi(m)	1.45	1.48	1.7%
Oyoq ishi(m)	0.53	0.55	3.0%
Eshkak dastagiga kuch (N)	420.9	423.3	0.6%
Olib o'tishdagi ish (DJ)	712.4	729.6	2.4%
Suvni ilish faktori (ms)	11.5	-17.8	-6.2%
Uslub faktori(%)	78.3%	78.8%	0.5%
Eshish oxiri faktori(ms)	-29.4	-20.6	8.8

baland oyoq tirgagich baland holatida joylashtirilsa, biroz yaxshiroq ko'rsatkichga ega edi – u doimo model zonasida joylashardi.

Xulosalar:

1. Oyoq tirgagich past holatida bo'lsa va past eshish templarida bu ko'rsatkich ijobiy bo'ldi – eshkak dastagi yo'nalishini o'zgartirgandan so'ng ham yelkalar eshkak tortish harakatini davom ettirardi.

2. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, eshkak eshish kuchlanishi va texnikasi uchun oyoq tirgagining past holati afzal bo'lishi mumkin.

3. Olingan ma'lumotlar yangi BioRow datchigining qo'llanilishini va oyoq tirgagichidagi o'Ichangan kuchlanishlarning aniqligini tasdiqlashga yordam berdi va eshish texnikasiga qayiqning to'g'ri sozlanish ahamiyatini yanada oshirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Colloud F., Champely S., Bahuaud P., Cheze L. Kinematic symmetry in rowing ergometers. The abstracts of XX Symposium of ISBS (2002). <http://www.unex.es/congresos/isbs2002/>
2. Kleshnev V. Propulsive Efficiency of Rowing. Coaches' Information Service, <http://coachesinfo.com/>
3. Smith R. Net Power Production & Performance at Different Stroke Rates & Abilities During Sculling. Coaches' Information Service. <http://coachesinfo.com/>
4. Steer RR, McGregor AH, Bull AMJ (2006) Повторяемость кинематических измерений производительности гребли и их использование для сравнения двух различных гребных эргометров. Журнал спортивной науки и медицины 5, 52-59 [Бесплатная статья PMC] [PubMed] [Google Scholar]
5. Teitz CC, O'Kane J., Lind BK, Hannafin JA (2002) Боль в спине у гребцов-университетских спортсменов. Американский журнал спортивной медицины 30, 674-679 [DOI] [PubMed] [Google Scholar]
6. Томпсон П. (2005) Гребля на байдарках. Crowood Press, Уилтшир, – Великобритания [Google Scholar]
7. Tse MA, McManus AM, Masters RS (2005) Разработка и проверка программы вмешательства в основную выносливость: последствия для производительности гребцов студенческого возраста. Журнал исследований силы и кондиционирования 19, 547-552 [DOI] [PubMed] [Google Scholar]
8. Матназаров Х.Ю. Эшкак эшиш назарияси ва услубияти. Дарслик. – Т.: "O'zbekitobsavdonashriyoti" 2020. 238-б.

Muhammad EGAMBERDIYEV,
Alfraganus universiteti Sport faoliyati kafedrasida o'qituvchisi
muhammad963103@gmail.com

KIKBOKSING JANGLARIDA ZARBALAR BERISH ANIQLIGI VA UNI TA'MINLASHDA MUVOZANAT SAQLASH TURG'UNLIGINING O'RNI

Annotatsiya: maqolada kikkoksing janrlarida joydan tayanch holatlarda, harakatlanish davomida va sakrab chap-o'ng tomonlarga burilib yoki aylanib oyoq bilan zarbalar berish aniqligi va uning barqarorligini ta'minlashda muvozanat saqlash turg'unligining o'rni dolzarb muammo sifatida bugungi kungacha keng qamrovli tadqiqotlar ostiga olinmagani so'nggi yillarda chop etilgan manbalarni o'rganish asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kikkoksing, zarbalar aniqligi, muvozanat saqlash, vestibulyar analizatori, aylanma harakatlar.

Аннотация: в статье рассматривается значение устойчивости сохранения равновесия в реализации точности ударов ногой в кикбоксинге из опорного положения с места, по ходу перемещения и в прыжке с поворотом или вращением влево-вправо как актуальная проблема и дана обоснование, что она до сего дня не подвергалась полномасштабному исследованию на основе изучения соответствующих источников, опубликованных за последние годы.

Ключевые слова: кикбоксинг, точность ударов, сохранение равновесия, вестибулярный анализатор, вращательные движения.

Annotation: the article reveals the role of balance stability in ensuring the accuracy and stability of kicks in kickboxing fights from the ground, during movement, and jumping, turning to the left and right, as a pressing problem that has not been widely studied to date, based on a study of sources published in recent years.

Key words: kickboxing, accuracy of kicks, balance, vestibular analyzer, rotational movements.

Mavzuning dolzarbligi. So'nggi yillar davomida ko'p yillik sport trenirovkasining ustuvor va pirovard maqsadi bo'lgan yuqori malakali sportchilar tayyorlash, ularda musobaqa natijadorligini ta'minlovchi texnik-taktik harakatlar aniqligi va uni barqarorlashtirishga zamin yaratuvchi deyarli barcha jismoniy sifatlar hamda funksional imkoniyatlarga asoslangan koordinatsion qobiliyatlarni maqsadli shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlar ko'lami borgan sari kengayib bormoqda [L.P. Matveev, 2021, s. 260-280; V.N. Platonov, 2019, s. 358-389; Yu.V. Verxoshanskiy, 2021, s. 111-123; V.I. Lyax, 2006, s. 5-38; L.D. Nazarenko, 2015, s. 99-101; V.M. Zatsiorskiy, 2019, s. 151-170; A.S. Nazarenko, A.S. Chinkin, 2015, s. 78-85]. Mazkur mualliflar bu borada o'z tadqiqotlariga asoslangan holda shunga urg'u berishadiki, aksariyat sport turlarida, ayniqsa vaziyatli sport turlarida musobaqa natijadorligini ta'minlash oddiy va murakkab harakat reaksiyasi, vaqt-oraliq va mushaklarning kuchlanish chegaralarini farqlash, bir harakat turidan o'zga harakat turiga o'tish tezligi, harakat aniqligi va muvozanat saqlash turg'unligi kabi koordinatsion qobiliyatlarning proporsional nisbatda va simmetrik tartibda shakllanganligi bilan belgilanar ekan. Bunday koordinatsion qobiliyatlar yakkakurash sport turlarida yanada muhim va o'ziga xos ahamiyatga ega ekanligi ham ma'lumdir. Masalan, boks janrlarida bokschi o'z harakati va raqib harakatini his qilish, vaqt-oraliqni va qo'llarni bukish-yozish burchaklarini (amplitudasini) farqlash, ayniqsa statik holatlarda va hujum manyovrlaridan so'ng muvozanat saqlash imkoniyati nafaqat samarali himoya tashkil qilish uchun muhimdir, balki keskin o'zgaruvchan zarbalar aniqligini ta'minlashga zamin yaratadi [V.I. Filimonov, 2009, s. 387-398; V.A. Klimachev, 2000, s. 7-23; V.A. Taymazov, 2017, s. 347-369; F.A. Gatin, 2018, s. 8-15;

L.V. Bolshakov, 2021, s. 76-81; Ye.B. Sudakov, 2008, s. 11-23; I.S. Kolesnik, D.A. Osipov, 2013, s. 79-87].

Jismoniy sifatlar, ayniqsa anaerob chidamkorlikka asoslangan bunday koordinatsion qobiliyatlar taekvondo, ushu, djiu-djitsu va kurash sport turlarida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekan [B.Sh. Rahmatov, 2022, 5-30 b.; M.M. Kuznesov, 2013, s. 4-20; O.E. Malaxova, 2019, s. 5-20; Z.S. Artikov, 2019, 5-26 b.]. Shu bilan bir qatorda bu borada o'tkazilgan tadqiqotlar va so'nggi yillarda chop etilgan muvofiq manbalardan ma'lum bo'ldiki, jang jarayoni oyoq-qo'l zarbalari bilan kechadigan sharqona yakkakurash turlaridan biri – kikkoksingda mazkur yo'nalishlar doirasida e'lon qilingan ilmiy ishlar ko'lami nihoyatda chegaralangan ekan.

Tadqiqot maqsadi. Turli yosh va sport malakasiga mansub kikkokschilarda koordinatsion qobiliyatlarni tadqiqotlar asosida o'rganish bo'yicha chop etilgan ilmiy ishlar natijalarini qisqacha tahlil qilishga bag'ishlangan.

Ma'lumki, olishuv jarayoni zarbalar bilan kechadigan yakkakurash sport turlarida hujum va himoyaga qaratilgan texnik-taktik harakatlarni ijro etish mahorati, ushbu mahoratni jang davomida, ayniqsa uzoq muddatli musobaqa sikllarida saqlab qolish, hatto toliqish alomatlari kuchayganda yuksak natijadorlikka erishish nafaqat umumiy va ixtisoslashtirilgan jismoniy sifatning integral tartibda sayqal topganiga bog'liqdir, balki ustuvor jihatdan chaqqonlikni ifodalovchi koordinatsion qobiliyatlarning mukammal darajada shakllanganligi bilan belgilanadi. V.N. Kleshev [2006, s. 145-148]ning e'tirofiga qaraganda, bugungi kikkoksingda harakatlar parametrlari (mushaklarning kuchlanish chegaralari yoki bo'g'imlarni bukish-yozish amplitudasi, kuchi, ritmi va h.k.)ni farqlash va ularni vaziyat talablariga mos tartibda boshqarish, ularni yangicha yoki o'zgaruvchan

nusxalarda ijro etish, bir harakat kombinatsiyasidan boshqa harakat seriyalariga o'tish tezligi alohida ahamiyatga ega ekan. Uning ta'kidlashicha, kikkokschi harakat turlari, shu jumladan zarbalar variantlari va himoya turlari qanchalik ko'p sayqal topgan bo'lsa, kutilmagan, favqulodli qarshi harakatlarga imkoniyat yaratilishi mumkin ekan.

V.K. Sokolova, V.A. Kiselev [2021, s. 118-124]larning fikriga ko'ra, kikkokschi o'z raqibini yengish uchun birinchi navbatda yuksak shakllangan chaqqonlik yoki boshqacha qilib aytganda pozitsiyani keskin o'zgartirib turish, o'ng holatdan chap holatga va aksincha harakatlar ijro etish, bir zarba turidan boshqasiga o'tish shiddati nihoyatda "charxlangan" bo'lishi, ayniqsa turli qarshiliklarda muvozanatni saqlash qobiliyati mukammal bo'lishi muhim ekan. Zarusiyat bo'lganda mushaklarni bo'shashtirish (relaksatsiya) va ularni zarur chegarada kuchlantirish mahorati alohida ahamiyatga ega ekan. Ushbu mualliflar o'zlarining kikkoksing bo'yicha ishlab chiqilgan namunaviy dasturida shu va shunga o'xshash dolzarb ma'lumotlarni berishgan bo'lsa-da, biroq koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish, ayniqsa, ularni baholash masalalarini to'liq ochib berishmagan. Ma'lumki, kikkokschi hujum zarbalari bilan bog'liq harakatlar jangni olib borish "quroli" va g'alabaga erishish vositasidir. Lekin, qator tadqiqotchilarning ma'lumotlariga qaraganda, jangni faol olib borayotgan va usullarni foydali natija bilan ijro etayotgan aksariyat kikkokschi raqibiga bosim o'tkazish sur'atini tushirib yuborishi kuzatilar ekan [I.A. Sabirova, I.V. Bityuskix, 2019, s. 259-262]. S.E. Toksanov [2021, s. 476-480]ning fikriga ko'ra, bunday holat, birinchidan, shunday kikkokschi koordinatsion tayyorgarlik yetarli sayqal topmagani, ikkinchidan, kikkoksingda qo'llaniladigan zarbalarning o'zi murakkab koordinatsion mohiyatga ega ekanligi bilan asoslanishi mumkin ekan.

Shuning uchun kikkokschi erta yoshlikdan boshlab butun tayyorgarlik sikllarida turli tayanch holatlardan va sakrab burilish-aylanish rejimlarida ijro etiladigan oyoq-qo'l zarbalarini o'z vaqtida ijro etish reaksiyalarini real qarshiliklarda shakllantirish zarur ekan [A.V. Yeganov, Yu.E. Chibichik, 2020, s. 126-132; S.E. Toksanov, 2022, s. 19-22; I.A. Agafonov, 2014, s. 356-359]. M.V. Gerasimov, V.V. Kazin, F.V. Salugin [2021, s. 87-92]lar kikkoksingda boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida hujum zarbalariga o'rgatish metodikasini qo'llashda koordinatsion qobiliyatlarni qo'shma tartibda rivojlantirishga urg'u berishni tavsiya etganlar. Ular bu borada qo'l va oyoq bilan ijro etiladigan zarbalarni, ayniqsa turli graduslarga burilib va aylanib zarba berish texnikasiga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydilar. S.E. Toksanov, I.Yu. Gorskaya, A.S. Dmitrienko [2022, s. 95-102]lar kikkokschi hujum harakatlariga (zarbalariga) o'rgatish va bir vaqtning o'zida ularni koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish davomida texnik hamda koordinatsion tayyorgarlik ko'rsatkichlarining o'zgarish dinamikasini o'rganishgan. Natijalardan ma'lum bo'lganki, texnik mahoratga doir va koordinatsion qobiliyatlarga taalluqli mashqlarni muntazam bajarib borgan TGda koordinatsion qobiliyatlarning jadal shakllanib borishi texnik tayyorgarlik

ko'rsatkichlarining ham samarali o'sib borishiga imkon yaratgan. Ayniqsa ushbu guruhda Romberg sinovi bo'yicha o'rganilgan muvozanat saqlash turg'unligi ($12,5 \pm 1,4$ s. dan $22,3 \pm 0,8$ s. gacha o'sgan), sakrab aylanish $340 \pm 24^\circ$ dan $372 \pm 10^\circ$ gacha ortgan, 10 marta oyoq bilan zarba berish $41,9 \pm 1,3$ s. dan $38,4 \pm 0,7$ s. gacha qisqargan.

S.E. Toksanov [2022, s. 3-24] o'zining dissertatsion tadqiqotida kikkoksingga xos koordinatsion qobiliyatlarni erta yoshlikdan boshlab modellashtirilgan tartibda shakllantirib borish muhimligiga urg'u bergan. Muallif bu borada ayniqsa mushaklarning zarur kuchlanish chegaralarini farqlash aniqligi, bo'g'imlarni turli burchak (amplitudada) bukish-yozish chegaralarini his qilish, muvozanat saqlash turg'unligi va 10 marta oyoq bilan zarba berish ko'rsatkichlarini turli an'anaviy hamda eksperimental mashg'ulotlar davomida tadqiqot ostiga olgan. Natijalardan shu narsa qayd etilganki, namunaviy mashg'ulotlarda shug'ullanib borgan NGda mushaklarni max kuchlanish darajasining yarmini (50%) 14,5% gacha to'g'ri farqlagan, TG esa 28,1% gacha, bo'g'imlarni 45° ga bukish chegarasini NG 16,8% gacha, TG – 48,6% gacha farqlagan, muvozanat saqlash turg'unligi NGda $15,4 \pm 2,0$ s. ni, TGda bu ko'rsatkich $22,3 \pm 0,8$ s. ni tashkil etgan.

V.V. Kleshev [2006, s. 23] ning dissertatsion tadqiqotida kikkoksing bo'yicha o'tkaziladigan janglar davomida TTHlarni ifodalovchi qo'l va oyoqlar bilan ijro etiladigan zarbalarning raundlar bo'ylab kuzatiladigan hajmi yosh guruhlar kesimida o'rganilgan. Jumladan, aniqlanganki, har bir raund davomida qo'l bilan amalga oshiriladigan zarbalar soni o'smir kikkokschi 33,8 \pm 7,1 martani, modellashtirilgan janglarda 52,0 \pm 6,5 martani, oyoq bilan beriladigan zarbalar muvofiq ravishda: 7,6 \pm 2,5; 10,4 \pm 1,9; 11,8 \pm 0,9 martani tashkil etishi mumkin ekan. Oyoq va qo'l bilan ketma-ket ijro etiladigan zarbalar: 37,9 \pm 10,2; 44,2 \pm 13,9; 63,8 \pm 8,7 martaga teng bo'lgani aniqlangan.

D.Holbling et al. [2017, p. 317-324] va I.Ouergui et al. [2013, p. 294-309]larning fikrlariga qaraganda, kikkokschi erta yoshlikda oyoq bilan ijro etiladigan zarbalar ichida ayniqsa oldinroq joylashgan oyoq bilan gavdaga burilib zarba berish usullari o'rtasida farq yuqori bo'lishi mumkin ekan va bunday hujum harakatlari ushbu mualliflarning ta'kidlashicha, kikkoksingda eng samarali zarbalar tarkibiga mansub ekan.

Bir qator mualliflar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda kikkokschi ballistik zarbalar koordinatsiyasini rivojlantirish [M.V. Gerasimov, 2023, 22 s.], 14-15 yoshli kikkokschi texnik-taktik, jismoniy va koordinatsion qobiliyatlar darajasini jang davomida saqlab qolishda maxsus chidamkorlikning ustuvor ahamiyati ochib berilgan [E.V. Klodov, V.P. Shulgina, 2011, s. 187-191; E.V. Klodov, 2011, s. 3-2], bo'g'imlarni bukuvchi va yozuvchi mushaklari kuchi [A.E. Noskov, 2019, s. 54-55; M.A. Zinoviyev, 2019, s. 49-50] an'anaviy va eksperimental mazmunli mashg'ulotlar davomida o'rganilgan.

Xulosa. Yuqorida qayd etilgan o'quv va ilmiy manbalar tahlilidan ko'rinib turibdiki, yuqori malakali kikkokschi tayyorlash jarayonida va musobaqa natijadorligini

ta'minlashda ustuvor ahamiyatga loyiq bo'lgan mavzular ko'p qirrali tadqiqotlar asosida ochib berilgan. Shu bilan bir qatorda kikkoksing janglarida joydan, o'zgaruvchan yo'nalishli harakatlar davomida, sakrab burilib yoki aylanib ko'p martalab takrorlanadigan oyoqlar bilan ijro etiladigan zarbalar ta'sirida vestibulyar analizatori tomonidan boshqariladigan muvozanat saqlash turg'unligining tushib ketishi shu zarbalar aniqligiga salbiy ta'sir etishi keng

qamrovli tadqiqot asosida o'rganilmagan ekan. Vaholanki, kikkoksinglarda turli statik holat va vestibulokinetik rejimlarda muvozanat saqlash turg'unligini shu sport turining o'ziga xos xususiyatlariga mos tartibda muntazam mashqlantirib borish nafaqat zarbalar aniqligini jadal shakllantirib borishi mumkin, balki uni turli burilma-aylanma harakatlar yuklamasiga qarshi barqarorlashtirishi ham shubha uyg'otmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Клещев В.Н. Кикбоксинг / Учебник для вузов. М.: Академический проект, 2006, 288 с.
2. Соколова В.К., Киселев В.А. Типовая программа спортивной подготовки по виду спорта "кикбоксинг" для групп начальной подготовки / методическое пособие. – М.: ФГБУ ФЦПСР, 2021, - 166 с.
3. Токсанов С.Е. Развитие координационных способностей при обучении атакующим действиям начинающих кикбоксеров / Ж.: Ученые записки университета им. П.Ф. Лесгафта, 2021, № 11 (201), с. 476-480.
4. Белых С.И. Удар как основное средство ведения боя и достижения победы в кикбоксинге // С.И. Белых, С.С. Олейник / Ж.: ТИМФК, - 2019, № 4; с. 78-79.
5. Еганов А.В. Изучение связи параметра двигательной-координационной способности своевременности выполнения технических действий, проявляющейся в поединке, занимающихся спортивными видами единоборств // А.В. Еганов, Ю.В. Чибичин / Ж.: Уч. записки университета им. П.Ф. Лесгафта, 2020, № 10 (188), с. 126-132.
6. Кладов Э.В. Показатели реагирующих способности кикбоксеров-юношей в полноконтактных разделах кикбоксинга // Э.В. Кладов, В.Б. Антанин, А.С. Мартынова / Современные проблемы науки и образования, - 2020, № 4, - URL: - с. 27-33.
7. Пружинина М.В., Пружинин К.Н. Методические приемы обучения для эффективной реализации предпрофессиональной программы по кикбоксингу базового уровня сложности / Ж.: Мир науки. Педагогика и психология, - 2020, т. 8, № 5, - с. 1-9.
8. Токсанов С.Е., Горская И.Ю., Дмитриенко А.С. Динамика показателей технической и координационной подготовленности кикбоксеров в ходе обучения атакующим действиям с сопряженным развитием координационных способностей / Ж.: Наука и спорт: современные тенденции, № 4 (т. 10), 2022, - с. 95-102.
9. Rahmatov B.Sh. Yosh taekvondochilarda muvozanat saqlash turg'unligi va harakat aniqligini vestibulokinetik mashqlar yordamida rivojlantirish samaradorligi / p. f. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref., – Chirchiq, 2022, 63-b.
10. Artikov Z.S. Belbog'li kurashda statik va dinamik kuchlanish davomida muvozanat saqlash funksiyasini shakllantirish metodikasi / p. f. bo'yicha falsafa doktori diss. avtoref., – Chirchiq, 2019, 53-b.
11. Сабирова И.А., Битюцких И.В. Анализ соревновательной деятельности в различных дисциплинах кикбоксинга / Ж.: Уч. записки университета им. П.Ф. Лесгафта 2019, № 1 (167), с. 259-262.
12. Герасимов М.В., Казин В.В., Солугин Ф.В. Технология тактико-технической подготовки квалифицированных кикбоксеров с учетом сложнокоординационных условий ведения поединка // Современные проблемы науки и образования, 2021, № 6, - с. 87-92.
13. Агафонов А.И. Характеристика технико-тактической подготовки юных кикбоксеров // Ж.: Фундаментальные исследования, Педагогические науки, 2014, № 3 (ч. 2), с. 356-359.
14. Токсанов С.Е. Обучение атакующим действиям с сопряженным развитием координационных способностей на этапе начальной подготовки в кикбоксинге / Автореф. к. п. н., – Омск, 2022, 24 с.
15. Клещев В.В. Формирование индивидуально-типовых манер ведения боя в кикбоксинге / Автореф. к. п. н., – М., 2006, - с. 3-23.
16. Holbling D. et al. Kinematic analysis of the double Side kick in pointfighting, Kickboxing // Journal of snorts Sciences, 2017 – t. 35, № 4, - p. 317-324.
17. Ouergui I. et al. Technical and tactical analysis of high Level Kichboxing matenes //International Journal of Performonce Aalysis in Sports. – 2013, - t. 13 № 2, p. 294-309.
18. Лях В.И. Координационные способности: диагностика и развитие. – М.: ТВГ. Дивизион, 2006, 290 с.
19. Платонов В.Н. Двигательные качества и физическая подготовка спортсмена. – М.: Спорт, 2019, 656 с.
20. Назаренко Л.Д. Концепция классификации двигательных координаций / Ж.: ТИМФК, 2015, № 3, - с. 99-101.
21. Назаренко А.С., Чинкин А.С. Влияние вестибулярного раздражения на статокINETическую устойчивость спортсменов различных специализаций / Ж.: Наука и спорт: современные тенденции, 2015, – Казань, с. 78-85.
22. Токсанов С.Е., Горская И.Ю. Обоснование методики обучения атакующим действиям с сопряженным развитием координационных способностей на этапе начальной подготовки в кикбоксинге / Современные проблемы в науке и образования, 2018, № 4, с. 67-71.
23. Зиновьев М.А. Развитие скоростно-силовых способностей у юношей 16-18 лет, занимающихся кикбоксингом / Выпускная квалиф-я работа, Уральский гос. унив-т, – Екатеринбург, 2019, 59 с.
24. Носков А.Э. Развитие силовых способностей юношей 17 лет в кикбоксинге / Выпуск. квал. работа, Уральский гос. ун-т, – Екатеринбург, 2019, 75 с.
25. Кладов Э.В. Развитие специальной выносливости у кикбоксеров юношей в подготовительном периоде с учетом стиля ведения боя / Автореф. к. п. н., – Омск, 2011, 23 с.
26. Кладов Э.В., Шульпина В.П. Методика развития специальной выносливости у кикбоксеров 14-15 лет в разделе фулл-контакт в подготовительном периоде с учетом индивидуального стиля ведения боя / Ж.: Омский научный вестник, № 6, 2011, с. 187-191.
27. Герасимов М.В. Развитие баллистических координаций кикбоксеров средствами комплексных вариативных заданий / Автореф. к.п.н., Санкт-Петербург, 2023, - 23 с.

Shaxbozbek ZOIRJANOV,
 Namangan davlat universiteti, tayanch doktoranti
 zoirjanovshakhbozbek@gmail.com
 ORCID ID 0009-0000-7169-2460

O'LCHOV BIRLIKLARINING XRONOLOGIK TURLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada o'lchov birliklarining tarixiy taraqqiyoti va ularning xronologik shakllari batafsil tahlil qilinadi. O'lchov birliklari insoniyat sivilizatsiyasi uchun muhim bo'lib, dastlab ular tabiiy va oddiy vositalar asosida yaratilgan. Insonning kundalik ehtiyojlari, shuningdek, savdo va iqtisodiy faoliyatlar bu birliklarning rivojlanishiga zamin yaratgan. Maqolada qadimgi sivilizatsiyalar, o'rta asrlar va ilm-fan inqilobi davrida o'lchov birliklarining taraqqiyoti ko'rsatiladi. Zamonaviy metrik tizimning joriy etilishi esa xalqaro standart o'lchov birliklari tizimining shakllanishiga olib kelgan. Mazkur xronologik jarayonlar madaniy, ilmiy va texnologik taraqqiyot bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'lchov birliklarining aniq va yagona bo'lishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

Kalit so'zlar: o'lchov birliklari, xronologik rivojlanish, tarixiy o'lchov tizimlari, metrik tizim, qadimgi sivilizatsiyalar, o'lchov birliklarining taraqqiyoti, uzunlik o'lchovlari, massani o'lchash, vaqt o'lchovlari, o'lchov tizimlari, xalqaro birliklar tizimi, madaniy rivojlanish, iqtisodiy ehtiyojlar.

Аннотация: в этой статье подробно анализируется историческое развитие единиц измерения и их хронологические формы. Единицы измерения важны для человеческой цивилизации, изначально они создавались на основе естественных и простых средств. Ежедневные потребности человека, а также торговля и экономическая деятельность создали основу для развития этих единиц. В статье показано развитие единиц измерения в эпоху древних цивилизаций, средних веков и научной революции. Внедрение современной метрической системы привело к формированию международной системы стандартных единиц измерения. Эти хронологические процессы тесно связаны с культурным, научным и технологическим прогрессом и имеют важное значение для обеспечения точности и единства единиц измерения.

Ключевые слова: единицы измерения, хронологическое развитие, исторические системы измерения, метрическая система, древние цивилизации, развитие единиц измерения, измерения длины, измерения массы, измерения времени, системы измерения, международная система единиц, культурное развитие, экономические потребности.

Annotation: this article provides a detailed analysis of the historical development of units of measurement and their chronological forms. Units of measurement are important for human civilization and were originally created on the basis of natural and simple means. Human daily needs, as well as trade and economic activities, laid the foundation for the development of these units. The article shows the development of units of measurement during ancient civilizations, the Middle Ages, and the Scientific Revolution. The introduction of a modern metric system led to the formation of an international system of standard units of measurement. These chronological processes are closely linked to cultural, scientific, and technological progress and play an important role in ensuring the accuracy and uniqueness of units of measurement.

Key words: units of measurement, chronological development, historical measurement systems, metric system, ancient civilizations, development of units of measurement, length measurements, mass measurement, time measurements, measurement systems, international system of units, cultural development, economic needs.

Kirish. O'lchov birliklari insoniyat hayotida chuqur ahamiyatga ega bo'lib, ular bilan atrof-muhitni anglash, tartibga solish va boshqarish imkoniyati yaratilgan. Ilk davrlarda masofa, hajm, og'irlik va vaqt kabi kattaliklarni o'lchashda inson tabiiy birliklardan foydalangan. Bu birliklar dastlab oddiy vositalarga asoslangan bo'lsa-da, jamiyat va iqtisodiyot taraqqiyoti bilan birga takomillashib, yanada aniqroq va standartlashgan o'lchov tizimlariga aylangan. Misr, Mesopotamiya, Rim va Yunoniston kabi qadimiy sivilizatsiyalarda ilk rasmiy o'lchov tizimlari paydo bo'lgan va ular keyinchalik boshqa xalqlarga ham keng tarqalgan.

Xalqaro aloqalarning kengayishi va ilm-fanning rivojlanishi bilan o'lchov birliklarini bir xillashga ehtiyoj tug'ildi. XVIII asrning oxirlarida metrik tizim Fransiyada ishlab chiqilib, o'lchovlarning bir-biriga mos kelishini ta'minlagan xalqaro tizimning asosi bo'ldi. Bugungi kunda esa xalqaro o'lchov birliklari tizimi (SI) butun dunyo bo'ylab qo'llanilib, ilmiy va texnologik tadqiqotlar uchun standart hisoblanadi. Ushbu maqolada o'lchov birliklarining xronologik turlari va ularning turli davrlarda qanday rivojlanib borganligi yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili. O'lchov birliklarining xronologik turlarini yorituvchi adabiyotlar, odatda, tarixiy, ilmiy

va texnologik nuqtayi nazardan keng qamrovli tadqiqotlarni o'z ichiga oladi. Bunday adabiyotlar o'lchov birliklarining dastlabki tabiiy birliklardan zamonaviy standart tizimlarga qanday rivojlanganini izchil yoritadi. Quyidagi asarlar o'lchov birliklarining turli tarixiy davrlarini va xalqaro tizimlarning shakllanish jarayonlarini keng ko'lamda tahlil qiladi.

Alder, K. (2002). *The Measure of All Things: The Seven-Year Odyssey and Hidden Error That Transformed the World*. Mazkur kitobda metrik tizimning joriy etilishi jarayoni chuqur tahlil qilinadi. O'lchov birliklarining rivoji Fransiyada XVII asr oxirida qabul qilingan metrik tizimdan boshlangan va butun dunyo bo'ylab qabul qilingan xalqaro tizimga aylanish jarayoni o'rganiladi. Kitob o'lchov birliklarining universal qabul qilinishi jarayonidagi ijtimoiy, siyosiy va ilmiy omillarni yoritadi. Williams, R. (1981). *The History of Units of Measurement*. Springer. Williamsning ushbu kitobi o'lchov birliklarining qadimdan zamonamizgacha bo'lgan tarixiy rivojlanishini o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi. Kitob qadimgi sivilizatsiyalardagi o'lchov tizimlari, ular qanday asoslar bilan qabul qilinganligi va zamonaviy standart tizimlarga o'tish jarayonini izohlaydi. Mazkur asar tarixiy nuqtai nazardan o'lchov birliklarining ahamiyatini va ularning jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasini batafsil yoritadi. Kula, W. (1986). *Measures and Men*. Ushbu asarda o'lchov birliklarining inson hayotidagi ahamiyati va ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri ko'rsatilgan. Kula o'lchov tizimlarini nafaqat ilmiy, balki jamiyat va iqtisodiyotdagi ehtiyojlar nuqtai nazaridan ham tahlil qiladi. U qadimgi jamiyatlardan boshlab o'lchov birliklari qanday o'zgarib kelganini va ular qanday ehtiyojlarga javob berganini ko'rsatadi. BIPM (2023). *The International System of Units (SI)*. Bureau International des Poids et Mesures. BIPMning ushbu nashri zamonaviy xalqaro o'lchov tizimi – SI tizimi haqida keng ma'lumot beradi. Asarda yetti asosiy birlik va ularning ta'riflari, ilmiy tadqiqotlar va kundalik hayotdagi qo'llanishi bilan bog'liq texnik tafsilotlar yoritiladi. Ushbu qo'llanma zamonaviy o'lchov tizimining afzalliklari va uning butun dunyo miqyosida qo'llanilishi uchun asos bo'lgan me'yorlarni tushuntiradi.

Ushbu adabiyotlar o'lchov birliklarining tarixiy taraqqiyoti, xalqaro tizimlarning shakllanishi va ularning ilmiy, iqtisodiy hamda madaniy ahamiyatini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Har bir manba o'ziga xos uslubda o'lchov birliklarining xronologik rivojlanish yo'nalishlarini o'rganishga yordam beradi va zamonaviy o'lchov tizimlarining yaratilishida qanday jarayonlar muhim rol o'ynaganini yoritadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda o'lchov birliklarining tarixiy rivojlanishi va xronologik turlarini o'rganish uchun tarixiy va tahliliy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotda o'lchov birliklarining paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini tizimli

ravishda o'rganish maqsad qilingan.

1. **Adabiyot tahlili.** Tadqiqotda mavjud adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish asosiy metod sifatida qo'llanildi. O'lchov birliklarining tarixiy taraqqiyoti va xronologik turlarini yorituvchi nashrlar, ilmiy maqolalar va xalqaro qo'llanmalar o'rganildi. Xususan, qadimgi sivilizatsiyalardan boshlab zamonaviy metrik tizimgacha bo'lgan o'lchov tizimlarini yorituvchi manbalar tahlil qilinib, ular orqali o'lchov birliklarining muayyan davrlarda qanday o'zgarishlar kiritilgani aniqlandi.

2. **Tarixiy tahlil.** O'lchov birliklarining xronologik turlari tarixiy jarayonlar asosida o'rganildi. Har bir davrga xos o'lchov tizimlari va ularning shakllanishiga ta'sir etgan ijtimoiy, iqtisodiy, va ilmiy omillar o'rganildi. Shu asosda qadimgi davrlar, o'rta asrlar va ilm-fan inqilobi davridagi o'lchov birliklari o'ziga xos xususiyatlar va joriy etilish sabablari bilan tahlil qilindi.

3. **Taqqoslash va qiyosiy tahlil.** Turli davrlardagi o'lchov birliklarini qiyosiy tahlil qilish orqali ularning umumiylik va farqli jihatlari o'rganildi. Masalan, qadimgi Misr va Mesopotamiyadagi o'lchov tizimlari zamonaviy xalqaro o'lchov birliklari bilan taqqoslandi. Ushbu metod orqali o'lchov birliklarining rivojlanish yo'nalishlari va ularning zamonaviy tizimlarga asos bo'lishi o'rganildi.

Tahlillar va natijalar. I. Dastlabki tabiiy birliklar va ularning qo'llanilishi. Dastlabki o'lchov birliklari insonlarning kundalik ehtiyojlariga javob berish uchun paydo bo'lgan. Ilk davrlarda odamlar masofa, hajm va vazni o'lchashda tabiiy birliklardan foydalanganlar. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, bu davrda o'lchov birliklari oddiy va bir xillashtirilmagan bo'lib, bu esa o'lchovlarda noaniqlikka olib kelgan.

Misollar: Qadam, odim – qadimgi uzunlik o'lchov birligi. Asosan ikki joy orasidagi masofani o'lchashda qo'llanilgan. Qadimgi adabiyotda $1Q=1,5$ qari ekanligi yozilgan. Agar 1 qarining 50 sm ligi hisobga olinsa, u holda Q. o'rtacha 75 sm ga teng bo'ladi. Qadimgi davrlarda odamlar masofani qadamlar bilan o'lchagan. Bir joydan ikkinchi joyga borish uchun qancha qadam bosilishi, masofa o'lchov birligi sifatida ishlatilgan [5].

Bosh Barmoq – qad. Uzunlik o'lchov birligi; qiymat jihatidan 3 barmoqqa teng, faqat gozni o'lchashda qo'llaniladi. $1B. b.=3 \text{ barmoq}=3(2,18^2,28)=6,54^6,84$ sm yoki o'rtacha 6,69 sm ga teng. Ba'zi adabiyotlarda "Asba ka'ima" nomi bilan ham ataladi. Asosan, Sharq mamlakatlarida qo'llaniladi. Bilak va barmoqlar: Qadimgi Misrda va Mesopotamiyada masofani o'lchash uchun bilak uzunligi va barmoq o'lchami kabi birliklar qo'llanilgan. Bu esa binolar va haykallarni qurishda asqotgan [6].

Bu davrda tabiiy birliklarning noaniqligi xalqaro savdo va keng miqyosdagi qurilish loyihalarida muammolarni keltirib chiqargan.

II. Rasmiy o'lchov tizimlarining paydo bo'lishi va taraqqiyoti.

Keyinchalik, qadimgi sivilizatsiyalar, xususan, Misr, Yunoniston va Rimda rasmiy o'lchov tizimlari paydo bo'ldi. Bu davrda davlatlarning savdo, qishloq xo'jaligi va qurilish ehtiyojlari o'lchov tizimlarini rasmiylashtirishga turtki bo'lgan.

Misollar: Misr kubiti (qadimgi o'lchov birligi) – qadimgi Misrda ishlatilgan uzunlik o'lchovi bo'lib, u odamning tirsakdan kaft uchigacha bo'lgan masofasiga asoslangan. Bu o'lchov o'z davrida qurilishda, san'atda va savdo-sotiqda keng qo'llanilgan. Uzunligi: Standart Misr kubiti taxminan 52.3 sm (20.6 dyuym) bo'lgan. Katta aniqlik talab etilgan loyihalarda "Qirolik kubiti" deb ataladigan kattaroq versiya ishlatilgan, bu oddiy kubitdan taxminan 7 barmoq kengligiga kattaroq, ya'ni taxminan 52.9 sm edi. Kubit so'zi qo'llanilishi: Arxitektura va qurilish. Qohiradagi mashhur piramidalarning o'lchamlari kubit asosida hisoblangan. Masalan, Buyuk Piramida uchun ishlatilgan o'lchovlar qirolik kubiti bilan belgilangan. Iqtisodiyot va savdo: Kubit mahsulotlarning uzunligini va hajmini o'lchashda ishlatilgan. Misr kubiti nafaqat texnik amaliyotlarda, balki diniy va marosimlar bilan bog'liq o'lchovlarda ham ishlatilgan. U qadimgi Misr madaniyatining rivojlangan texnologik va matematik yutuqlaridan dalolat beradi [2].

III. Ilm-fan inqilobi va metrik tizimning yaratilishi.

XVIII asrning oxirida Fransiyada metrik tizimning joriy etilishi bilan o'lchov birliklari tarixida yangi davr boshlandi. Ilmiy va texnologik inqilob o'lchov birliklarini aniqroq va jahonshumul moslashtirishga ehtiyoj tug'dirgan.

Misollar: Metr: Metrik tizimning asosiy birligi sifatida belgilangan metr, quruqlikdagi masofani aniqlash uchun universal birlik bo'lib xizmat qilgan. Bu birlik Fransiyada ishlab chiqilib, o'lchov tizimida katta burilish yasagan [3]. Metr – 1) metrik o'lchov tizimi va Xalqaro birliklar tizimi SI dagi uzunlik birligi. Qisqacha m bilan belgilanadi. $1\text{ m} = 0,469\text{ sarjin} = 1,406\text{ arshin} = 3,281\text{ fu} = 10\text{ dm} = 100\text{ sm} = 1000\text{ mm}$; 2) metrik o'lchov tizimida M. Parij meridiani uzunligi choragining o'ng milliondan bir qismi (10~7) ga, Xalqaro birliklar tizimida esa M. kripton -86 atomining $2r_{10}$ va $5d_5$ energetik sathlar orasidagi o'tishga mos keladigan nurlanish vakuumidagi 1650763,73 to'lqin uzunligiga teng uzunlik o'lchovi [8].

Kilogramm: Og'irlik uchun joriy etilgan kilogramm birligi xalqaro savdo va ilmiy tadqiqotlarda keng qo'llanila boshlangan. Kilogramm (kilo... va gramm) – Xalqaro birliklar tizimi SI da massa o'lchov birligi. kg bilan belgilanadi. 1 dm^3 (4° li) toza suv massasiga teng. Parij yaqinida joylashgan Sevr sh.dagi Xalqaro o'lchov va tarozilar byurosida saqlanadigan diametri va bal. 39 mm li platina-iridiy (90 % Pt, 10% Ir) ning silindr shaklidagi krtishmasi K. Etaloni sifatida qabul qilingan (1889). K.ning ulush birligi gramm keng qo'llanadi: $1\text{ g} = 0,001\text{ kg}$ [7].

Metrik tizimning yaratilishi o'lchovlarning aniqligi

va bir xilligini ta'minlab, bugungi xalqaro tizimning asosini yaratdi. Bu tizim hozirda ilmiy tadqiqotlar va sanoatda keng qo'llanilib, jahon miqyosida o'lchovlarni bir xil qilishga yordam beradi.

IV. Xalqaro Birliklar Tizimi (SI)ning joriy etilishi va zamonaviy amaliyoti.

1960-yilda Xalqaro Birliklar Tizimi (SI)ning joriy etilishi bilan o'lchov birliklari global darajada universal tizimga aylandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, SI tizimi ilm-fan va texnologiyadagi aniq o'lchovlarga bo'lgan talablarni qondiruvchi asosiy tizim hisoblanadi.

Misollar: Soniya, Amper va Kelvin: SI tizimida zamonaviy fizik kattaliklarni o'lchash uchun qo'shimcha birliklar belgilangan. Soniya (s) – Vaqt o'lchov birligi.

Soniya vaqtning asosiy birliklaridan biri bo'lib, zamonaviy SI tizimida quyidagicha aniqlanadi. Sekund – [lot. secundus – ikkinchi] O'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, minutning oltmishdan bir qismiga teng vaqt o'lchovi birligini bildiradi: sekundomer [4]. Sekund tarixiy ma'lumotlar: Ilgari soniya Yerning sutkalik aylanishiga asoslangan (1 sutkaning 86,400 qismi), ammo Yerning aylanishi unchalik barqaror emasligi sababli 1967-yilda hozirgi aniqlash qabul qilindi.

Mol: Modda miqdorini o'lchash uchun ishlatiladigan mol birligi, kimyo va fizikadagi tadqiqotlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mol (mol) – moddaning SI asosiy birligi (uning massasi yoki og'irligidan farqli o'laroq). Mollar obyektidagi atom yoki molekullarning haqiqiy sonini o'lchaydi. Avvalgi nom - gramm molekulyar massa, chunki kimyoviy birikmaning bir moli atom massa birliklarida o'lchanadigan birikma molekulasining molekulyar massasi bilan bir xil miqdordagi grammga teng. 1971-yilda SI tizimining bir qismi sifatida qabul qilingan ta'rifga ko'ra, moddaning bir moli 12 gramm uglerod -12 (uglerod-12 uglerodning eng keng tarqalgan atom shakli bo'lib, 6 proton va 6 neytronga ega atomlardan iborat) atomlarida qancha elementar obyektlar (atomlar, molekullar, ionlar yoki boshqa turdagi zarralar) bo'lsa, shuncha elementar birliklarni o'z ichiga oladi. Moldagi "elementlar" ning haqiqiy soni italyan kimyogari va fizigi Amedeo Avogadro (1776-1856) sharafiga Avogadro soni deb ataladi. 2018-yil noyabr oyida CGPM molning ta'rifini qayta ko'rib chiqdi va Avogadro soni aniq $6,022\ 140\ 76 \times 10^{23}$ ga tengligini aniqlashtirdi. (Texnik jihatdan bu haqiqiy, ammo kichik o'zgarishdir, chunki biz 12 gramm uglerod 12 da aniq nechta atom borligini bilmaymiz.) Amerikaning katta sonlarni nomlash sistemasida Avogadro soni aniq 602 sextillion 214 kvintillion 76 kadrilonni tashkil qiladi, bundan ortiq ham emas, kam ham emas [1].

SI tizimi global miqyosda qabul qilingan bo'lib, xalqaro savdo, ilmiy tadqiqotlar va texnologiyada o'lchov birliklarini birlashtirishni ta'minlaydi. Bugungi kunda SI tizimi butun dunyoda asosiy o'lchov tizimi sifatida qabul qilingan.

Jadvalda qisqa o'Ichov birliklarni solishtirishi

Birlik	O'Ichov turi	Aniqlanishi	Qo'llanish sohalari
Soniya (s)	Vaqt	Seziy atomining 9 192 631 770 tebranishi	Vaqt o'lchash, fizika, astronomiya
Metr (m)	Uzunlik	Yorug'likning vakuumda 1/299 792 458 soniyada bosib o'tadigan masofasi	Masofa o'lchash, muhandislik, ilm-fan
Amper (A)	Elektr toki	1 soniyada 1 kolonk zaryad oqimi	Elektr energiyasi, elektronika
Kelvin (K)	Harorat	Suvning uch fazali nuqtasining 1/273.16 harorati yoki Boltzmann doimiysi asosida	Termodinamika, kriogenika, sanoat texnologiyalari
Kilogramm (kg)	Massa	Plank doimiysi orqali aniqlangan: $h=6.62607015 \times 10^{-34} \text{h} = 6.62607015 \times 10^{-34} \text{J}\cdot\text{s}$ $h=6.62607015 \times 10^{-34} \text{J}\cdot\text{s}$	Og'irlik, muhandislik, fizik tadqiqotlar
Mol (mol)	Moddaning miqdori	1 molda 6.022×10^{23} zarracha (Avogadro soni) bor	Kimyo, termodinamika, biologiya
Qadam (pace)	Masofa	Odamning ikki oyog'ining bir yo'nalishda bosgan uzunligi (~0.75–1.5 metr)	Yurish masofasi, eski o'Ichov tizimlari
Bilak (cubit)	Uzunlik	Tirsakdan qo'l kaft uchigacha bo'lgan masofa (~52 sm, qadimgi Misr o'Ichovi)	Arxitektura, tarixiy inshootlar
Barmoq (finger)	Uzunlik	Qo'l barmog'ining kengligi (~1.9 sm)	Zargarlik, tarixiy savdo o'Ichovlari

Xulosa. O'Ichov birliklarining xronologik turlari va ularning jamiyatdagi o'rni turli tarixiy davrlarda shakllanib, bugungi xalqaro birliklar tizimining yaratilishiga olib keldi. Ilk davrlarda tabiiy birliklarga asoslangan oddiy o'Ichovlardan boshlab, murakkab ilmiy va texnologik

tizimlargacha yetib kelgan. Hozirgi xalqaro birliklar tizimi (SI) esa butun dunyoda qo'llaniladigan, ilm-fan, savdo va sanoatni birlashtiruvchi universal tizim sifatida qabul qilinib, o'Ichovlar bir xilligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "A dictionary of units of measurement", [Electronic resource], 20.10.2001, URL: <https://www.ibiblio.org/units/dictM.html>.
2. "The complete pyramids solving the ancient mysteries", [Electronic resource], 01.10.2024, Page-216, URL: <https://www.scribd.com/document/628585645/Mark-Lehner-The-Complete-Pyramids>.
3. National Institute of Standards and Technology, [Electronic resource], 05.10.2024, URL: <https://www.nist.gov/pml/owm/si-units-length>.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati, 4-jild. Tahrir hay'ati: E.Begmatov, A. Hojiyev, A.Madvaliyev va boshq. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. ISBN 978-9943-8834-7-5. 587-bet.
5. Ўзбекистон Миллий Энциклопедия, 10-жилд. Тахрир ҳайъати: А. Абдувоҳитов, А. Азизхўжаев, М. Аминов ва бошқ. – Т.: "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси", 2005. ISBN 5-89890-091-8. Б. 567.
6. Ўзбекистон Миллий Энциклопедия, 1-жилд. Тахрир ҳайъати: М.Аминов, Б. Аҳмедов, Ҳ. Бобоев ва бошқ. – Т.: "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси", 2000. ISBN 5-89890-160-4. Б. 636.
7. Ўзбекистон Миллий Энциклопедия, 4-жилд. Тахрир ҳайъати: М.Аминов, Т. Даминов, Т. Долимов ва бошқ. – Т.: "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси", 2002. ISBN 5-89890-060-8. Б. 576.
8. Ўзбекистон Миллий Энциклопедия, 5-жилд. Тахрир ҳайъати: М.Аминов, Т. Даминов, Т. Долимов ва бошқ. – Т.: "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси", 2003. ISBN 5-89890-064-0. Б. 615.

Gullola RAXMONOVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Umumiy pedagogika kafedra katta o'qituvchisi

YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA TALABA YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY SIFATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: bugungi globallasuv jarayonida dunyoning har qarich yerida inson ongi va tafakkuri uchun jiddiy kurash ketayotgani barchamizga yaxshi ayon. Birda yovuz, birda madaniy ko'rinishdagi bu kurash har birimizdan atrofga teran nazar tashlash, jahonda kechayotgan turfa jarayonlarni aql va tafakkur bilan sarhisob etishga chorlaydi.

Kalit so'zlar: globallasuv, ma'naviy-axloqiy, jadidchilik, vatanparvarlik, adolatlilik, axborot texnologiyalar, milliy tarbiya, zamonaviy pedagogika.

Аннотация: всем нам хорошо известно, что в современном процессе глобализации во всех уголках мира идет серьезная борьба за человеческое сознание и мышление. Эта борьба, одновременно злая и культурная, призывает каждого из нас глубоко оглянуться вокруг, умом и мыслью обобщить различные процессы, происходящие в мире.

Ключевые слова: глобализация, духовно-нравственный, модернизм, патриотизм, справедливость, информационные технологии, национальное образование, современная педагогика.

Annotation: it is well known to all of us that in today's globalization process, there is a serious struggle for human consciousness and thinking in every corner of the world. This struggle, which is both evil and cultural, calls upon each of us to take a deep look around, to summarize the various processes taking place in the world with intelligence and thought.

Key words: globalization, spiritual and moral, modernism, patriotism, justice, information technology, national education, modern pedagogy.

Kirish. Ma'lumki, Prezidentimizning 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori 2020-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasida hamda joriy yilning 19-yanvar kuni Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati hamda vazirliklar, qator davlat va jamoat tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlashga chorlaydi.[1] Jahon miqyosida axborot kommunikatsion texnologiyalarining rivoji talaba-yoshlarning hayot tarziga zid bo'lgan zararli g'oyalar va mafkuraviy xurujlarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Xorijiy televideniylar orqali berilayotgan ko'rsatuvlar, radioeshittirishlar, internet manbalari, mobil aloqa, kompyuter o'yinlari, video va kino mahsulotlaridan foydalanuvchi talaba-yoshlar kerakli axborot bilan birga jamiyatimizning axloqiy tartib-qoidalariga zid bo'lgan shafqatsizlik, zo'ravonlik va milliy mentalitetimizga begona bo'lgan boshqa g'oyalar targ'ibotiga ham duch kelmoqda. Natijada talaba yoshlar orasida axborot madaniyatini shakllantirish va ularning ma'naviyatini yuksaltirish zarurati tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Davlatimiz rahbarining "Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni, ruhi ma'naviyatdir", degan so'zlari mohiyatidagi uyg'onish nafasi Hazrat Navoiy da'vatlariga mohiyatan uyg'un bo'lib, uchinchi Renessans poydevorini yaratishga azm-u shijoat bilan kirishgan xalqimiz uchun tarbiya, yaxshi xulq, aql-idrok, bilim, ma'naviyat naqadar tengsiz qudrat va ruhiy manba ekanligini yana bir bor anglatdi.[2] Zero, yuksak ma'naviyat bilan jamiyat hayotining tanasi bo'lgan iqtisodi-

yot vujudiga jon, ruh kiradi, unga tiriklik, tengsiz yaratuvchi qudrat baxsh etadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya – yagona ijtimoiy tarbiya jarayonining bir qismi hisoblanadi. Ma'naviyat va axloqning mohiyati, uning me'yorlari va tamoyillari mazmunini tushunish yoshlarning ma'naviy axloqiy jihatdan fikr yuritishlariga imkon yaratadi. Ma'naviy-axloqiy tushunchalar, baholash va muhokama yuritish asosida ma'naviy axloqiy e'tiqod shakllanadi va inson xatti-harakati va xulqi baholanadi. Ma'naviy-axloqiy e'tiqodga ega inson axloqiy me'yorlar talablarni ongli bajaradi va ularga hurmati oshadi. Jamiyatda ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining mazmuni uning maqsadlari bilan belgilanadi. Ya'ni, bu maqsadlar ijtimoiy munosabatlar tavsifi bilan belgilanadi. Yoshlarda ma'naviy-axloqiy hislarni, shaxsiy sifatlarni va xulqini tarbiyalash hamda rivojlantirishni taqozo etadi. Natijada ular o'zlari va boshqalarning xatti-harakatlarini ana shu nuqtayi nazardan baholaydilar. Yosh avlodni jismonan sog'lom, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning kelajagimizning munosib vorislari bo'lib yetishishlari uchun ko'maklashish davlatimiz siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zero, yoshlarimizning ma'naviy va axloqiy madaniyati jamiyatimizning ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy taraqqiyotida namoyon bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya va unga qo'yiladigan talablar bu jamiyatda ma'lum ijtimoiy axloqiy talablarga mos axloqiy xislatlarni shakllantirish maqsadida farzandlar ongi, hissiyotlari hamda xulqiga muvofiq va tizimli ta'sir etishdir. Ma'naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko'ra inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o'z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog'liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me'yor, ideal hamda talablarni bajarishda mas'uliyatni his etishi, ma'naviy-axloqiy bilimlarning e'tiqodga aylanishi va

bu e'tiqodlarning tizimliliği, mustahkam ma'naviy-axloqiy his-tuyg'u va xislatlarni shakllantirish, farzandlar tomonidan ma'naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a'zolariga bo'lgan hurmat-e'tiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligining anglab yetilishi, ma'naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi va boshqalardan iborat. Ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash masalasining kun tartibiga qo'yish zaruriyatining yuzaga kelganligi munosabati bilan tub o'zgarishlar yuz berdi. Eng muhim qadriyat inson omili hisoblanadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyada yana bir eng qimmatli qadriyat erkinligidir. Ta'limni demokratlashtirish bilan birga shaxs erki va huquqini hurmat qilish rivojlanadi. Bu esa o'z navbatida farzand shaxsida mas'uliyatni his etish, ongli intizomga rioya etish ko'nikmalarini tarbiyalaydi. Shuningdek, vatanparvarlik, xalqlar o'rtasida do'stlik va hamkorlik, mas'uliyatni his etish, burch, or-nomus, vijdonlilik, tartiblilik, adolatlilik va boshqa xislatlar tarbiyasi katta ahamiyatga ega.

Asosiy qism. Talaba-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda jadidlarning ma'rifatparvarlik g'oyalari muhim o'rin tutadi. Jadidchilik aslida ma'rifatparvarlik harakatining ko'rinishidir. Shuning uchun biz bu o'rinda masala bayonini ma'rifat va ma'rifatparvarlik tushunchalari va uning ahamiyatini izohlashdan boshlashni lozim topdik. Talabalar va yoshlarning ma'naviy madaniyatini rivojlantirish shakllari va usullari (konferensiya darslari; dars; amaliy dars; o'yin darsi; sayohat darslari; rolli o'yinlar darslari; o'quv faoliyati; ekskursiya; davra suhbatlari; kichik guruhlarda ishlash; ma'naviy madaniyatni shakllantirish usullari: muammoli vaziyat; qiyosiy-tushuntirish tahlili; asarlar ustidagi badiiy-ma'rifiy ishlar; ijodiy ish; kontseptual tahlil; mantiqiy tahlil; timsollar tahlili; ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni izohlash va o'rganish; mustaqil ish va boshqalar) tizim muhim o'rin tutadi. Ma'naviy-axloqiy bilimlarni ma'naviy-axloqiy kompetensiyaning bir qismi sifatida shakllantirish natijasida o'quvchilarda vatanparvarlik, baxt-saodat, or-nomus, muhabbat, ezgulik, vijdon, burch, adolat, e'tiqod kabi bir qator axloqiy qadriyatlar shakllanadi. Yosh avlod tarbiyasi o'ta dolzarb masala bo'lib, u ta'lim-tarbiyada uzviylik, qat'iylik va talabchanlik, ishlashning zamonaviy, ta'sirchan usul va vositalarini talab etadi. Shu ma'noda, biz tomonimizdan hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi integratsiyaning, hamkorlikning kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko'plab yangi ish o'rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizida uyg'unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha

shakli bilan bog'liq jarayonda talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni eksplitsit rivojlantirish masalalarini tadqiq etish ehtiyoji mavjudligi inobatga olinib, tadqiqot doirasida mazkur sifatlarni tashkil etuvchi mexanizm, determinantal va prinsiplar o'rganildi. Insonning ma'naviy-axloqiy barkamol bo'lishi xalq, davlat, jamiyat ma'naviyatiga asos ekanligi, yoshlarga chuqur nazariy va amaliy bilimlar, kasbiy malaka, ko'nikmalar hosil qilish, ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalari va muammolariga to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatish, Vatanni sevish, ajdodlari yaratgan bebaho ma'naviy javohirlarni imkon qadar egallash, ularni asrab-avaylash va boyitish, mamlakatimiz kelajagini, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning bugungi holatini chuqur tahlil qilish, jahondagi va mamlakatimizdagi ma'naviy, aqliy bilimlardan foydalanib voqelikda faol ishtirok etish ruhida tarbiyalash bugungi kun talabidir.[3] G'arbni kamsitmagan holda ishonch bilan ayta olamizki, azaldan Sharq oilasi G'arb oilasiga qaraganda mustahkamroq bo'lib kelgan. Chunki G'arbda birinchi o'rinda huquq tursa, Sharqda axloq turadi. G'arbda individualizm ustuvor bo'lsa, Sharqda jamoaviylik ustuvor bo'lib kelgan. Bizda har bir ishni qilishdan oldin, u tadbir bo'ladimi, kiyinish bo'ladimi, shaxsiy muloqotlar bo'ladimi "odamlar nima der ekan?", degan savol bilan yondashilgan. Qolaversa, Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" asari qahramoni Yusufbek xojining: "Bu xonadondan hech kim norizo bo'lib ketgan emas", degan so'zlarida Sharqona oilaning mohiyati aks etgan. Sharq oilasining bir qismi bo'lgan o'zbek oilalarida o'zaro hurmat, qat'iy ichki intizom asosida barcha a'zolarining o'z burch va vazifalarini ado etishlari, bir-birlariga nisbatan ezgulik va mehr-oqibat ko'rsatishlari an'anaga aylangan.

Xulosa. Zamonaviy pedagogika orqali o'quvchilarning axloqiy-ma'naviy kompetensiyasini shakllantirishning mazmuni, shakli, usul va vositalarini izchil takomillashtirib borish, yoshlarning ma'naviy-axloqiy toifalar, me'yorlar, qadriyatlar tizimi haqidagi bilimlarni shakllantirish, ijtimoiy munosabatlar, ulardan amaliy faoliyatda foydalanish malakalarini oshirish muhim ahamiyatga ega. Yoshlarning ma'naviy-axloqiy barkamolligini rivojlantirishda millatimiz tarixi va ma'naviyatining ildizlariga e'tibor qaratish zarur. Ma'naviyatini yuksaltirish orqali ularning adabiy merosini keng targ'ib qilish, unumli foydalanish va tahlil qilish, ya'ni pedagogik yondashuvi, adabiy merosi, qo'llagan didaktikasi, uslub, vosita va mahorati hamda chinakam ishtiyoq va yetakchilik kabi insoniy fazilatlarini misol bo'la oladi. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy barkamollikni yanada rivojlantirish va singdirish vatanparvar, aqliy, axloqiy, ma'naviy va jismonan sog'lom avlodni tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz (1-jild). – Toshkent: O'zbekiston, 2017.592-b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. 48-b.
3. A.K.Shamshetova, R.N.Melibayeva, X.E.Usmanova, I.O.Xaydarov. Umumiy psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: Barkamol fayz medial, 2018. 272-b.

Farida AXMEDOVA,
Samarqand shahar 65-maktab o'qituvchisi

SOG'LOM SHAXS HAYOTIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O'RNI

Annotatsiya: psixologik xizmatlar shaxsning ichki imkoniyatlarini rivojlantirish, stress va muammolarni yengishga yordam berish va o'z-o'zini anglashda qo'llaniladi. Sog'lom shaxslar, o'z hissiyotlarini nazorat qilish, muloqot qilish va ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatga erishish uchun psixologik xizmatlardan foydalanishadi. Ushbu xizmatlar, shuningdek, shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish, stressni kamaytirish va hayot sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: *sog'lom shaxs, psixologik xizmat, o'z-o'zini anglash, shaxsiy rivojlanish, ruhiy salomatlik, ijtimoiy munosabatlar.*

Аннотация: психологические услуги используются для развития внутренних способностей человека, помощи в преодолении стресса и проблем, развития самосознания. Здоровые люди используют психологические услуги, чтобы управлять своими эмоциями, общаться и добиваться успеха в социальных отношениях. Эти услуги также важны для развития межличностных отношений, снижения стресса и улучшения качества жизни.

Ключевые слова: *здоровый человек, психологическая служба, самосознание, развитие личности, психическое здоровье, социальные отношения.*

Annotation: psychological services are used to develop a person's inner capabilities, to help overcome stress and problems, and to develop self-awareness. Healthy individuals use psychological services to manage their emotions, communicate, and succeed in social relationships. These services are also important in developing interpersonal relationships, reducing stress and improving quality of life.

Key words: *healthy person, psychological service, self-awareness, personal development, mental health, social relations.*

Bugungi kunda ta'lim tizimlarida psixologik xizmatni joriy etish borasida olib borilayotgan qator nazariy-ilmiy va amaliy-uslubiy ishlar psixologik xizmatni joriy etish va rivojlantirish uchun ma'lum darajada asos bo'lmoqda. Ayni paytda, psixologik xizmat tizimining bugungi holati va uning amaliy faoliyat yo'nalishlarini har tomonlama, chuqur tahlil qiluvchi va shu tahlillar asosida psixologik xizmatning istiqbollari ochib beruvchi maxsus tadqiqotlarning taqchilligi nihoyatda muhim muammo bo'lib qolmoqda. Demak, tabiiyki, mazkur muammoni bartaraf etish uchun O'zbekistonda psixologik xizmatning joriy etilishi, bugungi holati va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari o'rganishga, tahlil qilishga va izohlashga bag'ishlangan psixologik va ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning olib borilishi davr taqozosidir. Shunda kelib chiqqan holda, bugungi ta'lim muassasalarida, mehnat jamoalarida bo'lajak kadrlarni har jihatdan tayyorlash bilan bog'liq psixologik xizmatning ilmiy-tashkiliy jihatlariga va ayniqsa, ijtimoiy-psixologik muhofaza imkoniyatlarini tadqiq qilishga oid maxsus o'tkazilgan tadqiqotlarning nihoyatda sust ekanligi; ijtimoiy psixologiya, psixologik konsultatsiya fanlarining zamonaviy yo'nalishlari fanlarida bugungi psixologik xizmat tatbiqini qamrab oluvchi vazifalarning aniq va batafsil belgilanmaganligini, ta'lim va mehnat muassasalarida tashkil etilgan psixologik xizmat tajribalari misolida o'quvchi va ishchi-xodimlar muvaffaqiyatli faoliyatini ta'minlashdagi ijtimoiy psixologik muhofaza imkoniyatlarini o'rganish va kamol toptirish bilan bog'liq

bugungi O'zbekistonning o'z istiqbol va istiqbol yo'li, ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyoti talablariga javob beruvchi ilmiy-amaliy tavsiyalarining ishlab chiqilmaganligi kabilarni bugungi dolzarb muammolardan biri sifatida qayd etish mumkin. Psixologik maxsus adabiyotlardan bizga ma'lum bo'lishicha, ijtimoiy – psixologik xizmat metodologiyasining umumiy yo'nalishlari G'arb ijtimoiy psixologiya namoyandalari tadqiqotlarini quyidagicha izohlash mumkin: V.Vundtning 1900-yilda chop etilgan "Xalqlar psixologiyasi" nomli yirik (o'n tomlik) epik asari ijtimoiy psixologiya yo'nalishlarini yorqinlashtirishga xizmat qilib, inson ma'naviyati, madaniyati va mafkurasini o'rganishning murakkab tomonlarini ochib berdi. Taniqli ingliz psixologi Vilyam Makdugallning 1908-yilda yozilgan "Ijtimoiy psixologiyaga kirish" asaridagi "ijtimoiy xulq-atvor instinktlari" nazariyasi freydizmga qarshi o'laroq inson instinktlari va faoliyat uyg'unligini ta'minlash muammosini yoritishga ilk bor asos bo'lib xizmat qildi. B.M.Teplov, V.S.Merlin, V.D.Nebilitsin, E.A.Golubeva, B.R.Qodirov va ularning shogirdlari tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlar mazmuni ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy psixologik xizmat uchun muhim bo'lgan har bir shaxsning (individning) tabiiy va tug'ma sifatlarini, oliy nerv faoliyatining o'ziga xos qobiliyat elementlarini va unga ta'sir etuvchi ta'lim-tarbiya, tashqi muhit va faoliyatning nechog'lik tashkil etilish jarayonini mukammal o'rganish va uni ijtimoiy maqsadlar asosida rivojlantirish yo'llarini belgilash uchun katta imkoniyat yaratdi. Psixologik xizmatning muvaffaqiyatli tashkil

etilishi uchun muhim nazariy-ilmii ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy psixologik vazifalarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarni Andreeva G.M., Davletshin M.G., Zabrodin Yu.M., Karnegi D., Karimova V.M., Parigin B.D., Shumarov G.B., G'oziyev E.G'. Bugungi psixologiya fani taraqqiyoti an'analari bilan bog'liq insonning amaliy psixologiyasini, uning jamiyatdagi ijtimoiy faolligi va ijtimoiy tabiatidan ajratib bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan, inson omillarini va uning jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarini to'g'ri va samarali boshqarish jarayoni jamiyatga va jamiyat a'zolariga psixologik xizmat ko'rsatish muqarrarligini talab qiladi. Bu borada iqtisod, huquq, etika, etnografiya, tarix, sotsiologiya va shu kabi barcha fanlarning o'zaro mustahkam hamkorligi natijasida inson psixologiyasining amaliy muammolari hal etilishi lozim. Psixologik xizmat metodologiyasi esa ko'proq birinchi yo'nalish "psixologik ijtimoiy psixologiya" asoslari zahirida tarkib toptiriladi. Professorlar: E.G'oziyev, I.Tursunov, J.Ikromovlarning "XX asr va shaxs kamoloti" mavzusidagi ma'lumotlarida ham psixologik xizmat ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etuvchi individ, shaxs va subyekt taraqqiyotining tadqiqotida quyidagi holatlarga jiddiy e'tibor berish zarurligi uqtiriladi:

– inson rivojlanishining determinatori hisoblangan asosiy omillar va shart-sharoitlar (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, pedagogik va yashash muhiti omillari);

– insonning o'ziga taalluqli, asosiy tafsilotlar, uning ichki qonuniyatlari, mexanizmlari, e'tiqod bosqichlari barqarorlashuvi va involyutsiya;

– inson yaxlit tuzilishining asosiy tarkiblari, ularning o'zaro aloqalari, shaxsning tashqi ta'sirlarga javobi va munosabati, taraqqiyot jarayonida ularning takomillashuvi (Xalq ta'limi, N5). Darhaqiqat, har bir insonning o'z individual olamida sodir etilayotgan barcha ma'naviy va ruhiy kechinmalarini u yashab turgan jamiyat istiqbol-lariga mos tarzda tadqiq qilmay turib shaxs va faoliyat, shaxs va jamiyat, shaxs va individuallik o'rtasidagi ij-timoiy mutanosiblikni ta'minlab bo'lmaydi. Zero, psixologik muhofaza vositasi sifatida tadqiq qilinayotgan ijtimoiy psixologik himoya falsafasi ham shuni taqozo etmoqda.

Bugungi psixologik xizmatning qulay va shaxs kamoloti uchun nihoyatda ahamiyatli tomonlari barchaga ma'qul va manzur bo'lgan. Lekin, psixologik xizmatning keng targ'ibot qilinishi uchun yuqoridan maxsus rasmiy far-moyishning va amaliyotchi-psixologlarning nihoyatda taqchilligi yoppasiga barcha maktablarda xuddi shun-day psixologik xizmatni tatbiq etish ishiga birmuncha to'sqinlik qilib kelar edi. 1990 - yillarga kelib mustaqillik, erk, o'zlikni anglash hislari hukmron bo'lgan O'zbekiston sharoitida inson va jamiyat kamolotini ko'zlovchi barcha ijtimoiy sohalar singari psixologik xizmat tatbiqining keng quloqch yoyishi uchun ham o'ziga xos zamin hozirlandi.

Psixologik xizmatlar nafaqat ruhiy muammolarni hal qilish uchun, balki sog'lom shaxs sifatida insonning rivojlanishiga ko'maklashish uchun ham xizmat qiladi. Psixologlar odamlarni o'z hissiyotlarini anglash va bosh-qarish, shuningdek, stress va bezovtalikni kamaytirish bo'yicha bir qator usullarni taklif etadi. O'z-o'zini anglash va shaxsiy rivojlanish jarayoni psixologik xizmatlar orqali amalga oshiriladi. Psixologlar, individning kuchli va zaif jihatlarni aniqlashga yordam beradi va ularni rivojlantirish uchun strategiyalar taklif qilishi mumkin. Bu jarayon shaxsni yanada kuchliroq, o'ziga ishonadigan va mu-vaffaqiyatli inson sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Hozirgi kunda stress va tashvishlar ko'plab kishilarning hayotini murakkablashtirmoqda. Psixologik xizmatlar yordamida stressni boshqarish bo'yicha ma'lumot va usullar olishi mumkin. Ushbu xizmatlar insonlarga turli stressli vaziyatlardan muvaffaqiyat bilan o'tishga yor-dam beradi. Psixologik xizmatlar yordamida ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash niyatida turli treninglar va maslahatlar berilishi mumkin. Bu esa shaxslarning o'zaro munosabatlarida yaxshilanish va ijtimoiy aloqa-larini kuchaytirishga yordam beradi. Umuman olganda, sog'lom shaxs hayotida psixologik xizmatlarning o'rni beqiyosdir. Ular nafaqat ruhiy muammolarni hal qilish uchun xizmat qiladi, balki insonlarning shaxsiy rivojla-nishini rag'batlantiradi, stressni boshqarishga yordam beradi va ijtimoiy munosabatlarni yaxshilaydi. Shu-ning uchun psixologik xizmatlar har bir insonga foyda keltirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. – Toshkent.1999-y.
2. Tadjieva S.X., Sabirova D.G'. "Tanglik vaziyatida qolgan bolaga psixologik yordam ko'rsatish". – T.: RBIMM, 2011 - y. 142- b.
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/sog-lom-shaxs-hayotida-psixologik-xizmatning-o-rni/viewer>
4. <https://www.in-academy.uz/index.php/zdif/article/download/7256/5479/5536>

Shaxlo NURULLAYEVA,
Samarqand shahar 65-maktab o'qituvchisi

O'SMIRLIK DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: o'smirlik davri inson hayotidagi muhim bosqichlardan biri bo'lib, psixologik rivojlanish, shaxsiy o'zgarishlar va ijtimoiy munosabatlar nuqtai nazaridan nozik xususiyatlarga ega. Ushbu davrda o'smirlar o'z shaxsiylikini izlaydi, kimligini aniqlashga intiladi va ko'plab ichki va tashqi konfliktlarga duch keladi. Bundan tashqari, o'smirlik davrida hissiy holat, ruhiy holat va ijtimoiy muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar, o'smirning o'zini tutishiga va qaror qabul qilishga ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: o'smirlik davri, psixologik rivojlanish, stress, hissiy holat, ijtimoiy munosabatlar, ichki konfliktlar, tashqi konfliktlar, shaxsiy o'zgarish.

Аннотация: подростковый возраст является одним из важных этапов в жизни человека и имеет тонкие особенности с точки зрения психологического развития, личностных изменений и социальных отношений. В этот период подростки ищут свою идентичность, стремятся определить, кто они, и сталкиваются со многими внутренними и внешними конфликтами. Кроме того, в подростковом возрасте взаимодействие между эмоциональным состоянием, психическим состоянием и социальной средой влияет на поведение и решения. Изготовление смира.

Ключевые слова: подростковый возраст, психологическое развитие, стресс, эмоциональное состояние, социальные отношения, внутренние конфликты, внешние конфликты, личностные изменения.

Annotation: adolescence is one of the important stages in a person's life and has subtle characteristics in terms of psychological development, personal changes, and social relationships. During this period, adolescents search for their identity, seek to define who they are, and face many internal and external conflicts. In addition, during adolescence, the interactions between emotional state, mental state, and social environment, affects the behavior and decision-making of the smir.

Key words: adolescence, psychological development, stress, emotional state, social relations, internal conflicts, external conflicts, personal change.

O'smir o'quvchilarni ta'lim va tarbiya berish ishlarida uchraydigan ayrim qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi va xususiyatlarini ba'zan yetarli darajada bilmaslikdan yoki inkor qilishdan kelib chiqadi. Kichik va katta yoshdagi maktab o'quvchilariga qaraganda o'smirlik yoshidagi bolalarni tarbiyalashda juda ko'p qiyinchiliklar bo'ladi. Chunki kichik bolaning katta odamga aylanishi jarayoni juda qiyin kechadi. Bu jarayon o'smirlar psixologiyasining odamlar bilan bo'lgan munosabat formalarining jiddiy ravishda o'zgarishi hamda hayot sharoitining o'zgarishi bilan bog'liqdir. Bu davrda o'smirlarning o'z shaxsiy fikrlari paydo bo'ladi. Ularda o'z qadr-qimmatlari haqidagi tushuncha kengayadi. Ilmiy psixologiyaning aniqlashi bo'yicha o'smirlarning psixik taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchlar, ularning faoliyatlari bilan tug'iladigan ehtiyojlar bilan bu ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi dialektik qarama-qarshiliklarning yuzaga kelishi va bartaraf qilinishidan iboratdir. Psixologlarning fikricha, yosh psixologik xususiyatlari faqatgina yolg'iz biologik jihatidan yetilishi va taraqqiy etilishining natijasi bo'lmay, balki bolaning ijtimoiy hayot sharoitlari va faoliyatlarining o'zgarishi hamda bu jihatdan yangi ijtimoiy omillarning paydo bo'lishi natijasida o'smirning taraqqiyotiga va unga beriladigan maktabdagi ta'lim va tarbiya berishni aniq tashkil qilish o'smirlarning konkret hayot sharoitlari va faoliyatning mahsuli deb qarab bo'lmaydi. Bu davrda yurak qon tomirlari sistemasining taraqqiyotida mos

kelmaslik hodisasi kuchlaniladi. Bu paytda yurak hajm jihatidan ancha kattalashadi, ancha kuchli ishlay boshlaydi. Ko'pincha qon aylanishining vaqtincha buzilishida qon bosimining yoshga bog'liq holda ko'tarilishiga, yurak faoliyatining zo'r berilishiga olib keladi. Natijada o'smirlarda uchraydigan bosh aylanishi, yurak urishi, bosh og'rig'i paydo bo'ladi. O'smirlarning yoshi ham jismoniy psixik xususiyatga egadir, organizm Pavlov ta'limotiga ko'ra, bir butun sistemadan iborat bo'lib, bunda barcha to'qimalar va organlar fiziologik jarayonlar uzviy ravishda bir-biri bilan bog'langan bo'ladi. Lekin bir butunlikda nerv sistemasi va u bilan bog'langan yuqori qismi I.P.Pavlov so'zi bilan aytganda, organizmda sodir bo'ladigan barcha hodisalarni boshqarib turuvchi bosh miya potsi asosiy yetakchi rolni o'ynaydi. O'smirlik yoshida nerv sistemasining yuqori qismi sifat jihatidan osha boshlaydi va miya ichki tuzilishi murakkablashishga o'tadi. Katta yarim sharda nerv hujayralarning yetilishi tugallanadi. Nutqni o'zlashtirishga harakat bu o'smirning muomala, bilish va ijodiy faoliyatga kirishishga ehtiyoji va intilishi hisoblanadi. O'smirlik davrida o'qish va yozma monologik nutq jadal rivojlanadi. 5-sinf dan boshlab to 9-sinf gacha o'qish to'g'ri, tez va ifodali bo'lishi darajasidan, yoddan ifodali, ta'sirli aytib bera olish darajasigacha ko'tariladi. Monologik nutq esa asardagi kichik bir parchani qayta so'zlab berishdan, mustaqil ravishda nutq va chiqishlar tayyorlash, og'zaki mulohaza yuritish, fikr bildirish va

ularni asoslab berishgacha o'zgaradi. Yozma nutq ham yaxshilangan holda o'smirlar endi ularga berilgan erkin mavzu bo'yicha mustaqil holda insho yoza oladilar. O'smirlarning nutqi to'la tafakkur bilan bog'liq holatida amalga oshiriladi. 5-6 - sinflardagi o'quvchilar og'zaki va yozma matn uchun reja tuzib, unga amal qila oladilar. O'smirlik davrida nazariy tafakkur yuqori ahamiyatga ega bo'la boshlaydi. Chunki bu davrdagi o'quvchilar atrof-olamdagi bog'lanishlar mazmunini yuqori darajada bilishga harakat qiladilar. Bu davrda o'smirning bilishga bo'lgan qiziqishida progress sodir bo'ladi. Ilmiy- nazariy bilimlarning egallab olinishi tafakkurning rivojlanishiga olib keladi. Buning ta'sirida isbot, dalillar bilan fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Unda deduktiv xulosalar chiqarishga qobiliyat paydo bo'ladi. Maktabda o'qitiladigan fanlar o'smir uchun o'z taxminlarini yuzaga keltirish yoki tekshirish uchun sharoit bo'lib xizmat qiladi. J.Piajening ta'kidlashicha, "Ijtimoiy hayot uch narsaning ta'siri – til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi". Bu borada o'zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o'z-o'zidan tafakkurining yangi imkoniyatlarini yaratadi. 11-12 yoshdan boshlab o'smir endi mantiqiy fikrlab harakat qila boshlaydi. Har xil psixologik o'zgarishlar va shaxsning taraqqiyoti, eng avvalo, mana shu shaxsning faoliyat xarakteriga bog'liqdir. O'smirning faoliyati o'qish, mehnat va o'yin jarayonlarini o'z ichiga oladi. Mana shu jarayonga to'xtalib o'tamiz.

1. O'smir kichik maktab o'quvchilaridan farq qilgan holda birinchi bo'lib ilmiy bilishda ishtirok etadi. Uning oldida birinchi faqat ayrim narsa va hodisani emas, barcha narsa va hodisalar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlarni tushunish bo'lib olish uchun ishlatiladi. Agar kimki maktab yoshi asosan, narsalar, tabiat va jamiyat hodisalari to'g'risida tasvirlar to'plash yoshdan iborat bo'lsa, o'smirlik yoshida ana shu tabiat va jamiyat hodisalari to'g'risida sistematik tushunchalar paydo bo'ladi. Beshinchi sinfdayoq ayniqsa, oltinchi sinfga kelib fizika, algebra, geometriya, tarix fanlari o'tila boshlanadi. Abstrakt tafakkur tez o'sa boshlaydi. O'quvchilar hodisalarning sabablarini tushunishga, hodisalarni ma'lum qonuniyatlar doirasida ifodalashga, bu qonuniyatlardan foydalanishga intiladilar.

2. O'smirlik yoshining rivojlanishiga ko'proq mehnat faoliyati ta'sir ko'rsatadi. O'smirlik yoshida mehnat ancha uyushqoqlik xarakterida bo'ladi.

3. O'smirlik shaxsning tarkib etishida o'yin ahamiyatini yo'qotmaydi. O'yin o'smirlik yoshida yuksak axloqiy tuyg'ularning irodaviy xarakter xislatlarning o'sishiga yordam beradi. O'yin o'smirni intizomli bo'lishga o'rgatadi, o'yin o'ylashga, fahmlashga, eslab qolishga, biror

narsani qilishdan oldin planlashtirishga va diqqatli bo'lishga da'vat etadi. O'smirlik kollektivi boshlang'ich sinf o'quvchilari kollektiviga qaraganda maktabda ham, uyda ham butunlay boshqa o'rin tutadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning qiziqishi va faoliyatlari asosan, sinf ishlari bilan cheklangan bo'ladi. O'smirlik yoshida va o'quvchilar pioner drujinasining barcha ishlarida esa ishtirokchi bo'ladilar. Bularning hammasi o'quvchilarning aloqasini tobora murakkablashtirib boradi. Bu yerda eng asosiy narsa shundaki, bu narsalar o'quvchilar kollektivining ko'p qirrali ijtimoiy hayoti bilan yashay boshlaydilar va bu hayotdan o'z o'rinlarini topishga harakat qiladilar. O'smirlikda o'smirlar o'zlarini anglashni, shaxsiy identifikatsiyasini shakllantirishni boshlaydilar. Bu jarayonda ular o'z qiziqishlari, qobiliyatlari va maqsadlarini aniqlashga harakat qiladilar. Ijtimoiy va madaniy ta'sirlar, shuningdek, ota-onalar va do'stlarning fikrlari, bu jarayonda muhim rol o'ynaydi. O'smirlik davrida o'smirlar uchun do'stlik va ijtimoiy guruhlar juda muhimdir. Ular do'stlari bilan munosabatlarini mustahkamlashga va turli ijtimoiy rollarni sinashga intilishadi. O'smirlar, o'zaro aloqalarni o'rganish, empatiya va kooperatsiya qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga, ba'zan raqobatchilik va konfliktlar bilan ham yuzlashishlari mumkin. O'smirlarning hissiy holati juda noaniq va o'zgaruvchan bo'lishi mumkin. Ular o'zaro munosabatlarda xilma-xil hissiyotlar, masalan, baxt, g'am, asabiylik va tashvishlarni his etishadi. Bu hissiyotlar, o'smirlar tomonidan boshqarilishi va anglanishi kerak, aks holda ruhiy vaziyatlarda salbiy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. O'smirlar hayotida stress eng keng tarqalgan muammolardan biridir. O'qishdagi muvaffaqiyatsizlik, oilaviy munosabatlar va ijtimoiy bosim kabi omillar o'smirlarning ruhiy holatiga ta'sir qiladi. Ruhiy salomatlikni saqlash uchun, o'smirlar faoliyatda qatnashish, sport bilan shug'ullanish va hissiy qo'llab-quvvatlashni izlashlari muhimdir. O'smirlar o'z ichlarida ko'plab konfliktlar va qarama-qarshiliklarga duch kelishadi. Ular, o'z qobiliyatlarini va o'z-o'zini anglash jarayonida o'zlarini doimiy ravishda baholaydilar. Tashqi konfliktlar esa, odatda, tengdoshlari bilan yuzaga keladi, bu esa ularning o'smirlik ijtimoiy qobiliyatlarini sinovdan o'tkazadi. O'smirlik davri, inson shaxsiy rivojlanishi uchun muhim va qiyin bir davr bo'lib, o'smirlar o'zlarini anglash, ijtimoiy muhitga o'rganish va hissiy tajriba orttirish jarayonidan o'tishadi. Ular bu davrda ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin, lekin bu jarayon ular uchun hayotlarining keyingi bosqichlariga tayyorgarlik ko'rishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduraxmonov F.R., Abduraxmonova Z.E. "Kasb psixologiyasi". – Toshkent. 2018.
2. Yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolari, sabab va yechimlari. Maqolalar to'plami. – Toshkent. 2020.
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-smirlik-davrining-psixologik-xususiyatlari/viewer>
4. <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/4021/2690>



Farxod NIZOMOV,
 Navoiy davlat universiteti o'qituvchisi,
 tayanch doktorant

XARAKTER VA RAMZ YARATISH: AN'ANA, O'ZIGA XOSLIK

Annotatsiya: maqola qissada xarakter yaratish mahorati, yozuvchi uslubi, psixologik talqin, adabiy aloqadorlik nuqtayi nazaridan mushtarak va farqli jihatlariga oid mulohazalar bayoniga bag'ishlangan. Nasrda ramziylikni qo'llash, lirik tasvir, an'anaviylik yuzasidan umumlashmalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: *badiiy xarakter, qahramon ruhiyati, peyzaj, tipologiya, ramziylik, talqin, komparativistika, milliylik, ijtimoiylik.*

Аннотация: статья посвящена описанию общих и различных сторон повести с точки зрения навыков создания персонажей, стиля письма, психологической интерпретации и литературной значимости. Выдвигаются обобщения об использовании символизма, лирической образности и традиционализма в прозе.

Ключевые слова: *художественный образ, менталитет героя, пейзаж, типология, символика, интерпретация, компаративистика, национальность, социальность.*

Annotation: the article is devoted to the description of the common and different aspects of the story from the point of view of character creation skills, writing style, psychological interpretation, and literary relevance. Generalizations about the use of symbolism, lyrical imagery, and traditionalism in prose are advanced.

Key words: *artistic character, hero mentality, landscape, typology, symbolism, interpretation, comparativistics, nationality, sociality.*

Nazar Eshonqul, Abduqayum Yo'ldosh va Luqmon Bo'rixon asarlari lirik talqin, kinoyaviy-ramziylik maqomidagi tasvirlar, badiiy istioraviy va ramziy obrazlar bilan boyitganligini ko'rishimiz mumkin. "Momoqo'shiq", "Shoirning muhabbati", "Bir tomchi yosh" qissalarida voqelik, tasvir mahorati, ruhiyat va xarakter ifodasi, ramziylik jihatidan mushtarak jihatlarni uchratamiz. Akademik A.S. Bushmin ta'kidlaganidek, "Turli milliy adabiyot vakillari qanchalik iste'dodli bo'lishidan qat'iy nazar, baribir, boshqa so'z san'atkorlaridan ham u yoki bu darajada ta'sirlanishi tabiiy. Adabiy aloqadorlik tizimida u yuksak iste'dod sohibi bo'lsin, hatto o'rtacha iqtidordagi bo'lsin, baribir, o'zaro bir-biridan o'rganishi tabiiy adabiy qonuniyat sanaladi" [2;62].

"Shoirning muhabbati" qissasida Nozimning yagona hamdardi tomonidan chin oshiq fenomeni bilan bog'liq hikmatomuz so'zlar ifodasini diqqatdan soqit qilmaydi: "Bu dunyoda muhabbatdan ko'ra sirliroq, sehrliroq tuyg'u bormikan? Bu dunyoda chin sevgidan ko'ra totliroq, ilohiyroq mo'jiza topilarmikan?" [4; 143]. Asardagi Oltinoyning psixologik portretida zohir beg'ubor go'zallik Rajaboy ("Bir tomchi yosh") tiynati bilan hamohanglik kasb etadi: "Ha, faqat mening shoir jo'ram Nozim sevib qolgan Oltinoyning mana shunday so'lim, mana shunday suluv bo'lishi mumkin edi. Sutga chayib olinganday oppoq chehra, bodomqovoqlar, qayrilma qoshlar, uzun-uzun kipriklar, oppoq qalpoq chekkasidan chiqib turgan qop-qora sochlar... Yo'q, bu go'zallikni, bu chiroyini ta'rif-tavsiflab bo'lmaydi" [4; 143]. Yana taqdir, sevgi

qismatidagi mushtaraklik Nozim-Oltinoy, Baxtiyor-Rajab, "Sunbulaning ilk shanbasi"dagi yigit va qiz juftligidagi oshiq-ma'shuqlarning bir-biriga yetisha olmaganliklari hodisasida namoyon bo'lgan.

Bu uch ijod namunasi faqat ikki yosh o'rtasidagi chinakam muhabbatni, bu yo'ldagi sirlil va azobli holatlarni tasvirlash bilan chegaralanmaydi. Balki, asar g'oyaviy pafosi real hayotning realistik ijtimoiy muammolari tizimida talqin etilganligi bilan ham hayotiy haqqoniylik fazilatini kasb etgan. "Shoirning muhabbati"da Nozim va hamxonaning oliygohda to'lov-kontrakt asosida o'qishi, rivoyachi-talabaniing dardsinib: "Ular ikkoviyam ota-onasini qirib-qirtishlab, ne bir azoblar bilan to'layotgan o'sha ulkan miqdordagi "kontrakt" pulning hech bo'lma-sa, bir qismini o'zlari topaylik degan maqsadda o'qishdan chiqsa-sola ishga yugurardilar, shanba-yakshanba kunlarini esa mardikor bozorida sarg'ayib o'tkazardilar, ish topilib qolsa, boshlari osmonga yetardi, ish topilmasa, "suvga tushgan mushukday" tumshayib yotoqxonaga qaytardilar" [4; 157] deyilishida, "Bir tomchi yosh"da Baxtiyorning hayot tashvishlari, turmush azoblari sabab o'zini o'tdan cho'qqa urishida, qobiliyatini unutishida, ro'zg'orini butlash uchun "qora mehnat"ga o'zini urishi-yu najot topmasligi va "Unga rahmi kelib, safarga birga olib ketishga ko'ngan haligi brigadirga endi nima deydi? Yo'lkira topolmadim deydimi, so'narib? Qarindoshlardan ham baribir, naf yo'q. Yo narigi mahalladagi sudxo'rdan qarz ko'tarsammikan? Biroz tanish-bilishligi bor, balki qarz foizini arzonroq

qilib berar" [1; 14-15], –degan sarob xayollar unga tinchlik bermaydi.

"Momoqo'shiq"da esa qishloq hayoti, paxta mavsumi mashaqqatlari, odamlarning doimiy mehnat qilishlari, ish deya kishilarning orzularidan voz kechishlari, turmush og'irliklari ijtimoiy voqelik tasvirida badiiy ifodasini topadi. Adabiyotshunos Ozod Sharofiddinov: "Xarakter – adabiyotning badiiyligini, ta'sir kuchini ta'minlaydigan asosiy omillardan biridir. Yozuvchi hayotni kuzatish va o'rganish natijasida ijtimoiy taraqqiyotni tezlashtirishga yordam beradigan teran umumlashmalarga keladi. Bu umumlashmalardan salmoqli, muhim g'oyaviy niyatlar tug'iladi" [5;81] degan edi. Uch yozuvchining asarlaridagi xarakterlar faoliyati dolzarb masalalari, istiqloq davrida kun tartibidagi bozor iqtisodi, bandalarning yashash yo'lida o'zini o'tga-cho'qqa urib harakat qilishlari kabi ijtimoiy muammolar girdobida talqin qilinishida bu xususiyatlarni topish mumkin. Rost, oliy va o'rta ta'lim tizimida o'qishning kontrakt-to'lov sharoiti, istiqloqning dastlabki davridagi bozor iqtisodiyotiga o'tish mashaqqatlarining odamlarga ta'siri yoki paxta terimiga hammaning safar etilishi, uning qora bo'yoqlardagi aksi ancha-muncha oilalarda muammoni yuzaga keltirganligi shunday haqiqatlardan biri edi.

"Shoironing muhabbati"da Nozim xarakter-ziyatidagi osoyishtalik, kamsuqumlik, asl tuyg'ularini dasturxon qilavermaydigan fazilatlarini; u hatto ko'ngil to'ridan abadiy joy olgan sevgani Oltinoyning nominiyam barchaga dasturxon qilavermaydi. Baxtiyorning hali hech kimi bo'lmagan ayolni qizg'anishlari, uning sha'niga salbiy gap eshitishni xohlamasligi (mushtlashishgacha boradi), ozor berishdan o'zini tiyishida, uni doim oqlashida, inja tuyg'ularini u bilan o'rtoqlashishga intilishlarida seziladi. Bu xususiyat Otaqul va Muazzamda ham seziladi, ular ham ko'nglidagi dardlarini hammaga ochmaydi. Kamtarin oiladagi baxt, hayotdan mamnunlik, oddiy hayotdagi to'laqonli mamnunlik kishilarni hayratga soladi. Muazzamga Sh.Salohning "Sen yovvoyi o'tlar orasida o'sgan gulsan.Sen kuzda qalqib turgan bir tomchi yoshsan. Makoning yer emas, sen falak qizisan" [3; 296], – deya qayta-qayta shaharga undashiga qaramasdan qishloqda qolishni afzal ko'rinishida bu hodisa yuzaga chiqadi.

Ona yerdek xokisor va qanoatli Nozimning 32 yoshida bevaqt vafotini eshitgan rivoyachi yigit afsuslanadi. "Men shunday turmush taloto'plaridan, tirikchilik tashvishlaridan, pul, mansab, yaxshi yashash ilinjidagi yelib-yugurishlardan bir lahzaga to'xtadimu, beixtiyor shoir jo'ramni xotirladim. Uzoq xotirladim, – deya chinakamiga o'rtanadi rivoyachi yigit. – Ana shunda... ana shunda men insonning, aniqrog'i, o'zimning o'tmishga nisbatan shunchalar bee'tibor va loqaydligimni angladim" [3; 131] desa, "Momoqo'shiq" Sh.Salohning asar boshida Muazzam va uning eriga bepisand muomala qilishi, ularning hayoti (tag'in baxtli oila!)ni nazarga ilmasligi, beg'ubor bir ayol to'g'risidagi yomon xayollari

yakunida pushaymon bo'lib, o'zi va jamoasi nomidan Muazzamdan "Biz sening qalbingni tushunolmadik, sening inson va baxt haqidagi orzularingni anglay olmadik, biz sening ota-bobolaringdan meros qolgan tushunchalaringga o'zimizning balandparvoz tushunchalarimizni tiqishtirdik, senga azob berdik... Senga ozordan boshqa hech narsa bermagan va berolmaydigan meni va ul mashhur shoirni boshqa eslama..." [3; 302], – deya uzr so'rashida yoki Baxtiyorning "Men xiyonat qildim! O'zimga xudo bergan iste'dodga, xiyonat qildim. San'atga xiyonat qildim!" [1; 26] tarzidagi iqrorlarida uch asosiy, ya'ni xarakterlarining mushtarak jihatlari borligini anglatadi.

Sho'x-shodon, hayotga, odamlarga bir qadar yengilroq ruhda qaraydigan rivoyachi yigitning bu kabi chin pushaymonlik e'tiroflari ham mohiyatan insoniy go'zallik tiynati kabi e'tiborni tortadi. Bemehrlik virusi jahonda kuzatilayotgan salbiy jihatlardan biri bo'lib, bu dolzarb ma'naviy muammo mashhur asarlarda o'zining teran badiiy in'ikosini topib kelmoqda: "Amerika fojiasi" (T.Drayzer), "Begona" (A.Kamyu), "Jarayon" (F.Kafka), "Oshkora qotillik qissasi" (G.Markes) kabi teran badiiy asarlar shunga misol bo'la oladi.

"Momoqo'shiq"da Muazzamning qobiliyati "... To'rt hasharchi ham xuddi birov imo qilgandek birdan to'xtab qoldi. Ular qo'shiqning nazariy tomonlarini va ovozning qadrini yaxshi tushunardilar. Shu sababli qarshilaridagi qizga bir zum sehlranganday, bir oz ajablenganday qarab turishardi. Hatto eng mashhur hofizlar ham bu qo'shiqning yuqori pardasiga kelganda biroz kuchanishardi; qiz esa dugonasiga shivirlayotganday qiyalmay, ovoz maromini o'zgartirmay pardadan-pardaga oshib o'tardi" [3;273-274] tasvirdan ham to'liq ko'rindi. Yozuvchi hayotning tabiiy maromidan kelib chiqib, manzarini realistik jozibasiga bilan chuqur lirik-psixologik taxlitda tasvirlab, asar ta'sir kuchini ta'minlay olgan. Adibning asl muddaosi ham texnogen progressiyasi avj olib rivojlanayotgan davrda ulug' ajdodlardan meros bo'lib kelayotgan bebaho boylikni – milliy qadriyat va urf-odatlarini unutmaslikka da'vatdir.

Qissadagi Muazzam obrazini o'zbek adabiyotida yaratilgan Kumush, Ra'no, Gulnor, Saida, Gulchehra, Fotima-Zuhra kabi ayol obrazlari qatorida va ulardan farqli ravishdagi, sobiq mustabid tuzum davr ruhini ifodalovchi milliyliги bilan yangi badiiy timsol ekanligini ta'kidlamog' kerak.

Oltinoy-Muazzam obrazlari bilan ma'naviy mushtarak timsollar safida Rajaboy qiyofasini ham ko'rsatib o'tish mumkin. Bu ma'nan-ruhan, chiroy va nazokat, hayo-ibo va vafodorlik jihatdan bir-biri bilan yaqin xarakter sohibalari milliy ruhining o'zaro monandligi bilan ajralib turadi.

Ma'lumki, "Bir tomchi yosh" qissasidagi rassomlik iqtidoriga ega Baxtiyorning tasodifan paydo bo'lgan sevgi tarixi asarning ikkinchi qismida o'z ifodasini topgan: "Bu qizni husndan ham, ismdan ham qisgan edi.

Semiz, beso'naqay gavdasini goh u yon, goh bu yonga tashlab ona ayiqday lapanglab yurar, go'yo do'rdoq lablarini, oytovoq yuzini, go'shtdor burnini birov ko'rib qolib qo'rqishidan ro'molini mahkam o'rab olgan edi. aslida uning chaqqongina, saranjom-sarishtali qiz ekanini birov bilib, birov bilmasdi"[1;38]. Ko'rinadiki, Rajab ismi bu qiz hali Baxtiyorga butun go'zalligi bilan namoyon bo'lmagan holda, tashqi tomondan deyarli diqqatni tortadigan darajada emas. Balki, yozuvchi atayin shunday qilib, uning ma'naviy go'zalligini uning xarakter-xususiyatlarini tasvir qilish asnosi namoyish etishni ko'zlagandir.

Baxtiyor boshqa safar favqulodda uchratib qolgan qizning asli ancha suluv va ko'rkamligiga guvoh bo'ladi. Darhaqiqat, u taxtaday qotib qoldi: "Nogoh sharpani ilg'ab qiz ilkis bosh ko'taradi. Chehrasini to'sib turgan parishon sochlarni ikki yonga siltanib ketadi; oq ro'mol ostida kun ko'rmagan yuzlar ko'pchigan xamirday oppoq edi; bir juft qahrabodek ko'zlar hurkaklik bilan boqar, qalin, do'rdoq lablar nim ochilib titranar, go'yo nelardir demoqqa chog'lanar edi; Baxtiyor xuddi jodulanganday ancha payt yirik-yirik shahlo ko'zlaridan ko'z uzmasdi; Baxtiyorning a'zoyi badani jimirlab, yuragi gurs-gurs ura boshlaydi; qiz ham shu alfozda bir muddat tek qotadiyu, so'ng "voy" deganicha o'rnidan irg'ib turadi, kalovlanib yerdan ro'molini olib boshiga iladi..." [1; 40-41] Rajaboyning psixologik portreti tasviri Oltinoy, Muazzam tiynati kabi asl go'zallik, lirik qalb sohibi ekanligi bilan mushtaraklik kasb etgan. Baxtiyorning Rajab bilan samimiy va tortinchoq holda qilgan suhbatlarida uning

ishqi tushgan qizning xarakter qirralari bo'y ko'rsata boshlaydi. Rajabning tashqi ko'rinishidagi ko'rkamlik xuddi Oltinoy va Muazzam tiynatida mujassam, lirik qalbli beg'ubor go'zallar timsoli bo'lib ko'rinadilar.

Muazzamning yashirin-u oshkora qo'shiq kuylashlari, Baxtiyorning sinf xonadan o'g'irlab chiqqan bo'r bo'lagi bilan olis-olis qirlar etagidagi xarsangtoshga har xil narsalarning rasmini chizishida, Rajaboyning hammadan pinhon egatlarda qo'shiq xirgoyi qilishida, Nozimning yolg'iz kezlarda she'r mashq qilishi, yoddan aytishi (muallif bu jihatni asar nomiga ko'chiradi – ta'kid, bizniki), Oltinoyning shifoxonada bo'sh vaqti bo'ldi deguncha mutolaaga o'tirishi, shoirona gaplarni nutqida qo'llashi kabi jihatlar bu obrazlarning orzulari, ichki menlari, ruhiyati monand ekanligidan dalolatdir.

Shuningdek, N.Eshonqul, L.Bo'rixon nasrida Muazzam va Rajaboy uchun chizilgan rasmlar tasviri ham uchraydi. Dastlab, Sh.Saloh o'z maqsadini amalga oshirilmasdan unga tan berishi orqali suratni sovg'a qilsa, Baxtiyorning rassomlik mahoratidagi "Mono Liza"si shu qizning ko'z yoshi tasvirlangan "Bir tomchi yosh" edi. A.Yo'ldoshda esa Nozimning Oltinoyga bag'ishlangan-u yetib bormagan she'rlari tasvirlarini muhabbat, qadriyat, go'zallik, sadoqat, insoniylik singari tushunchalar bilan muqoyasa qilish mumkin.

Demak, mazkur qissalar g'oyaviy pafosi, lirik-potensial ko'lamining salmog'i Nozim-Oltinoy, Muazzam, Baxtiyor-Rajaboy timsollarining yetuk milliy xarakter sifatida yaratilgani va ramziy tasvirga urg'u berilgani bilan bevosita bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бўрихон Л. Бир томчи ёш // Бўрихон Л. Қуёш ҳали ботмаган. Қиссалар ва ҳикоялар. – Т.: "Ўзбекистон", 2015.
2. Бушмин А.С. Преемственности в развитии литературы. Ленинград, "Художественная литература", 1978.
3. Эшонқул Н. Момоқўшиқ. – Тошкент: Ф.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019.
4. Йўлдош А. Шоирнинг муҳаббати. – Тошкент:Ишқ афсунлари. "Янги аср авлоди", 2019.
- 5.Шарафиддинов О. Характер – бадийлик мезони // Гўзаллик излаб. Адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент: Ф.Ғулом номидаги АСН, 1985.224 бет.

Nafisa IBADOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti
Ingliz tili kafedrası
Mustaqil tadqiqotchi
ibadovanafisa83@gmail.com

JAMIYATDA TIL VA MADANIYATNING O'RNI VA VAZIFALARI

Annotatsiya: til asosiy ifoda vositalaridan biri sifatida ushbu kichik ilmiy tadqiqotda yoritilgan. Hozirgi kunda olimlar tilga qiziqish bildirmoqda, chunki u tarjima sharoitida vakillik vazifasini bajaradi. Tilga ko'pincha oddiy muloqot vositasi sifatida qaraladi. Biroq, u yangi bilimlarni ochish, aniqlash va saqlashda markaziy rol o'ynaydi. Til bilimning vaqt o'tishi bilan uzatilishiga va uning ishonchligini ta'minlash uchun asos bo'lgan muhokama va munozara mavzusiga aylanishiga imkon beradi.

Kalit so'zlar: aloqa, madaniy uzatish, til, madaniy rollar, til funksiyalari.

Аннотация: язык как одно из основных средств выражения рассматривается в этом небольшом научном исследовании. В настоящее время учёных интересует язык, поскольку он выполняет репрезентативную функцию в условиях перевода. Язык часто рассматривается как простое средство общения. Однако он играет центральную роль в открытии, идентификации и хранении новых знаний. Язык позволяет знаниям передаваться с течением времени и становиться предметом дискуссий и дебатов, что является основой обеспечения их достоверности.

Ключевые слова: коммуникация, культурная передача, язык, культурные роли, языковые функции.

Annotation: language as one of the main means of expression is covered in this small scientific study. Nowadays, scientists are interested in language as it serves a representational function in the conditions of the translation. Language is often seen as a simple means of communication. However, it plays a central role in the discovery, identification and storage of new knowledge. Language allows knowledge to be transmitted over time and become the subject of discussion and debate, which is the basis for ensuring its reliability.

Key words: communication, cultural transmission, language, cultural roles, language functions.

Kirish. Tilga ko'pincha oddiy muloqot vositasi sifatida qaraladi. Biroq, u yangi bilimlarni topish, aniqlash va saqlashda markaziy rol o'ynaydi. Til bilimlarning vaqt o'tishi bilan uzatilishiga va munozara va munozaralarning predmetiga aylanishiga imkon beradi, bu esa ularning ishonchligini ta'minlashning asosi hisoblanadi. Til bilimlarni rasmiy ta'lim doirasida, shuningdek, ta'lim muassasalaridan tashqarida ommabop shakllardan (foydalanish bo'yicha yo'riqnomalar, retseptlar va boshqalar) tarqatish imkonini beradi. Til, garchi u asosiy ifoda vositasi bo'lmasa ham, muhimdir. Masalan, bilimning ko'plab shakllari o'z-o'zidan tildan kamroq foydalaniladigan semiotik tizimlarda ifodalanishi mumkin: matematik belgilar, ramzlar, formulalar, statistika, xaritalar, diagrammalar, fotosuratlar. Ushbu tizimlarda qo'llaniladigan kodlar o'z-o'zidan yetarli, ammo ular muhokama qilish, talqin qilish yoki o'rganish uchun og'zaki bo'lishi kerak.

Metodlar. Til va madaniyatning o'zaro ta'siri haqida fikr yuritib, "madaniyat" tushunchasiga batafsil to'xtalib o'tish zarur, deb hisoblaymiz. Misol tariqasida olimlarning ushbu tushunchani tadqiq etish bo'yicha bir nechta tadqiqotlarini keltirish mumkin. Masalan, tadqiqotchi G.V.Yelizarova "madaniyat" tushunchasi intuitiv jihatdan shaffof bo'lib ko'rinadigan aksiomatik tushunchalar sirasiga kiradi, deb xabar beradi. Ammo bunday murakkab tushunchaga batafsil ta'rif berish juda murakkab jarayondir. Madaniyat so'zining ma'nosiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uning quyidagi ma'noga ega ekanligini bilib olamiz: "Madaniyat

– bu biz bu yerda qanday yashayotganimiz." Madaniyat so'zi asosida dastlabki izlanish barcha jamiyatlarga xos bo'lgan umumiy holat ekanligi izohlangan.

Nemis faylasuflari til va madaniyatning jamiyatdagi roli va funksiyalarini quyidagicha ta'riflaydilar[1]: "Tilshunoslar sifatida biz uchun bu katta rol o'ynashi aniq. Madaniyat va til juda chambarchas bog'liq. Biz jamiyatning ijtimoiy va madaniy qoidalarini birinchi navbatda muloqot orqali o'rganamiz. Madaniyatimiz iltimosni qanday ifodalashimizga yoki maslahat so'rashimizga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun til va madaniyatdagi farqlar bir-biriga yaqin. Madaniyat va til bir-biriga chambarchas bog'liq.

Jamiyatning shakllanishida til va madaniyat muhim rol o'ynaydi. Ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq va ko'p jihatdan bir-biriga ta'sir qiladi. Keling, til va madaniyatning jamiyatdagi o'rni va vazifalarini ko'rib chiqamiz. Til rollari:

1. *Muloqot: tilning asosiy funksiyalaridan biri – muloqotni yengillashtirish. Bu odamlar va guruhlar o'rtasida g'oyalar, ma'lumotlar va his-tuyg'ularni uzatish imkonini beradi. Samarali muloqot hamkorlik, o'qitish, boshqarish va ijtimoiy o'zaro ta'sir uchun zarur.

2. *O'ziga xoslikni ifodalash*: til alohida shaxslar va jamoalarga o'z-o'ziga xosligini ifodalashga imkon beradi. Shevalar, aksentlar va lug'at boyligi etnik mansublik va mintaqaviy mansublik kabi o'ziga xoslikning turli jihatlarini aks ettiradi.

3. *Bilimlarni saqlash*: til bilim va donishmandlikni saqlash vazifasini bajaradi. Madaniy urf-odatlar, an'analar va tarixiy tarixlar til orqali avloddan avlodga o'tib, jamiyatlarning umumiy donishmandligini saqlab qoladi.

Til vazifalari:

1. *Axborot vazifasi*: til ma'lumot va faktlarni uzatadi, odamlarga bilim almashish va boshqalardan o'rganish imkonini beradi. Bu funksiya ta'lim, fan va jamiyatda axborotni tarqatish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

2. *Ifodaviy vazifa*: til insonlarga o'z his-tuyg'ulari, fikrlari va subyektiv kechinmalarini ifodalashga imkon beradi. Bu funksiya shaxsiy o'zini namoyon qilish, badiiy harakatlar va ijtimoiy o'zaro ta'sirlar uchun hayotiy ahamiyatga ega.

3. *Direktiv vazifa*: tildan buyruqlar, so'rovlar va o'zaro ta'sirlarni berish uchun foydalanish mumkin. Bu funksiya ijtimoiy muvofiqlashtirish, yetakchilik va ijtimoiy tartib uchun zarur.

Madaniy rollar:

1. *O'ziga xoslik va tegishlilik*: madaniyat odamlarga o'ziga xoslik va jamoaga yoki jamoaga tegishlilik hissini beradi. U umumiy merosga ega bo'lgan odamlarni birlashtiradigan umumiy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar va xulq-atvor me'yorlarini o'z ichiga oladi.

2. *Ijtimoiy jipslik*: madaniyat jamoaviy harakatlar, hamkorlik va umumiy tushunish uchun asos yaratib, ijtimoiy jipslikka yordam beradi. Bu jamiyat a'zolari o'rtasida hamjihatlik va o'zaro sadoqat tuyg'usini rivojlantiradi.

3. *Ma'no hosil qilish*: madaniyat kishilarning dunyoni tushunishini shakllantiradi va ularga o'z tajribalarini talqin qilish uchun asos yaratadi. U inson borlig'siga ma'no beruvchi diniy e'tiqodlar, falsafiy qarashlar va axloqiy standartlarni o'z ichiga oladi.

Madaniyat funksiyalari:

1. *Me'yoriy funksiya*: madaniyat jamiyatda odamlarning xulq-atvori va o'zaro ta'sirini nazorat qiluvchi xulq-atvor me'yorlari va standartlarini ta'minlaydi. U xulq-atvor, axloq va axloqqa qo'yiladigan talablarni belgilaydi, ijtimoiy tartib va barqarorlikka ko'maklashadi.

2. *Tarbiyaviy funksiya*: madaniyat bilim, ko'nikma va qadriyatlarni avloddan savlodga yetkazish vositasi bo'lib xizmat qiladi. U odamlarni jamiyatda rivojlanishi

uchun zarur bo'lgan vositalar bilan ta'minlaydigan ta'lim tizimlari, kouching munosabatlari va ijtimoiylashuv jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Natija va muhokama. Madaniyat nima degan masala uning nima emasligi bilan bog'liq. Asosiy kontrast – madaniyat va tabiat. “Madaniyat” – klassik qarama-qarshi tushunchalardan biri bo'lib, u orqali tafakkur tarixi tabiatga o'zgaruvchan munosabatni ifodalaydi (tabiat – qonun, tabiat – san'at, tabiat – ruh, tabiat – aql, tabiat – tarix va h.k.); Bu yerda doimo tabiat inson tomonidan yaratilgan olamdan farqli so'laroq tushuniladi, unda birinchi qarama-qarshilik atamasi antik davrda asosiy, ikkinchi atama esa yangi zamonda. Madaniyat, bu birinchi ta'rif, inson tomonidan yaratilgan

Agar til va madaniyat bir-biri bilan shunchalik chambarchas bog'langan bo'lsa, bugungi globallashuv va ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida madaniy o'ziga xoslik, migratsiya va integratsiya uchun bu o'zaro bog'liqlik nimani anglatishi haqida gaplashishimiz kerak emasmi? Ko'p tillilik va milliy tilni bilish qanchalik muhim? Chet tillarni o'rganish va madaniyatlar haqida bilimga ega bo'lish madaniyatlararo muloqot va o'zaro tushunishning muvaffaqiyati uchun yanada zarur bo'lgan ko'nikmalardir. Tilni o'zlashtirish va uzatish, madaniy an'analar va hayotiy jarayonlar ko'rib chiqilgan. Madaniy taraqqiyot, ijtimoiy o'zgarishlar va tarixiy voqealar tilimizdan foydalanishda o'z aksini topadi.

Xulosa. Madaniyat inson tomonidan yaratilgan ijtimoiy-tarixiy mohiyatdir: hozirgacha predmet sohasini aniqlashda kelishmovchiliklar yo'q. Quyidagi chegaralash munozarali – yuqorida qayd etilgan qoidaga mos keladigan hamma narsani madaniyat deb hisoblash kerakmi degan savol. Bu yerda ikki qarama-qarshi pozitsiya mavjud. Ulardan biri, masalan, madaniyat va sivilizatsiyani taqqoslashda ifodalanadi (odatda faqat nemis tilida) va madaniyatni biznes yoki texnologiyadan kelib chiqadigan yuqori yoki intellektual faoliyat g'oyasi bilan bog'laydigan tildan keng foydalanishni belgilaydi. Chetda turish. Shunga ko'ra, madaniyat arboblari texnik mutaxassislar emas, balki yozuvchilardir. Boshqa pozitsiya madaniyatning keng qamrovli, integratsiyalashgan konsepsiyasidir, u ijtimoiy tuzilma sifatida namoyon bo'ladigan hamma narsani o'z ichiga oladi: siyosiy munozaralardan tortib atom elektr stansiyalari va opera ariyalarigacha.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduraxmonova S. Sh. Bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik-madaniyatni rivojlantirishning antroposentriзм tamoyili “ТАЪЛИМ ВА ИННОВАЦИОН ТАДҚИҚОТЛАР” № 6-2, 2022. махсус сон ISSN 2181-1717 (E)
2. Artikova M. The linguistic and cultural nature of the phenomenon of precede Maksudova H. Precedent names are a component of poetonyms International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted from New York, USA June 28th 2022, -P.12nt // Foreign languages of Uzbekistan, 2021, -P.78-92
3. Bakhtiyar Jalilov. The term precedent and its explanation in different dictionaries. -Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2021. -P.34
4. Ibadova Nafisa Axmatilloevna. (2024). SPECIFIC CHARACTERISTICS OF TEXT CATEGORY. Open Access Repository, 10(3), 131–136. Retrieved from <https://oarepo.org/index.php/oa/article/view/4088>

Muyassar YO'LDOSHALIYEVA,

O'zMU Kompyuter lingvistikasi yo'nalishi 1-bosqich magistranti

muyassarjdi@gmail.com

ORCID-0009-0003-3931-5720

Nasima ABDULLAYEVA,

O'zMU Kompyuter lingvistikasi yo'nalishi 1-bosqich magistranti

nasimaabdulla35@gmail.com

ORCID-0009-0000-8285-9369

Yulduz XOLJURAYEVA,

O'zMU Kompyuter lingvistikasi yo'nalishi 1-bosqich magistranti

abdirahimovayulduz4@gmail.com

TEZAURUS LUG'ATLARINING RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI

Annotatsiya: maqolada tezaurus lug'atlarini yaratish, ontologiya ideografik lug'atlarning farqi, tezaurus lug'atlarining yaratilish davri haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: *tezaurus, ideografik lug'at, ontologiya, Roget tezaurusi, WordNet, RuTez.*

Annotation: the article discusses the creation of thesaurus dictionaries, the difference between ontology and ideographic dictionaries, and the period of creation of thesaurus dictionaries.

Keywords: *thesaurus, ideographic dictionary, ontology, Roget's thesaurus, WordNet, RuTez.*

Аннотация: в статье рассматривается создание тезаурусных словарей, отличие онтологических и словарей, а также период создания тезаурусных словарей.

Ключевые слова: *тезаурус, идеографический словарь, онтология, тезаурус Роже, WordNet, РуТез.*

Bugungi kunda tilshunosligimizni zamonaviy yo'nalishlarsiz tasavvur qilish mushkul. Kompyuter texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan ushbu vaqtda kitoblar o'rnini zamonaviy elektron dasturlar, veb-sahifalar, onlayn platformalar egallab olmoqda. Korpus lingvistikasi sohasi ana shunday sohalardan biri hisoblanadi. Korpus lingvistikasida ham bir qator amaliy, ilmiy loyihalar amalga oshirildi. Zotan, tilshunoslikda ham har tomonlama qulay, istalgan vaqtda foydalanish uchun qiyinchilik tug'dirmaydigan elektron lug'atlarning yaratilishi fikrimizning dalilidir. Jahon tilshunosligida ko'p tillarni qamrab oluvchi <https://live.babelnet.org>, <https://www.thesaurus.com>, <https://wordnet.princeton.edu/>, <https://www.dictionary.com> kabi bir qancha elektron lug'atlar mavjud bo'lib ular ayrim jihatlarga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Ingliz tili uchun tuzilgan WordNet va rus tilining RuTez tezauruslari yaratilgan. RuWordNet rus tilidagi RuThes tezaurusini (<http://www.labinform.ru/pub/ruthes/>) avtomatik tarzda so'zlarni qayta ishlash sohasidagi eng mashhur manbalardan biri hisoblanish WordNet formatiga (<https://wordnet.princeton.edu/>) avtomatlashtirilgan tarzda o'zgartirish asosida yaratilgan. [<https://ruwordnet.ru/ru/>]. Bundan ko'rinib turibdiki, tezauruslar ko'p tilli va bir tilli kabi turlarga bo'linadi. Biz soha mutaxassislari o'zbek tilining lug'atini (UzTez)ni ishlab chiqishni o'z oldimizga maqsad qilib olganmiz. Fikrimcha, bunday lug'atlarni shakllantirish nafaqat tilshunoslarning, balki dasturchilarning, psixolog va web usta va shakllar dizaynerining ham oldida turgan vazifa deb hisoblayman.

Ilmiy tadqiqotimiz davomida tezauruslar yaratishni

bosh vazifamiz deb oldik. Buning uchun tezaurus aslida nima ekanligini bilish darkor. Tezaurus (yunoncha, thesaurus-xazina, boylik) – muayyan tildagi barcha so'zlarni qamrab oladigan, ularning matnda qo'llanish holatlarini to'la-to'kis aks ettiruvchi lug'at. Til ijtimoiy hodisa, u kundan kunga o'zgarib boyib borish xususiyatiga ega. Shu bois jonli muloqot tiliga tezaurus lug'atlarini tuzish imkonsiz. Tezauruslar o'lik tillar uchun yoki bir ijodkorning ijodini yoppasiga qamrab olgan holda yaratilishi mumkin. Bunday lug'atlar alifbo tartibida berilmay, ma'lum bir sinflar, bir-biriga semantik aloqador guruhlar shaklida yaratilishi kerak. Tezaurusda so'zlar o'rtasida sinonimlari, antonimlari, paronimlari ham beriladi. Hozirgi kunda tezauruslar sun'iy intellekt va mashina texnologiyalari yordamida yanada rivojlanib bormoqda. Ushbu yondashuvlar so'zlarni nutq kontekstiga ko'ra ma'nosini aniqlab berish darajasiga yetganini namoyon qiladi. Buning natijasi o'laroq tezauruslar dinamik va intraktiv tizimga aylanganini alohida ta'kidlash mumkin. Masalan, "Google" va boshqa yirik platformalarda foydalanuvchilarning so'rovlariga bir necha soniyalarda javob berish mumkinligida ko'rish mumkin. Tezauruslarning bugungi kundagi ko'rinishi mana shunday. Jahon tilshunosligida tezaurus atamasi o'rnida ideografik lug'at, ontologiya terminlari qo'llaniladi. Ular ma'lum jihatlarga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Ideografik lug'atda ham so'zlar alifbo tartibida emas semantikasiga ko'ra tartiblanadi. Inson ongida bevosita tushuncha hosil bo'ladi. Bunday lug'atlarda tushuncha so'zlar tomon yetaklaydi. Masalan, universitet so'zi o'qituvchi va talabalar jamiyati, professor, fan

doktorlari, universitet binosi va unga aloqador bo'lgan barcha: farrosh, qorovullar kutubxona sport zaligacha ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Ideografik lug'atlar hali O'zbekistonda mukammal shaklda tuzilmagan. Mavjudlari ham maktabda ta'lim oluvchi o'quvchilar uchun mo'ljallangan. Ideografik lug'atlar o'quvchilarga, kasb egalariga, umumxalq uchun alohida shaklda tuzilsa, barcha uchun maqbul bo'lar edi

Ontologiya (yunoncha-borliq haqidagi ta'limot) falsafada ham keng ishlatiladi. Falsafada ontologiya-ning obyekt inson sanalsa, kompyuter lingvistikasida sinonimik qatorlar muhim sanaladi. Ontologiya – bu konseptualashtirish (konseptualizatsiyasi) spetsifikatsiyasi, deydi rus tadqiqotchisi T.Gruber. [Gruber, 1993.-pp.199-220]. Ammo ikkisinin ham tezaurus bilan moslik jihatlari mavjud. Bizda savol tug'ilishi tabiiy. Dastlabki tezauruslar qanday ko'rinishda bo'lgan? Kim tomonidan qachon yaratilgan? Maqolamiz davomida mana shu savollarga to'xtalib o'tamiz.

Tezaurus lug'atlari – so'zlarning sinonimlari, antonimlari, tasvirlari va ularning o'rni haqida batafsil ma'lumot beruvchi lug'at hisoblanib, u tilshunoslik, lug'atshunoslik va adabiyotshunoslikni boyitishga xizmat qiladi. Tezaurus – fan sohalarini tavsiflashning qulay va optimal variantidir. Ularning rivojlanishi fan-texnika, axborot texnologiya va tilshunoslikdagi yutuqlarga aloqador. Tezaurus lug'atlarining rivojlanish evolyutsiyasi tildagi yangiliklarni aks ettirish, so'zlar o'rtasidagi aloqalarni aniqlash, yanada chuqurroq tushinishga imkon yaratadi. Fikrimiz isboti o'laroq tezaurus lug'atlarining rivojlanish bosqichlarini quyida ko'rib chiqamiz.

Ilk tezaurus yaratilish ildizlari Antik davrga borib taqaladi. Bu davrda Aristotel va Platon so'zlarning o'xshashliklarini va farqlarini aniqlashga uringan, ammo aniq bir lug'at yaratishmagan. Shuningdek II-III asrlarda she'riy shaklda Sanskrit tilida yozilgan "Amar-Kosha" kitobi ham tezaurusning namunasi sifatida qayd etiladi.

Keyingi bosqich, o'rta asrlar davrida ko'plab lug'atlar, jumladan, lotin tilida yozilgan sinonimlar to'plamlari paydo bo'lgan, ammo hozirgidek tizimli bo'lmagan.

Tadqiqotchilar tomonidan tezaurusning ilk namunasi sifatida Filon Biblisk tomonidan yozilgan "Sinonimlar lug'ati" kitobi keltiriladi.

Keyingi davr an'anaviy bosqich hisoblanib, XIX asr oxiri XX asr boshlariga borib taqaladi. Tezaurus 1805-yilda Peter Mark Roget tomonidan yaratilgan. 1852-yilda kitob shaklida nashr etilgan, o'sha vaqtdan qayta nashr qilinmasdan qo'llanilgan. [Тезаурус // Большая российская энциклопедия. Том 31. – М., 2016. – С. 752.] Ushbu tezaurus so'zlarning sinonimlari va omonimlarini topishga imkon beradi, u yangicha metodda yaratilgan bo'lib so'zlar alifbo tartibda emas balki, ma'noviy jihatdan tizimlashtirilgan. Bu esa so'zlarni oson topish uchun qulaylik yaratgan. Ingliz tilida yaratilgan bu tezaurus keyingi davrlarda

yaratilgan lug'atlar uchun ham muhim asos bo'lgan. Keyingi yillarda Richard Chennevix Trench asli ruhoni bo'lsa-da, tilshunoslikka oid bir qator asarlar yaratgan, lug'atshunoslikda so'zlarni semantikasi va diaxron aspekti(etimologiyasi)ni qamrab olgan lug'at tuzdi. Shu davrda yana bir ingliz tilshunosi Murray ingliz tilining rivojlanishida bir qator ishlarni amalga oshirgan. Matnlarga qarab so'zlarning giponimi, sinonimi, antonimi va ularning ma'nolari leksik munosabatlariga ko'ra lug'atda bergan. U ishlarida so'zlarning tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qilishni afzal bilgan. Trench va Murrayning ishlari Oksford ingliz lug'atini boyitishga ulkan hissa qo'shgan. Ayniqsa, tilshunos olim Murrayning metodlari yangi davrni boshlab bergan.

Keyingi bosqich XX asrda kompyuterning yaratilishi elektron tezauruslarni yaratilishiga yo'l ochdi. Avval yaratilgan tezauruslar anchagina kengaytirildi, fan-texnikaning rivojlanishi ilmiy texnik sohalarda ham maxsus tezauruslarni yaratishga imkon berdi. Masalan, tibbiyot, huquqshunoslik, iqtisodiyot bank-moliya kabi yo'nalishlar uchun maxsus lug'atlar yaratildi. Elektron tezauruslardagi qidiruv tizimining mavjudligi foydalanuvchilarda ortiqcha vaqt sarflashni oldini oldi. Ko'p tilli ontologiyalarning mavjudligi chet tilini o'rganayotgan foydalanuvchi uchun hech qanday qiyinchiliksiz tarjima qilish imkoniyatini yaratib beradi.

Semantik ma'lumotlarni yozib olib undan informatsion-qidiruv tizimida foydalanishga moslashtirilgan mashina tiliga informatsion- qidiruv tili deyiladi. Bu til bilan tabiiy tilni solishtirish uchun yaratilgan ontologiyalar informatsion-qidiruv tezaurusi deb ataladi. Informatsion- qidiruv tezaurusi ma'lum bir tilning ideografik lug'atini yaratishda muhim vazifani bajaradi. Buning uchun mavjud korpus instrumentlaridan foydalangan holda quyidagi vazifalar bajariladi.

1. Tezaurus uchun mavzu tanlanadi.
2. Tezaurus kalit so'zlari aniqlanadi.
3. Kalit so'zlarga ishlov beriladi, ular o'rtasidagi ekvivalentlik aniqlanadi.
4. Kalit so'zlar o'rtasida paradigmatik aloqalarni ochib berish.
5. Tezaurus lug'atlarini shakllantirish.

Axborot qidirishning turli muammolari va ularni hal qilish uchun ularning texnologiyalarini tadqiq etib kelgan olim N. V. Lukashevich rus tili tezaurusini yaratish ustida ish olib borgan. Tezaurus yaratish bo'yicha quyidagi xulosalarga kelgan:

1. Tezaurus va ontologiyalar tuzilishi matnni avtomatik ishlash vazifalariga maxsus moslashtirilgan bo'lishi kerak.
2. Tezaurus texnologiyalari so'zlarni qayta ishlovchi boshqa texnologiyalarga qarama-qarshi qo'yilmasligi, balki bu sohadagi yutuqlar organik tarzda hisobga olinishi kerak.
3. Bunday talablarni inobatga olgan holda, tezaurusdan foydalanish eng maqbul so'zma-so'z ishlaydigan

usullar bilan solishtirilganda muammoni hal qilish sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. [Лукашевич Н.В. – 2011. – С. 44.]

Hozirgi kunda rus va ingliz tilshunosligida 1000 dan ortiq atamalarini, atamalar o'rtasidagi 3500 atrofidagi bog'lanishlarni, 120 dan ortiq atamalar manbalarini va ularning ta'riflarini qamrab oluvchi elektron tezaurus tarkibini to'ldirish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda. Bu boradagi tadqiqotlarni yaratish o'zbek tilshunos-

ligi uchun ham dolzarb hisoblanadi. [Xolmanova Z. 2019.-B.102-132]. Umuman olganda, tezauruslar kirib bormagan ko'p sohalar foydalanuvchilarga bir muncha noqulaylik tug'diradi. Tezaurus o'ziga xos murakkab lug'atdir. Tezaurus tuzish uchun o'nlab soha mutaxassislarining ishtiroki talab qilinadi. Shundagina zamon talab darajasidagi tezaurus lug'atlari vujudga keladi. Biz keyingi maqolalarimizda mana shunday mavzularning biriga tezaurus lug'ati tuzishni maqsad qilganmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://live.babelnet.org>
2. <https://www.thesaurus.com>
3. <https://wordnet.princeton.edu/>
4. <https://www.dictionary.com>
5. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tezaurus>
6. Abduraxmonova N.Z. Inglizcha matnlarni o'zbek tiliga tarjima qilish dasturining lingvistik ta'minoti (Sodda gaplar misolida): Filol.fan.bo'yicha falsafa dokt. (PhD)...diss. aftoref. – Toshkent, 2018. – 52-bet
7. Abjalova M.A. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari. [Matn]: monografiya / M.A. Abjalova. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – 176-bet ISBN 978-9943-6939-0-6
8. Hojiyev A., Nurmonov A., Zaynobidinov S., Kokren K., Saidxonov M., Sobirov A., Quronov D. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarning izohli lug'ati. – Tashkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2001B. 76.
9. Mirtojiev. M. "O'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi", – Toshkent, 2000.
10. Лукашевич Н.В. Тезаурусы в задачах информационного поиска. – М.: МГУ, – 2011. – С. 44.
11. Лукашевич Н.В., Добров Б.В. Проектирование лингвистических онтологий для информационных систем в широких предметных областях // Онтология проектирования, том 5, №1(15)/2015. – С. 52.
12. O'zbek tilining izohli lug'ati.



Laylo HAYITMURODOVA,
 TerDPI Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti
 kafedrasida 2-kurs magistranti
 laylohayitmurodova18@gmail.com
 Ilmiy rahbar: F. f. dots. Parva Alimov

O'ZBEK XALQ ERTAKLARIDA FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING LEKSIK – SEMANTIK TAHLILI

Annotatsiya: mazkur dissertatsiya ishida O'zbek xalq ertaklarida uchraydigan frazeologik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari o'rganilgan. Tadqiqotda frazeologizmlar xalq ertaklari kontekstida tahlil qilinib, ularning tarkibiy tuzilishi, semantik ma'nosi va badiiy vazifalari aniqlangan. O'zbek xalq ertaklarida frazeologik birliklar xalqning madaniy va ma'naviy qadriyatlarini ifodalovchi vosita sifatida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, xalq ertaklarida bu birliklarning qahramon xarakterini ochish va voqealarni jonli tasvirlashdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek xalq ertaklari, frazeologizmlar, folklor frazeologik birliklar.

Annotation: in this thesis, the lexical-semantic features of phraseological units found in Uzbek folk tales are studied. In the study, phraseologisms were analyzed in the context of folk tales, and their structural structure, semantic meaning, and artistic functions were determined. In Uzbek folk tales, phraseological units are considered as means of expressing the cultural and spiritual values of the people. Similarly, in folk tales, the importance of these units in revealing the heroic character and vividly depicting events is revealed.

Key words: uzbek folk tales, phraseology, folklore, phraseological units.

Аннотация: в данной дипломной работе изучаются лексико-семантические особенности фразеологизмов, встречающихся в узбекских народных сказках. В ходе исследования были проанализированы фразеологизмы в контексте народных сказок, определена их структурная структура, смысловое значение и художественные функции. В узбекских народных сказках фразеологизмы рассматриваются как средство выражения культурных и духовных ценностей народа. Также в народных сказках раскрывается значение этих единиц в раскрытии героического характера и ярком изображении событий.

Ключевые слова: узбекские народные сказки, фразеологизмы, фольклорные фразеологизмы.

Dunyo taraqqiyot jarayonlari tobora kengayib borayotgan texnika, texnologiya va transformatsiya davrida ta'lim tizimi ijtimoiy yuksalishlar jarayonidan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etmoqda. O'zbek tilshunosligida insonning zohiriy va botiniy olamini ifodalovchi asosiy frazeologik birliklar o'ziga xos madaniy bo'yoqqa ega bo'lgan muayyan milliy madaniyatning ifodalovchisi sifatida o'rganilmoqda. Barcha ilmiy yo'nalishlar qatorida tilshunoslikda ham ko'plab an'anaviy muammolari, xususan, o'zbek tili frazeologik birliklarida xalqimizning milliy-madaniy dunyoqarashini ifodalovchi mifonimlarning lisoniy, lingvomadaniy xususiyatlarini zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilish tilshunosligimiz uchun muayyan nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot ishimizning dolzarbligi frazeologizmlarning leksikografik xususiyatlari hamda semantik shakllanishini o'rganishga bo'lgan talabning yetarlicha o'rganilmaganligidir. Frazemalar tilimizning lug'at boyligini oshiribgina qolmay, uni o'rganishga bo'lgan ehtiyojimizni yuzaga keltiradi. Shunga ko'ra frazeografiya xususiyatlarini tadqiq etish bitiruv tadqiqot ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. O'zbek xalq ertaklari tilidagi frazeologik birliklar va iboralarning leksik-semantik tahlil qilinib, komponentlarining o'z va o'zlashgan

qatlamga xosligi qiyosiy-tarixiy yoritib berildi;

folklor asarlari tili va o'zbek xalq ertaklari tiliga xos turg'un birikmalarning makon-zamon, dunyo-tabiattamijiyat, inson uning xatti-harakati, ma'naviy dunyosi, his-tuyg'ulari, jismoniy holati, xulq-atvori, ijtimoiy maqomi kabi mavzuviy tematik guruhlariga bo'linishi tahlil asosida aniqlandi;

o'zbek xalq ertaklarida uchraydigan qahramonlarga bog'liq somatik, mifonim va zoonim komponentli frazeologizmlarning semantik xususiyatlari ochib berildi.

Tadqiqotning maqsadi: o'zbek xalq ertaklarida uchraydigan frazeologik birliklarning semantik-struktur xususiyatlarini tahlil qilish bilan birga o'zbek tilshunosligida folklorida ertaklar frazeologiyasining nazariy asoslarini takomillashtirish va tematikasini belgilab olishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: o'zbek xalq ertaklari tilida uchraydigan frazeologik birliklarning tematikasi va etimologiyasini tahlil qilib, frazeologik birikmalarning funksional, leksik-semantik xususiyatlarini aniqlash;

o'zbek xalq ertaklarida uchraydigan iboralar tarkibi hamda ularni o'z va o'zlashgan qatlamga mansubligi jihatidan tavsiflash, ilmiy-nazariy qarashlarni takomillashtirish; asar tiliga xos barqaror birikmalarni statistik tahlil qilish, ijtimoiy munosabatlarning shakllanishida

somatik, zoonim, mifonim komponentli iboralarning ahamiyatini yoritish taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

O'zbek tili tarixan juda boy til hisoblanadi. 1989-yil 21-oktyabr kuni O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi o'zbek tilining kuch, qudratini yanada mustahkamlashga va rivojlanishiga yordam berdi. Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi"da "biz taqdim etayotgan strategiyaning maqsadi milliy o'ziga xosligimizni, asrlar sinovidan o'tgan adiblarimizni, iymon-e'tiqod bilan yashash kabi hayotiy tamoyillarimizni ham saqlab qolish, ham yuksaltirishga qaratilgandir" [1; 275-b.] degan g'oyani ilgari suryapti.

Turkiy xalqlarda folklor materiallarini yig'ib, yozib olish bo'yicha dastlabki namunalari XI asrdan boshlab ko'zga tashlanadi. Bunga misol qilib Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asaridagi folklor materiallarini olishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda yozuvchi va shoirlar tomonidan ertaklar, miflar, afsona va rivoyatlarni qayta ishlash jarayoni ham boshlandi. Xalqimiz tomonidan ming yillar mobaynida yaratilgan og'zaki ijod namunalari o'zbek xalqining tarixiy va qimmatli madaniy merosidir. Ayni daqiqalarda o'rganishimiz va asrab avaylashimiz qayta-qayta ta'kidlanayotgan xalq qadriyatlarini orasida xalq og'zaki ijodi ham bordir. Jumladan, "To'maris", "Shiroq" kabi afsonalar, "Alpomish", "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Ravshan", "Oshiq G'arib va Shohsanam" kabi dostonlar, "Bulbuligo'yo", "Malikayi Husnobod", "Uch og'a-ini botirlar" kabi ertaklar lirik qo'shiqlar, marosim va mehnat qo'shiqlari hamda boshqa xalq og'zaki ijodi namunalari xalqimiz qadriyatlarining ajralmas qismi hisoblanadi. [2; 368-b.] O'zbek folklorshunosligi rivojiga munosib hissa qo'shgan Mansur Afzalov o'zbek xalq ertaklari borasida ilmiy ish yozar ekan, bu janrning o'rganilish tarixiga alohida to'xtalib o'tgan. Folklorshunos olimning ma'lumot berishicha, o'zbek ertaklariga bo'lgan ilmiy e'tibor XIX asr ikkinchi yarmidan boshlangan. [3; 14-19-b.]

"Somatik" atamasi ilk bora tilshunoslikka Finn olimi F.Vakk tomonidan kiritilgan bo'lib, u eston tilidagi inson tanasi nomlari bilan yasaladigan frazeologizmlarni "somatik frazeologizmlar" deb atagan edi. O'zbek xalq ertaklarida uchraydigan somatik birliklarni uchratishimiz mumkin. Masalan: *Ota-bola yig'lab ko'rishibdi. Shundan so'ng er-xotin boshidan o'tgan voqealarni aytib beribdilar* "Sirli tush", 131-bet).

– *Qiz boshidan kechirgan hamma voqeani kampirga birma-bir aytib beribdi* ("Podachi qiz", 21-bet).

– *Shunda bular hammasi "Susambil, qaydasan?" deb, boshidan o'tganlarini gaplashib, xasratlashib ketaveribdilar...* ("Susambil", 10-bet).

Yuqorida keltirilgan o'zbek xalq ertaklari misollarida "bosh" so'zi bilan bog'liq iboralarga e'tibor qaratsak. Dastlabki misolda ishtirokchilar soni ikki kishi va ikkisi ham so'zlashishda ishtirok etayotganligini, ikkinchi misolda esa bir obraz tilidan aytilgan voqea-hodisani ikkinchi Ishaxs tinglayotganligini, uchinchi misolda ertak

qahramonlarining bo'lgan voqea-hodisani va ko'pchilik nutqida galma-gal, "o'z hayotida ko'rganligi, his qilganligi"ni [4; 47-b.] aytib o'tishlari kabi ma'nolarni ifodalaydi. Tadqiqot ishining asosiy qismida "**Quyosh yerining pahlavoni**" nomli ertak asnosida somatik komponentli frazeologik birliklar bo'yicha ko'plab misollarni ko'rdim. Quyida sizlarga ushbu misollarni keltirib, izohlab o'taman.

– *Boy ota, bizga yordam qiling, o'g'lim Rustamjon bilan birga **qo'limdan** kelgan xizmatni ayamayman.*

– *Halimboy chol bilan bolani **ko'zdan** kechiribdi.*

– *Oldin **bo'yningdagi** qarzingni uz, erta-indin o'lib ketsang, mening haqim kuyib ketadimi?*

– *Halimboy cholning **ko'kragiga** yopishib yotgan Rustamning **bo'ynidan** ushlab bir tomonga otib yuboribdi-da,*

– *Bir kun **qo'lidan** ish kelganda ishlab topib beribdi-da.*

– *Boy otamdan qancha qarzing borligini o'z **qulog'ing** bilan eshitib ol,- debdi.*

– *Do'sti yozib bo'lib, cholga **barmoq** bosishni taklif qilibdi.*

– *Chol o'g'li Rustamni **bag'riga** bosib, ochlik bilan qayg'urib, **boshini** yostiqqa qo'yibdi.*

– *Pastakkina bir archa yonida o'tirib, unga suyanib **ko'zini** yumibdi. Chol yuqoriga qarasa, yosh bolasini oldingi ikki **oyog'i** orasiga olib, cholga hujum qilmoqchiday tayyorlanib turgan katta ayiqni ko'ribdi.*

– *Yarim kecha, hamma shirin uyquda, ammo chol hamon oh tortar, **bag'ri** ezilar ekan.*

– *Ota-bola **barmoq** bosgansanlar.*

– *Chol xo'rsinib **boshidan** kechirganlarini hikoya qilib beribdi.*

– *U bilan **bel** ushlaydigan odam bo'lmabdi.*

– *.....movut to'n kiygan, **qo'lida** qamchi o'ynatib turgan bir boyni ko'rsatib:...*

– *Rustamning **qulog'iga** qandaydir ingragan tanish ovoz eshilibdi.*

– *....., nafasi **og'ziga** tiqilib, shaharga borib voqeani aytib beribdi.*

– *Yur, vaqtini **qo'ldan** bermaylik, - debdi.*

– *Bu va'dani eshitib, **og'zida** tishi yo'q, **boshida** tuki yo'q, bir **ko'zli** kampir shahar hokimi oldiga kelib,*

– ***Ko'zimizning** nuri Rustamjon, bizlarni zolimning zulmidan qutqar.*

– *"Og'ir" yotgan kampir **qo'llari** bilan Rustamga imo qilib bir quchoqlab, o'pishni umid qilibdi. Rustam o'zini kampir quchog'iga tashlashi bilan kampir behush qiladigan dorini Rustamning **burniga** tutibdi.*

– *Har birining oldiga kimxobdan **bosh-oyoq** sarpo qo'yilgan emish.*

– *...-deb **ko'kragini** kerib, **mo'ylovini** burab qo'yibdi.*

Tarixiy jihatdan madaniyatning somatik belgilari real va manaviy olamning tuzilishini aks ettiradi va uning idrokini o'z tanasiga va ta'na a'zolarining funksiyalariga

anatomik yo'naltirilganligi bilan shakllantiradi. Shu jumladan, o'zbek xalqi vakillari nutqida ham **bosh, ko'z, qo'l, yurak, og'iz, quloq, oyoq, jigar, tish, til, bo'yin, ko'ksi** kabi leksemalari atrofidagi frazeologik birliklar anchagina. Somatik frazeologizmlar o'zbek xalq ertak-

larining ta'sir kuchini, obrazlilik darajasini oshirishga va milliy-madaniy o'ziga xosligini ko'rsatish, shuning uchun ushbu leksemalar bilan bog'liq iboralarning qo'llanishi ertak qahramonlarining xarakter-xususiyatlarini ochib berish uchun ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. 275-б.
2. Madayev Omonulla. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.: "Mumtoz so'z", 2010. 368 -b.
3. Афзалов М. Ўзбек халқ эртаклари ҳақида. – Т.: Фан, 1964. 14-19-б.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Т.: Ўқитувчи. 1978. 47-б.
5. <https://izoh.ibora>
6. <https://izoh.frazeologizm>.

Abror G'AFFOROV,
SHDPI 2-kurs magistranti

XRONONIM LUG'ATLARINI TUZISHGA DOIR TAMOYIL VA YONDASHUVLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada xrononim lug'at tuzish haqida fikr yuritilgan. Xrononim lug'at tuzishga doir tamoyil va yondashuvlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *xrononimlar, lug'at tuzish, lingvistik xrononimlar, geografik xrononimlar, standartlashtirish, tushunarlilik.*

Аннотация: в этой статье рассматривается составление хрономического словаря. Проанализированы принципы и подходы к составлению хрономического словаря.

Ключевые слова: *хрононимы, составление словаря, лингвистические хрононимы, географические хрононимы, стандартизация, понятность.*

Annotation: this article discusses the creation of a chrononym dictionary. The principles and approaches to compiling a chrononymic dictionary have been analyzed.

Key words: *chrononyms, dictionary compilation, linguistic chrononyms, geographical chrononyms, standardization, clarity.*

Xrononimlar – tilning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, ular xalqning tarixiy va madaniy xotirasini saqlash, davrlarni belgilash va voqealarni tizimlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi zamon sharoitida til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini o'rganish, milliy o'zlikni anglash va avlodlar o'rtasidagi tarixiy xotirani tiklash masalalari dolzarb hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan xrononimlarni o'rganishning quyidagi dolzarbligi ajralib turadi. Xrononimlar xalqning tarixiy voqealari, sanalari va yodgorliklari bilan bog'liq ma'lumotlarni aks ettiradi. Ularni o'rganish milliy tarix va madaniyatni avlodlarga

yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Xrononimlarning o'rganilishi tilshunoslikka yangi yondashuvlarni olib kiradi, chunki ular tilning tarixiy qatlamlarini va madaniy o'ziga xosliklarini ifodalaydi.

Globalizatsiya jarayonida milliy madaniyat va tarixiy merosni yo'qotmaslik uchun xrononimlarni o'rganish va ularni tizimlashtirish muhim hisoblanadi. Xrononimlarning lingvistik, semantik va leksikografik jihatlari o'rganish hali to'liq o'rganilmagan Shunday qilib, xrononimlarning o'rganilishi nafaqat o'zbek tilshunosligida, balki umumiy tilshunoslik, madaniyatshunoslik

va ta'lim sohasida ham dolzarb masala hisoblanadi. Bu tadqiqot zamonaviy ehtiyojlarga javob beruvchi muhim ilmiy va amaliy yondashuvlarni taklif etadi.

Xronimlar va ularning turlari. Xronimlar asosan ikki toifaga bo'linadi: **Lingvistik xronimlar** – tilning o'zgarishi yoki evolyutsiyasini ifodalovchi so'zlar. Masalan, qadimgi o'zbek tilidagi so'zlar zamonaviy o'zbek tilida o'zgargan yoki unutilgan shakllarda mavjud bo'lishi mumkin. Geografik xronimlar – turli hududlardagi dialektal farqlar tufayli yuzaga kelgan talaffuz va imlo farqlari.

Imlo va talaffuzdagi xilma-xillik xronimlarni birlashtirishda eng katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Til davri, hududi, shuningdek, ma'lum bir davrda yashagan jamoa yoki millatning o'ziga xos talaffuz va imlo qoidalari xronimlarni shakllantiradi. Imloda xilma-xillik: yozuvning tarixiy o'zgarishlari va ma'lum bir davrda qo'llanilgan imlo qoidalari lug'atda ko'rsatilishi kerak. Masalan, eski o'zbek tilida "j" harfi zamonaviy o'zbek tilida "z" ga o'zgargan bo'lishi mumkin. Talaffuzdagi xilma-xillik: o'zbek tilining turli hududlarida so'zlar turlicha talaffuz qilinishi mumkin. Masalan, bir so'z bir hududda "suv" shaklida talaffuz qilinishi mumkin, boshqasida esa "sov" shaklida talaffuz qilinadi. Dialektal farqlar – o'zbek tilining turli hududlarida mavjud bo'lgan talaffuz va imlo farqlarini anglatadi. Har bir hududda turli usullar bilan talaffuz qilinadigan so'zlar, hatto bir xil bo'lishi mumkin. O'quv lug'atlarida bunday farqlarni birlashtirishda ikki yo'l mavjud.

Xronimlarni birlashtirishda grammatika farqlari ham muhim o'rin tutadi. Eski davrlarda tilning grammatika qoidalari boshqacha bo'lishi mumkin. Masalan, o'zbek tilida eski shakllar, zamonaviy grammatikaga nisbatan farq qilgan holda ishlatilgan. Bu farqlar lug'atlarda o'z aksini topadi. **Fe'llarning shakllari:** o'zbek tilida ba'zi fe'llar eski davrlarda boshqacha qo'llangan bo'lishi mumkin. Misol uchun, eski o'zbek tilida "ko'rmoq" fe'li "ko'rib turmoq" shaklida ishlatilgan bo'lsa, hozirgi kunda bu fe'l "ko'rish" shaklida qo'llaniladi.

● **Imlo va talaffuzni standartlashtirish:** o'quv lug'atlari yaratishda turli hududlarda yoki tarixiy davrlarda ishlatilgan shakllarni qanday birlashtirish muammosi mavjud. Masalan, bir so'zning bir shakli tarixiy, boshqasi esa zamonaviy shakl bo'lishi mumkin. Bularni birlashtirishda tanlov qiyinlashadi.

● **O'quvchilar uchun tushunarlilik:** o'quv lug'atlarida xronimlarni birlashtirishda nafaqat grammatik shakllar, balki talaffuz farqlari ham e'tiborga olinishi kerak. Bu farqlar o'quvchilarga tilni o'rganishda qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

O'quv lug'atlarini yaratishda xronimlarni birlashtirish uchun quyidagi yondashuvlardan foydalanish mumkin:

● **Davrlar bo'yicha taqsimlash:** o'quv lug'atida so'zlar tarixiy davrlar bo'yicha ajratilishi mumkin. Masalan, eski o'zbek tilidagi so'zlar alohida kiritilib, hozirgi o'zbek tili so'zlaridan ajratiladi.

● **Talaffuz va imlo farqlarini aks ettirish:** o'quv

lug'atlarida turli hududlarda talaffuz va imlo farqlarini aks ettirish uchun har bir so'zni ikki yoki undan ortiq shaklini ko'rsatish mumkin.

● **Fonetika va grammatika tizimiga moslashish:** xronimlarni birlashtirishda fonetik va grammatika tizimining o'zgarishlarini hisobga olish zarur. Bu, lug'at foydalanuvchilariga so'zlarning qanday qo'llanishi va talaffuz qilinishini aniq tushunishga yordam beradi.

O'zbek tili xronimlari, ya'ni tilning tarixiy rivojlanish jarayonini va o'zgarishlarini tahlil qilish, tilshunoslikda juda muhim ahamiyatga ega. O'zbek tili o'zining rivojlanish jarayonida turli davrlarni o'tkazgan bo'lib, har bir davrda tilning leksik, grammatik va fonetik xususiyatlari o'zgargan.

O'zbek xalqining tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Tarixdan ma'lumki, xalqimiz asrlar davomida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar olib borgan. Vatanimiz hududidan Buyuk ipak yo'lining o'tganligi ham boshqa xalqlar bilan aloqalar olib borishga yana bir sabab bo'lgan. Albatta bu aloqalar o'zbek tiliga, uning rivojlanishiga ma'lum darajada o'z ta'sirini ko'rsatgan. O'zaro ta'sir tilning bir qator bo'limlariga, jumladan, fonetika, leksika va grammatikada yaqqol aks etadi. Hozirgi o'zbek adabiy tilining bir qator ildizlari bor. Hozirgi o'zbek adabiy tilining rivojlanish bosqichlari, tarixiy taraqqiyoti bir qator o'zbek tilshunos olimlari tomonidan o'rganilgan. Izlanishlar sabab tilimizning rivojlanish bosqichlari bir necha davrlarga bo'lindi:

- Eng qadimgi turkiy til- VII asrgacha bo'lgan davr
- Qadimgi turkiy til- VI-XI asrlar
- Eski turkiy til- XI-XIII asrlar
- Eski o'zbek adabiy tili- XIV-XIX asrlar
- Yangi o'zbek adabiy tili- XIX asrning oxiri - XX asrning boshlari.

O'zbek tili ana shunday tarixiy ildizlardan o'sib chiqib, XX asrning 30- yillarida hozirgi o'zbek adabiy tili shakliga kirgan. Tilshunos olim H. Jamolxonovning ma'lumot berishicha "O'zbek adabiy tilini davrlashtirishga oid manbalarda o'zbek adabiy tili XIX -XX asrlarda yoki XX asrning 20-30 yillarida shakllangan" degan qarashlar mavjud. Turkologiya va o'zbek tilshunosligida o'zbek tilining tarixini boshqacharoq davrlashtirish holatlari ham uchraydi. Bir guruh tilshunos olimlarimiz O'zbek tilining rivojlanish tarixini uch bosqichga bo'lish mumkin deb qarashadi:

- Qadimgi turkiy til- V-XI asrlar
- Qadimgi o'zbek tili- XI-XIX asrlar
- Hozirgi (zamonaviy) o'zbek tili XX asrda shakllana boshlagan.

Qadimgi turkiy til V-XI asrlarni o'z ichiga oladi. Turklar Sirdaryo, Amudaryo va Zarafshon qirg'oqlari bo'ylab hind-eron qabilalari aholisini asta-sekin chiqarib yuborishgan. O'sha davr aloqa vositasi qadimgi turkiy til bo'lib, uning asosida keyinchalik ko'plab Osiyo tillari paydo bo'lgan. Hozirgi barcha turkiy tillar o'zbek, uyg'ur, ozarbayjon, usmonli turk, tatar, yoqut va boshqalar

uchun qadimgi turkiy til umumiy til (bobo til) sanaladi. Qadimgi o'zbek tili bosqichi XI-XIX asrlarga to'g'ri keladi.

O'zbek tili xronimlarining davrlarga bo'linishi tilshunoslikda tilning tarixiy o'zgarishlarini tahlil qilishga imkon beradi. Har bir davrda tilning grammatika, leksika va talaffuzidagi o'zgarishlar tilning rivojlanish jarayoni-

ning bir qismi sifatida ko'rsatiladi. O'zbek tili har bir davrda o'ziga xos xususiyatlar va farqlarni saqlab qolgan, bu esa tilning o'zgaruvchan va boy tarixini aks ettiradi. Xronimlarni o'rganish orqali tilning qanday shakllanganini, qanday o'zgarishlar yuz berganini va qanday yangi shakllar paydo bo'lganini yaxshiroq tushunish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jalolov, A. Tarixiy lug'atlarni tuzish tamoyillari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.2019.
2. Woolf, D. R. (2003). A Global History of History. Cambridge University Press
3. Abdurazzoq Rafiyev. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. – Toshkent, 2004.
4. A.Muxtarov, U. Sanaqulov. O'zbek adabiy tili tarixi. – T.: O'qituvchi, 1995.
5. Karim Yusupov. O'zbek adabiy tilining tarixi. – Toshkent, 1979.
6. Abdulhamid Nurmonov. O'zbek tilshunosligi tarixi. – T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2002.
7. B.M.Bahriddinova. O'zbekistonda o'quv lug'atchiligi: lingvistik asoslari, tarixi va istiqbollari Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand.2020. 72-b

Gulnoza SULEYMANOVA,
 ToshDO'TAU O'zbek tili va adabiyoti fakulteti,
 magistratura 1-kurs talabasi
 Gulnozasuleymonova40@gmail.com

AZIM SUYUN SHE'RIYATIDA FOLKLOR MOTIVLARNI O'RGANISH

Annotatsiya: maqolada e'tibor Azim Suyun she'riyatidagi folklor motivlarini o'rganishga qaratilgan. Shoir she'riyatida folklor motivlariga juda keng o'rin berilgan. Inson qalbi, uning ichki kechinmalari, tabiat bilan qalb hamohangligini ifoda etarkan, xalq madaniyatining boy manbalariga murojaat qiladi. Umuman, folkloridagi milliy ruhni asarlarga singdirishga intiladi. Insonning ma'naviy olami, ruhiyatini tozalashda, o'sib kelayotgan avlodni vatanparvar, to'g'ri-so'z, olijanob qilib tarbiyalashda folklor motivlarining o'rni juda katta. Shoirning ijodi shu ma'noda juda qimmatli.

Kalit so'zlar: *shoir, folklor motivlari, milliy ruh, ma'naviy olam, xalq madaniyati, asarlar, tarbiya.*

Annotation: the article focuses on the study of folklore motifs in the poetry of Azim Suyun. Folklore motifs are given a very wide place in the poet's poetry. Expressing the human soul, its inner experiences, the harmony of the soul with nature, he appeals to the rich sources of folk culture. In general, he strives to instill the national spirit in folklore in his works. The role of folklore motifs in purifying the spiritual world and psyche of a person, in educating the growing generation as patriotic, honest, and noble. The poet's work is very valuable in this sense.

Keywords: *poet, folklore motifs, national spirit, spiritual world, folk culture, works, education.*

Kirish. Azim Suyun ijodidagi folklor motivlari xalqning ma'naviy boyligini asrab-avaylash va uni kelajak avlodlarga yetkazish vazifasini bajaradi. Shu orqali u zamonaviy o'zbek adabiyotiga milliy ruhni

singdirishga hissa qo'shadi. Deyarli har bir she'rda tarixiy va madaniy elementlar o'z ifodasini topgan. Bu orqali shoir ijodi yanada jozibalidir. Xalq ertaklari va rivoyatlarning syujetlari, qahramonlari va mavzularidan

ilhomlanib, ularni zamonaviy uslubda qayta ishlaydi.

Asosiy qism. Shoir odob-axloq, yuksak insonparvarlik g'oyalarini ko'rsatadi. Xalq qo'shiqlari, maqollari, matallari va tushunchalardan foydalanib, o'z asarlarini boyitadi.

Keyingi yillarda adabiyotda, xususan, she'riyatda yangilik yaratishga, ya'ni har xil uslub va shakllarni yangilashga bo'lgan intilish kuchaydi. Bunday qiziqish nafaqat yosh qalamkashlar, balki bir qadar suyagi qotgan ijodkorlar orasida ham yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ayniqsa, katta shoir Azim Suyunning bu boradagi izlanishlarini alohida ta'kidlash zarur. Azim Suyunning qayrilmalari Umar Xayyom, Sa'diy Sheroziy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Bobur kabi Sharqning ulug' donishmandlari asarlaridagi donolik, teranlik, ixchamlik, lo'ndalik kabi fazilatlariga eshligi, ayni paytda, eng qadimiy davrlarda toshlarga o'yib yozilgan bitiklardek aniqligi bilangina emas, balki shakldagi yangiligi bilan ham e'tiborga loyiqdir. [1:206]

Uning ijodida tabiat motivi alohida o'ringa ega. Inson hayotining ajralmas qismi sifatida ifodalanadi. U tabiatni nafaqat inson va uning hayoti, salomatligi bilan bog'liqligini ifoda etadi, balki tabiatni qahramonlarning ruhiyati, voqealarning dinamikasi va asarning umumiy g'oyasini ochib beruvchi vosita sifatida qo'llaydi. Masalan, "Andiz o'sgan yerlarda otlar bevaqt o'lmagay" deb boshlanuvchi judayam chiroyli she'ri bor. Bu she'r juda chuqur va milliy ruhda aks etgan. Bu asarda xalq og'zaki ijodiyotiga xos bir necha jihatlarni ko'rish mumkin. She'rda andiz (shifobaxsh o'simlik) milliy tabiatning bir qismi sifatida tasvirlangan. Xalqning tabiatga bo'lgan muhabbati va undan yordam olishga ishonch tuyg'ulari folkloriga xos bo'lgan tabiatni qadrlash motivini ko'rsatadi. Folklorida andiz va shunga o'xshash o'simliklar tilaklarning bajo bo'lishi, himoya yoki sog'lik manbai sifatida tasvirlangan. She'rda ham andizning inson hayotidagi ahamiyati aks ettirilgan. Andiz o'sayotgan yerlar insonlar va hayvonlar uchun xavfsiz va barakali joy sifatida tasvirlangan.

Andiz o'sgan yerlarda otlar bevaqt o'lmag'ay deydi shoir. Andiz haqidagi xalqona qarashlarni ko'rib chiqdik. Mana endi nega aynan ot qo'llangan edi, degan savol tug'iladi. Aynan ot ham milliy folklorida, milliy dunyoqarashda muhim o'rin tutgan. U xalqning hayoti, madaniyati va an'analari bilan chambarchas bog'liq edi. U xalq ijodiyotida kuch-quvvat, vafo va erkinlik timsoli sifatida tasvirlangan. Xalq qo'shiqlariga, dostonlariga yoki afsonalariga qarasa o'tni qahramonning eng yaqin yordamchisi, uning jasurligi, qahramonligi ruhiy quvvatini aks ettiruvchi obraz sifatida keladi. Azim Suyun ham shu dostonlarni, ertaklarni, afsonalarni eshitib katta bo'lgandi. Aytish lozim bo'lsa, u tug'ilib o'sgan Nurota tog' tizmalari etaklarida joylashgan qishloqlarda ham ot insonning hayotda yaqin ko'makchisi, hamrohidir. Hatto minglab otlar ishtirokida ko'pkarilar uyushtirilib eng zo'r chavandozlik tanlovi o'tkazilgan, otga mehrlir,

u bilan tillasha oladigan chavandozlar yurtidir. Uning yoshligidan bularni ko'rib, eshitib, kuzatib ulg'ayishi bo'lajak shoirning qarashlariga ta'sirini o'tkazgan, albatta. Yanayam aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, ot inson hayotining ajralmas qismi edi. Transport, hamroh, do'st edi. Jangda egasini himoya qilish uchun o'qlardan qochmagan jasurlik timsoli edi. Shuning uchun "otning o'lmasligi" haqidagi jonkuyarlik inson va ot o'rtasidagi uzviy aloqani yorqin tasvirlagan.

"Qodir ovchi o'limi" she'rida ham xalq ijodiyotida keng qo'llangan o'lim motivi va turli burgut, kiyik kabi ramzlar keladi. Unda o'limi oldidan butun umr miltig'ining har bir o'qini bir jonivorning o'limiga atab kelgan ovchining o'lim oldidagi hissiyotlari juda ta'sirli qilib yoritilgan. Ovchi ilgari jonzotlarni hech bir o'ysiz otib o'ldirardi va zavq olardi. Vaholanki, ularning jon berishdagi titrog'i, qiynog'i ovchining nafratiga sabab bo'lardi. Holbuki u his qilib ko'rmagandi. Ammo o'lim bu gal o'z qarshisida uni shunchalik titroqqa solgandiki, u barcha ovlaridagi turli jonivorlarning o'lim talvasasini birma-bir ko'z oldidan o'tkazadi. Ayni paytda ko'z oldiga titroqsiz o'limni qarshi olgan burgut keldi. Shu o'lim motivi orqali u butun hayoti davomida qalbida tuymagan tuyg'ularni tuydi. Beixtiyor o'quvchini ham o'lim haqida o'ylab ko'rishga, o'tkinchi dunyodagi har bir moddiyatga qiziqmaslikka, dunyoga berilmaslikka chaqiradi. Burgut esa xalq ijodida qudrat, ozodlik, donolik va yuksaklikni zabt etishni ifodalaydi. She'rda ham shoir o'limga burgutning baland nazari bilan qaraydi. Burgutning o'limga tik boqib, mardonavor qabul qilishini ikki bor ta'kidlaydi. Va qahramonni ham o'limni mardlarcha qarshi olishiga yo'l beradi. Bu nima degani, har bir amalimiz titroq yoki mardonavorlikka olib borishi haqida so'z yuritilyapti. Shoir qo'rquv va mardlikni atay qarama-qarshi qo'ydi. Bundan tashqari, shoir ijodida tog' obrazi ham uchraydi. Aynan shu she'r boshlanmasida xalq qo'shiqlaridan olingan "Tog'lar – poklik yurti, bolam, kezarmisan" jumlasini epigraf sifatida keltiriladi. Aynan shuning o'zi ham shoir Azim Suyunning bir xalq qo'shig'idan ilhom olib quyida kelgan she'r yozilganini bildiradi.

*Men seni tog'larga olib ketaman,
Quvib yetolmagay irkit g'iybatlar.
Hilol kakliklarga sirdosh etaman,
Qurursan ular-la go'zal suhbatlar deydi.
Men seni tog'larga olib ketaman...*

Shoirning mazkur she'rida kelayotgan tog' obrazi ham folklorida juda katta ahamiyatga ega. Chunonchi tog' folklorida ham qahramonlarning yovuzlikdan panoh topuvchi makoni edi. Azim Suyun ham o'z suyuklisini yomonlardan, g'iybatlardan, ta'na-yu malomatlardan olib qochib tog'ga olib bormoqda, u yerda g'iybatchilar, yomonliklar yo'q, u yerni yaxshilikning makoni sifatida talqin qilgan. Hayotning sinovlaridan taloto'p, shovqin, yomonliklari bor shahardan tabiat qo'yniga olib ketmoq-

chi. Tabiat bilan uning qalbiga shifo topmoqchi, bu yerda aynan tabiat motivining inson hayoti bilan bog'liqligi ochib berilmoqda. Undan tashqari bu yerda qushlarni ko'ramiz, xalq og'zaki ijodida qushlar yaxshilik xabarini olib keluvchi, uning xabari ortidan yaxshiliklar boshlanuvchi obraz edi. Azim Suyun shu sababdan aynan qush obrazini olib kirdi. Bu she'rda kurash motivi ham juda chiroyli berilgan. Shoir suyukligini olis tog'larga aynan g'iybatlar, qadri toptalishlar va yomonliklardan olib qochyapti, ya'ni yomonlik va yaxshilik o'rtasidagi kurash bu she'rning eng asosiy g'oyasi edi. Hamma xalq dostonlari, ilohiy manbalar va xalq dostonlarida ham yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash asosiy g'oya sifatida markazda tutilgan. O'zbekning eng suyukli dostonlari "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Kuntug'mish" hatto jahon xalqlari eposlari "Iliada", "Odesseyada" ham asosiy g'oya yaxshilikning yomonlik ustidan olib borgan kurashi edi. Alpomish va to'qson alpning kurashi syujet asosiga ko'ra Oybarchin uchun olib borilgan bo'lsa-da, tom ma'noda Alpomishning kurashi yovuzlik ustidan qozonilgan g'alaba edi.

*Men seni tog'larga olib ketaman,
 Seni tutib qolar na zaru rishva.
 Qo'llaringga so'lmas gullar tutarman,
 Sen borsan! Sen poksan! Sen bir farishta!
 Men seni tog'larga olib ketaman.*

Ayni shu to'rtlikdagi zaru rishva ham folklorda o'z ramziy ma'nolariga egadir. Muallif uni keng ma'no yo'nalishida qo'llagan. Folklorda zar, tilla aksariyat hollarda moddiy boylik, dunyoviy hirs yoki qadrsiz insoniy lazzatlarni ifodalaydi. Rishva esa xalq ijodiga oid manbalarda pora ma'nosida, adolatning buzilishi, insoniy qadriyatlarining sotilishi yoki ta'magirlikni anglatadi. Shoir mazkur she'rida shahar hayotini sun'iylik va hirs bilan qiyoslaydi. Tog'larni esa insonning tabiiy, erkin hayoti bilan bog'laydi. Aynan "tog'larga olib ketish" istagi insonni ana shu moddiy va ma'naviy qoliplardan ozod qilishga harakatni ifoda etadi. Kuzatamizki, bu she'rda dunyoviy hirs va toza tabiat qarama-qarshiligi aks etgan. Agar shoirning "Qora soch" she'rini ham tahlilga tortadigan bo'lsak, undagi soch, qaldirg'och, olov ramzlari, husn va o'tkinchilik, mehr va sadoqat, vaqt va taqdir, shukronalik motivlarini ko'rishimiz mumkin. She'rda qorasoch bu go'zallik va yoshlik, hayotning bir maromda borish ramzi sifatida talqin qilinadi. Ammo sochlarning oqarishi

yoshlikning o'tishi, hayotning o'tkinchi ekanligini yodga soladi. Folklorda ham soch ramzi sochning tim qoraligi yoki uning oqarishi inson hayotining o'tkinchiligi yoki uning o'zgaruvchanligini ko'rsatadi. She'rda qahramon qora sochni nafaqat go'zallik ramzi balki inson qalbini o'ziga tortuvchi kuch sifatida ham ko'rsatadi. Ba'zan sochning xalq qo'shiqlarida yor-yor, ishq, vafo va qayg'u alam bilan bog'langanini ham ko'rishimiz mumkin. Shoirning bir qator she'rlarida muhabbat motivi ham keng uchraydi. "Muhabbat", "Sevgi", "O'ldirsang ham o'zing o'ldir muhabbat", "Ado qilar meni muhabbat" kabi she'rlarida asosiy g'oya sifatida olib chiqilib, folklorda ham bu keng qo'llanilgan. Nafaqat o'zbek xalqi folklorida, balki jahon xalqlari folklorida ham muhabbat yetakchi motivlardan. Aynan shu motiv asosida shoir o'z ichki tuyg'ularini san'atkorona oshkor qiladi. Butun hayotining asosi muhabbat ekani, agar usiz qoladigan bo'lsa hayot ham kerak bo'lmay qolishini ustalik bilan she'riy ifoda etadi. Axir, bizning boy adabiyotimizdagi butun bir dostonlar sevgiga bag'ishlanmaganmi? "Alpomish va Barchinoy", "Kuntug'mish va Xolbeka" dostonlarida ham alplar sevgisi uchun kurashidan iborat edi. Ularda ham sevgi asosiy harakatlantiruvchi motiv edi. Ular o'rtasidagi to'siqlar, ayriliqlar katta bir burilishlar yuz berishiga sabab bo'lgandi. Ular o'z sevgisi uchun bo'lgan kurashda mislsiz qahramonliklarni ko'rsatishgandi. Azim Suyun ham bu motivdan juda unumli foydalana olgan. Sababi, muhabbat motivi hamma zamon va madaniyatda bir xil, yuksak darajadagi ahamiyatga ega. U orqali ijodkor o'zini ruhan taftish qiladi, taqdir charxpalagida turli vaziyatlarga tushib toblanadi, charxlanadi.

Xulosa. Azim Suyunning barcha she'rlarida milliy folklorimizda qo'llangan motivlarni istagancha topish mumkin. Chunki uning bolaligi, hayoti o'zbek folklorining durdona asarlari bilan juda yaxshi tanish bo'lgandi. Ruhiyati yaxshi sug'orilgandi. U iqtidorli baxshilar, xalq ertaklarini mohir so'zlovchilari suhbatini yetarlicha olgandi. Shu sababdan o'z ijodini ham bu borada mukammal shakllantirdi. Muhabbat, ayriliq, visol, yo'l motivlarini markazga qo'ygan holda o'ziga xos va chiroyli she'rlar yaratdi. Uning tabiat motividan juda ustalik bilan foydalanishini ham u tug'ilib o'sgan diyorning tabiati bilan bog'lash mumkin. Go'zal bahor, sharqiroq suvlar, minglab chavandozlarni o'z bag'rida to'play olgan kengish soylar Azim Suyunning sevimli makonlaridan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamiraliyev Q.Q. "O'zbek she'riyatida shakliy izlanishlar va individuallik" "O'zbekistonda xorijiy tillar" elektron jurnali, 2022-yil, 5-son
2. Azim Suyun "Mening osmonim" 1978-yil
3. Azim Suyun "Andiz o'sgan yerlarda" 2012-yil
4. Azim Suyun "Saylanma" 1996-yil
5. «Ijod olami» jurnali, 2018-yil, 5-son
6. Ziyouz.uz sayti materiallari asosida
7. Azim Suyun "Zamin taqdiri" 1981-yil

Shalola SAFARTOSHEVA,
ChDPU 2-bosqich magistranti
shalolasafartosheva.@gmail.com
Toshkent vil. Chirchiq shahri,

Ilmiy rahbar: f.f.d.(DSc)Rahmonova Adiba Davlatova

QAYG'USIZ ABDOLNING "VUJUDNOMA" ASARI. ASARDA UCHRAYDIGAN TASAVVUFIIY TIMSOLLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada noma janri etimologiyasi va turk tasavvuf adabiyotining yirik vakili Qayg'usiz Abdolning "Vujudnoma" asari borasida, unda uchraydigan tasavvufiy tushunchalar haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: noma, "Vujudnoma", tasavvuf, Qayg'usiz Abdol, yetti sayyora, o'n ikki burch, tasavvufiy istilohlar, inson tana a'zolarining uhroviy vazifalari.

Annotation: this article discusses the etymology of the noma genre and the work "Vujudnoma" by Kayguziz Abdol, a major representative of Turkish mystical literature, and the mystical concepts found in it.

Key words: noma, "Vujudnoma", Sufism, Careless Abdol, seven planets, twelve duties, Sufi concepts, heavenly functions of human body parts.

Аннотация: в данной статье рассматривается этимология жанра нома и произведения «Вуджуднома» крупного представителя турецкой мистической литературы Кайгузиза Абдула, а также встречающиеся в нем мистические концепции.

Ключевые слова: нома, «Вуджуднома», суфизм, Беспечный Абдул, семь планет, двенадцать обязанностей, суфийские концепции, небесные функции частей человеческого тела.

Sharq mumtoz adabiyotida juda ko'plab janrlar qatori noma janri ham o'z o'rniga ega janrlardan hisoblanadi. Adabiyotda hayotiy yoki xayoliy-to'qima obrazga, shaxsga qarata she'riy maktub tarzida yoziladigan badiiy asar turi hisoblanadi. "Noma" atamasiga "Navoiy asarlari lug'ati"da quyidagicha ta'rif berilgan: "Noma – xat, maktub; risola; Nomai iqbol – mehribonchilik xati; xursandchilik xati; Noma sabt etmak – xat yozmoq; Nomai a'mol amallar(tiriklikda qilingan yaxshi, yomon – gunoh, savob ishlar) yozuvi." Nomaning ilk ko'rinishlari O'rta Osiyo tarixida yozuv paydo bo'lmasdan ilgari buyumlar vositasida ham ifodalangan. Bunga misol sifatida skiflar shohi Idanfrisning Eron shohi Doroga yuborgan buyumlar – kamon o'qi, baqa, sichqon va qushdan iborat o'ziga xos "maktub"ini eslash kifoya. Bu singari maktublarning tarixi juda qadimiydir. Nomaning ildizlari yana xalq og'zaki ijodida uchraydi ("Alpomish" dostonida Barchinning Alpomishga maktubi). XIV asr oxiri XV asr boshlarida o'zbek mumtoz adabiyotida nomachilik va munozara janrlari keng rivojlandi. Bizga ma'lumki, mumtoz adabiyotda noma janri dastlab forsiy adabiyotda shakllangan. Uning dastlabki shakllari X-XII asrda shakllangan edi. Ularga misol qilib diniy-tarixiy asar "Xudoynoma", "Shohnoma" kabi asarlarni keltirishimiz mumkin. Shundan keyin o'zbek mumtoz adabiyotida ham noma janri keng qo'llanila boshlandi. Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'atit-turk" asarida "irqish" so'ziga "maktub", "noma" deya ta'rif beradi. Umuman, noma janri Markaziy Osiyo xalqlarining maishiy, ma'naviy va madaniy hayotida muhim rol o'ynagan. Keyingi asrlarda Is'hoq Xorazmiyning dunyoviy lirikani tarannum etgan

"Muhabbatnoma" asari, Xo'jandiyning "Latofatnoma" Said Ahmadning "Taashhuqnoma", Yusuf Amiriyning "Dahnoma" Said Qosimiyning "Haqiqatnoma" va "Sadoqatnoma" kabi asarlari paydo bo'ladi. XIV asr oxiri va XV asrning birinchi yarmidan nomachilik janrida yaratilgan asarlarda o'z davrining hayoti, insonlarning orzu-intilishlari o'z ifodasini topgan bo'lib, ularda vatanparvarlik, adolat va tenglik, muhabbat va sadoqat tarannum etilgan.

Qardosh bo'lgan turk xalq adabiyotida ham noma shakli namunalarini ko'rishimiz mumkin. Turk adabiyotida diniy-tasavvufiy asar turlaridan biri hisoblanib, uning bir qancha turlari va nomlanishlari uchraydi. Biz tahlilga tortmoqchi bo'lgan vujudnoma janri ham shulardan biri bo'lib, o'ziga xos shartlari mavjuddir. Janr nomining o'zagi "vujud" atamasi izohli lug'atlarda(O'zbek tilining izohli lug'ati, 2020, 470-b) "topilma", "bor bo'lma", "borlik"; "inson yoki hayvon gavidasi, tana" tushunchalarini, tasavvufiy angamda esa "insonning Alloh tomonidan yaratilishi, Tangrining butun go'zalliklarini insonda namoyon bo'lishi"ni bildiradi. Diniy-tasavvufiy turk adabiyotida nazm va nasr shaklida uchraydigan vujudnomalar vujudning Lavhul Mahfuzdan boshlanib ona vujudiga dohil bo'lmog'i va undan keyingi rivojlantirishining butun davrini bosqichma-bosqich o'z ichiga oladi. Ushbu o'rinda Qayg'usiz Abdolning nasriy usulda yozilgan "Vujudnoma"si bu turning eng ahamiyatli va yorqin namunasi. Vujudnomalar umumiy holatlarda boshqa noma shaklidagi asarlarning yoki tasavvufiy asarning bir bo'limi sifatida 10-15 sahifadan oshmagan kichik bir risola shaklida uchraydi. Tasavvufiy mohiyat

tashigan bu asarlarda hurufiylikning izlarini ko'rishimiz mumkin. Bu asarlarda inson o'g'lining ona vujudiga tushishidan keyingi maydonga keladigan o'zgarishlarni diniy tomonlama ochiqdan, xulosalanadi.

Vujudnomalarning yana bir tarozi bosadigan mavzusi bo'yicha o'ziga xosligi inson nafsining martabalar va ularning alohida xususiyatlari, bir insonning bu martabalarni bosqichma-bosqich oshib o'tish yo'llarini ko'rsatilishidir. Fikrlarning oyatlar va hadislar bilan quvvatlanishi e'tiqodiy bir mohiyat kasb etadi. Bu asarlar inson vujudidan mohiyat yo'liga chiqib Allohning borligini va birligini anglashni, anglatmoqni maqsad qildi. Shu kungacha ma'lum bo'lgan va o'rganilgan vujudnomalar "Arkonnoma"larning([https://ansiklopedi.tubitak.gov.tr/ansiklopedi/ erkanne](https://ansiklopedi.tubitak.gov.tr/ansiklopedi/erkanne)) bir turi yoki alohida bo'limini tashkil etadi. Bir darveshning amal qilishi, bo'ysunishi kerak bo'lgan qonun-qoidalarni bir-bir anglatadi. Buning yonida o'n ikki imom va ahli baytning shaxsiyatlari va hayoti asar boshdan oxirigacha ora-orada keltirilib, ochiqdan beriladi. Bundan tashqari arkonnomalarda bo'lgani kabi vujudnomalarda ham motam marsiyasi deb ataladigan bo'lim uchraydi. Diniy-tasavvufiy turk adabiyotidagi vujudnoma an'anasini Oshiq Tarzi "yoshnoma" deya otlantirib, o'ziga yarasha bu janrga yangiliklar kiritadi.

Jumladan, nom o'zgarishi birinchisi bo'lsa, ikkinchisi sifatida yoshnomalarda aniq bir tarixiy shaxs hayotining yoritilishini keltirishimiz mumkin. Turk adabiyotida Qayg'usiz Abdol, Sulaymon Chalabiy, Ozoriy, Oshiq Vartan ijodida vujudnoma namunalari ko'rishimiz mumkin. Lekin o'rganilgan vujudnomalar ba'zi manbalarda "yoshnoma" nomida ham kelgan. Qayg'usiz Abdolning "Vujudnoma"si bu turning ilmiyligi jihatidan boshqa namunalardan ustun turadi. "Vujudnoma"ning bizgacha yetib kelgan olti nusxasi mavjud. Ulardan ikkitasi Anqara bosh kutubxonasida, uchtasi Istanbul shahrida: Istanbul Belediye kutubxonasida, Istanbul Universitetida, Milliy kutubxonada, yana biri esa Germaniyada saqlanadi. Qayg'usiz Abdol inson o'g'lining yaratilishini tasvirlashda Qur'on oyatlari va Hadislardan keltirilgan diniy-tasavvufiy belgilar bilan tibbiy, anatomik va biologik bilimlardan qorishiq holatda foydalangan. Bu asarning bosh g'oyasini to'g'ridan-to'g'ri anglab olish uchun "Mo'minun" surasining 12-13-14-oyatlariga murojaat qilishimiz kerak.

Oyatdagi homilaning rivojlanish bosqichlari voqealikka aynan Qur'onda ko'rsatilgandek ekanini hozirgi ilmiy kashfiyotlar ham tasdiq etmoqda. Bu borada dunyoning yirik olimlari talay ilmiy izlanishlar natijasida, Qur'oni karimning ilohiy mo'jiza ekanini yana bir bor isbotladilar.

Asarda ayrim tasavvufiy istilohlar qatorida yetti sayyora, o'n ikki burchga ham maxsus ma'nolar yuklatilib keltiriladi:

	"Vujudnoma" asarida kelgan yetti sayyora nomlari	"Vujudnoma"ga ko'ra sayyoralarning inson yaratilishidagi vazifalari
1.	Zuhal	Tarbiya etar, qon bo'lur
2.	Mirrih	Tarbiya etar, et bo'lur
3.	Zühre	Tarbiya etar, suyak bo'lur
4.	Şems	Tarbiya etar, ruh bo'lur
5.	Utarid	Tarbiya etar, harakat hosil bo'lur
6.	Kamer	Tarbiya etar, vujudga kelur
7.	Müşteri	Tarbiya etar, olamga kelur

(1-jadval: "Vujudnoma" asarida keltirilgan sayyora nomlari va ularning inson yaratilishidagi vazifalari)

O'n ikki burchning har biri inson vujudining a'zolariga birma-bir qarshilastiriladi:

O'n ikki burchning har birini inson a'zolariga qarshilantirilishi			
Bosh	Hamal(qo'y)	Qorin	Mezon(tarozi)
Peshona	Saraton(qisqichbaqa)	Put	Qavs(o'qotar)
Qo'llar	Savr(buzoq)	Qovuq	Sunbula(parizod)
Kaftlar	Javzo(egizaklar)	Zakar'olot	Aqrab(chayon)
Ko'ks	Asad(arslon)	Tizzalar	Jadiy(tog' echkisi)
Boldirlar	Davl(qovg'a)	Tovon	Hut(baliq)

(2-jadval: "Vujudnoma" asarida keltirilgan o'n ikki burch nomlarining inson a'zolariga qarshilantirilishi)

Keyin odamda bo'lgan nafs martabalariga yuzlanadi va ulardan faqat to'rttasini sanab o'tadi:

“Vujudnoma”da keltirilgan nafs martabalarining tabiiy unsurlarga va malaklarga qiyosi		
Nafsi ammora	Otash kabidir	Azroil
Nafsi lavvoma	Suv kabidir	Mikoil
Nafsi hanika yoki nafsi mutmainna	Yel kabidir	Isrofil
Nafsi mulhima	Tuproq kabidir	Jabroil

(3-jadval: “Vujudnoma” asarida keltirilgan nafs martabalarini)

Islomdagi to'rt bosh farishtalarni bundan tashqari boshqa o'rinlarda ham keltirib o'tadi. Bunda quloq – Mikoilga, burun – Isrofilga, ko'z – Azroilga, og'iz – Jabroilga muqobil qilib keltiriladi.

Odam vujudidagi suyak, tomir, asab tolalari-ning(nerv) sonini aniq son bilan keltirib o'tadi: suyak – 366, tomir – 444, asab tolalari – 777(Üç yüz altmış altı çarşudur bâzâr, Her ne ki vardır cihanda anda var. Yedi-yüz yetmiş yedidür mahallesi, Âlem tolmuş ol şehrün kavgâsı). Bu muallif asarining anatomik bilimlar bilan boyitilganligini bildiradi. Keyingi navbatda murshidga bir rahbar kerakligini, o'z holicha to'g'ri yo'l topolmasligini, to'g'ri yo'l topishi uchun maxsus bilimlar, ta'lim lozimligini ifoda etadi. Butun dunyoning foniy ekanligini, yolg'iz Allohning azaliy va abadiy ekanligini “Bu âlem olmazdan evvel on sekiz bin âlem içinde Hakk Celle ve Tâlâ, kâmiş içinde şeker ve gülâb gibi vâki olmuştur” (Abdurrahman Güzel (2018), 204.b) shaklida bayon etadi. Qur'oni Karimdan “Niso” surasining o'n ikkinchi oyatini keltirib: “Göklerde olanlar da, yerde olanlar

da Allah'ındır. Allah her şeyi kuşatır” o'zi aytayotgan fikrlarning dalilini keltiradi. Butun makonlarning, sifat-ning, ko'ngillarning, olamlarning, borliklarning va shakllarning Allohga oid bo'lganini so'zlagandan keyin shu baytni keltiradi:

Bir bozor qurdi, azaldan har matoni qo'ydi,

U o'zi oldi, o'zi sotdi – bozor ayladi (Abdurrahman Güzel, 2018, 204.b).

Qayg'usiz Abdolning adabiy merosida tasavvufiy tushunchalar qo'llangan asarlar ko'p uchraydi va atamalarining o'ziga xos izohlari ham keltiriladi. Masalan, “inson” kalimasi arabcha so'z bo'lib, “unutmoq”; “olam” – Allohdan o'zga barcha borliq; “orif” – biluvchi; “daira-i hayvonot”- moddiyot, ya'ni ko'z bilan ko'ra olgan moddiyot; “daira-i qalb”- nur olami, ruhlar va malaklar o'lkasi; “daira-i ashk” – Allohning birligi zuhur bo'lgan oliy maqom, ya'ni islomda ta'rifi kelgan “Mahmud maqomi” kabilar shular jumlasidandir. Qisqacha tahlil qilishga urunganimiz “Vujudnoma” asari ham bunday tushunchalarga boydir, u hali to'la, atroflicha tahlil va talqin talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurrahman Güzel, Ali Torun (2021). Türk halk edebiyatı el kitabı, Ankara: (483-485.b). Akçağ Yayınları.
2. Azimova O'. (2017). Noma janrining o'zbek adabiyotida tutgan o'rni, Farg'ona.
3. Dilobar Davlatova Ergashevna. (2024). NOMA JANRI ASOSIDA YARATILGAN ASARLAR TAHLILI VOLUME5, International journal of scientific frsearchers, ISSUE1.
4. Ethem CEBECİOĞLU, (2009). *Tasavvuf Terimleri ve Deyimleri Sözlüğü*, İstanbul: (5.b). Ağaç Yayınları.
5. Rahime ÖZDEM, KAYGUSUZ ABDALIN VÜCÛD-NÂME ADLI ESERİNİN TASAVVUFÎ TAHLİLİ, Temel İslam Bilimleri Ana Bilim Dalı Yüksek Lisans Tezi. (2018). Antalya.
6. Rahmonov N. (2017). O'zbek adabiyotitarixi.–T.:(94-b). Sano-standart.
7. Süleyman ULUDAĞ, (1988). “Ahadiyet”, Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi, c. I, s.s. 484.



Sitora ALXIYEVA,
*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika
 instituti magistranti*

OMON MATCHON SHE'RIYATIDA "QALB" MOTIVI

Annotatsiya: maqolada hozirgi o'zbek adabiyotining serqirra ijodkori, taniqli shoir Omon Matchon she'riyatida yurak, qalb tasvirlari bilan o'zlikni izlash va anglash g'oyalari o'rganiladi. Ushbu mavzuga doir tasavvuf olimi Najmiddin Kubro, buyuk mutafakkir Jaloliddin Rumiyo ruboiylari; Usmon Nosir va Abdulla Oripov she'rlaridan parchalar keltirilib shoirning she'rlari poetik tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *yurak, qalb, ruboiy, shoir, she'riyat, Dhammapadi, Kolumb, kashfiyotchi.*

АННОТАЦИЯ: в статье исследуются идеи поиска и реализации своей идентичности с помощью образов сердца и души в поэзии известного поэта Омона Матчона, плодотворного творца современной узбекской литературы.

Ключевые слова: *сердце, душа, рубе, поэт, поэзия, Дхаммапада, Колумб, первооткрыватель.*

Annotation: the article explores the ideas of searching for and realizing one's identity with the images of the heart and soul in the poetry of the famous poet Omon Matchon, a prolific creator of contemporary Uzbek literature.

Key words: *heart, soul, rube, poet, poetry, Dhammapada, Columbus, discoverer.*

Kirish. Azaldan qalb tushunchasi badiiy adabiyotda mumtoz davr bo'ladimi, uyg'onish davri bo'ladimi va yoki hozirgi zamon poeziyasi bo'ladimi, u shoirlarning eng avval murojaat qiladigan motivlaridan biri hisoblangan. Nazm ahli olamni qalb ko'zi bilan ko'rib, uni benazir so'zlari bilan boyitadi. Shunday iste'dod sohiblaridan biri o'zbek xalq shoiri Omon Matchon ham o'zining navobaxsh she'riyatida quyidagi tasvirga o'ziga xos yondashganiga guvoh bo'lamiz.

Asosiy qism: Lirikada qalb – ko'ngil, yurak, dil, jon, vujud, jism va shu kabi bir qator mavhum(ko'rib bo'lmaydigan) ammo, his qildirishga qodir ko'hna so'zlar bilan ifoda etilib, shoirlar diqqat markazida bo'lgan. Ulardan qalb – negiz, keng ma'noda qo'llanilib, qolgan tushunchalar undan sizib chiqqan motivlardir. Qalbgga ko'ngil, dil so'zlari yaqin bo'lib, bir-biri o'rnida almashtirib qo'llasa ham matn mazmunida uslubiy g'alizlik kelib chiqmaydi. Bu so'zlar bevosita badiiy adabiyotga, xususan, lirik turga xos. Shuningdek, yurak tushunchasi ham ulardan hech qanday farq qilmasdan, faqatgina uning xususiyati – ham badiiy adabiyotda, ham ilmiy adabiyot (tibbiyot)da qo'llanilishidir. Bilamizki, odam ichki a'zosi sifatida yurak so'zi olingan. Uning urishini, his-hayajonda tezlashishini eshitamiz, kerak bo'lsa ko'ramiz ham. Yuqoridagi tushunchalar bilan deyarli vazifasi bir – qalb ko'zida butun olam kaftdek namoyon. Bu iqtidor esa ayniqsa, shoir ahliga esh. Davrlar osha ular o'z badiiy olamiga qalb, ko'ngil bilan birga yurak so'zini ham kiritib, uni baralla kuylashgan, madh etishgan.

Biroq, bu sinonimik qator o'z hissiy-ta'siriy

bo'yog'iga ko'ra asar mazmunida o'z o'rnida qo'llanilishi she'riyatda yuksak mahorat talab etadi. Quyida Omon Matchonning "Yurakka" she'rini o'qir ekansiz, beixtiyor o'sha yuksak mahoratni his qilasis:

O'zi yaratdiyu seni tabiat,
 Lekin tinchimadi, sen yaralgandan.
 Bu tor siyna ichra bandisan abad,
 Tabiatning senga rashki kelgandan.
 Balli!

Asirlikda kechgan umring ham
 Hikmatlar tikloldi fazodan yuksak.
 Sig'dirolmas edi ko'ksiga olam,
 Ozod o'ylaringni bir-bir sanasak [1]

She'rda yurakni tabiat yaratib, shundan buyon tinchi yo'qligi, unga rashki kelgandan ko'krak ostiga qamab qo'ygani, yurakni esa bandiga tashbehlanganligi o'ta nafis badiiyatni hosil qilgan. Shu bilan birga "asirlik"da bo'lsa ham falakdan-da yuqori hikmatlar yarata olgani uchun shoir uni alqaydi va she'r so'nggida: qafassiz yaralganida edi, odamlar bundan ming karra ko'proq mo'jizalaringga shohid bo'lishardi, deya ta'kidlaydi. Shu o'rinda otashnafas shoir Usmon Nosirning "Yurak" she'rida :

Senga tor keldi bu ko'krak,
 Sevinching toshdi qirg'oqdan,
 Tilim charchar, ajab, gohi
 Seni tarjima qilmoqdan[2]

kabi jo'shqin satrlarni o'qir ekanmiz, ikki shoirning yurakka murojaati bevosita o'xshash; shu qatori o'ziga xos ekanligi, biri birini to'ldirib kelayotganiga amin bo'lamiz. Shunisi qiziq-ki, O.Matchon "yurak"i

asir, ammo shunda ham bir olam qudratga ega, uni namoyon eta olgan, mulohazakor keksa yurak; U.Nosir “yurak”i esa tor hujrasidan chiqib ketgan, tamoman ozod, suvdan-da toshqin, olovdan-da jo’shqin, ana shu qudratni ko’rsatmoqqa shay yosh, navqiron yurak bo’lib gavdalanadi.

Navobaxsh shoirning “Kimnidir axtardim..” she’ri esa Mavlono Rumiyning

“So’z – libos , ma’no – unda yashirin asror”[3] degan hikmati zamirida yotishi yaqqol anglanadi:

Kimnidir axtardim, axtardim uzoq,
Ko’zimni panalab ba’zan quyoshdan.
G’ildirak izidan uzun tunlarda
Nomin hay-huladim uning tog’-toshdan

She’rning birinchi kupletida lirik qahramon kimnidir uzoq – quyoshning jazirama kunlarida, g’ildirak izidan uzun tunlarda (chunki g’ildirak, ya’ni arava, qo’sh, ulovning ham yakuniy manzili bor) izlagani, uning nomini tog’-toshlardan so’ragani haqida xabar topamiz-u lekin kim yo nima ekanligini bilmaymiz: bu asror she’rning ikkinchi bandida ochiladi:

Va nihoyat bugun, istiqbol kuni
Ko’rib qoldim uni olamdek ravshan:
Mening qalbim edi u, dunyo tanib –
She’riyat eshigin qoqardi o’ychan.

O.Matchon ushbu she’rida qalbni endigina dunyo tanib, she’riyat eshigini o’ychan qoqayotgan inson etib tasvirleydi. Albatta, misrada aynan inson so’zi keltirilmagan, lekin qalb vujudni boshqaradi, vujud esa lirik qahramonga tegishli bo’lib, qalbning eshik qoqishi majoziy ma’noda qo’llanilganligi ma’lum.

Dastavval, lirik qahramon o’zini obdon axtargan, oxirida o’zligini qalbida ko’rgan, u orqali yashashida ma’no-mazmun, maqsadi nima (she’riyat) ekanligi ifodalanishini tushunib yetgan. Fikrimizni o’zlikni axtarmoq tamoyili asosida yozilgan shayx Najmiddin Kubroning ruboiysi bilan oydinlashtiramiz:

Chun haq va talab yo’liga kirmoq joiz,
Dunyo etagin tutib yugurmoq joiz,
Ko’rmoqqa o’zingni sa’y etgil, zero
Olam ko’zi bilan uni ko’rmoq joiz...[4]

Ma’lumki, N.Kubro, P.Mahmud kabi tasavvuf olimlari va shoirlari, Beruniy kabi buyuk mutafakkirlar Xorazm elidan chiqqan ulug’ siymolar bo’lib, O.Matchon ularni ham yurtdosh, ham ustoz deb bilgan, ularga izdosh hisoblanadi[5]. Ularga bag’ishlab bir qator asarlar yaratgan. Yuqorida keltirilgan “qalb” she’rida ajdodlari ijodining davomini ko’ramiz. Kubro ruboiysining uchinchi misrasi – ko’rmoqqa o’zingni sa’y etgil... kabi da’vati bir ma’noda shoirning “qalbini axtarishi” ga poydevor desak ham bo’ladi. Shu qatori Jaloliddin Rumiyning:

– Dunyoga ne uchun kelding?
O’zingni arzon-garov sotmagaysan,
Illo, sening bahoying baland...
degan hikmatida o’zlikni anglash tamoyili lirik qahra-

mon izlanishida bejiz emasligi va u besamar ketmagani namoyon bo’ladi. Nazm ahli she’riyat baxti va she’riyat dardi bilan yashaydi. Shunday ekan, lirik qahramon qalbi ham she’riyat darvozasi qoqishi tabiiy ravishda misralar ma’nosining barqarorligi va bardavomligini ko’rsatadi. Biroq, nega “o’ychan”? Nega shodon, nega qat’iy emas? Chunki uning zalvorli yuki borligi, uning olami go’zal ko’ringani bilan og’ir kechinmalarini ko’tara olish oson emasligi shoir tomonidan birgina so’z ostida mohirona ifodalangan. Bunga misol qilib O’zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning “Shoir” haqidagi she’rini keltirishimiz mumkin:

Demangiz, dunyoning tashvishi qolib,
O’zini har yonga uradi shoir.
Tog’day og’ir yukni kaftiga olib,
Qushday yengil bo’lib yuradi shoir [6].

Shoir qalbi she’riyat bilan chambarchas bog’liq ekanligini bildik. Endi she’riyat takomili shoir orzusi ekanligi, uning ko’ngil kechinmalaridan sochilgan so’zlar marvariddek tizilib misralarga aylanishi va dildan dillarga she’r bo’lib ko’chishi maqsad qilinadi. Fikrimiz “She’riyat”ga bag’ishlangan she’rida o’zining yorqin ifodasini topgan:

She’riyat!
Shu ishonch tinchitmas takror,
Sirli kashflar sari sudrar solimni.
Senga sodiqligim bayrog’i shulki,
Har gal, har she’rimda, har tepganda qalb –
O’zim o’z qalbmning bo’lsam Kolumbi.

She’r tahlilidan avval, unga epigraf qilib Dhammapadi – Buddaning she’rlar to’plami[7]dan olingan “O’z oroling bo’lsin” aforizmini ta’kidlash joiz. Lirik qahramon to’g’ridan to’g’ri she’riyatga murojaat qilib, o’zini ko’ksi to’la ishonch bilan hali ochilmagan kashfiyotlarni ochishga shaylanib solda kezayotgan sayyohga o’xshatadi. Uning ishonchi va sadoqati she’riyat olamidagi kashfiyotlarga bag’ishlangan bo’lib, har oni, har satri va har yuragining tepishi sirli ummon kemasiga qadalgan hilpirovchi bayroqqa qiyoslanadi. Va shu suzishda o’zi o’z qalbining buyuk kashfiyotchisi bo’lishini orzu qiladi. Shoir tomonidan kashfiyotchi Amerika qit’asini kashf qilgan buyuk ispan sayyohi Xristofor Kolumbdek bo’lishini e’tirof etadi.


Asar ichidagi asar – epigraf bilan so’nggi misra she’r manosini cho’qqisiga yetkazadi. Demak, shoir uchun qalb – ummon, orol – uning she’riyat dunyosi; unda kashf qilingan va qilinajak nuktalar lirik qahramonni har nafas o’ziga chorlaydi. U shunchaki izlanmayabdi: yer yuzida hali noma’lum bo’lgan joyni ochib bergan insondek she’ri dunda hali ochilmagan oltin misralarni yaratmoqchi va ulug’ niyatda o’z jism-u jonining buyuk kashfiyotchisiga aylanmoqchi. Donishmandlarning bir so’zi bor: orzu qildingmi, uning yarim yo’lidasan. Shubhasiz, shoir ham ulug’ niyatidan uzoq bo’lmagan. U aynan o’sha yo’lda ekanligidan rang-barang, o’ziga xos ohangdor she’riyati darak beradi.

Xulosa. O.Matchon o'z nazmiy poetikasida qalb tasviri orqali o'zlikni axtarmoq, maqsadni oydinlashtirmoq va uni yuksakka chiqarmoq kabi teran falsafiy mulohazalarni ilgari suradi. Bundan tashqari shoir

qalbi va she'riyat bir-biriga uyg'un ekanligi, yonib ijod qilmoq uchun avval qalb uyg'oq bo'lishi kerakligi kabi g'oyalar anglanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Omon Matchon "Seni yaxshi ko'raman". She'rlar. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1981.
2. Usmon Nosir. Ertani sevib kut!.. She'rlar. – T.: "Adabiyot" nashriyoti. 2021. 120-b. 3-bet;
3. Radiy Fish. Jaloliddin Rumiy: tarixiy-biografik roman/ruschadan Jamol Kamol tarjimasi. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1986. 272-b.
4. 333 ruboiy (forsiydan Jamol Kamol tarjimasi). – T., 1991. 49-53-betlar.
5. Buriyeva F. OMON MATCHON SHE'RIYATIDA MUMTOZ AN'ANALARGA IZDOSHLIK//Ayniy vorislari. Xalqaro elektron jurnal. – 2023. № 3,4. – C. 83-91-betlar.
6. Abdulla Oripov. Yuzma-yuz. She'rlar. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1978. 392-betlar
7. www.tipitaka.net>tipitaka>dhp.



Mahliyo XUDOYBERDIYEVA,
BuxDU filologiya fakulteti, 21-guruh talabasi

“KECHA VA KUNDUZ” ROMANI BADIY MATNIDAGI KODLAR

Annotatsiya: Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon XX asr she'riyatining yirik vakili, o'zbek nasri, dramaturgiyasi, tanqidchiligiga katta hissa qo'shgan mutafakkirdir. Cho'lpon qator lirik she'rlari va hikoyalarda o'zbek xotin-qizlarining feodal o'tmishidagi taqdirini keng tasvir va tahlil etgan. Ana shu g'oyalarini umumlashtirib, jamiyatda xotin-qizlarning huquq va erkinliklari qalamga olingan. Jamiyatni tag-tomiri bilan isloh qilishga qaratilgan "Kecha va kunduz" romanini yozishga kirishdi. Ushbu roman bir nechta tadqiq obyekti aylandi. Asarning an'anaviy tahlilidan farqli ravishda struktur dalilga tortilgan va badiiy matndagi kodlar aniqlangan.

Kalit so'zlar: yangi o'zbek adabiyoti, nasr, struktur tahlil, badiiy kod, qiyos.

Annotation: Abdulhamid Sulaymon son Cholpon is a representative of XX century poetry, a thinker who made a great contribution to Uzbek prose, dramaturgy, and criticism. Cholpon has widely described and analyzed the fate of Uzbek women in the feudal past in a number of lyrical poems and stories. Summarizing these ideas, the rights and freedoms of women in society were written. He began to accept the novel "Night and Day" in order to reform the society with his ideology. The three novels have become the object of several studies. Different from the traditional analysis of the work, a clear structure has been analyzed and the codes in the artistic text have been identified.

Key words: new Uzbek literature, prose, structural analysis, artistic code, comparison.

Аннотация: Абдулхамид Сулейман, сын Чолпона, – яркий представитель поэзии XX века, мыслитель, внесший большой вклад в узбекскую прозу, драматургию и критику. Чолпон широко описала и проанализировала судьбу узбекских женщин феодального прошлого в ряде лирических стихов и рассказов. Обобщая эти идеи, были написаны права и свободы женщин в обществе. Он начал писать роман «День и ночь», направленный на реформирование общества. Этот роман стал объектом ряда исследований. В отличие от традиционного анализа произведения проведен структурный анализ и выявлены коды художественного текста.

Ключевые слова: новая узбекская литература, проза, структурный анализ, художественный код, сравнение.

Kirish. Cho'lon "Kecha va kunduz" romanini 1935-1937-yillarda yaratgan. Bu roman o'zbek millatining badiiyatda aks etgan solnomasidir. Romanda aks ettirilgan voqea 1-jahon urushi endigina boshlangan kezlarda O'zbekistondagi viloyatlardan birida bo'lib o'tadi. Romandagi qahramonlardan birining: "Biz yaqindagina eshon to'poloni bo'lib o'tgan joydan uncha olisda emasimiz" degan so'zlariga qarab, voqea Andijon viloyatining Dukchi eshon qo'z'galoni bo'lib o'tgan Marhamat tumaniga yaqin bir joyda bo'lib o'tgan deb aytishimiz mumkin.

Asosiy qism. Bu davr o'zbek xalqining ikki tomonlama zulm ostida ezilgan davri edi. Mahalliy boylar bu davrda rus mustamlakachilari bilan og'iz-burun o'pishib, o'z xalqining tarixiy taraqqiyoti haqida emas, uni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy qoloqlikdan xalos etish to'g'risida emas, balki o'zlarining rohat-farog'atlari, moddiy farovonliklari haqidagina jon kuyuntirishar edi! Feodal tuzum va mustamlakachilik sharoitida xalq to'g'risida o'ylovchi, uning qiyin, mashaqqatli hayotini yaxshilash haqida qayg'uradigan biron siyosiy kuch mavjud emas edi. Yozuvchi ana shu tarixiy davrni badiiy tasvir va tahlil etish maqsadida asarni yozgan. Bu voqea Zebi timsolida ochib berishga qaratilgan.[4,37]

Bu asarga "O'tkan kunlar asari darajasida" deb baho berilgan. U o'zbek adabiyotidagi ilk roman-dilogiya bo'lib, ikki kitobdan iborat. Birinchi qismi "Kecha" 1933-1934 yillarda Moskvada yozilgan. Dastlabki boblari 1935- yilda Toshkentdagi adabiy jurnalning 1-sonida bosilgan, asar 1936-yilda to'liq holda nashr etilgan. Asardagi voqealar ilk bahorda boshlanib, qish chillasida tugaydi. Cho'lon romaniga "Hamal keldi – amal keldi" maqolini epigraf qilib olgan.

Natijalar va muhokama. Badiiy matndagi kod atamasi faqatgina strukturalizm fanigagina xos. Kod bu – badiiy matndagi yashirin fikr yoki g'oyadir. Kod matnning qayerida uchraydi degan savol tug'ilishi mumkin? Aslida butun bir matn (she'r, doston, roman, drama, hikoya...) umumiy holatda bitta koddan iboratdir. Butun matnda bitta yoki bir nechta kod bo'lishi mumkin. Matniy struktural tahlil davomida mana shu kodlar rasshirovka (shifni ochish) qilishi lozim. Badiiy matnda ko'plab kodlar bo'ladi. Ularning bir qismi strukturalistlar tomonidan quyidagicha nomlangan. Narrativ kod, jumboq kod, xronologik kod, tabu kodi, ilmiy kod, axloqiy kod, ramziy kod, tarixiy kod, murojaat kodi kabi. Badiiy matnga nisbatan ko'proq uchraydigan ayrim kodlarning izohini berib o'tamiz.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, "Kecha va kunduz" romani bahor fasli ta'rifi bilan boshlanadi. Ana shu ta'rifda badiiy matnda qanday struktur kodlar borligini tahlil qilmoqchimiz.

Cho'lonning "Kecha va kunduz" romanining birinchi bobidan olingan quyidagi badiiy matnni keltirib, kodlar haqida fikr yuritmoqchimiz.

"Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko'ngillarni

qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi.

Tollarning ko'm-ko'k soch popuklari qizlarning mayda o'rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi. Muz tagida loyqalanib oqsa suvlarning g'amli yuzlari kuldi, o'zlari horg'in-horg'in oqsalar-da, bo'shalgan qul singari erkinlik nash'asini kemira-kemira ilgari bosadilar. Simyog'ochlarning uchlarida yakka -yakka qushlar ko'rina boshladi. Birinchi ko'ringan ko'klam qushi birinchi yorilgan bodroq nash'asini beradi. Bultur ekilib ko'p qoshlarni qoraytirgan o'sma ildizidan yana bosh ko'tarib chiqdi. Muloyim qo'llarda ivib, suvga aylangandan keyin go'zal ko'zlarning supasida yonboshlashni muncha yaxshi ko'rar ekan bu ko'kat! Erkaklarning gullik do'ppisiga tegmay, yalang ayollar bilan, ularning sochlari, gajaklari va ro'mol, popuklari bilan hazillashib o'ynagan salqin shabada... ko'klam nash'asi bilan sho'xlik qiladi. Hayot nega bu qadar go'zal va shirin bo'ladi bahorda?

"Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko'ngillarni qitiqlay boshladi". Bunda xronologik kod mavjud. Unda badiiy matndagi vaqt, goh vaqtning ma'lum bir bo'lagi beriladi. Ushbu matnning bahor vaqtida yozilganligi xronologik kod uchun asos va tollarning ko'm-ko'k soch-popuklari, qizlarning mayda o'rilgan kokillari, muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning yuzlari kulishida ham xronologik kod uchraydi".

"Bo'shalgan qul singari erkinlik nash'asini kemira-kemira ilgari bosadilar" bu matn tag ma'nosidan tarixiy kod alomatlarini ko'rishimiz mumkin. Jadidlarning mavjud tuzumini isloh qilib, erkinlikka intilish g'oyalari aks ettirilgan.

"Bultur ekilib ko'p qoshlarni qoraytirgan o'sma ildizidan yana bosh ko'tarib chiqdi"... Bahor paytida shunday bo'ladi bu ham xronologik kod.

Muloyim qo'llarda ivib, suvga aylangandan keyin go'zal ko'zlarning supasida yonboshlashni muncha yaxshi ko'rar ekan bu ko'kat" – murojaat kodi. Badiiy matn birliklarida biror shaxs narsa va jonzotlarga murojaat bo'lsa bu murojaat kodi deyiladi. O'smaga murojaat qilinyapti.

"Erkaklarning gulli do'ppisiga tegmay, yalang ayollar bilan, ularning sochlari, gajaklari va ro'mol popuklari bilan hazillashib o'ynagan salqin shabada..." Bu badiiy matnda jumboq kodi bor. Chunki nega aynan yalang ayollar sochlari va gajaklari, ro'mol popuklari bilan o'ynaydi-yu, erkaklarning gulli do'ppisiga tegmaydi. Chunki bahor kelsa qizlar yangi xonatlas ko'ylaklar kiyishadi, go'zallashadi, shabada ham ularga oshufta bo'lib qoladi.[3,21]

Romanning nomlanishiga e'tibor qarataylik "Kecha va kunduz". Bevosita nomlanishning o'zida ham ikkita kod yashiringan.

1. Xronologik kod – bunda vaqt masalasi inobatga olingan. Kecha va kunduzni ma'lum paytni ifodalashiga nisbatan xronologik sirasiga kiritishimiz mumkin. [3,21]

2. Narrativ kodi – bu qiziqtirish kodi. Kitobxonni

matnga qiziqtirish maqsadida qo'llanadi. Har qanday matn sarlavhasida, albatta, narrativ kod bo'ladi. Kecha – o'zbek xalqining boshiga tushgan azoblar, uqubatlardan, zulm, zo'ravonlik talqini bo'lsa, kunduz – xalqning istiqbol orzusidir.

Endi asarga qo'yilgan epigrafga e'tibor qarataylik. "Hamal keldi – amal keldi". Ushbu badiiy matnda ham xronologik kod – bahorning yurtga tashrifi vaqti bo'lsa, narrativ kod – bahorda kimga qanday amal keladi, bahor nimasi bilan qiziq kabi jumboqlar yotadi. [3,21]

3. Xronologik kodning ajoyib namunasi badiiy matndan olingan parchada ham aks etgan. "Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko'ngillarni qitiqlay boshladi, ilgari bosadilar". Bunda betakror tasvirlar orqali Cho'lpon xuddi rassom singari bahorning portretini chizgandek go'yo.

4. Ritorik so'roq kodi – bunda so'roq berilib, javob talab qilinmaydi. Javob savoldan anglashiladi. "Muloym qo'llarda ivib, suvga aylangandan keyin go'zal ko'zlarning supasida yonboshlashni muncha yaxshi

ko'rar ekan bu ko'kat". [3,21]

5. Etnografik kod – xalqning milliy mentalitetiga xos an'analar, qadriyatlar aks ettiriladi. Qizlarning qoshiga ko'rk bag'ishlagan o'sma, erkaklarning gulli do'ppisi, gajak sochlar, ro'mol popuklari o'zbek xalqiga xos qarashlardir. [3,21]

6. Murojaat kodi – badiiy matn birliklarida biror shaxs, narsa va jonzotlarga murojaat qilinadi. "Hayot nega bu qadar go'zal va shirin bo'ladi bahorda?" bahorga murojaat tarzda. [3,21]

7. Ramziy kod – badiiy matn ta'minlaydigan kod. Yuqorida keltirilgan badiiy matn to'lig'icha ramziy kodga misol bo'ladi. Ramz – Zebining yoshligi, go'zalligi, qahramon hayotida sevgi faslining boshlanganligiga ishora. [3,21]

Xulosa. Adabiyotshunoslikda badiiy matn cheksiz, chegarasiz bo'lgani uchun hali nomlanmagan kodlar ham ko'p. Tahlil vaqtida ularga o'zimiz ham nom to'pishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oripov A. Yillar armoni. – T.: Adabiyot va san'at, 1987. 123-224-bet
2. Rauf Parfi. Ona tilim. www.ziyouz.com.2007.
3. Cho'lpon. Kecha va kunduz. – T.: Sharq, 2011. 3-bet
4. Quronov D. Cho'lpon nasri poetikasi. – T.: Sharq, 2004. 37-bet.
5. Karimov N. Cho'lpon. – T.: Fan, 2004
6. Чўлпон. Яна олдим созимни. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1991. 21-bet

Dilnura AVLAQULOVA,
Qarshi davlat universiteti Filologiya fakulteti
1-bosqich talabasi.
Ilmiy rahbar: Nilufar Umarova,
Qarshi davlat universiteti dotsenti, f.f.f.d.

USMON AZIMNING SO'Z QO'LLASH MAHORATI

Annotatsiya: ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim she'riyati to'g'risida fikr bildirilib, shoir ijodida kuz motivi, tuyg'ular tasnifiga alohida e'tibor qaratilgan. Shoir she'riyatida yetakchi o'rin tutgan sog'inch mavzusida yozilgan she'rlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kuz, tuyg'ular kuychisi, sog'inch, motiv, iste'dod, ijodiy metod, uslub, ko'nikma, jonli xotira.

Аннотация: в данной статье выражено мнение о поэзии народного поэта Узбекистана Усмана Азима, особое внимание уделено осеннему мотиву и классификации эмоций в творчестве поэта. Проанализированы стихотворения, написанные на тему тоски, которая занимала ведущее место в поэзии поэта.

Ключевые слова: осень, певица чувств, тоска, мотив, талант, творческий метод, стиль, мастерство, живая память.

Annotation: in this article, an opinion is expressed about the poetry of the national poet of Uzbekistan Usman Azim, special attention is paid to the autumn motif and the classification of emotions in the poet's work. Poems written on the theme of longing, which took a leading place in the poet's poetry, were analyzed

Key words: autumn, singer of feelings, longing, motive, talent, creative method, style, skill, living memory.

“Borliqda bir-biriga aynan o'xshash hodisa mavjud emas. Chunki betakrorlik borliqning asosiy xususiyatidir. Kishilarning harakat, faoliyati ham ana shu haqiqatni tasdiqlaydi. Odamlar bo'y-basti, ovozi, qobiliyati, irodasi kabi jihatlariga ko'ra bir-biridan ajralib turadi. Hatto egizaklar ham bir-biriga aynan o'xshamaydi. Yozuvi aynan bir xil kishilarni topishga urinish ham befoyd. Negaki har bir odam o'ziga xos “xat” bilan yozadi. Ijodkor uslubini ham ma'lum ma'noda ana shunday “xat” deyish mumkin. Yozuvchi, shoiring “xati”i uning asarlari tilida, qahramonlarning so'zlash tarzida, voqealarning tanlab olinishi va bayon etilishida namoyon bo'ladi” [2.292].

“Uslub – bu odamdir”, – degan edi fransuz tabiatshunosi Byuffon Jorj-Lui Leklerk. U ijodkorga tegishli bo'lgan hamma narsani qamrab oladi. Uslubni belgilovchi xususiyatlar adabiy asarning shaklidan tortib mazmunigacha bo'lgan qismini o'zida mujassamlashtiradi, ya'ni u ijodkorning o'zligini namoyon etadigan adabiy hodisa bo'lib, muallif dunyoqarashini, tanlagan ijodiy metodini, fantaziyasini, iste'dod salohiyati va ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Hozirgi o'zbek she'riyati ham uslublarning rang-barangligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. O'z uslubi va lirik “men”i bilan adabiyotga kirib kelgan Usmon Azim so'zdan ustalik bilan foydalana olish qobiliyatiga egaligi bilan ajralib turadi.

Usmon Azim nomini tilga olarkanmiz, xayolimizda kuz fasli gavdalanadi. Balki bunga sabab shoir she'rlarida birinchilikni boy bermayotgan kuz mavzusidir:

“Kuz – mening sen tomon uzatgan qo'lim,
Boqqa qo'l cho'zmasang, kuz ham qolmaydi”.

Insonlar ba'zan birinchi qadamni tashlashga qo'rqishadi va imkoniyatlarini qo'ldan chiqarishadi. Yuqoridagi misralarda shunga ishora qilinmoqda.

“Qodir egam bandalariga
Etmoq bo'ldi g'ussani tasvir:
Kechdi yozning xandalaridan –
Kuzni bu tong ayladi asir”.

She'riy misralarni chuqurroq tahlil qilishda Forobiyning quyidagi misralarini keltirib o'tmoqlik o'rinlidir: “Mulo hazalar ichida taqlid ishlatilgan gaplarni eshitgan odamda ham xuddi shunday holat bo'ladi. Bunda u bir narsada boshqa bir narsa timsolini ko'z oldiga keltiradi” [1.114]. Chindan ham, kuzning rangi g'amdan sarg'aygan inson rangiga o'xshash... Umuman, badiiy adabiyotda umrning og'ir kunlari kuz orqali, baxtiyor damlari esa yoz orqali ifodalanishi odatiy hol. Yuqoridagi misralarda, Alloh hattoki, fasllar vositasida ham inson umri faqat shodiyonalardan iborat emasligiga ishora qilganligining tasviri mavjud. Ya'ni dunyodagi bog'liqlik qonuni – kuz va ayriliq, yo'qotish, sog'inch, yoz va quvonch, muvaffaqiyat... Bu zanjir esa o'z-o'zidan emas, Yaratganning xohishi bilan bog'langan. Yoki:

“Kuzda yaqin kelar zaminga Alloh...”

Biz buni shunchaki, “Alloh g'amga ko'milgan qalbning nolalarini eshitadi”, – deya ta'riflaymiz. Shoiring o'tkir qalami esa bu tarzda oddiylikni o'ziga ep ko'rmaydi. Unga ramziylik, bejirimlik xos.

Nahotki birgina kuzni shunchalik sayqallash mumkin bo'lsa?! Nahot, shoir biz payqamaydigan olam mo'jizalarini shunchalar teran anglasa?!

Inson qalbdoshini hayotidagi kishilar orasidan topishi kerak, degan qoida yo'q. Ba'zida u qalbi bilan chiqishadigan odamni o'qigan she'rlaridan topadi. Lirik qahramon bilan sirlashgisi, uzoq suhbatlashgisi kelaveradi. Men ham o'z qalbdoshimni yuqoridagi ijodkor, tuyg'ular kuychisi – Usmon Azim she'rlaridan topganman desam,

aslo mubolag'a bo'lmas. Bu shoirni o'ziga darddosh deb biladigan bir men emas, bundaylar minglab. Negaki, bu ijodkor insonning qalbiga "ta'sir etadi". Hattoki, kishi o'zi to'laligicha anglab yetolmagan hissiyotlarni Usmon Azim qolipiga soladi. Masalan, quyidagi parcha:

"O'zi qancha qoldim? Bormanmi? Qaray?
 Uvalanib ketgan ruhmi, yo vujud?
 Jonimda zimillab, miyamni yoray,
 Deb turgan sabrmi, ko'nglimning kuchi?" [3.5].

Ba'zida shunday tuyg'ular insonning ustiga bostirib keladiki... alam, ayriliq, muvaffaqiyatsizlik... Ularga qarshi kurashishga kuch topolmay qoladi kishi. Ich-ichidan tugab boraveradi. Sabr isyon ko'taradi. Kishi vujudi jismonan ham, ruhan ham "uvalanib" ketaveradi. Ammo holatini qanday ifoda etishni bilmaydi. Yuqoridagi misralarda aynan shu holat o'z aksini topgan. Ya'ni tashvishlardan toliqqan ruh va vujud yaxlitligi. Yoki keyingi jumalarga diqqat qilaylik:

"Nima qilishingni o'zingdan so'ra,
 Dunyoga bekorga kelmagansan.
 Ammo o'zing qayda?

Bu cheksiz dunyoga sochilib ketgansan".

Abu Nasr Forobiy shunday deydi: "Ko'pchilik shoirlar ham o'z fikr mulohazalarini boshqalarda qanoat hosil bo'ladigan darajada ifodalash qobiliyatiga ega bo'ladilar. Ular o'zlarining o'sha qoniqarli mulohazalarini she'riy yo'l bilan ifoda etganlar" [1.112]. Endi bu fikrlarni yuqoridagi parcha bilan bog'lasak; o'tkir qalam sohibi bugungi kun odamlariga nisbatan mulohazalarini shu jumlar orqali yetkazib bergan bo'lsa, ajab emas. Chunki insonlar dunyoga, dunyo ishlariga shunchalar sho'ng'ib ketganki, o'zligini anglashga ulgur olmaydi. Shoirning fikricha, inson o'zligini tashqi dunyodan emas, aksincha, o'zidan, o'z qalbidagi "men"idan, fitratidan izlashi lozim. Biroq

o'sha, o'zlikning o'zi qayda, dunyoga sochilib ketganmi?

Usmon Azim ijodi tuyg'ular erkinligiga tayansa-da, mavzular shunchaki hissiyotlarni tasvirlash bilan cheklanib qolmaydi. Tuyg'ularni yuqori o'ringa qo'yish, ularga hurmat bilan munosabatda bo'lishga undaydi. Masalan:

"Bormisan, yo'qmisan, nima farqi bor,
 Seni sog'inaman, muhimi shunda!"

Odamzod qiziq, his qilayotganlarining ichiga cho'kib ketadi-da, qaysi sabablar uni shu ko'yga solganini unutadi-qo'yadi. Yoki bu misralarni shunday tahlil qilish mumkin: Sog'inchning ko'klarga ko'tarilishi. Sog'inich shunchalar muhimki, uning sababchisidan ham... Undagi o'zgachalik shunda. Biz o'qigan ko'plab she'rlarda: sog'inch shunchaki mavzu sifatida tanlanadi xolos. Asosiy diqqat esa sababchisiga qaratilganicha qolaveradi.

"Seni eslab yashayapman jim,
 Xotiralar bilan isinib".

Ayriliq insonni muzlatishiga ishonasizmi?! Inson muzlamaydi, uning qalbi muzlaydi. Ayriliq azobini tortayotganlarning yagona umidi – birikish. Ammo yashash uchun faqat umid kamlik qiladi. Umidning o'zini ham yashatish kerak. Xotiralar umidga hayot baxsh etadi. Axir bejizga aytilgan emasku, "Xotiralarda jon bor" deb. Zamonaviy uslub egasi – Usmon Azim ham sog'inch qahratonida, xotiralar unga iliqlik baxsh etayotganiga ishora qilmoqda.

Biz sevib qolish uchun ma'shuqada ma'lum bir o'zgachalikni topishimiz kerak. Biror filmni oxirigacha tomosha qilishimiz uchun biror qahramonga mehr qo'yishimiz lozim. Usmon Azim she'rlarini his qilish uchun qalbimizda muayyan og'riqni tuygan bo'lishimiz zarur. Kuzni yashagan va yashayotgan bo'lishimiz muhim. Shundan keyingina shoir she'rlari ohanrabo yanglig' o'ziga tortaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Nasr Forobiy – "Fozil odamlar shahri". – Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993.
2. Dilmurod Qur'onov – "Adabiyotshunoslikka kirish". Darslik. – Toshkent. "Fan", 2007.
3. Usmon Azim – "Jimlik". – Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.



Munira SHONAZAROVA,
UrDU 1-kurs magistranti

“OSHIQNOMA” TURKUMI DOSTONLARIDAGI SHE’RIY PARChALARNING SHAKLIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqolada “Oshiqnoma” turkumiga mansub dostonlardagi she’riy matnlarning tuzilishi va shakliy xususiyatlari o’rganilgan. Shuningdek, parchalar turlarga bo’linib, ulardagi badiiy maqsadning ro’yobga chiqishi tadqiq etilgan.

Kalit so’zlar: doston, nazm, nasr, turoq, ruhiy holat, poetika, ishqiy doston, qahramonlik dostonlari, harakatlar tezlashuvi, obraz.

Annotation: the article examines the structure and formal characteristics of poems in the epics belonging to the “Ashiknoma” series. The fragments were also divided into types and the implementation of poetic intent in them was studied.

Key words: epic, poem, prose, pause, state of mind, poetics, romantic epic, heroic epic, acceleration of actions, image.

Аннотация: в статье исследуются структура и формальные характеристики стихотворений в эпосах, относящихся к серии «Ашикнома». Также фрагменты были разделены на типы и изучена реализация в них художественного замысла.

Ключевые слова: эпос, поэма, проза, пребывание, душевное состояние, поэтика, романтический эпос, героический эпос, ускорение действий, образ.

Azaldan she’r ahli – shoirlar ijodiga turli xil talablar qo’yib kelingan. Har bir she’riy nutqning shakl va mazmun mushtarakligi ham eng asosiy talablardan biri sanaladi. Adabiyotimiz tarixiga nazar tashlasak, eng yuqori talablar mumtoz she’riyat vakillari – aruznavislarga qo’yilganini ko’ramiz. Ularning iste’dodiga baho berishda “ilmhoye segona” – fors adabiyotshunosligida “ilmalar uchligi” deb nomlangan nazariyalar mezoni bilan birga she’rning shakli va mazmuni o’rtasidagi muvofiqlik ham katta ahamiyatga ega hisoblangan. Adabiyotdagi shakl va mazmun munosabati masalasi keng ko’lamda o’rganilgan mavzulardan. Adabiyotshunos Dilmurod Quronov shakl va mazmun haqida so’z yuritib, uni quyidagicha izohlaydi: “Voqe’likda mavjud narsalarning bari o’zining tashqi ko’rinishi (shakli) va shu shakl orqali anglashilayotgan mohiyatiga (mazmun) ega. Shu bois ham “shakl” va “mazmun” kategoriyalari umumfalsafiy xarakterga ega bo’lib, ular voqelikni (narsani) idrok qilishda muhim ahamiyatga molik ilmiy abstraksiyalar sanaladi. Abstraksiya deyishimizning boisi shuki, shakl va mazmun qabilidagi bo’linish shartli, negaki ular – yaxlit bir narsada har vaqt birlikda mavjud bo’lgan va bir-birini taqozo etadigan ikki tomon. Zero, shakl narsaning biz bevosita ko’rib turgan, his qilayotgan tomoni bo’lsa, ayni shu shakl bizga o’sha narsaning nima ekanligini – mazmun-mohiyatini anglatadi”.¹ Ko’rinib turibdiki, shakl mazmunni, mazmun esa shaklni birday talab qiladi. Dilmurod Quronov shakl mazmunga qaraganda turg’unroq, nisbatan sekin o’zgarishga moyilligi haqida so’zlab, mazmun o’zgaruvchanligini ta’kidlaydi. Chuqur

tadqiq etilsa, she’rning shakliy jihatlariga bo’lgan e’tiborning asoslari kamida ming yillik tarixga ega bo’lgan xalq og’zaki ijodiga borib taqaladi. Chunki o’zbek xalq og’zaki ijodiga nazar solsak, she’riy parchalarning 7, 9, 11 bo’g’inli ko’rinishlari ko’p uchraydi va ularning har birining qo’llanilish o’rni bor. Biz ushbu maqolamizda Oshiqnoma” turkumi dostonlaridagi she’riy parchalarning shakliy tomonlarini o’rganishni maqsad qildik.

Oshiqnoma” turkumi dostonlarining 1-kitobi 2005-yilda nashr etilgan bo’lib, o’z ichiga “Sayod va Hamro”, “Hurliqo va Hamro”, “Royi Chin”, “Edigo”, “Malikayi Dilorom”, “Malikayi Zavriyo” dostonlarini qamrab oladi. Bu dostonlarni birlashtiruvchi asosiy xususiyat ularning ishqiy-fantastik turdali bilan belgilanadi. Dostonlarning shakliy tomoniga diqqat qaratadigan bo’lsak, ko’plab umumiy va xususiy jihatlarni ko’rsatishimiz mumkin.

Xalq dostonlariga xos asosiy belgilar shundan iboratki, ularda she’r bilan nasr aralashib keladi. Dostonlardagi she’rlar, asosan, o’n bir bo’g’inli bo’lib, barmoq vaznida aytiladi. Qahramonlarning o’y-mulohazalari, nisbatan tinch ruhiy holati tasviri, o’zaro so’zlashuvlari o’n bir bo’g’inli she’r bilan ifodalanadi. Quyida “Sayod va Hamro” dostonidan olingan parchada ham aynan qahramonlar suhbatini 11bo’g’inli shaklda berilgan:

Sayodxon:

Muhabbat yo’lindin guzar etmading,

Boqib o’z-o’zingga nazar etmading,

Maning g’azabimdan hazar etmading,

Nechun terding olmalarni bog’imdan?

¹ Quronov D. Adabiyotshunoslik nazaryasi asoslari. Akademnashr. –Toshkent. 2018-yil, 92-bet.

Oshiq Ahmad:

*Saning oti ovozingga kelmisham,
Harna deganingni qabul etmisham,
Bir qulingman, xizimatingda bo'lmisham,
O'ldirib, qonima qolma bog'ingda.[2,18]*

Ayrim hollarda tasvir talabiga ko'ra yetti, sakkiz bo'g'inli she'riy ifodalar ham uchraydi. Otlar chopishining shiddati, suronli jang manzaralari, personajlarning tezkor harakatlari aks etgan o'rinlar yetti-sakkiz bo'g'inli she'rlar vositasida beriladi. "Oshiqnoma" turkumi dostonlarining o'ziga xosligi shundaki, ularda 7 bo'g'inli she'rlarga deyarli o'rin berilmagan. Asosan, o'n bir bo'g'inli va sakkiz bo'g'inli she'rlar yetakchilik qiladi:

*Yuzlari gul-humoyimdur,
Xurshidi xovar, oyimdur,
Boqishlari muloyimdur,
Budir magar g'ilmom o'g'il.[2,180]*

Barmoq vaznidagi she'rlarning to'rtlik bandlelardan iborat bo'lishi ongimizga chuqur o'rnashib qolgan, chunki bu shakl eng ko'p istifoda etiladigani hisoblanadi "Devonu lug'otit turk" asarlaridagi parchalardan tortib barmoqda yozilgan bugungi kungacha bo'lgan barcha she'rlar orasida to'rtlik bandlar yetakchilik qilishini statistik ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Ushbu xususiyat "Oshiqnoma" turkumi dostonlariga ham xosligini inkor etib bo'lmaydi, ya'ni dostonidagi she'riy parchalarning asosiy qismi to'rtlik bandlelardan tashkil topgan. Shunday bo'lsa-da, bu turkum dostonlarining 1-kitobini o'rganadigan bo'lsak, uchlik va beshlik bandlelardan iborat she'riy parchalar ham uchraydi.

Uchlik:

*Quloq solib, arzim eshit, Sultonim,
Xudo ila o'zni guzoz aylama.
Oning uchun o'zing ozor aylama.
Tasma-tasma qilsang, qaytmam so'zimdin,
Ming jon fido bo'lsa-bo'lsin Xudodin,
Naqd emasman, mani qimor aylama.[2,293]*

Beshlik:

*Bu bog'da nishonim bor, ul sochi sumanlardin,
Bulbul ovozi o'chmas bu guli chamanlardin,
Ko'nglim uza bilmasman ul ruxsori gullardin,
So'zlardin umidim bor gul yuzli sanamlardin,
Hayrondaman, ey dilbar, bu bog'a na bog' der-
lar?[2,278]*

Dostonidagi boshqa o'rinlarda ham uchliklar va beshliklarning qo'llanilishini inobatga olsak, guvohi bo'lamizki, ular asosan, qahramonlar nutqini ifodalashda qo'llanilgan, hamda shaklan aruz vaznida yoziladigan musallas va muxammas janrlariga juda yaqin turadi. Lekin ularning

vazni bu janrlar xususiyatiga zid bo'lgani uchun musallas yoki muxammas deyishdan cheklanamiz. Yana bir e'tiborimizni tortgan jihat shuki, ushbu turkum dostonlarda ikkilik bandlelardan iborat she'riy parchalar ham bor, bir qarashda ular tuzilishi jihatidan g'azal yoki qit'aga juda o'xshaydi, ammo hijolarning uzun yoki qisqaligi emas, soniga asosan yozilganligi tufayli ularni qit'a yoki g'azal deb bo'lmaydi. Masalan, "Roiy Chin" dostonida shunday parcha bor:

*G'azali Qa'riya, voqe'i Royi Chin:
Qadamingiz bosh ustina, sevdugum gulzorimiz,
Dastingni qo'yg'il dastima, xush kelibsiz nigorimiz.*

*Alingni solg'il bo'ynina, falak prtansun o'ynima,
Kir emdi yorim qo'ynima, xysh kelibsiz nigorimiz.*

*Kelg'il bari ko'ldashali, o'ynab kulib talashali,
Gullar uzub sinoshali, xysh kelibsiz nigorimiz.
Qa'riya bo'lsa sevgiling, zulfi chin, sochi sunbuling,
Belimdadur saning aling, xush kelibsiz nigorimiz.[2,129]*

Asar matnida g'azal sifatida berilgan bu she'riy parcha ham, aslida, g'azal emas, chunki uning shakli g'azal janrining talablariga to'g'ri kelsa-da, vazni buni qat'iy inkor etadi. Aytmoqchimizki, g'azali musajjaning go'zal namunasi bo'lishi mumkin bo'lgan ushbu she'r aruzning biror bahriga to'g'ri kelmaydi va uni ikkilik she'r deyish maqsadga muvofiq bo'ladi.

"Oshiqnoma" turkumi dostonlari qofiyalanish jihatidan ham o'ziga xosliklarga ega. Ulardagi she'riy parchalar an'anaviy a-b-d-b ko'rinishidan tortib, a-b-a-b tarzida ham, a-a-a-b, d-d-d-b tarzida ham qofiyalanishni ko'rishimiz mumkin. Bunday qofiyalanish uslubi biror maqsadga ko'ra foydalanilmagan bo'lsa-da, dostonni kuylash, uning ohangini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "Oshiqnoma" turkumi dostonlaridagi she'riy parchalarning shakliy xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

– dostonlarda sakkiz va o'n bir bo'g'inli she'rlar asosiy o'rin tutadi, buning sababini harakatlarning sur'ati tezlashishi va shiddatkorlikni talab etadigan o'rinlarning kamligi bilan izohlash mumkin;

– dostonlarda ikkilik, uchlik, to'rtlik va beshlik bandlelardan tashkil topgan she'riy parchalardan foydalanilgan va ularning shakli g'azal, qit'a, musallas va muxammaslarga juda yaqin bo'lsa-da, aruz vaznida yozilmagani uchun bunday nomlab bo'lmaydi;

– qofiyalanishdagi turfa xilliklar muayyan maqsad yo'lida qilinmagan, ammo ohangni yaratishda muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018-yil.
2. S.R.Ro'zimboyev muharrirligida. Oshiqnoma. 1-kitob. – Urganch: Xorazm, 2005.
3. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
4. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: "O'qituvchi", 1980.
5. Sarimsoqov B. O'zbek adabiyotida sajl'. – Toshkent: Fan, 1978.

Mubina RAHMONOVA,
Renessans ta'lim universiteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 307-guruh talabasi

PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURI – BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING SAVODXONLIGINI OSHIRISH VOSITASI SIFATIDA: MAZMUN, MOHIYAT, MAQSAD

Annotatsiya: ta'lim jarayonlarida bugungi kundagi eng dolzarb mavzulardan biri bu – xalqaro baholash dasturlari va ularning joriy etilishi jarayonlaridir. Ayni shu davriy masalaga tayanib, xalqaro baholash dasturlarining PIRLS tadqiqoti xususidagi fikr-mulohazalar va uning mazmun-mohiyati, maqsadi mazkur maqolada boshlang'ich sinif o'quvchilarining savodxonligini oshirish vositasi sifatida qaraldi. Jumladan, PIRLS asosidagi diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotni topish jihatiga chuqur e'tibor berilib, asosiy va aniq ma'lumotlar keltirildi.

Kalit so'z va iboralar: *xalqaro baholash dasturlari, PIRLS tadqiqoti, ta'lim tizimini rivojlantirish, o'qib tushunish ko'nikmasi, mulohaza, sintaktik jihat.*

Annotation: one of the most relevant topics in educational processes today is the processes of international assessment programs and their introduction. Relying on this periodic issue, the feedback on the PIRLS study of international assessment programs and its content, purpose were considered in this article as a means of improving the literacy of Primary School students. In particular, deep attention was paid to the aspect of PIRLS-based concentration and finding clearly indicated information, and basic and accurate information was brought.

Keywords and phrases: *international assessment programs, PIRLS research, educational system development, reading comprehension skills, reasoning, syntactic aspect.*

Аннотация: одной из самых актуальных тем в образовательных процессах на сегодняшний день является – международные программы оценки и процессы их внедрения. Опираясь на этот периодический вопрос, в данной статье рассмотрены отзывы международных оценочных программ об исследовании PIRLS, его содержание и цель как средства повышения грамотности учащихся начальных классов. В частности, основное внимание было уделено аспекту сосредоточения внимания на основе PIRLS и поиска четко указанной информации, а также была представлена основная и конкретная информация.

Ключевые слова и фразы: *международные оценочные программы, исследование PIRLS, развитие образовательной системы, навыки понимания прочитанного, логические рассуждения, синтаксический аспект.*

Respublika milliy ta'lim tizimini rivojlantirish va ta'limning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishda yangidan yangi loyihalar, turli-tuman ta'lim texnologiyalari, o'qitish va ta'lim-tarbiyaning yangi metodlarini joriy qilishga ahamiyat qaratilmoqda. Bunday sa'y-harakatlar o'quvchilarning o'qish va uqishga bo'lgan qiziqish va motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Bu amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarida malakali kadrlar va yetuk mutaxassislariga

bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan maktab o'quvchilarining darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim-tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Ma'lumki, mustaqillikka erishilgandan so'ng pedagoglar oldiga qo'yiladigan talablar miqyosi ortib bormoqda. Bu talablar tabiat va jamiyat talablarini bilish maqsadida muayyan fan va texnikaning eng yangi yutuqlari bilan boyitishga: ta'lim-tarbiya jarayonida xalqaro andozalar asosidagi ta'limning rolini oshirish va bunda ayniqsa,

boshlang'ich sinf o'quvchilarini jiddiy tayyorlash va tarbiyalash uchun ota-onalarining, o'qituvchilarining mas'uliyatini oshirishga e'tibor qaratilmoqda. Shunga asoslanib, umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarida aynan o'qish savodxonligi bo'yicha ham xatti-harakatlar tizimini kuchaytirish vazifasi muhimligini ta'kidlash mumkin.

Turli o'qish tarzi o'quvchilardan matn mazmunini turli xil usulda shakllantirishni taqozo etadi. Shuning uchun, PIRLS tadqiqoti odatda boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan qo'llaniladigan to'rt tushunish jarayonini baholaydi. Bu to'rtala tushunish jarayonlariga diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotni topish; to'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish; kontent, til va matn elementlarini tekshirish va baholash; g'oyalar va ma'lumotni talqin qilish va uyg'unlashtirish kiradi. Mazkur jarayonlar chegarasidan o'tib, o'quvchilar o'qib tushunish ko'nikmasini tekshirish va o'z qarashlarini o'zgartirish imkonini beradigan tushunish jarayonlari va strategiyalarini o'zlashtiradi. Bundan tashqari, o'quvchilarning o'qib tushunishlari uchun kerak bo'ladigan bilim va birlamchi tajribalari ularga tilni, matnlarni, dunyoni tushunishlariga yordam berib, ular bu bilim va ko'nikmalaridan foydalanib, biror material yoki ma'lumot haqidagi tushunchalarini tahlil qiladi.

PIRLS dasturida to'rtala tushunish jarayoni har bir beriladigan matn, matnlar jamlanmasi yoki topshiriqqa asoslangan o'qib tushunishga yo'naltirilgan savollarni takomillashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Matnlar bilan ishlash mobaynida o'quvchilarning matni o'qib tushunish jarayonini baholashga mo'ljallangan qator savollar ularga yozma matnlarning mazmunini tushunishlarida o'zlarining bilim va tajribalarini namoyon etishlariga imkon beradi.

Avvalo, shuni alohida e'tirof etish joizki, aniq bayon etilgan ma'lumotga e'tibor qaratish va qidirish, aytaylik, butun bir matni o'qib talqin etish va talqin etilgan matn mazmunini avval o'zlashtirilgan mulohaza va tajribalar bilan taqqoslashdan qiyin bo'lib ko'rinishi mumkin. Shunday bo'lsa-da, matnlar va topshiriqlar ularning hajmi, sintaktik jihatdan murakkabligi, ularda ifoda qilingan fikr-mulohazalarning mavhumligi, tashkiliy tuzilmasi va anglash uchun qo'yiladigan talabdan kelib chiqib bir-biridan farqlanishi mumkin. Shunday ekan, matnning o'ziga xos xususiyati berilayotgan savollarning murakkabligiga hamda to'rtala tushunish jarayonlarining har biri va ularning barchasi uchun ta'sir ko'rsatadi.

Diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotni topish jarayonida o'quvchilar matnda aniq bayon qilingan ma'lumotlarga turlicha diqqat-e'tibor bilan qaraydilar. Matnda bildirilgan ayrim fikr-mulohazalar o'quvchilarning diqqat-e'tiborlarini jalb etadi, ba'zilar esa ularda hech qanday qiziqish uyg'otmaydi. Masalan, agar matndagi fikr-mulohazalar o'quvchilar matn mazmuni yoki o'qishdan ko'zlagan umumiy maqsadiga oid fikr-mulohazalariga zid yoki ularni tasdiqlasa, o'quvchilar

ayni shunday fikrlarga ko'proq e'tibor qaratadi. Bundan tashqari, o'quvchilar odatda o'qish bo'yicha berilgan savolga javob berish yoki matnning ayrim jihatlarini qay darajada tushunganliklarini tekshirish uchun undagi ma'lumotlarni qidirib topishga harakat qiladi.

Dunyo olimlari V.Kintsch va E.Kintsch tomonidan ta'kidlanganidek, ma'lumotni qidirish yaxlit bir matn yoki uning alohida qism birliklarini hosil qilish uchun bir-biri bilan bog'lanishi mumkin bo'lgan ketma-ket g'oyaviy birliklar bilan tugaydi. Bundan tashqari, matnning "kichik birliklar" deb nomlanadigan turli bo'laklari orasida ham bog'lanish mavjud bo'ladi. Matnning kichik va katta birliklari matn asosini tashkil etib, u matnga juda o'xshab ketadi, ammo haqiqiy tushunish ko'nikmasini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Hatto mulohazalar odatda matn yaxlitligi uchun zarur bo'lsa-da, aniq bayon etilgan ma'lumotga e'tibor qaratish va qidirish qobiliyati matn asosini tashkil qiluvchi asosiy vosita hisoblanadi. Odatda matnni qayta tahlil qilishning bu turi o'quvchidan matn mazmunini tushunishi uchun undagi so'zlarga, iboralarga va gaplar ketma-ketligiga e'tibor qaratishni talab etadi. Shuningdek, matn katta birliklarining hosil qilinishi o'quvchidan hikoyadan chiqariladigan xulosa yoki taqdim etilayotgan ma'lumotning tarkibiy xususiyatini anglab yetish imkonini beruvchi, matndagi bir-biriga mantiqiy bog'langan ma'lumotlarni qidirib topishini talab etadi.

Kerakli ma'lumotlarni samarali qidirish matnda qo'llanilgan so'zlarni, iboralarni yoki gaplarni ular qidirilayotgan ma'lumotga tegishli ekanini inobatga olib, tez yoki g'ayriixtiyoriy tarzda tushunishni taqozo etadi. Masalaning qiziq jihati shundan iboratki, bosma matnlar, avvalambor, kichik birliklar darajasida o'qilib, qayta tahlil etilsa, o'quvchining matn tarkibida ma'lumot beruvchi biror gap, ibora yoki grafik tasvirga e'tibor qaratishidan avval matndagi katta birliklarni qayta tahlil qila olish qobiliyati matnlarni onlayn tarzda qidirish strategiyasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Matn bo'yicha tuzilgan topshiriqlarni tasniflashda matnda berilgan ma'lumotga tayangan holda to'g'ri javob va topshiriq matnning qaysi qismidan olinganini tekshirish lozim. Agar topshiriq savolida va to'g'ri javobda matnda berilgan so'zlar aynan qo'llanilgan va ular gap shaklida yoki bir-biriga bog'langan holda joylashtirilgan bo'lsa, mazkur topshiriq "Diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotni topish" turkumiga mansub topshiriq sifatida tasniflanadi. Agar ayrim sinonimlar ishlatilgan bo'lsa, bunday topshiriq ham "Diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotni topish" turkumiga mansub topshiriq deyiladi.

Matnlarni qayta tahlil qilishga oid savollarga misol qilib berilgan o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantiruvchi topshiriqlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'qishdan ko'zlangan muayyan maqsadga bog'liq ma'lumotni aniqlash va qidirish;
- ma'lum mulohazalarni qidirish;

matndagi soʻz yoki iboralar taʼrifini qidirish;
hikoyaning sodir boʻlgan joyi va vaqtini aniqlash;
matnning asosiy mavzusini topish (aniq bayon etilgan boʻlsa);

– grafikadagi maʼlum maʼlumotni aniqlash (masalan grafa, jadval yoki xarita).

Demak, aytish mumkinki, umumtaʼlim maktablarining boshlangʻich sinf oʻquvchilarida oʻqish malakasini oshirish, eng muhimi, ularda matn mazmunini tushunish

koʻnikmalarini turli xil usulda shakllantirishda xalqaro baholash dasturlari, aynan – PIRLS tadqiqotining oʻrni benihoya kattadir. PIRLS tadqiqotiga xos dasturlar asosidagi topshiriqlar taʼlim jarayonlarida takroriy qoʻllanilib borishi bilan jahon maydonlaridagi ijodiy tanlovlarda, xususan, oʻquvchilarning oʻqib, tushunishi talab etiladigan tadqiqot jarayonlarida munosib ishtirok eta oladigan oʻquvchi-yoshlarni tarbiyalashga, tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avazova Durdona Erkinovna. The importance of the pedagogical reforms carried out in the improvement of the PIRLS international assessment program. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=lfh6SfgAAAAJ&citation_for_view=lfh6SfgAAAAJ:2osOgNQ5qMEC

2. D.U.jalilova, Sh.U.Jalilova. TA'LIM JARAYONLARIDA «TALIS XALQARO BAHOLASH DASTURI» DAN FOYDALANISH. "RAQAMLI TA'LIMNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ULARNI TA'LIM-TARBIYA JARAYONIGA TADBIQ QILISH YO'LLARI" MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYASI 25-oktabr 2023-yil. 561-563-b.

3. Dilshoda Jalilova Ural qizi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida axborot kompetentligini rivojlantirish masalasining ahamiyati. Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensiv o'qitishning psixologik-pedagogik ilmiy jihatlari (ilmiy-amaliy anjumani). 2023-yil 2-iyun (<https://doi.org/10.5281/zenodo.7993607>)

4. Jalilova D. Ta'lim jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati. "Sifatli ta'lim – taraqqiyot povdevori» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami // – Toshkent, 2023-yil 20-aprel. 282-286-betlar.

5. Dilshoda Jalilova Ural qizi, Shaxnoza Jalilova Ural qizi. raqamli ta'lim davrida innovatsion tarbiya texnologiyalarining talabalar tarbiyaviy faoliyatga kirishishida tutgan o'rni. "raqamli ta'limning zamonaviy tendensiyalari va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq qilish yo'llari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 25-oktabr 2023-yil. 564-566-b. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10040596>

6. Dilshoda Jalilova Ural qizi, Shaxnoza Jalilova Ural qizi. muammoli ta'lim – boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish vositasi sifatida. "Raqamli ta'limning zamonaviy tendensiyalari va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq qilish yo'llari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 25-oktabr 2023-yil. 509-512-b. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10038453>

Gulrux SATTOROVA,
BuxDU filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

BOBUR ILMIY-MA'NAVIY MEROSINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya: maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur, uning badiiy hamda ilmiy asarlari, umuman olganda Bobur ijodining bugungi davrda tutgan o'ri, xususan, yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: "Boburnoma", memorial asar, psixologik holat, chog'ir, nafs, donishmand shoir.

Аннотация: в статье говорится о Захириддине Мухаммаде Бабура, его художественных и научных трудах, в целом о роли творчества Бабура в современную эпоху, в частности, о его значении в воспитании молодого поколения.

Ключевые слова: «Бобурнома», мемориальное произведение, психологическое состояние, чогир, похоть, мудрый поэт.

Annotation: the article talks about Zakhiriddin Muhammad Babur, his artistic and scientific works, in general about the role of Babur's creativity in the modern era, in particular, about its significance in the education of the younger generation.

Key words: "Boburnoma", memorial work, psychological state, choghira, lust, wise poet.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek nomini jahonga tanitgan ulug' allomalardan biridir. U noyob qobiliyatga ega sarkarda va podshoh, yuksak tafakkurga ega tarixchi, olim va shoir sifatida dunyoni hayratga soldi. U adabiyotimizning Alisher Navoiydan keyingi eng teran fikrli va shoir tuyg'ular kuychisi ekanligi bilan barchaga birday qadrlidi. Uning asarlari bilan tanishar ekanmiz, "...kishi ismining shuhrat topishi ikkinchi umrdir", deya e'tirof etgan orzusi ushlaganining guvohi bo'lamiz. Shoir asarlari bugun ham o'zining ko'p sonli muxlislariga ega, merosi sarhadsiz ummon. Unga sho'ng'igan sari dur-u gavharlarga ega bo'lavramiz.

Bobur qalamiga mansub har bir asarning yaratilish tarixi, qismati va kechmishi bor. Mohiyatida esa teran falsafiylik, donishmandlik mujassam. Turli fan, san'at sohalari nuqtayi nazari qomusiy ko'lamga ega. Shu sababli, uning asarlarini o'rgangan sari yangi ma'lumotlarni kashf etamiz. Hayot-u yashashni yanada chuqurroq anglaymiz. Orzular osmonida yanada balandroq parvozga ruhiy madad olamiz.

"Bobur botirligining cheki bo'lmagan. Uning butun hayoti jasorat namunalari bilan to'lib-toshib yotibdi", degan edi rus sharqshunosi N.I.Veselovskiy. Haqiqatan ham, Bobur shaxsi inson matonatiga qo'yilgan jonli haykal. U hayotning barcha mashaqqatlarini chekkan inson, o'z yaqinlarining xiyonati, ona Vatandan judolik, jang-u jadallardagi mushkulotlar, iz-tiroblar, adolatsizliklar zahmati, mulksizlik ranj-u mashaqqati. Bunday dard-u g'amlarni yengib o'tish uchun inson Boburdek matonatli, qat'iyatli, komil bo'lmog'i lozim. Uni dunyoning tor tuyg'ularidan qutqargan narsa ruhiy komillikdir. Uning jasorati, chekkan azoblari, tortgan alamlari, goh quvonchli, goh qayg'uli kayfiyatlari yozgan asarlariga shu qadar singib ketganki, buni o'qigan sari adibning ibratli hayoti, Boburga madad bergan yoqimli tuyg'ular bizning ruhiyatimizda ham kurtak otib, ulg'aya boshlaganini his qilamiz.

Zahiriddin Muhammad Boburdan qolgan ijodiy merosning eng muhim va eng yirigi O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, geografiasiga, etnografiasiga oid nodir va qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va adabiy tilning yorqin namunasi bo'lgan „Boburnoma“ asaridir. Ushbu asar memuarlar, ya'ni esdaliklar to'plamidir. Buyuk adib

ushbu xotirotlarni bitar ekan, bundan yagona niyati asarni o'qigan o'quvchilar uning xatolaridan xulosa chiqarib, bu kabi xatolarni takrorlamasliklarini istashini alohida ta'kidlaydi.

"Boburnoma"ning bosh qahramoni Boburning o'zi. U juda murakkab shaxs – siyosiy arbob, lashkarboshi, olim, shoir va donishmand. Tabiiyki, badiiy asarda inson, uning hayoti, turmush tarzi va xarakteri o'z ifodasini topadi. "Boburnoma"da muallifning psixologik holati tasviri alohida o'rin tutadi. Boburning birinchi marta may ichishga rag'bat etgani jiddiy ruhiy kechinmalar ta'sirida ro'y beradi. Vaqti kelib Bobur o'zida "chog'irga mayl paydo" bo'lganligini sezadi. Muallifning inkor qilib bo'lmaz sabablar, xolis dalillar keltirib, may ichuvchilar davrasiga qo'shilishi uchun ruhan va ma'nan tayyorligini ta'kidlaydi, o'zini tinchitadi. Biroq yana bir monelik sezadi. Boburni bilgan barcha kishilar uning azaldan ichkilik ichmasligidan boxabar bo'lganliklari tufayli uni qistamas edilar. Uning o'zi esa jur'at etib, ichishga mayli borligini ochiq bildira olmasligini shunchalik aniq, hayotiy tasvirlaganki, ehtimol bu holatni bundan-da mazmunliroq yoritib bo'lmaz: „so'ng'ralar yigitlik havasidan va nafs taqozosidinkim, chog'irga mayl paydo bo'ldi, taklif qilur kishi yo'q erdi, balki chog'irga maylini bilur kishi yo'q erdi. Ko'nglum agarchi moyil edi, qilmag'on amrni o'z'luk bila qilmoq mushkul edi".

Bugungi kunda mumtoz adabiyotimiz orqali yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni yosh avlodga yetkazish borasida ko'p so'z yuritamiz. Boburning yuqoridagi andishasi temuriy-zodalar axloqi, insoniy qadr qiymatga ehtiromi, atrofdagilar fikr-mulohazasi bilan hisoblashish, jamiyatning qonun-qoidalari barcha uchun, hatto shoh uchun ham birdek barobar ekani bunga yorqin dalildir. Boburning aynan may borasidagi andishasini Muzaffar Mirzonikiga tashrif buyurgan chog'ida ham ko'ramiz. Asarda yozishicha, Bobur Mirzo Badiuzzamonning uyiga taklif qilinganda chog'irni rad etadi, Muzaffar Mirzo taklif etgan paytda esa har qancha ichkilikka mayl etmasin, ammo uning ham so'zini yerda qoldirishga majbur bo'ladi. Chunki aka bo'lmish Badiuzzamonning uyida ichkilik ichmay, ukaning taklifiga rozilik bildirish xato bo'lishini anglagan edi. Bobur Mirzo shu o'rinda o'z nafsini vaqtincha

bo'lsa-da jilovlashga jasorat topa olgan bo'lsa, asarning keyingi voqealari davomida islomda ma'n etilgan ichkilikdan butunlay voz kechadi, faqatgina o'zi emas, tasarrufi ostidagi hududlarda ichkilikni taqiqlaydi. Bu kabi voqea va farmonlar Boburning naqadar qat'iyatli, shijoatli va irodali shaxs ekanligini yana bir karra isbotlaydi. Zero, u nafsni yengdi. Bunga erishgan insonlar haqida Alisher Navoiy shunday deydi: "Nafs itin qilsang zabun, olamda yo'q sendek shujo". Biz yashab turgan zamonda nafsiga qul shunday kimsalar borki, ular sababli qanchadan qancha oilalar barbod bo'lmoqda, murg'ak farzandlar yetim bo'lib qolmoqda, aynan shunday odamlar tufayli davlatlar bir-biriga dushmanlik e'lon qilib, natijada, millionlab begunohlarning qoni to'kilmog'ida. Qaniydi, shunday kimsalar ham shoh Boburning ibratli hayotidan o'rnak olib, o'z shaxsiy manfaatlarini deb turli xil bir-biridan yomon razilliklarni qilishmasa...

Bobur barcha asarlarida bo'lgani kabi, "Boburnoma" asarida ham voqea-hodisalarni bayon etar ekan, xolislikka amal qiladi. Shuning uchun ham muallif timsoli ideallashtirilmagan. Tasavvurimizda u hayotning butun achchiq-chuchugini, past-balandini ko'rgan real inson sifatida namoyon bo'ladi. Asarda uning fe'l-atvori butun murakkabligi bilan ifodasini topgan. Tabiatiga xos ezgu fazilatlar, ko'nglidagi takrorlanmas, sohir tuyg'ular, his-hayajonlar bilan birga hukmdor sifatidagi qattiqqo'llik va talabchanlik ham oshkora tasvirlangan. Asarni tarjima qilgan ingliz olimi Uilyam Erskin Bobur haqida shunday deydi: "Osiyoda saxovati va mardligi, iste'dodi, do'stga sadoqati, ilm-fan, san'atga mehri va ular bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishi jihatidan Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi".

Kobul yo'lidagi mashaqqatli kunlarda, ayniqsa, Bobur fe'lidagi oliyhimmatlik, adolat va kamtarlik fazilatlarini yuzaga chiqadi. U navkarlar bilan baravar qor kechib, yo'l ochadi. Ular bilan kechani qor ostida o'tkazadi. Uni qordan pana bo'lgan issiqroq g'or ichiga taklif etishadi, ammo Bobur buni rad etadi. El izg'irin sovuqda tashqarida bo'lgan paytda g'orning ichiga kirib jon saqlashni o'ziga munosib ko'rmaydi, safdoshlari chekkan mashaqqatni birga chekishni afzal biladi. "Kemaga tushganning joni bir" maqoliga amal qiladi. Shu o'rinda Bobur forslarning mashhur hikmatli so'zini yodga

oladi: "Do'stlar bilan bo'lgan o'lim to'ydir". Bu o'rinlar asarda quyida bayon etilgan: "Men ham har tashvish va mashaqqat bo'lsa ko'rayin, har nechuk el toqat qilib tursa, turayin, bir forsiy masal bor: "Marg bo yoron sur ast"

Afsuski, hayotda shunday do'stlar ham borki, ular do'stlikning hech qanday sharti tamoyiliga to'g'ri kelmaydi, faqatgina o'ziga ma'lum, o'zgasiga noma'lum manfaatlarini uchungina do'st bo'ladi. Lekin chin insoniylikda, xususan, haqiqiy do'stlikda hech qanday manfaat, g'arazli niyat bo'lmasligi kerak. Do'stlik da'vo qilgan inson quvonchli kunda ham, anduhli kunda ham do'stining oldida bo'lmog'i lozim. Aytmoqchi bo'lganimiz, bu borada ham Bobur Mirzodan o'rganishimiz kerak bo'lgan jihatlar talaygina.

Bobur o'zining hayot mazmuni haqida mulohaza yuritar ekan, faylasufona, hikmatomuz xulosalarni bayon etadi. Donishmandlar kabi u ham "shuhrat ila yodlanishni ikkinchi umr" deb hisoblaydi: "G'arazkim, bu dunyoda kishidin ushmundog' nimalar qolur, har kim aqldin bahravar bo'lsa, nega andog' harakatga iqdom qilg'aykim, andin so'ng yomon degaylar va har kishiga hushdin asar bo'lsa, nega andog' amrga ehtimom qilmag'aykim, qilg'ondin so'ng mustaxsan degaylar. "Zikri nomero, hakimon umri soniy guftaand" deydi "Boburnoma"da.

Bobur juda ko'p xiyonatlar ko'rdi. Fitnalardan ko'ngliga juda ko'p ozorlar yetdi. Ammo bular uning tabiatidagi ezgu fazilatlarining mahv bo'lishiga sabab bo'lolmadi. Aksincha, o'zining ta'kidlashicha, ota-bobolarining an'analariga amal qildi. Xalqning "Yaxshilik qil, suvga sol, baliq bilar, baliq bilmasa, Xoliq bilar" degan donolik bilan aytgan so'zini umr yo'lida dasturilamal deb bildi. Hayotiy tajribalaridan kelib chiqib, Boburning o'zi ham shunga o'xshash donishmandona xulosalarga keldi: "Har kimdin yaxshi qoida qolg'on bo'lsa, aning bila amal qilmoq kerak. Agar ota yamon ish qilg'on bo'lsa, yaxshi ish bilaa badal qilmoq kerak".

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Zahiriddin Bobur ijodi yillar osha zavol bilmay biz yoshlarga Vatanni sevishga, qadriyatlarini ulug'lashga, inson atalmish oliy xilqatning buyukligini e'tirof etishga, hayot sinovlari, mushkulliklarini matonat bilan yengib o'tishga chorlab, mangu mayoq sifatida nur sochib turaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 2002.
2. Bobur ensiklopediyasi. – Toshkent: Sharq, 2014.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: O'qituvchi, 2008.
4. V.Zohidov. Boburning faoliyati va ilmiy-adabiy merosi haqida. – T., 1960.
5. H. Qudratillayev. Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi. – T.: Sharq, 2011.
6. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 2011.

Muattar UBAYDULLAYEVA,
 Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
 muattarubaydullayeva39@gmail.com
 m.u.ubaydullayeva@buxdu.uz

KASBGA OID FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LEKSIK SEMANTIK XOSLANISHI

Annotatsiya: metaforik iboralar hamda ko'plab grammatik iboralar ixtisosli nutqlarda yuzaga kelgan. Adabiy tilda barcha inson faoliyat turlari o'zining so'z boyligi, ayniqsa metaforik nutqlarda maxsus iboralariga ega. Bizning nutqimiz hayotning bitmas boyliklarini, uning o'zaro bog'liqligini, barcha fikr va his-tuyg'ularimizni to'liq namoyon eta olishga qodir emas; badiiy til garchi so'z yasaliş imkoniyatlari cheklangan bo'lsa-da, bizga hamma vaqt bildir-moqchi bo'lgan fikrimizning o'rnini bosa oladigan, unga yanada kengroq ma'no o'ttenkalarini qo'sha oladigan maxsus terminlar berishni taqozo etadi.

Kalit so'zlar: frazeologizm, leksema, komponent, nazariya, birikma, tip, stilistika, tilshunoslik, fraza, sintaksis

Аннотация: метафорические выражения и многочисленные грамматические обороты возникли в специализированных речевых формах. В литературном языке все виды человеческой деятельности имеют свой словарный запас, особенно в метафорической речи, где используются специальные выражения. Наша речь не способна полностью выразить безбрежное богатство жизни, её взаимосвязь, все наши мысли и чувства; хотя возможности создания слов ограничены, художественный язык требует использования специальных терминов, которые могут дополнить смысл и передать более глубокие оттенки мысли, которые мы хотим донести.

Ключевые слова: фразеологизм, лексема, компонент, теория, сочетание, тип, стилистика, языкознание, фраза, синтаксис.

Annotation: metaphoric expressions and numerous grammatical constructions have emerged in specialized speech. In literary language, all types of human activity have their own vocabulary, especially in metaphorical speech, where special expressions are used. Our speech is not capable of fully expressing the endless richness of life, its interconnections, and all our thoughts and emotions; although the possibilities for word formation are limited, artistic language demands the use of special terms that can add broader meanings and nuances to the thoughts we wish to convey.

Keywords: phraseology, lexeme, component, theory, combination, type, stylistics, linguistics, phrase, syntax.

Kirish. Idiomalar turli soha vakillari yoki sport bilan (barcha inson faoliyat turlari) shug'ullanadigan xalq tomonidan yaratilgan lo'nda, jonli, ifodali nutq birligi bo'lib, ularni nutqda ishlatish bir qancha qulayliklarni yuzaga keltiradi. Suvdagi dengizchilar, o'rmondagi ovchilar, daladagi dehqonlar, qozon tepasidagi osh-pazlar – umuman, buyruq berish istagida bo'lgan kasb egalari o'z sohalariga oid yorqin so'z birikmalari hamda go'zal metaforalarni qo'llay olganlar. Oqibatda, bu nutqiy ifodalarning ba'zilar yanada keng ma'no kasb etib, shunga o'xshash vaziyatlar yoki boshqa joylarda, ko'pincha hazilomuz tarzda ishlatiladigan bo'ldi. Shunday qilib, "dengizchi o'zining dengizga oid iboralarini, baliqchi, uy bekasi, sportchi qaysi mavzuda so'z olib borishlaridan qat'i nazar o'z iboralarini keng qo'llay boshlaganlar va ushbu yorqin va ifodali iboralar asta-sekin adabiy tilga kirib uni yanada shakllantirib boyitib boradi".

Ingliz tilida dengiz bilan bog'liq turli xil idiomalar mavjud. Yorqin va ifodali nutq egalari dengizchilar o'zlarining maxsus birikmalariga boydirlar. Masalan;

to drop the pilot (uchuvchi xizmatlaridan bosh qaytarish) – yaxshi maslahatgo'ydan bosh tortmoq

ma'nosida. Shuningdek, ingliz tilida ov va poyga bilan bog'liq mashg'ulot turlari haqida yaralgan ko'pgina iboralar mavjud.

O'zbek tilida qishloq xo'jaligi sohasiga oid frazeologik birliklar tez-tez uchrab turadi. O'zbek tili matal va maqollarida cho'pon, tegirmonchi, dehqonchilik kabi faoliyat turlari o'z aksini topgan. Masalan: **cho'ponning tayog'idan to'g'ri (halol, haqgo'y inson haqida); dehqon yomg'irda tinadi (ishga qobiliyatli); cho'pon o'lganda (tun-u kun ishlaydigan inson haqida); tegirmonchidan un so'rama (xasis inson haqida).**

Ko'pgina yorqin frazeologik birliklar oshxonada paydo bo'lgan. Bunday iboralar ayollar tomonidan yaratilganligi ehtimoldan xoli emas, albatta. Bunday til birliklari hayotiy tajriba va donishmandlikdan kelib chiqqanligi ma'lum. Masalan:

Ingliz tilida: too many cooks spoil the broth (said when there are too many people involved in trying to do the same thing, so that the final result will not be good) yoki o'zbek tilida: ataladay suyuq (ojiz).

Frazeologik lug'atlarning ko'pchiligida xalq qiziqishlari va har kunlik mashg'ulotlari bilan chambarchas

bog'langan xalqqa tasvirli va idiomatik ifodalarni aks etadilar. Bu ba'zida butkul savodsiz va chalasavodlilar ijodlarining natijasidir, holbuki, idiomalar yoki eng chiroyli obrazli ifodalar kutubxona yoki mehmonxonalarda emas, balki oshxona, og'lxonalarda paydo bo'lgan.

Butunlay olganda har qanday tilning frazeologik lug'at tarkibi o'zining milliy xususiyatlariga egadir. Ikkita yoki undan ko'p tillarning frazeologik tarkibining farqi aniq nimada namoyon bo'lishini faqatgina ularning taqqoslab o'rganilishida aniqlash mumkin. Albatta, bu farq taqqoslanadigan tillarning genetik aloqasi qanchalik uzoqlashgan bo'lsa, shunchalik bu farq chuqurroq bo'ladi. Va aksincha, tillar qanchalik yaqin bo'lsa shunchalik frazeologiya sohasida ularda ko'p o'xshash xususiyatlar seziladi.

O'zbek tilida shunga o'xshash frazeologik birliklar mavjud bo'lib, ular quyidagilar: bo'zchi belboqqa yalchimas; oshpazning qozoni hammavaqt qora.

The baker's dozen; the butcher, the baker, the candlestick maker frazeologizmlarida tadqiqot qilinuvchi birlik to'g'ri ma'noda ishlatilyapti. Boshqa frazeologizmlarda esa ko'chma ma'noda. To spell the baker frazeologizmida harakatning o'xshashligiga asoslangan (kasb nomlarida metaforik ma'no ko'chish yo'li asosida) "baker" komponentiga ega barcha frazeologizmlar haqiqiy inglizcha bo'lib hisoblanadi, ulardan ba'zilari ingliz turmushining ba'zi bir tomonlarini ko'rsatadilar. Masalan: the baker's dozen – shayton dyujini. Qadimgi ingliz odatlari bo'yicha non sotuvchilari bo'lka sotadiganlardan 12 ta non o'rniga 13 ta nonni olganlar, shunda o'n uchinchi sotuvchilar daromadi hisobidan borgan.

Pull devil, pull baker – qo'g'irchoqli tomosha bilan bog'liq ibora, bo'lka sotuvchi bilan shaytonning mushtlashish sahnasidan kelib chiqqan.

O'zbek tilida aytilgan frazeologizmlarning komponentlari ham ko'chma ma'noda ishlatiladi.

"Too many cooks spoil the broth", "every cook praises his own broth", "head cook and bottle washer" frazeologik birliklarida "cook" komponenti obrazli asosni yaratishda ma'noli markaz bo'lib xizmat qilyapti.

"God sends us meat and the devil sends us cooks" frazeologik birligida "cooks" semantik markazdir ammo o'z ma'nosida.

"Too many cooks spoil the broth" ingliz frazeologizmining ekvivalenti bo'lib o'zbek tilida "bakovul ko'paysa osh sho'r bo'ladi" frazeologizmi hisoblanadi.

O'zbek tilida esa "haydovchi" oti 1 ta frazeologizmining komponentidir. Ingliz tili leksik birligi bo'lmish "shepherd" 3 ta frazeologik birlikning komponentidir. O'zbek tilidagi "cho'pon" oti ingliz tilidagi "shepherd" oti bilan taqqoslanganda ko'proq unumdorli bo'lib hisoblanadi. Frazeologik birliklar berilgan komponentlar bilan taqqoslanayotgan tillarda qadimgi bo'lib hisoblanadilar, masalan: "three tailor's of Tooley Street" (o'zini butun xalq vakili deb hisoblovchi odamlar guruhi). Ingliz siyosiy arbobi D. Konningning guvohligi bo'yicha Tuli

ko'chasidan uchta tikuvchi arznoma bilan parlamentga murojaat qilganlar, bu arznoma shunday boshlanadi: "We people of England" Shunday qilib bu hol paydo bo'ldi.

Taqqoslanadigan tillarda frazeologik birliklarning obrazli asoslarini tanlashda milliy o'ziga xoslik aks etadi. Shunday qilib o'zbek tilida "tikuvchi" so'zi "ovchi", "suvchi" va boshqa so'zlar bilan qofiyani tuzadi, ammo komponentli tarkib va obrazli asos farq qiladi. "Tinker", "tailor", "soldier" va "three tailor's of Tooley Street" frazeologik birliklarida tadqiqot qilinayotgan leksik birlik metonimiya vositasida obrazli asosni yaratishda ishtirok etadi. To'g'ri ma'noda tailor, merchant tailor va tom tailor frazeologizmlar tarkibiga semantik markaz sifatida kiradi, shunda komponentlar semantikasi frazeologik birliklarning semantikasini oldindan aniqlashga yordam beradi.

Shunday qilib, kasb oti komponentiga ega frazeologik birliklarning taqqosli tadqiqoti (jismoniy mehnat sohasida) semantika komponentli tarkib, obrazli asos nuqtayi nazaridan quyidagi guruhlariga ajratishga imkon beradi:

1. Boshqa tilda semantik moslikka ega, ammo komponentli va obrazli tarkib bilan farq qiluvchi frazeologizmlar:

"Head cook and bottle washer", "too many cooks spoil the broth", "the shoemaker's wife is the worst shod" frazeologizmlari o'zbek tilidagi "bakovul ko'paysa osh sho'r bo'ladi" frazeologizmlari mos keladi.

2. Bu guruhga semantik jihatdan moslikka ega bo'lmagan, qadimgi ingliz va o'zbek frazeologizmlari kiradi: baker's dozen

Tilda bajarilgan funksiyalar bo'yicha ingliz va o'zbek tillarining frazeologik birliklari ikkita katta guruhga bo'linadi: kommunikativ funksiyaga ega bo'lgan va bo'lmagan frazeologizmlar. Shunday qilib kommunikativ funksiyaga ega bo'lgan frazeologik birliklar ikkiga kommunikativ va nominativlilarga bo'linadi. Ingliz va o'zbek tillarida kasbga oid frazeologik birliklarning nutqiy faolligini aniqlash uchun ingliz tilining eng ko'p tarqalgan shaxs oti komponenti bilan yasalgan 24 ta frazeologik birliklari tahlil qilinadi:

1. Baker: to spell the baker; baker's dozen; the butcher, the baker, the candlestick maker; pull devil pull baker – nonvoy.

2. Builder: Jerry – builder – quruvchi.

3. Busman: busman's holiday – avtobuschi.

4. Butcher: the butcher, the baker, the candlestick maker; butcher's bill, butcher's meat – qassob.

5. Carpenter; such carpenters such chips – duradgor.

6. Cobbler: shoemaker: a cobbler must stick to his last, the shoemaker's wife is the worst shod; shoemaker's stock – etikdo'z.

7. Cook: head cook and bottle washer; son of the

sea cook; too many cooks spoil the broth; every cook praises his own broth; God sends us meat and the devil sends cooks; cold cook – oshpaz.

8. Driver: back-seat driver – haydovchi.

9. Fisher: the great fisher of souls – baliqchi.

10. Hatter: mad as a hatter – telpakdo'z.

11. Hewer: hewers of wood, drawers of water – daraxt kesuvchi.

12. Hunter: lion hunter; fortune hunter – ovchi.

13. Glazier: Is your father a glazier? – shisha kesuvchi.

14. Labourer: the labourer is worthy of his fire; labourers in the vineyard – mehnatkash.

15. Navy: to work like a navy – harbiy.

16. Nurse: dry nurse; wet nurse – hamshira.

17. Potter: clay in the hands of the potter – kulol.

O'zbek tilidagi kasbga oid frazeologik birliklar:

1. Bo'zchining mokisidek qatnamoq (tez harakat):

Qudasi ham uning ishxonasiga bo'zchining mokisidek qatnaydigan bo'lib qoldi, Ashirmat (A. Qahhor)

2. Ovchining tozisi bo'lmoq (yugurdak):

Salimboy shu kunlarda ovchining tozisi bo'lib qolgan.

3. Oshpazning kapkiri (har ishga aralashmoq):

Har ishga oshpazning kapkiri bo'lavermang – dedi ammasi. (S. Abduqahhor)

4. Qassobga go'sht qayg'usi (manfaatdorlik):

Qassobga go'sht echkiga jon qayg'usi deganlari rost ekan. (M. Murod)

5. Kosagardan bir puf (sirini yashirmoq)

Xalqimizda kosagardan bir puf degan naql bor. Siz ham bo'sh kelmang, do'stim. (A. Muxtor)

6. Cho'ponning cho'lig'i (yugurdak)

Bunday ishing yaxshi emas, cho'ponga cho'liqlik senga yarashmaydi. (S. Ahmad)

7. Karnaychidan bir puf (biror narsa haqida xabar bermoq)

Karnaychidan bir puf deb, yuribsizmi? (O. Salom)

Tadqiqot qilinayotgan guruhlarining nominativ frazeologik birliklari. Nominativ frazeologik birliklar atash ma'nosiga ega bo'lib ular shaxs va predmetlarning ko'rinishi, xatti-harakati, holati, sifatini bildiradi. Nominativ frazeologik birliklarga o'zining leksik va grammatik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi leksik birliklar kiradi:

Substantivli: baker's dozen, Jerry Builder, butcher's bill, busman's holiday, ishga zo'r, zo'r dehqon ishchi cho'pon.

Sifatli: mad as hatter, hungry as a hunter, ammamning buzog'i (bo'sh).

Fe'illi: to spell the baker, to work like a navy, not to care a tinker's curse, og'zidan bodi kirib shodi chiqdi.

Kasbga oid (nominativ) frazeologik birliklarning ayrim semantik jihatlari. Tadqiqot qilinayotgan nominativ frazeologik birliklar keng semantik hajmga ega. Ular predmet, hodisa va holatlarni belgilaydi. Kasbga oid frazeologik birliklarning ko'pchiligi inson va inson mehnat faoliyati bilan bog'langan tushunchalarni ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev A. Frazeologizmlarning ekspressivlik xususiyati. – T., O'TA, 1976. 5-son.
2. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. – T., Fan, 1983.
3. Амосова Н. Н. Основы английской фразеологии. – М. 1963.-С.46-49.
4. Ахманова А. С. Словарь лингвистических терминов. – М., СЭ.1966.-С.17-21.
5. Antrushina G.V. English Lexicology. – М. 1985.
6. Bafoyeva M. Badiiy nutqda frazeologik sinonimlardan foydalanish. – T., O'TA, 2003. 2-son. 43-45-betlar.
7. Doniyorov X. Yo'ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. – T., Fan, 1988.
8. Федулёнок Т.Н. Английская фразеология. – Архангельск, 2000.132с.
9. Gizburug G.V. A Course in Modern English Lexicology. – М. 1966.
10. Haydarov A., Choriyeva Z. Ingliz tilida frazeologik birliklarning semantik-grammatik va uslubiy xususiyatlari. Tilning leksik-semantik tizimi va qiyosiy tipologik izlanishlar: sinxroniya, diaxroniya materiallar to'plami. – T., Muharrir, 2012. 8-10-betlar.
11. Haydarov A., Jo'raqulova G. Frazeologik iboralar tarjimasida. Tilning leksik-semantik va qiyosiy tipologik izlanishlar: sinxroniya, diaxroniya materiallar to'plami. – T., Muharrir, 2012. 10-13-betlar.

Shoiraxon SOLIJONOVA,
Xalqaro Nordik Universiteti,
Pedagogika fakulteti magistratura talabasi
Email:solijonovashoiraxon@gmail.com

BO'LAJAK MUTAXASSISLARDA KREATIV FIKRLASH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-AMALIY TAHLILI

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak mutaxassislarida kreativ fikrlash texnologiyasini takomillashtirishning ilmiy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda kreativ fikrlashning ta'lim jarayonidagi o'rni va uning kelajakdagi mutaxassislarining kasbiy faoliyatida qanday muhim rol o'ynashi o'rganiladi. Maqolada kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodikalar, pedagogik texnologiyalar va ta'limda innovatsion yondoshuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, talabalarning ijodiy salohiyatini oshirish uchun samarali metodlarni joriy etish, o'qitishning yangi usullari va texnologiyalarini ishlab chiqish zaruriyati ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: ijodiy fikrlash, interfaol texnologiyalar, "6 shlyapa metodi", hikoya xaritasi, rolli o'yinlar, ta'lim jarayoni, innovatsion metodlar, ma'naviy rivojlanish, talabalar faolligi, tanqidiy fikrlash.

Аннотация: В данной статье анализируются научные и практические аспекты улучшения технологии креативного мышления у будущих специалистов. Исследуется роль креативного мышления в образовательном процессе и его важное значение в профессиональной деятельности будущих специалистов. В статье рассматриваются методики, педагогические технологии и инновационные подходы в обучении, направленные на развитие креативного мышления. Также подчеркивается необходимость внедрения эффективных методов для повышения творческого потенциала учащихся, разработки новых методов и технологий обучения.

Ключевые слова: креативное мышление, интерактивные технологии, метод «6 шляп», карта рассказа, ролевые игры, образовательный процесс, инновационные методы, духовное развитие, активность студентов, критическое мышление.

Annotation: This article analyzes the scientific and practical aspects of improving creative thinking technology in future specialists. It explores the role of creative thinking in the educational process and its significant impact on the professional activities of future specialists. The article examines methods, pedagogical technologies, and innovative approaches in education aimed at developing creative thinking. It also emphasizes the need to implement effective methods to enhance students' creative potential and develop new teaching methods and technologies.

Key words: creative thinking, interactive technologies, "Six Thinking Hats" method, story mapping, role-playing games, educational process, innovative methods, spiritual development, student engagement, critical thinking.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida ijodiy fikrlashning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ijodiy fikrlash nafaqat o'quvchilarni amaliy muammolarni yechishga tayyorlashda, balki kelajakda muvaffaqiyatli mutaxassislar yetishtirishda ham muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasining "2030-yilgacha oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" ijodiy yondashuvlarni ta'lim jarayoniga joriy qilishni asosiy ustuvorliklardan biri sifatida belgilagan. Ushbu tadqiqot mazkur jarayonga o'z hissasini qo'shish maqsadida amalga oshirildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – bo'lajak mutaxassislarida ijodiy fikrlashni

shakllantirishga qaratilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va ularning samaradorligini baholashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Maqolada bo'lajak mutaxassislarida ijodiy fikrlash texnologiyasini takomillashtirishga oid adabiyotlar tahlili bir nechta asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi. Tahlil qilingan adabiyotlar ijodiy fikrlashning ta'limdagi o'rni va uning rivojlanishiga oid nazariy va amaliy bilimlarni qamrab oladi. Jumladan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari ("2030 yilgacha Oliy Ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi")[1] ta'limda innovatsion

yondashuvlarni rivojlantirishga e'tibor qaratadi. Muslimov N.A. va boshqalarning ijodiy fikrlash va pedagogik kompetentlikka oid ishlari[2] nazariy asos sifatida xizmat qilgan. Torrance E.P. ning "Developing creative thinking through school experience"[3] asarida ta'lim jarayonida ijodiy fikrlashni rivojlantirish usullari yoritilgan. Mahmudov A.X. ijodiy yondashuvning didaktik asoslari[4] haqida batafsil ma'lumot beradi. Sharq adabiyoti, xususan, Alisher Navoiy ijodi, talabalarni ma'naviy tarbiyalashda ijodiy yondashuvning ahamiyatini ochib beradi. Tahlil qilingan adabiyotlar ijodiy fikrlash texnologiyalarining o'ziga xos jihatlarni yoritadi, jumladan, interfaol metodlar ("6 shlyapa metodi," hikoya xaritasi, klaster tuzish) haqida ma'lumot beradi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kreativ fikrlash texnologiyalarini ta'lim jarayoniga kiritish nafaqat o'quvchilarni ijodiy rivojlantirishga, balki ularning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada tadqiqot usullari orqali ta'lim jarayonida ijodiy fikrlash texnologiyalarini qo'llashning samaradorligi aniqlangan. Talabalar bilim olish faoliyati va ijodiy qobiliyatlari sezilarli darajada oshgan. Bu metodologiya boshqa oliy ta'lim muassasalari uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

Respublikamizda so'nggi yillarda oliy ta'lim sohasida bir qator sohalarga yetuk, malakali mutaxassislar tayyorlash, yetakchi xorijiy mamlakatlarning tajribalari, innovatsion texnologiyalarga asoslanish, ishlab chiqarish jarayoniga innovatsion loyiha va texnologiyalarni to'laqonli tadbiiq etishning me'yoriy asoslari ishlab chiqilmoqda. «Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish»[5] ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Tahlillar va natijalar

Tadqiqot Xalqaro Nordik Universitetining pedagogika

yo'nalishi talabalari ishtirokida olib borildi. Tadqiqot davomida kuzatish, so'rovnoma va amaliy mashg'ulotlar metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotda 54 nafar 1-kurs talabalari ishtirok etdi. Ularning dastlabki ijodiy fikrlash darajasi baholanib, keyinchalik o'quv jarayonida innovatsion metodlar joriy qilindi. Tadqiqotda quyidagi ijodiy yondashuvlar sinovdan o'tkazildi: "6 shlyapa metodi" – muammolarni turli nuqtai nazardan tahlil qilishni o'rgatadi. Hikoya xaritasi – talabalar fikrlash jarayonini mantiqiy izchillik bilan tashkil qilishga yordam beradi. Rolli o'yinlar – muammoli vaziyatlarni yechishda ijodiy yondashuvni kuchaytiradi. Klaster tuzish – talabalar orasida hamkorlikni mustahkamlash uchun qo'llanildi. Tadqiqot davomida so'rovnomalardan va kuzatuvlar orqali sifat va miqdoriy ma'lumotlar yig'ildi. Amaliy mashg'ulot natijalari o'quvchilarning ijodiy fikrlash ko'rsatkichlarini aniqlash uchun tahlil qilindi.

Zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishni, ularning fikrlash va ijodiy salohiyatini kengaytirishni ta'minlashga qaratilgan. Bu jarayon, ayniqsa, kelajakdagi mutaxassislar uchun muhim ahamiyatga ega, chunki ijodiy fikrlashning o'sishi, yangi g'oyalarni ishlab chiqish, qarorlar qabul qilishda yanada samarali bo'lishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga yo'naltirish uchun metodologik yondashuvlar va texnologiyalarni takomillashtirish talab etiladi. Shu maqsadda, ushbu ilmiy ishda kelajakdagi mutaxassislar ijodiy fikrlashga o'rgatishning samarali texnologiyalari va metodlari o'rganiladi. Bunda turli metodikalar, pedagogik amaliyotlar va ta'limda innovatsion yondashuvlar orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlash salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Maqsad, o'quvchilarda chuqur fikrlash va ijodiy qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishdir.

Bunda universitetning bilimlari bir-biriga yaqin bo'lgan 2 ta guruh "Boshlang'ich ta'lim" va "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishlari tanlab olindi. "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi "Tajriba guruhi" etib, "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi esa "Taqqoslash(nazorat) guruhi" etib belgilandi.(1-jadval).

1-jadval

"Sharq bolalar adabiyoti"ni o'qitishda kreativ o'yin topshiriqlaridan foydalanish tajriba-sinov jadvali.

Guruhlar	Guruh t/r	Talabalar soni	Dastlabki test so'rovi natijalari Talabalarning o'zlashtirishi % larda	Keyingi test so'rovi natijalari Talabalarning o'zlashtirishi % larda
Tajriba guruhi	"Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi	26	71%	81%
Taqqoslash guruhi	"Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi	28	71%	76%

Tajriba-sinov ishlari 2024 yilning oktabr-dekabr oylari davomida olib borildi. Tajriba guruhi “Sharq bolalar adabiyoti” fanining har bir darsida o‘tilayotgan mavzularni takrorlash, mustahkamlash va nazorat-baholash maqsadida talabalar individual, frontal va guruhlariga bo‘lingan tartibda “6 shlyapa” o‘yin topshiriqlarini bajarib borishdi. Taqqoslash guruhi sifatida tanlab olingan guruhda esa odatdagi tarzda darslarni tashkillashtirildi. Tajriba guruhidagi talabalar shu darajada faollashib ketdiki, ular har darsda yana o‘yin o‘ynashni taklif qila boshlashdi.

2024 yilning 7-dekabr kuni tajriba-sinov yakunlandi. Natijalar umumlashtirildi va matematik-statistik tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko‘ra taqqoslash guruhi ham, tajriba guruhida ham talabalarning “Sharq bolalar

adabiyoti”ning o‘zlashtirilishida ijobiy dinamika qayd etilgan. Ammo tajriba guruhining o‘zlashtirish darajasi ancha yuqori ekanligi aniqlandi. (1-diagramma)

Xulosa qilib aytganda, talabalarni mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka, izlanuvchanlikka, fanni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini oshishiga kreativ metodlardan foydalanish samarali usullardan biri ekanligi tajriba-sinov natijalari orqali aniqlandi.

Xulosalar

Tadqiqot ijodiy fikrlash texnologiyalarining samardorligini tasdiqladi. Talabalar orasida kreativ yondashuvlarni qo‘llash nafaqat o‘quv jarayonini boyitadi, balki ularni zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan mutaxassislar sifatida shakllantiradi.

1. Interfaol texnologiyalarni kengroq qo‘llash: Mashg‘ulotlarda “6 shlyapa metodi”, hikoya xaritasi va rolli o‘yinlar singari usullardan foydalanishni kengaytirish.

2. Ijodiy topshiriqlarni joriy qilish: Talabalarga loyihaviy ishlar va mavzuga oid mustaqil ijodiy vazifalar berish.


3. Ma‘naviy tarbiya uchun Sharq adabiyotidan foydalanish: Alisher Navoiy ijodini o‘rganish orqali axloqiy qadriyatlarini shakllantirish.

4. O‘quv jarayonini modernizatsiya qilish. Darslarni noan’anaviy shaklda tashkil etish uchun ilg‘or texnologiyalarni joriy qilish.

Mazkur maqola ijodiy fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha kelgusidagi tadqiqotlar uchun mustahkam nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilish.

1-diagramma

Tajriba-sinov natijalarining qiyosiy diagrammasi



Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni PF-5847 08.10.2019. Manba: www.gov.uz.
2. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari Toshkent, 2015. 72-92-betlar.
3. 8. Torrance E.P. / Developing creative thinking through school experience // - N.V.,1962. – p. 215.
4. Mahmudov A.X. Kompetentlik yondashuvining didaktik asoslari (2012).
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» Farmoni // https://lex.uz/docs/5841063.



Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
 НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
 SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Tahrir hay'ati:

Nizomiddin Mahmudov
 Yorqinjon Odilov
 Jabbor Eshonqulov
 Baxtiyor Daniyarov
 Abdurahim Nosirov
 To'liqin Saydaliyev
 Barno Buranova
 Zulxumor Mirzayeva
 Qozoqboy Yo'ldoshev
 Bahodir Jovliyev
 Salima Jumayeva
 Qayum Baymirov
 Manzar Abdulxayrov
 Alijon Safarov
 Husniddin Norqulov
 Odiljon Boynazarov
 Madina Nuriddinova
 Latifa Xudayqulova
 Barno Kadirova
 Nargiza Mirzayeva
 Guli Shukurova
 Yuldosh Raxmatov
 Ramziddin Abdusatorov
 Feruza Manukyan
 Gulchexra Keldiyorova
 Gulsanam Xolikulova
 Komiljon Qarshiyev
 Svetlana Umirova
 Xolmo'min Fayzullayev
 Nilufar Namazova
 Dilbar Niyazova
 Sayyora Halimova
 Shaxnoza Yunusova
 Nigoraxon Ro'zibayeva
 Tadjixon Sabitova
 Nigoraxon Ro'zibayeva
 Ra'no Mullaxodjayeva
 Oqila To'raqulova
 Maxpuza Karaxodjayeva

Axborot hamkorimiz:

**TIL VA ADABIYOT
 TA'LIMI**
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
 XALQ TA'LIMI VAZIRLIG'INING
 ILMIY-METODIK JURNALI

Bosh muharrir

Nargiza BERDIYEVA

Muharrirlar:

Bibimaryam RAHMONOVA
 Shabnam G'ANIYEVA
 Bonu DO'SMATOVA

Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
 Navoiy ko'chasi 30-uy.
 Telefon: (90) 322-87-16.

e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com



Ilmiy-metodik elektron jurnal

M U N D A R I J A

DOLZARB MAVZU

Dildora Kenjayeva.

Buyuk mutafakkirlarning pedagogik g'oyalari ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish texnologiyasi 2

Saodat Kambarova.

Adabiyot darslarida vizual ta'limning gnoseologik va empirik xususiyatlari . 4

Tadjixon Sabitova.

Oliy ta'lim tizimida Go'ro'g'li turkumidagi dostonlarni o'qitishning poetik xususiyatlari 7

Sulaymon Xaydarov.

Yoshlarda vatanparvarlik hissini tarbiyalashda "Boburnoma" asariga ishlangan miniatyuralarning ahamiyati 11

Durdona Rasulmuhamedova.

Huquqiy ta'limda badiiy adabiyotning o'rni 13

TILSHONOSLIK

Maftuna Baxtiyorova.

Badiiy asarlarda antroponim va toponimlarning konnotativlik ahamiyati 16

Zaxro Xalilova.

Ingliz, hindiy va o'zbek tillaridagi hisob so'zlarning tilshunoslikda o'rganilishi 19

Nigora Rahimova.

O'zbek tilshunosligida tibbiy terminlar tadqiqining asosiy yo'nalishlari 23

Nafosat Oromova.

Adabiy ta'limda badiiy asar tili ustida ishlashning o'ziga xos xususiyatlari 25

Madina Shakirova.

Sariq rangning madaniyatga xos semantik xususiyatlari 28

Gulnoza Narziyeva.

Frazeologik birliklarda milliy-madaniy kodning ifodalanilishi 30

Умида Пулатова.

Лингвометодические основы формирования у студентов-юристов навыков письменной речи 33

Валентина Хегай.

Системный стилистический анализ публицистического текста 36

Maxfurat Omonova.

Approaches and Methods in Language Teaching: CLT and TPR 41

ADABIYOTSHUNOSLIK

Kandilaxan Iusupova.

Sharlotta Brontening "Jeyn Eyr" romanida ijtimoiy hayot va individ o'rtasidagi kurash tasviri 44

Sobira Tirkasheva.

Zamonaviy nasrda ismlar poetikasi 47

Ro'zixon Mavlonova,

Javlonbek Mavlonov. "Husn bog'i" – qadd-u qomat ramzi yoxud "Husn bog'ining bo'lur erinish niholi o'zgacha" 49

Тимур Аюпов,

Гульчехра Давлятова. Художественный стиль, как способ конструирования реальности в романе раннего пелевина «Чапаев и пустота» 53

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qarori bilan Filologiya, Pedagogika hamda Psixologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir. <https://oak.uz/pages/4802>

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA

Nilufar Kadirova.

Tanqidiy tafakkurni anglash texnologiyasi:
Tajriba va mulohazalar..... 56

Feruza Tashpulatova.

Muloqot jarayonida tinglab tushunish
ko'nikmasini mashqlar sistemasi orqali
takomillashtirishning ahamiyati..... 60

Zebo Azizova. Sinfdan tashqari o'qish darslarini
innovatsion texnologiyalar asosida
tashkil etish mexanizmlari..... 63

Mashrabxon Umarova. Boshlang'ich
sinflarda interfaol metodlarni qo'llash orqali
samaradorlikka erishish..... 65

Ug'iloy Quldosheva.

Sinfdan tashqari ishlarda boshlang'ich
sinf o'quvchilarining ona tiliga
qiziqtirishning metodik imkoniyatlari 67

Наргиза Диёрова. Образовательные
технологии преподавания русского языка в
нефилологических вузах 69

Шавкат Нишанов. Вопросы о
лингводидактических основах формирования
профессиональной компетенции будущих
учителей русского языка 72

Shahnoza Gaffarova. The benefits of using
interactive technologies in the higher and secondary
education system..... 76

TADQIQOTLAR

Musallam Ortikova. Oilada o'smirlarda
xorijiy tillar asosida tolerantlikni rivojlantirish
mexanizmlari 79

Munavvar Fayzullayeva. Jon Ernest Steynbek
asarlarida "Ona" tushunchasi tavsifi 82

San'at Yusupov. Qoraqalpog'istondagi
etnonim, oykonim, fitonim, zoonim komponentli
nekrotoponimlar..... 84

Zebo Umarova. Ingliz tilida turizmga oid
leksikaning rivoji va o'rganilish tarixi..... 87

Madina Umirqulova. Til va madaniyat o'rtasidagi
o'zaro aloqalar 90

Umida Namazova. Jurnalistikaning paydo
bo'lishi va rivojlanishi: matbaachilikdan raqamli
davgacha..... 92

Sohiba Nasimova. Diminutivlarning lingvistik tabiati
xususida 94

Sadoqat Sotvoldiyeva. Samar Bonuning bir she'riga
lingvopoetik baho..... 96

Yulduz Safarbayeva. Turkiy tillarda "tuya"
komponentli frazemalarning
struktur-semantik xususiyatlari 99

Лола Кадирова.

Словообразовательная
структура игровой спортивной терминологии
в английском языке..... 101

Исмигуль Саттарова.

Метод контраста как основной инструмент
создания образов в романе у.
Теккеря «ярмарка тщеславия» 103

Наргиза Хайруллаева.

Культурно-лингвистические основы перевода
в преподавании испанского языка:
Теоретический анализ и практические
рекомендации 106

Гулбахор Асатова. Когнитивные подходы к
изучению немецкого языка:
теория и практика 108

Махбуба Садикова. Формирование
фразеологической компетенции у обучающихся
на уроках испанского языка 110

Махмуд Фатхуллохджоев. Об антонимах в
«Мертвых душах» Н. В. Гоголя 112

Нафиса Нематжонова.

Оминабону Хомиджонова. Нравственные
проблемы в пьесах 1970– 1980 годов 115

Эльвина Аджеминова. Современные тенденции
развития фразеологической стилистики..... 118

Асаль Эргашева. Концептуальная и
языковая картина мира в контексте
когнитивной лингвистики..... 121

Майде Фомина. Принципы построения
медицинских терминов..... 123

Saodatkhan Khodjaeva. Difficulties in translating
phraseological units, proverbs and sayings..... 126

Bakhodir Nematov. The semantics of relative
pronouns in subordinate clauses: a comparison
between english and uzbek..... 129

Almira Nigmatullina. Standardizing language.
The evolution of terminology 132

Nigora Hayitova. The means and methods of
teaching foreign languages 134

Ilhom Karimov. Sokhiba Normurodova. Several
handful data regarding the usage of adverbs..... 136

Mahzuna Polvanova. Cultural variations between
uzbek and english phraseological units with the
component expressing "money" 139

Sabina Mirbabaeva. Teaching and pedagogy in different types of schools with a focus on foreign languages 142

Nasiba Zaripbayeva. While integrating sociolinguistic factor esp for medical students..... 146

Gulnigor Yazdankulova. The effectiveness of Communicative Language Teaching (CLT) in the EFL context: a review of research and practice 150

Yayra Abduraimova. Title: generating elt materials design with ai opportunities and challenges 153

Dilshodjon TOSHPULATOV. How to classify the differences between accurateness and effortlessness in English language? 155

Dilrabo Bekmirzayeva. The Transformative power of imagination: Percy Byshe Shelley's vision for a better world 158

Farangis Axtamova. The history of epistolary genre in uzbek literature 161

Dilbar Ermetova. The concept of paremiological field in linguistics..... 164

PEDAGOGIKA

Lola Eliboyeva. Boshlang'ich sinflarda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar faolligini oshirishning psixologik, pedagogik xususiyatlari 166

Madina Baxramova. Pedagogika fanini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati 168

Aziza Axmedova. Oliy ta'lim muassasasida inklyuziv ta'limni rivojlantirish 170

Sevara Bobonazarova. Akmeologik yondashuv asosida talabalarni ijodiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash 172

Shohida Abdiyeva. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasb-hunarga qiziqtirishning ilmiy-nazariy asoslari..... 174

Timur Basharov. Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish metodikasi 176

Akbarali Turayev. Masala yechishga o'rgatish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tafakkurni rivojlantirish usullari 178

Nafisa Ahmatova. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy fanlarni o'qitishda kreativlikni rivojlantirish..... 180

Islambek Mambetnazarov. Akademik eshkak eshishda qayiq elementlarini to'g'ri sozlash orqali eshkak eshish texnikasini takomillashtirish 182

Muhammad Egamberdiyev. Kikboksing janglarida zarbalar berish aniqligi va uni ta'minlashda muvozanat saqlash turg'unligining o'rni..... 185

Shaxbozbek Zoirjanov. O'lchov birliklarining xronologik turlari 188

PSIXOLOGIYA

Gullola Raxmonova. Yangi o'zbekiston taraqqiyotida talaba yoshlarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini takomillashtirish..... 192

Farida Axmedova. Sog'lom shaxs hayotida psixologik xizmatning o'rni..... 194

Shaxlo Nurullayeva. O'smirlik davrining psixologik xususiyatlari..... 196

Farxod Nizomov. Xarakter va ramz yaratish: an'ana, o'ziga xoslik 198

KICHIK TADVIQOT

Nafisa Ibadova. Jamiyatda til va madaniyatning o'rni va vazifalari 201

Muyassar Yo'ldoshaliyeva, Nasima Abdullayeva, Yulduz Xoljurayeva. Tezaurus lug'atlarining rivojlanish evolyutsiyasi 203

Laylo Hayitmurodova. O'zbek xalq ertaklarida frazeologik birliklarning leksik – semantik tahlili..... 206

Abror G'afforov. Xrononim lug'atlarini tuzishga doir tamoyil va yondashuvlar 208

Gulnoza Suleymanova. Azim suyun she'riyatida folklor motivlarni o'rganish 210

Shalola Safartosheva. Qayg'usiz Abdolning "Vujudnoma" asari. Asarda uchraydigan tasavvufiy timsollar 213

Sitora Alxiyeva. Omon Matchon she'riyatida "Qalb" motivi 216

Mahliyo Xudoyberdiyeva. "Kecha va kunduz" romani badiiy matnidagi kodlar..... 218

Dilnura Avlaqulova. Usmon Azimning so'z qo'llash mahorati 221

Munira Shonazarova. "Oshiqnoma" turkumi dostonlaridagi she'riy parchalarning shakliy xususiyatlari..... 223

Mubina Rahmonova. Pirsal xalqaro baholash dasturi – boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligini oshirish vositasi sifatida: mazmun, mohiyat, maqsad 225

Gulrux Sattorova. Bobur ilmiy-ma'naviy merosining bugungi kundagi ahamiyati 228

Muattar Ubaydullayeva. Kasbga oid frazeologik birliklarning leksik semantik xoslanishi 230

Shoiraxon Solijonova. Bo'lajak mutaxassislarda kreativ fikrlash texnologiyasini takomillashtirishning ilmiy-amaliy tahlili..... 233